Hozirgi kunda rux kekini gidrometallurgik qayta ishlashdan oldin qizigan suv bug'i ishtirokida kuydirish yahshi natijalar bergan. Kekni suv bug'ida termik ishlov berish jarayoni birlamchi, oraliq va yakuniy mahsulotlar hosil bo'lishi bilan tasniflanadi. Sfaleritnin sezilarli oksidlanishi boshlang'ich haroratidan to  $900^{\circ}\text{C}$  gacha birlamchi rux oksidi ekanligi aniqlandi [5-12].

Termodinamik hisoblar natijasining ko'rsatishicha kekka suv bug'i ishtirokida termik ishlov berilganda rux sulfidi  $\text{ZnS}$  asosan  $\text{Zn O}$  ga; rux ferriti  $\text{ZnO Fe}_2\text{O}_3$  -  $\text{ZnSO}_4$  va  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  ga; mis  $\text{CuO}$  ga; temir sulfidlari  $\text{Fe}_2\text{O}_3$  ga aylanadi. Tadqiqot davomida turli metallarning eritmaga o'tish darajasiga suv bug'i ishtirokida termik ishlov berish haroratning ta'sirini o'rganadi.

Tajribalar  $500-950^{\circ}\text{C}$  haroratlar oralig'ida olib boriladi. Harorat  $900^{\circ}\text{C}$  bo'lganda suv bug'i ishtirokida termik ishlov berish sulfat kislotasi eritmasiga ruxning o'tish darajasiga ijobiy ta'sir qiladi, harorat  $900^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo'lganda suv bug'i bilan termik ishlov berishdan hosil bo'lgan mahsulotdagi rux va misning eritmaga o'tishi ortadi [9-16].

Rux keklarini gidrometallurgik qayta ishlash so'nggi yillarda keng tarqalayotgan jarayondir. Bu usullardan asosan getit va yarazit jarayonlar qo'llaniladi. Getit jarayoni hozirgi kunda Belgiyaning Balen shahridagi rux ishlab chiqarish zavodida qo'llaniladi. Bunda dastlab rux keki qayta ishlangan elektrolit bilan 6-8 soat davomida,  $95^{\circ}\text{C}$  haroratda tanlab eritiladi. Jarayon sulfat kislotasining qoldiq miqdori 50 g/l bo'lguncha davom ettiriladi. Olingan qo'rg'shin kumush keki tarkibida 25% Pb va 3-4% Zn bo'ladi. Shundan so'ng kek qo'rg'shin ishlab chiqarishga yuboriladi.

Yarazit jarayoni hozirgi kunda Norvegiyaning Oddo shahridagi rux ishlab chiqarish zavodida qo'llaniladi. Bu yerda rux keki 150-200 g/l sulfat kislota

eritmasida 80-90 °C da 4-6 soat davomida qayta ishlanadi. Qoldiq tarkibida asosan qoʻrgʻoshin sulfat, kremniy oksidi temir oksidlari va oltin, kumush boʻlib, eritmadan ajratib olinadi va qoʻrgʻoshin zavodiga yuboriladi. Jarayonning kamchiligi: eritmani qizdirish va sovitish uchun qoʻshimcha jihozlar ishlatilishi, yarazitning choʻktirish vaqtining koʻpligi [16-20].

Gematit jarayoni Yaponiyaning “Akita zink” firmasining Induzima zavodi sharoitida rux keki qayta ishlanadi. Gematit jarayonida rux keklari avtoklavda qayta ishlanadi. Bunda harorat 110-180 °C ni tashkil etib, 150-180g/l konsentratsiyali sulfat kislotasida tanlab eritiladi. Sulfat kislotasi konsentratsiyasi 40-50g/l boʻlguncha tanlab eritiladi.

Bu jarayon sanoatda asosan ikkita korxonada ishlatiladi: Yaponiyaning “Akita Zink” firmasining induzima zavodida va Germaniyaning “Datelh” zavodida qoʻllaniladi.

Keklarni gematit usulida qayta ishlaganimizda choʻkmaga koʻp miqdorda temir oʻtadi. Gematit jarayoni boshqa jarayonlardan avzalligi shundaki koʻp miqdordagi temirni ajratish bilan birga yuqori temir tarkibli mahsulot olinadi va poʻlat eritish zavodiga yuboriladi. Jarayonning kamchiligi shundan iboratki jarayonning murakkabligi va yuqori qiymatli dastgoh avtoklavning ishlatilishidir. Gematit jarayonining kimyoviy tarkibi quydagicha: Zn 0,8%; Fe 63,5%; S 1,5%; Pb 0,02%; As 0,03% [18-21].

Yuqorida biz rux keklarini gidrometallurgik qayta ishlashning bir nechta usullarini koʻrib chiqdik. Bunda koʻrinib turibdiki rux keklarini gematit usulida qayta ishlash samaraliroqdir.

Yana bir rux ishlab chiqarish jarayonidan hosil boʻlgan texnogen chiqindilaridan biri bu kekni velslash usulidan hosil boʻlgan klinker chiqindisidir. Klinkerni qayta ishlash boʻyicha ham juda koʻp olimlar tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda. Klinker murakkab tarkibli texnogen chiqindi hisoblanib, tarkibida turli xil rangli metallardan tashqari nodir va noyob metallar mavjud. Klinkerda metallarning foiz miqdori quyidagicha (%): 2,2- Cu, 0,51-Pb, 2,1-Zn, 0,01-Cd, 19,53-Fe, 0,155-As, 8,39-S, 29,55-C, 2,1-Ba, 0,01-H<sub>2</sub>O, 16,42-SiO<sub>2</sub>, 6,06-CaO, 2,7-MgO, 4,08-Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, 0,47-Mn<sub>2</sub>O<sub>3</sub>, 0,21-TiO<sub>2</sub>, 3,2 gr/t Au, 260,27gr/t Ag [2].

Bu tarkibdan koʻrinib turibdiki metallarning koʻp miqdori klinker tarkibiga oʻtib qolmoqda. Bu muammolarni hal qilishni hali deyarli yechimi topilgani yoq. Klinkerni qayta ishlash boʻyicha ilmiy tadqiqotlar natijasida metallarni kompleks ajratib olish tadqiqotlar amalga oshirilgan va turli xil usullar ishlab chiqilgan. Bunda quydagi usullardan foydalanilgan: gravitatsiya, flotatsiya, elektromagnit jarayonlari,

gidrometallurgik va pirometallurgik jarayonlardir. Bundan tashqari turli xil erituvchilar bilan ham tanlab eritish jarayonlari amalga oshirilgan lekin bu amaliyotda hali qoʻllanilmagan.

Nagirinyak. F.I. Okunev.A.I. Shugol. L.S. Gagarin. E.S. va Fridman. S.E. lar klinkerni elektromagnit boyitish usulini oʻrganganlar. Ular klinkerda mis va temir metall holda ekanligini aniqladi. Bunda boshlangʻch klinkerdagi mis miqdori 4,4 % va - 0,15 mm gacha yanchishdan magnitli konsentrat ( 6,2% Cu )olindi, shunda misni ajratib olish 47% boʻldi va qoldiqdan (3,5% Cu) mis ajratib olish 53%; magnitli seperatsiyada temirni ajratib olish 82%ni tashkil qildi [12].

Klinkerni magnitli separatsiya yordamida qayta ishlanganda undan uchta mahsulot hosil boʻladi. Bular:magnitli, magnit boʻlmagan va oraliq mahsulot. Magnitli mahsulotni temir konsentrat sifatida ishlatsa boʻladi. Oraliq mahsulot chiqishi 40-70 % ni tashkil etadi va yanchilib, flotatsiya usulida boyitiladi. Magnit boʻlmagan mahsulot esa koks. Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki klinkerni kompleks qayta ishlash avzalloqdir. Klinkerni kompleks qayta ishlashning avzalligi shundagi bunda bir nechta metallarni ajratib olish imkonining mavjudligi, kamchiligi esa jarayonning koʻpligi.

Rux ishlab chiqarish chiqindilardan metallarni foizini kamaytirish uchun kuyindini tarkibidagi zararli metallarni ajratib olish usullarini oʻylab toppish kerak.

Kek va klinkerdan metallarni ajratib olishda qiyinchilik tugʻdiradigan asosiy metallar temir va kremniydir. Bular rux va boshqa rangli metallarga birikib murakkab modda hosil qiladi, bu esa metallarni ajratib olishni qiyinlashtiradi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki tanlab eritish jarayonidan hosil boʻlgan keklarni suv bugʻi ishtirokida qayta ishlash samaraliroqdir. Sababi bunda asosan yoqilgʻining sarfi ancha tejaladi va keyingi jarayonlarni borishiga ijobiy taʼsir qiladi. Kekni suv bugʻi yordamida qayta ishlanganda rux sulfidi ZnS asosan ZnO koʻrinishiga oʻtadi; rux feritlari esa ZnSO<sub>4</sub> va Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ga; mis CuO ga; temir sulfidlari esa Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ga oʻtadi. Kekga suv bugʻi bilan ishlov berilgandan qolgan kekni gematit usulida qayta ishlash mumkin. Kekni gematit usuli bilan qayta ishlanganda temirning koʻp miqdori choʻkmaga tushadi buning avzalligi metall holidagi temirni ajratib olishda. Kamchiligi esa jarayonda qimmatbaho avtoklavning ishlatilishida.

### **REFERENCES**

1. Xoliqulov D.B, Xaydaraliyev X.R, Qarshiyev H. K. “Olmaliq KMK” AJ Rux ishlab chiqarish zavodi sharoitida rux keklarini gidrometallurgik qayta ishlash

imkoniyatlarini tahlil qilish. //Journal of Advances in Engineering technology vol. 2(2), 2020.

2. Абдурахмонов С., Тошкодирова Р.Э., Технология переработки клинкера цинкового производства //Монография –Навои: А.Навоий, 2020.
3. Тошкодирова, Р. Э., & Абдурахмонов, С. (2020). Переработка клинкера-техногенного отхода цинкового производства. *Universum: технические науки*, (11-1 (80)).
4. Kholiqulov, D., Samadov, A., Boltaev, O., & Akhtamov, F. (2018). THE RESULTS OF LABORATORY RESEARCH PROCESSING OF ZINC CAKE ZINC PLANT JSC" ALMALYK MMC". *European Science Review*, 1(11-12), 96-99.
5. Холикулов Д.Б., Якубов М.М., Масидтков Э.М., Ёкубов О.М., Термодинамические исследования при извлечении ценных компонентов из кека цинкового производства нетрадиционным методом. *Kompozitsion materiallar. IImiy texnikaviy va avaliy jurnali*, 2018, № 1. – Стр. 6-8.
6. Холикулов Д.Б., Якубов М.М., Расулова С.Н, Гуро В.П., Эффективные способ переработки цинкового кека. *Узбекский химический журнал*. 2018.-№4. – Стр. 25-30.
7. Холикулов Д.Б., Якубов М.М., Масидтков Э.М., Мухамеджанова Ш., Термодинамические исследования при извлечении ценных компонентов из кека цинкового производства нетрадиционным методом. *Композиционные материалы. IImiy- texnikaviy va avaliy jurnali*, №4, 2018. – Стр. 37-40.
8. Валиев Х.Х.и Романтеев.Ю.П.и *Металлургия цинца и сопутствующих металлов*, Алматы, 2000.
9. Кляйн С.Э., Козпов П.А., Набойченко С.С., Извлечение цинка из рудного сырья. Екатеринбург УГТУ-УПИ. 2009. – 491стр.
10. Юн А.Б. Захарьян. С.В. Чен. В.А. *Гидрометаллургическая переработка кека автоклавного выщелачивания цинкового концентрата*. ТОО «КазГидроМедь» НИЦИТ.
11. Садыков С.Б. Болтон Г.Л. Макконахи Э. Набойченко С.С. Укрупненные испытания автоклавного серноокислотного выщелачивания низкосортных цинковых концентратов // *Цветная металлургия*, 2006. № 10. Стр. 9-14.
12. Санакулов К.С. *Научно- технические основы переработки отходов горно – металлургического производства*. –Ташкент: Изд-во Фан АНРУз. 2009. - 404 стр.

13. Носиров, Н. И., Косимова, М. Н., & Носирова, М. Х. (2021). Извлечение Ценных Компонентов Флотационным И Магнитным Методами Из Хвостов Золотоизвлекательных Фабрик. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 2(4), 212-220.
14. Nosirov, N. (2021). TAKING SAMPLES OF STRAIGHT TAILS OF THE TAILS OF THE GOLD EXTRACTION FACTORY. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.
15. Носиров, Н. И. (2021). АНАЛИЗ ВЫПОЛНЕННЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ СПОСОБОВ ИЗВЛЕЧЕНИЯ ЗОЛОТА И СЕРЕБРА ИЗ ХВОСТОВ ЗОЛОТОИЗВЛЕКАТЕЛЬНЫХ ФАБРИК. *Scientific progress*, 1(6).
16. Носиров, Н. И. (2021). ИССЛЕДОВАНИЙ СПОСОБОВ ИЗВЛЕЧЕНИЯ ЗОЛОТА И СЕРЕБРА ИЗ ХВОСТОВ ЗОЛОТОИЗВЛЕКАТЕЛЬНЫХ ФАБРИК. *Scientific progress*, 1(6).
17. Носиров, Н. И. (2021). Рекомендуемая схема переработки хвостов чадакской золотоизвлекательных фабрик. *Scientific progress*, 1(6).
18. Samadov, A., Nosirov, N., Qosimova, M., Muzafarova, N., & Almalyk, B. (2021). Processing of layout tails of gold-extracting factories. *Збірник наукових праць SCIENTIA*.
19. Носиров, Н. И. (2021). Изучение Обогащаемости Золотосодержащих Хвостов. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES*, 2(4), 11-16.
20. Самадов, А., Носиров, Н., & Жалолов, Б. (2021). Изучение минералогический состав хвостов Чадакской зиф. *InterConf*.
21. Самадов, А., & Носиров, Н. (2021). Способ извлечения ценных компонентов (золото, серебро) из хвостов ЗИФ. *InterConf*.



## **ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИҲАЛАРНИ СИНДИЦИЯЛИ КРЕДИТЛАШ АМАЛИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

**Қодиров О.М.**

БМА тингловчиси

### **АННОТАЦИЯ**

*Халқаро тажрибадан маълумки, синдицияланган кредитлар бирламчи бозори иштирокчилари кўпинча тижорат банклари ҳисобланади. Улар ҳам ташкилотчи ҳам молиявий ресурсларни тақдим этувчи иштирокчи-кредитор функцияларни бажаради.*

***Калит сўзлар:** тижорат, инвестиция, синдиция, International Finance, BofA Securities компанияси.*

### **ABSTRACT**

*According to international experience, the allocated loans were made by commercial banks on the street of primary market participants. What unites them is the implementation of participant-credit functions that also provide financial resources.*

***Keywords:** commercial, investment, syndica, International Finance, BofA Securities companies.*

### **КИРИШ**

Синдицияланган кредитлар иккиламчи бозорида ҳолат бир оз бошқача: синдицияланган кредитдаги улушини қайта сотиш чоғида банклар ўрнини бошқа молия муассасалар эгаллайди. Иккиламчи бозорда тижорат банклари ва нобанк тижорат ташкилотлар йўқ, бу ерда инвестицион банклар фаолият кўрсатиб, улар 1990 йилларда синдицияланган кредитларни тиклашдан максимал фойда олган. 2000 йиллар бошида синдицияланган кредитлар иккиламчи бозорида инвестицион банклардан ташқари International Finance Corporation ёки Inter-American Development Bank каби кўп қиррали агентликлар ҳам фаол иштирок этиб, уларнинг иштироки кредит хатарини хусусий ва давлат сектордаги инвесторлар ўртасида тақсимлашга имкон беради .

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Ўзбекистон синдициялаштирилган кредит рискинни бошқаришда хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганиш ва умумлаштириш муҳим ўрин эгаллайди. Ўзбекистон учун Осиё синдикатлар бозори ҳаракати ҳам аҳамиятли

ва яна МДХ давлатлари ҳамда банк тизими жихатдан яқин бўлган бошқа давлатлар тажрибасини ўрганиш мақсадга мувофиқ бўлади. Осиё синдициялаштирилган кредит бозорини ўрганиш йирик етакчи банклар, яъни синдициялаштирилган кредитлар ташкил қилувчи банклар билан алоқалар ўрнатиш ҳамда синдициялаштирилган кредитлар беришда иштирок этиш, республикада ушбу кредитни ривожлантиришга замин яратади.

Республикада тижорат банкларини синдициялаштирилган кредитлар бериш механизми инфраструктурасини шакиллантиришда давлат иштирокини пастлиги муаммоларни келтириб чиқаради шуларни этиборга олган ҳолда бу муаммоларни бартараф этиш учун жаҳон тажрибасидан кенгроқ ва кўпроқ фойдаланишимиз зарур, бунинг мисоли тариқасида жадвалда кўрсатилган банкларнинг кўришимиз мумкин.

Қуйидаги жадвал маълумотларида 2019 йилда жаҳон миқёсида синдикатлаштирилган кредитларнинг умумий ҳажми 14,71 фоизга камайиб, 4,4 трлн. АҚШ долларини, битимларнинг умумий сони эса 9,11 фоизга камайиб, 8164 та битимни ташкил қилди. Жами Global Bridge кредитлари ҳажми ўтган йилга нисбатан 10,51% га камайиб, 293,3 млрд. АҚШ долларини ташкил этди, битимларнинг умумий сони эса 11,88% га камайиб, 141 тага етди.

VofA Securities компанияси 2019 молия йилининг якунлари бўйича бозор улушининг 9,63 фоизини эгаллаган ҳолда синдикатлаштирилган кредитлар бозорининг энг яхши консорциум ташкилотчиси бўлди. Банк ушбу даврда 1270 та битимда воситачи вазифасини бажарган. Иккинчи ва учинчи ўринларни бозор улушининг мос равишда 9,17% ва 5,70% билан JP Morgan ва Citi эгаллашди.

### **1-жадвал**

#### **Синдициялаштирилган кредитлар бўйича дунёнинг етакчи компаниялари<sup>9</sup>**

Компаниялар	2018 йил			2019 йил			
	Олдинги ўрни	Бозордаги улуши	Бозордаги улуши ўзг.%да	Бозордаги ўрни	Бозордаги улуши (%да)	Ҳажми (млн. дол.)	Битимлар сони
VofA	2	9,299	0,331	1	9,630	366,69	1,270

<sup>9</sup> Bloomberg Global Syndicated Loans League Tables FY 2019. <https://www.bloomberg.com/press-releases/202001-02/bloomberg-global-syndicated-loans-league-tables-fy-2019>

Securities						2	
JP Morgan	1	10,232	-1,062	2	9,174	349,315	1,214
Citi	3	5,832	-0,136	3	5,696	216,907	747
Wells Fargo	4	5,394	0,271	4	5,665	215,725	824
Mitsubishi UFJ Financial Group	9	3,062	0,559	5	3,621	137,884	453
Barclays	6	3,316	0,243	6	3,559	135,535	514
BNP Paribas	8	3,075	0,145	7	3,220	122,624	549
RBC Capital Markets	7	3,273	-0,543	8	2,730	103,944	447
Morgan Stanley	15	1,935	0,792	9	2,727	103,828	289
HSBC	11	2,602	0,064	10	2,666	101,517	501
Жами		100%			100%	3807842	6,616

Синдицияланган кредитлар иккиламчи бозорининг негизини авваломбор йирик корпоратив қарз олувчиларнинг кредитлар улушлари ташкил этади.

Синдицияланган кредитлар иккиламчи бозорида иккита турдаги битимни ажратиб олиш мумкин: ҳуқуқларни бир шахсдан иккинчи шахсга бериш ва иштирок этиш.

Ўзбекистон синдициялаштирилган кредит рискинни бошқаришда хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганиш ва умумлаштириш муҳим ўрин эгаллайди. Ўзбекистон учун Осиё синдициялашган кредитлар бозори ҳаракати ҳам аҳамиятли ва яна МДХ давлатлари ҳамда банк тизими жихатдан яқин бўлган бошқа давлатлар тажрибасини ўрганиш мақсадга мувофиқ бўлади. Осиё синдициялаштирилган кредит бозорини ўрганиш йирик етакчи банклар, яъни синдициялаштирилган кредитлар ташкил қилувчи банклар билан алоқалар

ўрнатиш ҳамда синдициялаштирилган кредитлар беришда иштирок этиш, республикада ушбу кредитни ривожлантиришга замин яратади.

### **ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР**

Миллий иқтисодиётимизга хорижий инвестицияларни янада фаол жалб қилишни таъминлаш учун бизнинг фикримизча қуйидаги йўналишларда ислохотларни фаоллаштириш мақсадга мувофиқ:

- мамлакатда молия бозори институтларини ривожлантириш, фонд бозорини кенгайтириб бориш, корпоратив бошқарув тизимининг ривожланишига кенг шароитлар яратиш, халқаро суверен кредит рейтинглари қаторидан жой олиш;

- иқтисодиётга инвестицияларни фаол жалб қилишда инвестиция агентликлари, инжиниринг компаниялари каби бозор механизми институтларидан кенг фойдаланишни рағбатлантириш орқали давлатнинг инвестицияларни жалб қилишдаги масъулиятини хусусий секторга ўтказиб бориш;

- республика даражасидаги ривожлантириш дастурлари ва минтақавий инвестиция дастурларининг ўзаро уйғунлигини таъминлаш орқали инвестиция лойиҳаларини амалга оширишда вилоят, шаҳар, туман ҳокимликлари масъулиятини ошириш, уларнинг инвестиция сиёсатини амалга оширишдаги ваколат ва имкониятларини янада кенгайтириш;

- ҳудудлар нисбий устунликларини ҳисобга олган ҳолда, хомашёни иккиламчи ва учламчи қайта ишлаш, меҳнат сиғимли ва илмталаб тармоқларни ривожлантиришга мавжуд барча захиралардан самарали фойдаланиб инвестициялар жалб қилишни рағбатлантириш.

### **REFERENCES**

1. Жамалова Г.Б. «Налоговая политика на макро и микроэкономическом уровнях, ее сущность и принципы разработки». International scientific and technical journal. Innovation technical and technology Vol.1, №.4. 2020.
2. Стиглиц Дж. Экономика государственного сектора/Дж. Стиглиц; пер. с англ. – М.: МГУ, 1997 – с. 73.
3. Федорова Е.А., Левина В.В., Печникова Т.В. Межбюджетные трансферты как инструмент Финансового регулирования доходов муниципальных бюджетов в Тульской области. Финансы и кредит. 29 (233) – 2006. ст. 18-25.
4. Мишина С.В. Налоговое регулирование доходов местных бюджетов. Бухгалтерский учет в бюджетных и некоммерческих организациях. 4(244)-2010. Ст.35-40.

## **ELLIPTIK EGRI CHIZIQDA RATSIONAL KOORDINATALI NUQTALARNI ANIQLASH UCHUN TAYYORLANGAN MUHITNING ALGORITMI**

**Raxmonova Nilufarxon Vaxobjon qizi**

Qo‘qon universiteti Biznes kafedrası o‘qituvchisi.  
+998903441251. [rahmonovanilufar406@gmail.com](mailto:rahmonovanilufar406@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada elliptik egri chiziqning nuqtalarini qo‘shish usullari bayon etilgan. EECh da ratsional koordinatali nuqtalarini Viyet teoremasi yordamida hisoblashning samarali usuli taklif etilgan. Ushbu usullar misollar yordamida ko‘rsatib o‘tilgan va elliptik egri chiziqda ratsional koordinatali nuqtalarni aniqlash uchun tayyorlangan muhitning algoritmi PHP dasturlash tili orqali keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *elliptik egri chiziq, ratsional nuqtalar, kesuvchi, simmetrik nuqta, Viyet teoremasi, urinma.*

### **ABSTRACT**

*This article describes how to add points to an elliptical curve. An effective method of calculating rational coordinate points using Viet's theorem has been proposed in the EC. These methods are illustrated with example and the algorithm of the prepared environment for determining rational coordinate points on an elliptical curve is presented using the PHP programming language.*

**Keywords:** *elliptical curve, rational points, intersection, symmetric point, Viet's theorem, experiment.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В этой статье описывается, как добавить точки к эллиптической кривой. В ЭЭК был предложен эффективный метод вычисления рациональных координатных точек с использованием теоремы Виета. Эти методы проиллюстрированы примерами, алгоритм подготовленной среды для определения точек рациональных координат на эллиптической кривой представлен с использованием языка программирования PHP.*

**Ключевые слова:** *эллиптическая кривая, рациональные точки, пересечение, симметричная точка, теорема Виета, эксперимент.*

### **KIRISH**

Hozirda elliptik egri chiziqlarning axborot texnologiyalari sohasiga tadbiri keng qo‘llanilmoqda. Elliptik egri chiziqda ratsional koordinatali nuqtalarini

aniqlash masalasi haligacha dolzarbligicha qolmoqda.

Ushbu maqolada elliptik egri chiziq va uning nuqtalari haqida umumiy tushunchalar, hamda ularga bog'liq bo'lgan amallar bilan tanishiladi.

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Elliptik egri chiziq deb, quyidagi Veyershtress tenglamasi deb ataluvchi tenglik orqali aniqlanuvchi

$$y^2 + a_1xy + a_3y = x^3 + a_2x^2 + a_4x + a_6 \quad (3.1)$$

egri chiziqqa aytiladi, bu yerda  $a_1, a_2, a_3, a_4, a_6$  – haqiqiy sonlar. [1. 204-b]


Biz quyidagi,

$$y^2 = x^3 - 22x + 4 \quad \text{elliptik egri chiziqda } P(0;2), Q(-1;5) \text{ nuqtalar}$$

mavjudligini bilganimiz holda uning boshqa ratsional koordinatali nuqtalarini aniqlaylik.

Buning uchun, bu nuqtalar orqali to'g'ri chiziq o'tkazaylik. U holda, o'tkazilgan chiziq, egri chiziqni uchinchi nuqtada kesib o'tadi. Bu  $B(x_3, y_3)$  nuqta  $Ox$  o'qiga simmetrik ko'chiriladi va hosil bo'lgan  $B'(x_3, -y_3)$  nuqta,  $P$  va  $Q$  nuqtalarning elliptik egri chiziq ustida yig'indisi deb e'lon qilamiz:

$$B(x_3, -y_3) = P(x_1, y_1) + Q(x_2, y_2)$$



**Tasdiq.** Agar  $P(x_1, y_1), Q(x_2, y_2) \in E$  nuqtalar ratsional koordinatali bo'lsa, u holda  $B(x_3, y_3)$  nuqta koordinatalari ham ratsional bo'ladi. [1.209-b]

**Isboti.**  $P(x_1, y_1), Q(x_2, y_2) \in E$  nuqtalar orqali o'tuvchi to'g'ri chiziqning umumiy ko'rinishi:

$$y = kx + d$$

ifodaga ega bo'lib, bu yerda  $k, d$  - koeffisientlar.  $P(x_1, y_1), Q(x_2, y_2)$  - nuqtalar  $y = kx + d$  chiziqqa tegishli. Bundan esa:

$$\begin{cases} y_1 = kx_1 + d \\ y_2 = kx_2 + d \end{cases}, \quad y_1 - y_2 = k(x_1 - x_2) \text{ va } k = \frac{y_1 - y_2}{x_1 - x_2}$$

$$d = y_1 - kx_1 = y_1 - \left(\frac{y_1 - y_2}{x_1 - x_2}\right) \cdot x_1 = \frac{y_2 x_1 - y_1 x_2}{x_1 - x_2}$$

ekanligi kelib chiqadi.

$y = kx + d$  to'g'ri chizig'i tiklab olindi. Demak,  $y = 2 - 3x$  to'g'ri chiziq  $P$  va  $Q$  nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq. Keyingi qadamda  $y = kx + d$  ifoda

$$y^2 = x^3 + ax^2 + bx + c,$$

elliptik egri chiziqning tenglamasiga qo'yilsa, to'g'ri chiziq va elliptik egri chiziqning 3- nuqtasini topa olamiz, ya'ni:

$$(kx + d)^2 = x^3 + ax^2 + bx + c,$$

$$x^3 + (a - k^2)x^2 + (b - 2kd)x + c - d^2 = 0,$$



$$(2 - 3x)^2 = x^3 - 22x + 4$$

$$x^3 - 9x^2 - 10x = 0$$

u holda uchinchi tartibli tenglama uchun Viyet teoremasiga ko'ra:

$$x_1 + x_2 + x_3 = k^2 - a = 9$$

tenglik o'rinli bo'lib, bu oxirgi tenglikda  $x_1, x_2$  ratsional sonlar bo'lganligi uchun,  $x_3$  ham ratsional son bo'ladi. Xuddi shuningdek,

$$y_3 = kx_3 + d$$

ifodaga ko'ra,  $y_1$  sonining ham ratsional ekanligi kelib chiqadi.

Bu keltirilgan tasdiq isbotidan esa  $P + Q$  yig'indi nuqta koordinatasini hisoblash formulasi keltirilib chiqariladi.  $P + Q$  nuqta  $R$  nuqtani  $Ox$  o'qiga simmetrik ko'chirishdan hosil bo'lar edi. Natijada, yig'indi nuqtaning koordinatalari  $(u, v)$  deb belgilansa, bu koordinatalar quyidagi formulalar orqali topiladi, chunki,  $u = x_3, v = -y_3$ .

$$u = k^2 - a - x_1 - x_2,$$

$$v = -ku - d = -(k(u - x_1) + y_1)$$



$$u = 9 - 0 + 1 = 10 \quad v = -(2 - 3 \cdot 10) = 28$$

Demak,  $y^2 = x^3 - 22x + 4$  elliptik egri chiziqda mavjud 3- ratsional


$B(10,28)$  nuqta topildi. Endi, umumiy holda,  $B$  nuqtani aniqlaylik. Buning uchun, yuqoridagi formulada  $k$  koeffisientning qiymati o'rniga qo'yilsa, ushbu:

$$\begin{cases} v = \frac{y_1 - y_2}{x_1 - x_2} (-u + x_1) - y_1 \\ u = \left(\frac{y_1 - y_2}{x_1 - x_2}\right)^2 - (a + x_1 + x_2) \end{cases}$$


tengliklarga ega bo'linadi, bu yerda  $x_1 \neq x_2$ .

$P + P = ?$  qanday amalga oshirilishi haqida to'xtalaylik. Buning uchun elliptik egri chiziqdagi  $P$ -nuqta orqali urinma to'g'ri chiziq o'tkaziladi. Bu urinma elliptik egri chiziq grafigidagi ikkinchi qismni (giperbola qismida) biror nuqtada kesib o'tadi. Ana shu kesib o'tgan nuqtani  $Ox$ -o'qiga nisbatan simmetrik

ko'chiriladi va bu nuqta  $2P$  deb elon qilinadi: So'ngra,  $3P$ -ni topish uchun,  $3P = P + 2P$ , shu kabi  $4P = P + 3P$ ,  $5P = 4P + P$  va hokazolar amalga oshiriladi.



Har doim ham  $P(x_1, y_1)$  va  $Q(x_2, y_2)$  nuqtalar orqali o'tuvchi to'g'ri chiziq elliptik egri chiziqni uchinchi nuqtada kesib o'tavermaydi. Masalan,  $P(x_1, y_1)$  va  $Q(x_1, -y_1)$  nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq  $Ox$ -o'qiga perpendikulyar bo'lib, u elliptik egri chiziqni uchinchi nuqtada kesib o'tmaydi:



Bunday holda o'tkazilgan to'g'ri chiziq elliptik egri chiziqni cheksizlikda kesib o'tadi deb qabul qilinib, cheksizlikdagi barcha nuqtalar bitta nol nuqtaga



birlashtirilgan deb hisoblanadi, ya'ni cheksizlikdagi barcha nuqtalar, elliptik egri chiziq nuqtalari ustida aniqlangan qo'shish amaliga nisbatan, haqiqiy sonlarni qo'shishdagi nol qiymati kabi xossaga ega.

Bevosita hisoblashlar bilan ko'rsatish mumkinki, elliptik egri chiziq nuqtalarini qo'shish amali Abel gruppasini tashkil etadi, yani elliptik egri chiziqqa tegishli bo'lgan  $a, b, c$  -nuqtalar uchun:

- 1) kommutativlik  $a + b = b + a$  ;
- 2) assotsiativlik  $(a + b) + c = (b + c) + a$  ;
- 3) nol elementining mavjudligi  $a + E = a$  ;
- 4) teskari (qarama - qarshi) elementning mavjudligi  $a + (-a) = E$

Abel gruppasining aksiomalari o'rinlidir. [2. 116b]

Agar  $x_1 = x_2$  bo'lsa, u holda kesuvchi to'g'ri chiziq o'rniga urinma o'tkazilib, quyidagi formulalar keltirilib chiqariladi:

$$\begin{cases} u = -2x_1 - a + \frac{(3x_1^2 + 2ax_1 + b)^2}{4y_1^2} \\ v = -y_1 - \frac{3x_1^2 + 2ax_1 + b}{2y_1}(u - x_1) \end{cases}$$

Shunday qilib, hech bo'lmasa bitta  $P$  ratsional nuqta elliptik egri chiziqdagi nuqta bo'lsa, u holda yuqoridagi formula yordamida  $2P, 3P, 4P, \dots$  va hokazolarni topishimiz mumkin bo'ladi.

**Misol.** Elliptik egri chiziq  $y^2 = x^3 - 13$ , unga tegishli nuqta  $P(17; -70)$  berilgan bo'lsa, bu nuqtaning yig'indisini ifodalovchi nuqtalar topilsin.  $2P=?$ ,  $3P=?$ ,  $4P=?$ ,  $5P=?$

**Yechish.** (1) va (2) formuladan foydalanilsa,

$$y^2 = x^3 + ax^2 + bx + c, \quad a = 0, b = 0, c = -13$$

$$u = -2x_1 - a + \frac{(3x_1^2 + 2ax_1 + b)^2}{4y_1^2} = -2 \cdot 17 - 0 + \frac{(3 \cdot 17^2 + 2 \cdot 0 \cdot 17 + 0)^2}{4 \cdot (-70)^2} \\ = 4 \frac{6889}{19600}$$

$$v = -y_1 - \frac{3x_1^2 + 2ax_1 + b}{2y_1}(u - x_1) = -8 \frac{906837}{2744000},$$

**Javob.**  $2P = \left( 4 \frac{6889}{19600}; -8 \frac{906837}{2744000} \right).$

Demak, elliptik egri chiziqda yotuvchi kamida bitta ratsional nuqtani bilganimiz holda qolgan istalganicha ratsional nuqtalarni topish imkoniyati mavjud. Tanlab olingan elliptik egri chiziqda tartibi yetarli katta bo'lib, bu tartibni aniqlovchi

son tub son bo'lishi samarali amaliy tadbirlarga asos bo'ladigan ratsional koordinatali nuqtalarni topish masalasi yechimi muhimdir. shu masala yechimiga bag'ishlangan adabiyotlar ro'yhatida keltirilgan [1-5] manbaalarda berilgan.

Elliptik egri chiziqda ratsional koordinatali nuqtalarni aniqlash uchun tayyorlangan muhitning algoritmi:

```
<?php include_once('config.php');?>  
<?php  
include_once('include/nav.php');  
include_once('include/header.php');  
?>
```

```
<!-- asosiy qism -->  
<div class="container">  
  <div class="row">  
    <div class="col-lg-6 col-md-6 col-sm-8 col-xs-10 col-lg-offset-3 col-md-  
offset-3 col-sm-offset-2 col-xs-offset-1">  
      <?php  
      if(isset($_POST['y1'])):  
        $a = htmlspecialchars($_POST['a']);  
        $b = htmlspecialchars($_POST['b']);  
        $c = htmlspecialchars($_POST['c']);  
        $x1 = htmlspecialchars($_POST['x1']);  
        $y1 = sqrt(pow($x1,3)+$a*(pow($x1, 2))+$b*$x1+$c);  
        $x2 = -2*$x1-$a+(pow(((3*pow($x1, 2)+2*$a*$x1+$b), 2)/pow((2*$y1), 2)));  
        $y2 = -$y1-(((3*pow($x1, 2)+2*$a*$x1+$b)/(2*$y1))*($x2-$x1);  
        $x3 = pow(((($y1-$y2)/($x1-$x2)), 2)-($a+$x1+$x2);  
        $y3 = (((($y1-$y2)/($x1-$x2))*($x1-$x3))-y1;  
        $x4 = pow(((($y1-$y3)/($x1-$x3)), 2)-($a+$x1+$x3);  
        $y4 = (((($y1-$y3)/($x1-$x3))*($x1-$x4))-y1;  
        $baza->query("INSERT INTO 'hisoblash'  
VALUES(null, '$a.', '$b.', '$c.', '$x1.', '$y1.', '$x2.', '$y2.', '$x3.', '$y3  
.', '$x4.', '$y4.')) or die($baza->error);  
        header("Location:view.php");  
        exit;  
      ?>
```

```
<?php else: ?>
    <form action="" method="post">
    <div class="form-group">
        <label for="exampleInputEmail1">A sonini kiriting</label>
        <input type="text" class="form-control" id="exampleInputEmail1"
placeholder="A" required name="a">
    </div>
    <div class="form-group">
        <label for="exampleInputEmail1">B sonini kiriting</label>
        <input type="text" class="form-control" id="exampleInputEmail1"
placeholder="A" required name="b">
    </div>
    <div class="form-group">
        <label for="exampleInputEmail1">C sonini kiriting</label>
        <input type="text" class="form-control" id="exampleInputEmail1"
placeholder="A" required name="c">
    </div>
    <div class="form-group">
        <label for="exampleInputEmail1">X<sub>1</sub> nuqtani kiriting</label>
        <input type="text" class="form-control" id="exampleInputEmail1"
placeholder="x1" required name="x1">
    </div>
    <center><button type="submit" class="btn btn-success"
name="y1">Y<sub>1</sub> nuqtani topish</button></center>
</form>
<?php endif; ?>
    </div>
</div>

<?php include_once('include/footer.php');?>

<?php include_once('config.php');?>
```

```
<?php
include_once('include/nav.php');
include_once('include/header.php');
?>
<center><a href="index.php"><button class="btn btn-primary">Yangi qiymat
kiritish</button></a></center><hr>
<table class="table table-bordered">
<thead>
<tr class="info">
<th>id</th>
<th>A</th>
<th>B</th>
<th>C</th>
<th>X<sub>1</sub></th>
<th>Y<sub>1</sub></th>
<th>X<sub>2</sub></th>
<th>Y<sub>2</sub></th>
<th>X<sub>3</sub></th>
<th>Y<sub>3</sub></th>
<th>X<sub>4</sub></th>
<th>Y<sub>4</sub></th>
</tr>
</thead>
<tbody>
<?php
$query = $baza->query("Select * from 'hisoblash'");
while($row=$query->fetch_object()):
?>
<tr>
<td><?=$row->id ?></td>
<td><?=$row->a ?></td>
<td><?=$row->b ?></td>
<td><?=$row->c ?></td>
<td><?=$row->x1 ?></td>
<td><?=$row->y1 ?></td>
<td><?=$row->x2 ?></td>
```

```
<td><?=$row->y2 ?></td>  
<td><?=$row->x3 ?></td>  
<td><?=$row->y3 ?></td>  
<td><?=$row->x4 ?></td>  
<td><?=$row->y4 ?></td>  
</tr>  
<?php endwhile; ?>  
</tbody>  
</table>  
<?php include_once('include/footer.php');?>
```

## **REFERENCES**

- [1] Akbarov D.E. Axborot xavfsizligini ta’minlashning kriptografik usullari va ularning qo‘llanilishi – Toshkent, “O‘zbekiston markasi”, 2009 – 434 bet.
- [2] “Rational points on Elliptic curves” Alexandru Gica. April. 200
- [3] “Rational points on an Elliptic curve” Dr. Carmen Bruni University of Waterloo. 2015
- [4] “Elliptic curve cryptography” . November. 2013
- [5] Xarin YU. S., Bernik V.I., Matveev G. V., Agievich S. G. «Matematische i kompyuternye osnovy kriptologii» OOO «Novoe znanie» 2003 g. 381 str
- [6] qizi Raxmonova, N. V., & Akbarov, D. E. (2021). ELLIPTIK EGRI CHIZIQ GRAFIGINI YASASH. Science and Education, 2(1), 9-14.

**DOI: 10.24412/2181-1784-2021-6-70-76**

## **O‘ZBEKCHA-KOREYSCHA TARJIMALARDA O‘XSHATISHLARNI VUJUDGA KELTIRUVCHI GRAMMATIK VOSITALAR TARJIMASI**

**Niyozova Olmosxon Erkaboyevna**

Jahon iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti

Sharq tillari kafedrası o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

e-mail: [olmosniyozova362@gmail.com](mailto:olmosniyozova362@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur tadqiqot ishida hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘xshatishlarni vujudga keltiruvchi grammatik vositalarning koreys tilida qanday ishlatilishi bayon etilgan. Bunda o‘zbek tilidagi turli xil qo‘shimcha va affikslar koreys tilida ham mavjudligi va ushbu qo‘shimchalar orqali yasalgan so‘zlar tarjimalari chuqur tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlari:** o‘xshatish, komponent, so‘z yasovchi qo‘shimcha, shakl yasovchi qo‘shimcha, analitik shakl, o‘zak-qo‘shimcha

### **ABSTRACT**

*This research work of modern Uzbek literary language is imitated to those described in the grammatical means used in the Korean language. There is an in-depth analysis of the presence of various Uzbek suffixes and affixes in Korean and the translations of words formed by these suffixes.*

**Keywords:** analogy, component, word-formative adverb, form-forming adverb, analytical form, root-adverb

### **АННОТАЦИЯ**

*Данное исследование современного узбекского литературного языка имитирует описанные грамматические средства корейского языка. Проведен углубленный анализ наличия различных узбекских суффиксов и аффиксов в корейском языке и переводов слов, образованных этими суффиксами.*

**Ключевые слова:** аналогия, компонент, словообразовательное наречие, образующее наречие, аналитическая форма, корень-наречие.

### **KIRISH**

O‘xshatishlar tashqi dunyoni bilishning eng qadimiy usullaridan hisoblanadi. O‘xshatishlar muayyan xalqning ilk tafakkur tarzini va tasavvurlarini namoyon etadi. Shuning uchun ham o‘xshatish dunyo filologiya ilmida eng qadimgi davrlardan

boshlab turli tadqiqotchilarning diqqat markazida nutq ta'sirchanligini ta'minlaydigan alohida vosita bo'lib kelgan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, chog'ishtirish va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanildi. O'zbekcha-koreyscha tarjimalarda o'xshatishlarni vujudga keltiruvchi grammatik vositalar tarjimai tahlil qilindi. Maqolada o'zbek tilidagi asarlarning koreys tiliga tarjima qilinganlari metodologik manba bo'lib belgilandi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozirgi o'zbek adabiy tilida o'xshatishning voqelanishida *-dek/-day*; *-simon*; *-ona*; *-chasi*; *-namo*; *-dan* kabi qo'shimchalar o'xshatish komponentlarining o'xshovchi obrazni ifodalagan so'zlarga qo'shib o'xshatish va qiyoslashlarni hosil qiladi<sup>10</sup>. O'zbek tilidagi *-day/-dek* qo'shimchasi koreys tiliga 처럼, 같이, 마냥, 컹같다, 듯 kabi turli analitik shakllar vositasida tarjima qilinadi. *-simon* qo'shimchasi koreys tilida kontekstga ko'ra *-의* qo'shimchasi, *같은* ko'makchisi va *모양* so'zi vositasida, *-ona* qo'shimchasi *-하/게* affiksi bilan, *-namo* qo'shimchasi esa 컹 같은 ko'makchisi yordamida ifodalanadi.

**-day/-dek qo'shimchasi** o'xshatishlarni hosil qiluvchi qo'shimchalar orasida eng sarmahsulidir. Uning jonli so'zlashuv nutqida *-day-dak-dayin-daqa* shaklidagi ko'rinishlari ham mavjud. Bu qo'shimcha o'zak-qo'shimcha, so'z yasovchi, shakl yasovchi qo'shimchalardan keyin kelib, o'xshatishni ifodalay oladi. 1. Asar oltmishinchi yillarda yoshlar o'rtasida ancha-muncha bahslarga sabab bo'lgan. Xatlar *yomg'irday yog'ilib* kelgani ham esimda (M. Yoqubova. Ulug' va sadoqatli muhabbat). 2. Azizning ko'z o'ngida Mahamat chatoqning o'sha ayvonda yotishi, tanchaga berkingani, boshi uzilgan otasi... hamma-hammasi *xuddi kino lentasiday* bir-bir lippillab o'tdi-yu, battar uyuyqusi qochdi (O'. Usmonov. Girdob). Birinchi gapda *-day* qo'shimchasi o'zakdan keyin kelgan. Ikkinchi gapda shakl yasovchi qo'shimchadan keyin kelgan.

Turkiy tillar grammatikasiga oid adabiyotlarda *-dek/-day* sifat va ravish yasovchi qo'shimcha bo'lib, uning ot, sifat, olmosh, sifatdosh turkumidagi so'zlardan o'xshatishlar hosil qilishi qayd qilingan. *-dek/-day* qo'shimchasi predmetning belgisini yoki holatini o'xshatadi. Masalan, *atirguldoy qip-qizil*, *yashindoy tez*, *qoziqday mix* kabilarda belgi o'xshashligi; *otday sakramoq*, *quyondoy qochmoq*

<sup>10</sup> Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка –М.-Л., 1960. –С. 284-288.

kabilarda harakat o'xshashligi mavjud. *-day/-dek* qo'shimcha vositasida tenglashtirish ma'nosi bo'lganligi uchun predmet va hodisalar o'rtasidagi xilma-xil o'xshashlikni qiyoslay oladi. U narsa va hodisalarning harakati, holati, shakli, rangi, miqdori, belgisi kabi xususiyatlarini o'xshata oladi va shu ma'nolarni anglata oladigan qo'shimchalar, yordamchi so'zlar va leksik vositalarga sinonim bo'la oladi. Masalan, *qorday oppoq, qor kabi oppoq, qor misoli oppoq*. Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, o'xshatish va qiyoslash vositalari ichida *-day/-dek* qo'shimchasi dominantdir. Chunki bu qo'shimcha o'xshatish va qiyoslashlarin hosil qiluvchi barcha vositalar o'rnida qo'llanila oladi.

O'zbek tilidagi *-day/-dek* qo'shimchasi koreys tiliga turli analitik shakllar vositasida tarjima qilinadi.

1. *-day/-dek* qo'shimchasi otlarga qo'shib quyidagi analitik shakllar vositasida tarjima qilinadi:

**a) 처럼 vositasida:**

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir kampir bilan bir chol bor ekan. Ular ovchilik bilan kun o'tkazar ekanlar. Bir kun chol tuzoq poylab o'tirgan ekan, tuzoqqa katta bir laylak tushibdi. Yugurib borib laylakni tuzoqdan chiqaribdi, *laylak odamdek so'zlamoqqa boshlabdi*: (Ur, to'qmoq. 한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. –B. 35).

Tarjimasi: 한때는 있었고 한때는 없었던 시절, 한 할아버지와 할머니가 살았다. 둘은 사냥을 해서 먹고 살았다. 어느 날 할아버지가 밧을 놔두고 앉아 있었는데, 밧에 큰 한 마리 학이 걸렸다. 뛰어가서 학을 밧에서 빼냈더니 *학이 사람처럼 말하기 시작했다* (한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. –B. 28).

**b) 같이 vositasida:**

Mening ko'zimga bu libos xolamning bemorxonada kiygani kabi rangsiz bir *matoday tuyuldi*. Diqqatni tortadigan afzalligini ko'rmayotgan edim (XX asr o'zbek hikoyalaridan).

Tarjimasi: “언제까지야?” 작은 어머니가 부주의로 다시 입고 있는 옷을 어루만져 갔다. 내게는 이 옷이 마치 병원에서 환자들이 입는 낡은 *환자복같이 보여 왔다*. 실제로도 이 옷은 낡은 환자복이었다 (XX asr o'zbek hikoyalaridan 세기 우즈베키스탄 소설 선집. T., 2014. B.184).

Bir kun podsho Luqmoni hakimga: “Mana bu in'omni oling, jo'nab qoling, endigi kelishingizda o'g'limga va menga yetarli kiyimlik to'qib keling!” deb



topshiriq beribdi. Luqmoni hakim, “Xo‘p” , deb chiqib ketibdi. Luqmoni hakimning ham podsho *o‘g‘lidek o‘g‘li* bor ekan (Luqmoni hakim. 한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. –B. 343).

Tarjimasi: 어느 날 임금의 현명한 의원에게 “이 돈을 받고 가서 다음에 올 때까지 아들과 내게 충분한 직물을 짜 오시오!” 라며 일을 주었다. 현명한 의원은 “알겠습니다.” 라고 나갔다.

현명한 의원에게도 임금의 *아들과 같은* 나이의 아들이 있었다 (한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. –B. 327).

**d) *ماڭا vositasida:***

Shundan so‘ng podshoh kechalari qo‘rqib uxlayolmay, *o‘q yegan to‘ng‘izday* har tarafga yugurib, oppoq tong ottirib chiqadigan bo‘lib qolibdi (Malikayi Husnobod. 한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기. 2014. B. 315).

그 후로 임금은 밤새 잠에 들지 못 하고, *화살 맞은 멧돼지마냥* 괴로워하며 이쪽저쪽 뛰어다니며 밤을 새웠다. 일주일 후에 전령이 왔다 (한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. –B.299).

2. *-day/-dek* qo‘shimchasi olmoshlarga qo‘shilganda koreys tiliga asosan *처럼* ko‘makchisi vositasida tarjima qilinadi:

Podshoh:

-Men bir iqlimning podshohiman, sizni otangiz qo‘l kuchi bilan tarbiya qilib, *sizday* botirlarning otasi bo‘lgan ekan, mendan nima kamligi bor? (Uch og‘a-ini botirlar. 한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. – B.202).

임금은

“나는 한 나라의 임금시오. 당신들의 아버지는 자신의 힘으로 당신들을 교육해서 *당신들처럼* 용감한 아들들의 아버지가 되었는데, 나보다도 못한 게 뭐란 말시오? (한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. –B.179).

Yuqorida qayd etilganlar bilan birga, *-day/-dek* qo‘shimchasi nafaqat predmet va shaxslarga, balki harakatga nisbatan ham o‘xshatishlarni hosil qilib, *-gan* va *-gu* shakllari bilan birga keladi.

1. *-day/-dek* qo‘shimchasi *-gan* affiksidan keyin kelganda quyidagi analitik shakllar vositasida tarjima qilinganligi kuzatiladi:

**a) *것처럼 vositasida:***

Hamma yoq yashnagan. Do‘lanalar oppoq gullagan. Na‘matakklar ham rosa ochilgan. Butun dunyoning bulbuli shu yerlarga **yig‘ilib kelganday**: har shoxda chag‘-chag‘laydi. Etakda soy bor, nari betlarda – qor (XX asr o‘zbek hikoyalaridan).

Tarjimasi: 어디서나 꽃들이 피어 있었다. 산과 나무가 새하얗게 피고 짙레나무의 꽃이 아름답게 피어 있었다. 오늘 세상에 있는 모든 피꼬리들이 여기에 **모여 있는 것처럼** 가지마다 앉아서 노래한다. 산 옆에 개울이 있고 다른 쪽에는 눈이 있다 (XX asr o‘zbek hikoyalaridan 세기 우즈베키스탄 소설 선집. T., 2014. -B. 99).

**b) 것같다 vositasida:**

Oyim bilan xolam o‘zlarini tutolmay, kulib yubordilar. Mening bo‘lsa, ko‘z o‘ngimga dadamning o‘ynagandagi ahvoli kelib **to‘xtagandek bo‘ldi** (XX asr o‘zbek hikoyalaridan).

Tarjimasi: 어머니와 이모는 웃어버렸다. 나는 눈앞에 아버지가 춤추는 장면이 **멈춘 것 같았다** (XX asr o‘zbek hikoyalaridan 세기 우즈베키스탄 소설 선집. T., 2014. B. 178).

**d) 듯 vositasida:**

Shunday qilib, zindondan olib chiqilgan odamni shisha uyga solib, zanjir bilan bog‘lab, **tosh tashlaganday qilib** daryoga tashlab yubordilar (Luqmoni hakim).

Tarjimasi: 그렇게 하여 감옥에서 꺼내온 사람을 우리의 집에 넣고, 사슬을 묶어 **돌 던지듯** 강에 던져버렸다 (한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. -B. 321).

2. **-day/-dek** qo‘shimchasi **-gu** affiksidan keyin kelganda koreys tiliga asosan **처럼** ko‘makchisi vositasida tarjima qilinadi:

Men oshni yeb bo‘lib **o‘lgudek qotib qolgan** xo‘jayinni meshga soldim va meshning og‘zini bog‘lab, dengizga oqizib yubordim, o‘zim aylanib yuraverdim (Uchar gilam. 한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. -B.155).

Tarjimasi: 나는 오쉬를 먹고 나서 **죽은 사람처럼** 자고 있는 주인을 부대 안에 넣었어요. 그리고 부대의 입구를 묶어서 바다에 던져버렸어. 나 자신은 여기 저기 돌아다녔지 (한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기 2014. -B. 114).

**-simon qo‘shimchasi** o‘xshovchining quyidagi ma‘no xususiyatlarini anglatadi: 1) o‘xshovchining shaklini – nayzasimon tayoq; 2) o‘xshovchining holatini – ranjigansimon gap boshlamoq; 3) o‘xshovchining belgisini – yo‘lbarssimon odam. -

*simon* affiksi qo‘shilgan o‘xshovchi obraz o‘xshatiluvchi obrazdan keyin ham, oldin ham kela oladi; *to‘lqinsimon sochlar* yoki *sochlar to‘lqinsimon*. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, *-simon* affiksi so‘zga qo‘shilganda belgining kam darajada o‘xshash ekanligini bildiradi. Masalan, *uyalgansimon gapirmoq* birikmasida aslida uylamagan, lekin o‘zini shu holatda ko‘rsatishga urinish bor. *Uyalgandek gapirdi* birikmasida esa rostdan ham uyalish harakati mavjud. Demak, *-simon* affiksi o‘xshatishlardagi ozaytirma darajani bildiradi.

*-simon* qo‘shimchasi koreys tilida kontekstga ko‘ra *-의* qo‘shimchasi (jannatsimon – 천국의), *같은* ko‘makchisi (odamsimon – 인간 같은) va *모양* (tuxumsimon – 달걀 모양, voronkasimon – 깔때기 모양의) so‘zlari vositasida ifodalanadi.

**-dan qo‘shimchasi** chiqish kelishigining ko‘rsatkichi bo‘lib, u qiyoslashni ham anglatib keladi. Belgining me‘yoriy holatdan ortiqligini, kuchliligini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:

Daraxtga bari bir xolam chiqdi. U baquvvat shoxlarni ***erkaklardan ham dadil*** silkitar edi. Ikki chelak pishayotgan dovuchcha va bir xurjun olma terdik (XX asr o‘zbek hikoyalaridan).

Mazkur parchada keltirilgan ***erkaklardan ham dadil*** qiyosi koreys tiliga ***마치 남자처럼*** – ***xuddi erkak kabi***, deb tarjima qilingan. Qiyoslang:

하지만 나무를 올라간 사람은 작은 어머니였다. 그녀는 굳은 나뭇가지를 ***마치 남자처럼*** 털고 있었다. 우리는 자두 두 통 사과 한 아픔을 따다 (XX asr o‘zbek hikoyalaridan 세기 우즈베키스탄 소설 선집. T., 2014. B. 185).

## XULOSA

O‘xshatishlarni hosil qiluvchi grammatik va leksik vositalar so‘zlarning semantik qamrovidan kelib chiqib turli xil o‘xshashliklarni anglatadi. O‘xshatishlardagi grammatik va leksik vositalar ularning tildagi yaxlit birlik bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

O‘xshatishlarni hosil qiluvchi grammatik vositalarga hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi *-dek//day*; *-simon*; *-ona*; *-chasiga*; *-namo*; *-dan* kabi qo‘shimchalar kiradi. *-day/-dek* qo‘shimchasi o‘xshatishlarni hosil qiluvchi qo‘shimchalar orasida eng sermahsulidir. *-day/-dek* sifat va ravish yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, u ot, sifat, olmosh, sifatdosh turkumidagi so‘zlardan o‘xshatishlar hosil qiladi va predmetning belgisini yoki holatini o‘xshatadi. O‘zbek tilidagi *-day/-dek* qo‘shimchasi koreys tiliga *처럼*, *같이*, *마냥*, *것같다*, *듯* kabi turli analitik shakllar vositasida tarjima

qilinadi. *-simon* qo‘shimchasi koreys tilida kontekstga ko‘ra -의 qo‘shimchasi, 같은 ko‘makchisi va 모양 so‘zi vositasida, *-ona* qo‘shimchasi -하개 affiksi bilan, *-namo* qo‘shimchasi esa 것 같은 ko‘makchisi yordamida ifodalanadi.

### **REFERENCES**

1. XX asr ўzbek ҳикояларидан намуналар. –Тошкент: ТошДШИ, 2012.
2. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка –М.-Л., 1960.
3. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. -№ 5. –Б. 3-16.
4. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. № 3. –Тошкент, 2011.
5. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. № 1. –Тошкент, 2013.
6. 세기 우즈베키스탄 소설 선집. Т., 2014.
7. 한국인을 위한 우즈베크 전래 동화 모음집 우즈베크 이야기. 2014.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASH USULLARI**

**Turdiyeva Izzatoy Sadikovna**

Surxondaryo viloyati Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim kafedrası O'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Bugun maktabgacha ta'lim tizimiga boshqa sohalarga qaraganda ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Buning boisi esa, maktabgacha ta'lim muassasalari va bog'achalarning yetuk kadr yetishib chiqishida, bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini belgilashida o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada ayni shu sohadagi tizimli ishlar, maktabgacha yoshdagi bolajonlarda interfaol texnologiya va metodlarni qo'llab ko'rish, shuningdek xorij tajribasidagi faktlar-tahlillar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** interfaol, texnologiya, metodlar, maktabgacha ta'lim, bolalar psixologiyasi va h.k.*

### **ABSTRACT**

*Today, the pre-school education system is receiving more attention than any other area. This is due to the fact that preschools and kindergartens play an important role in the development of mature staff, in determining the interests and abilities of children. This article describes the systematic work in this area, the use of interactive technologies and methods in preschool children, as well as fact-analysis of foreign experience.*

***Keywords:** interactive, technology, methods, preschool education, child psychology, etc.*

### **KIRISH**

Bolalar ham xuddi katta odamlar singari doim ma'lum faoliyat bilan mashg'ul bo'ladilar. Katta odamlar boshqa odamlar uchun kerak bo'ladigan ijtimoiy foydali narsalar ishlab chiqarish faoliyati bilan band bo'lsalar, bolalar faoliyatining asosiy maqsadi bilib olish, o'rganishda asoslanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyatlari – o'yin, rasm chizish, plastilin yoki loydan biron narsa yasash, applikatsiya, qurish-yasash va shu kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Bolalar odatda 77ata kishilarning topshiriq va takliflari bilan ma'lum faoliyatga kirishadilar. Ayrim hollardagina bolalarning o'zlari mustaqil ravishda u yoki bu faoliyatni bajaradilar. Har ikki holatda ham bolalar faoliyati ma'lum natijaga ega bo'ladi. Faoliyat

mahsuloti bolalar faoliyatining natijasiga qarab o'rganiladi. Ko'pincha bolalar faoliyatining mahsuli ular chizgan rasmlarga, loy yoki plastilindan yasalgan narsalarga qarab o'rganiladi. Bolalar psixologiyasiga ko'ra ularni maktabgacha ta'lim muassasasiga berish va mavjud qobiliyatiga qarab kelajakdagi sohasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun ayni shu sohada interfaol texnologiya va metodlar ta'lim tizimiga joriy etilmoqda [1-4].

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Interfaol o'rganish, shubha yo'qki, pedagogikaning qiziqarli, ijodiy, istiqbolli yo'nalishidir. Bu ularning psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Interaktiv texnologiyalardan foydalanish butun dunyo bo'ylab dunyodagi bolalar haqidagi bilim va taqdimotni boyitishga imkon beradi, tengdoshlar va kattalar bilan munosabatlar haqida bolalarni ijtimoiy munosabatlar tizimida faol munosabatda bo'lishga undaydi. Pedagogika sohasida bir nechta o'quv modellari farq qiladi:

1) Passiv – bola mashg'ulotning “ob’ekt” sifatida ishlaydi (tinglash va tomosha qilish)

2) faol – bola mashg'ulotning “mavzusi” sifatida ishlaydi (mustaqil ish, ijodiy vazifalar)

3) Interfaol – bola va o'qituvchining o'zaro ishlashi.

Shuningdek, aytib joizki, bunday o'quv va ta'limning asosiy vazifalari:

- Bolalar tashabbusi hamda o'zaro mustaqilligi rivojlanishi;

- Ma'lumotni o'rganish va mustaqil ravishda ishlab chiqarish qobiliyatini shakllantirish;

- Bolalar bilan integratsiyalashish;

- Bolalar va kattalar o'rtasidagi muloqotlar;

- Bolaning jamiyatga faol jalb qilish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash uchun interfaol 78 ata 78 z 78 ic texnologiyalarni joriy etish asta-sekin amalga oshiriladigan jarayon, bu, albatta, maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bugun yurtimizdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida bir necha interfaol texnologik mashg'ulotlardan foydalaniladi [5-8]. Misol uchun: “Kichik guruhlarda ishlash(Troika) “ ushbu ish texnologiyasining qo'llanilishi barcha bolalar asosida ishlash imkonini beradi. Bolalar o'z mustaqil ishlarini, nafaqat o'zining balki o'rtog'ining ishini baholashni, o'zaro aloqa qilish, bir-birlariga yordam berishni

o'rganadilar. "Zanjir" Ushbu texnologiyaning asosi bitta vazifaga har bir ishtirokchining izchil yechimi qidirishi hisoblanadi. Umumiy maqsadning mavjudligi, va o'zaro bir-birlariga yordam ko'rsatish muhitini bir-birlari bilan qamrab olishga, vazifani hal qilish imkoniyatlarini taqdim etadi, bolalarda jamoada ishlash imkoniyatini shakllantiradi. "Bilim daraxti"- bu bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi, muzokaralar olib boorish va vazifalarni hal qilishda mas'uliyat his qilish qobiliyatini shakllantiradi [9].

Interfaol mashg'ulotlar faol o'quv usulining navlaridan biridir. Interfaol o'quv o'zaro ta'siri nafaqat tarbiyachi va maktabgacha yoshdgi bolajonlar o'rtasida amalga oshiriladi, bu holda barcha ko'plab tinglovchilar birgalikda ishlaydi (yoki guruhlarda ishlaydilar). Interfaol o'rganish usullari har doim o'zaro ta'sir, hamkorlik, qidirish, muloqot, odamlar yoki inson va axborot muhiti o'rtasidagi o'yindir. Darslarda faol va interfaol o'rganish usullaridan foydalangan holda o'qituvchi talabalar tomonidan o'qilgan materiallar miqdorini 90 foizgacha oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi interfaol texnologiyalar va o'quv usullariga asosan qo'llaniladi. Maktabgacha tarbiyachi uchun o'yin – bu asosiy faoliyat va u orqali bolaning yoshida zarur bo'lgan hamma narsani o'rgatishingiz mumkin [10-14].

Shu o'rinda dunyoning rivojlangan mamlakatlarui tajribasiga ham nazar tashlaymiz. Masalan:

1. Regio Emiliya usuli. O'z-o'zini boshqarish- bu usulning o'ziga xos xususiyati. Uning falsafasi shundan iboratki, bolaning shaxsiyati, ular o'sib ulg'aygan paytlarida yoshligida paydo bo'ladi va ularda o'zlarini va g'oyalarini ifoda etishning ko'plab usullari mavjud. O'zlarini ifoda etishning bu usullari haykaltaroshlikdan tortib rasmgacha bo'lishi mumkin. Bolalarning o'zlarini namoyon etishlariga imkon berish ushbu uslubning asosiy tarkibiy qismi bo'lganligi sababli, ushbu maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarga o'z bilimlari doirasi bo'yicha so'z beriladi. Ularga ko'chib o'tishga, kuzatishga, narsalarga teginishga va sinfdagi boshqa bolalar bilan munosabatlarini o'rganishga ruxsat beriladi.

2. Waldorf usuli. Waldorf uslubining diqqat markazlari qat'iy akademiklar emas. Buning o'rniga, u o'z hayotining mazmunini topa oladigan har tomonlama rivojlangan bolalarni rivojlantirishga intiladi. Ushbu intizom bolalarni mustaqil fikrlovchi bo'lishlarini istaydi. Shunday qilib, ushbu uslub o'zlarining o'quv dasturlariga san'at, musiqa, hissiy, jismoniy va akademik ta'lim kabi ko'plab fanlarni o'z ichiga oladi. O'qish keyinchalik kiritiladi va Waldorf maktablari bolalar 79ata bo'lguncha kitoblardan foydalanmaydi va o'rta maktabgacha kompyuterlarni joriy qilmaydi.

3. Play-Way usuli. Bolalar o'yin-kulgini yaxshi ko'radilar va ushbu maktabgacha tarbiya o'yin uslubini ta'lim usuli sifatida ishlatadi. Ular o'ynashdan tuzilgan faoliyatni o'rganishadi. Shunday qilib, uni boshqa usullar bilan, shuningdek sinfxonalarda birlashtirish mumkin. Asosiy e'tibor o'yin-kulgi va o'ynashga qaratilganligi sababli, bolalar ko'pincha maktabgacha tarbiya uslubidan zavqlanishadi.

4. Bank ko'cha usuli. Ushbu uslubning maqsadi bolalarni umrbod o'rganishga undaydi. Bolalarga shunchaki faktlarni yodlatishning o'rniga, boshqotirmalar, ekskursiyalar va bloklar kabi o'rganishning boshqa usullari beriladi. Bu sinfda raqobatbardosh emas, bolalarni o'z tezigida va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlar orqali o'rganishga undaydi. O'yin o'rganish uchun foydalanadigan asosiy elementlardan biridir.

5. Tilga sho'ng'ish. Ba'zi odamlar yoshligingizda tillarni o'rganish osonroq deb o'ylashadi. Ikkinchi tilni bilish, bolani karerada o'sishiga olib kelishi yoki oilangizning madaniy kelib chiqishi va aloqalarini saqlab qolishi mumkin. Ushbu maqsadga yordam berish uchun immigratsion maktabgacha ta'lim muassasalari mavjud. Ular bolalarni uyda gaplashmaydigan tillar bilan tanishtirishga yordam berishi yoki ota-onalarning ularga boshqa tilni o'rgatish harakatlarini kuchaytirishi mumkin. Siz qisman yoki to'liq suvga cho'mishni tanlashingiz mumkin. Qisman, maktabgacha yoshdagi vaqtning yarmiga yaqini tilni o'rganishga sarflanadi.

Ba'zi maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarga STEM (Fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishga ahamiyat berishadi [15]. STEM-ga asoslangan dasturlar talabalardan faqat faktlarni yodlashni talab qilish o'rniga, mustaqil fikrlaydiganlarni yaratishga intiladi. Talaba muammolarni hal qilish, savollar berish, tajribalar o'tkazish va kuzatuvlar o'tkazish haqida bilib oladi. Shubhasiz, bu boshlang'ich va o'rta maktablarda bajarilgan STEM ishi kabi deyarli jalb qilinmasa ham, nazariya shundan iboratki, bu bolalarga yaxshi boshlanishni ta'minlaydi [16].

Ammo masalaning ikkinchi tomoni ham mavjud. Bu esa ko'pgina ota-onalar maktabgacha ta'limning afzalliklarini tushunmaydilar. O'qituvchilar maktabgacha ta'lim dasturining ahamiyatini namoyish etishlari va sinfda ishlayotgan barcha narsalar o'z farzandini bolalar bog'chasiga va undan tashqariga qanday tayyorlayotganligini tushuntirishlari muhimdir. Maktabgacha tarbiya – bu nafaqat hayotda muloqot qilish uchun ajoyib imkoniyat bo'lgani uchun, balki butun hayoti davomida har tomonlama barkamol o'quvchi va shaxs bo'lish uchun poydevor yaratganligi uchun bola hayotidagi muhim vaqt. Maktabgacha ta'lim strategiyalari



uch va to'rt yoshli bolalarning tajriba darajasida til, fan va matematika fanlarini kiritishi kerak. Qaysi turdagi yoki uslubdagi maktabgacha ta'lim muassasasini tanlangiz ham, bolangiz bu bilan o'zlarini qulay his qilishi kerak chunki ular tarbiyachilari bilan birga ular ko'p vaqt sarflashadi. Siz ularni maktabgacha ta'lim muassasalarida bosim yoki cheklovlarni his qilishni xohlamaysiz – bu ularning maktabni umuman yoqtirmasligiga ishonirishi mumkin, bu esa ularning akademik faoliyatining qolgan qismida muammo tug'dirishi mumkin [17]. O'qishga ijobiy munosabatda bo'lish, chunki ular buni qiziqarli deb bilishadi, ularning umumiy baxtini va uzoq muddatli muvaffaqiyatlarini ochish uchun kalit bo'ladi. Qaysi usulni tanlashingizdan qat'iy nazar, ular biron bir narsani o'rganishadi va har bir dars ularning rivojlanishi uchun juda muhimdir.

### **XULOSA**

Zero, interfaol texnologiyalar muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi: kattalar va bolalar bilan bepul aloqa o'rnatish; bolalarning og'zaki nutqining barcha tarkibiy qismlarini ishlab chiqish; nutq standartlari o'quvchilari amaliy mahoratiga hissa qo'shish. Xulosa qilib aytish mumkinki, dunyoning turli institutlari tomonidan o'qitilgan boshqa turli xil uslublar mavjud. Yondashuv jihatidan har xil bo'lishiga qaramay, har doim ham ushbu metodlarni o'qitishning aniq usullariga ajratish mumkin emas [18]. Ko'p marta turli xil yondashuvlar ma'lum darajada mos kelishi mumkin, shuningdek, turli xil bolalar ehtiyojiga bog'liq. Biroq, ushbu turli xil usullarni aks ettiradigan narsa – bu bolaning ehtiyojlarini qondirish uchun muassasa tomonidan qilingan harakatdir. Ushbu usullar, shuningdek, bola uchun maktabgacha ta'lim muassasasi bilan faol aloqada bo'lish zarurligini aks ettiradi.

### **REFERENCES**

- [1] M. Vohidov. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent. «O'qituvchi» – 1882.
- [2] A.V. Petrovskiy va boshqalar. Umumiy psixologiya. – T.: «O'qituvchi». – 1992.
- [3] M.G. Davletshin, Sh. Do'stmuhamedova, M. Mavlonov, S.To'ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya (o'quv-metodik qo'llanma). TDPU, – T.: – 2004.
- [4] Z. Nishanova. Bolalar psixodiagnostikasi. TDPU nashriyoti. Toshkent – 1998.
- [5] Запорожец А.В., Элконин Д.Б. Психология детей дошкольного возраста. – Москва. Просвещение. – 1964.

[6] Ягъяева, Э. Б. (2018). Коммуникативная компетенция как ключевой фактор становления специалиста. *Вопросы науки и образования*, (5 (17)).

[7] Yagyaeva, E. B. (2021). Tourism resources as a condition for the tourism development. *Middle European Scientific Bulletin*, 12, 323-327.

[8] Yagyaeva, E. B. (2019). PORTFOLIO AS AN ASSESSMENT TOOL FOR INDIVIDUALIZED INSTRUCTION. *Достижения науки и образования*, (5), 83-84.

[9] Yagyaeva, E., & Zokirov, A. (2019). THE ROLE OF A TEACHER IN TEACHING-LEARNING PROCESS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(3), 276-278.

[10] Yagyaeva, E. B. (2019). THE MAIN PROBLEMS ENCOUNTERED IN A SECOND/FOREIGN LANGUAGE ACQUISITION IN TECHNICAL HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Проблемы современной науки и образования*, (11-2), 61-62.

[11] Bakhtiyarova, Y. E. (2019). Portfolio as an assessment tool for individualized instruction. *Достижения науки и образования*, (5 (46)).

[12] Bakhtiyarova, Y. E. (2019). The main problems encountered in a second/foreign language acquisition in technical higher educational institutions. *Проблемы современной науки и образования*, (11-2 (144)).

[13] Jurayev, S. S. O. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA BAXT-SAODAT MASALASI. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1).

[14] Bahtiyarova, Y. E. (2018). Some methodology for keenness of teachers of English. *Вопросы науки и образования*, (5 (17)).

[15] Yagyaeva, E. B. (2018). SOME METHODOLOGY FOR KEENNESS OF TEACHERS OF ENGLISH. *Вопросы науки и образования*, (5), 64-66.

[16] Ягъяева, Э. Б. (2017). Важность перевода в межкультурной коммуникации. *Вопросы науки и образования*, (3 (4)).

[17] Ягъяева, Э. Б. (2017). Язык как отражение культуры народа. *Вопросы науки и образования*, (3 (4)).

[18] <https://singapore.globalindianschool.org/blog-detail/5-preschool-teaching-methods-to-improve-the-quality-of-early-care-and-education>

[19] <https://www.bachpanglobal.com/blog/different-preschool-teaching-methods-techniques-used-worldwide/>

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYON O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**N. R. Kutlimuratova -**

Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

[sv997710@gmail.com](mailto:sv997710@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada fanlararo integratsiya, boshlang'ich sinflarda integratsion ta'limni yo'lga qo'yishning ayrim talab va shartlari yoritilgan bo'lib, integratsion darsning umumiy xususiyatlari atroflicha bayon etiladi.*

***Kalit so'zlar:** integratsiya, fanlararo integratsiya, ta'lim samaradorligi, boshlang'ich ta'lim, integratsion darslar.*

## **CHARACTERISTICS OF INTEGRATED TEACHING IN PRIMARY SCHOOLS**

**N. R. Kutlimuratova -**

Lecturer at Urgench State University

[sv997710@gmail.com](mailto:sv997710@gmail.com)

### **ABSTRACT**

*In this article discussed that, importance of interdisciplinary integration, some of the requirements and conditions for the introduction of integrated education in the primary grades, and described in detail the general features of the integrated course.*

***Keywords:** integration, interdisciplinary integration, educational effectiveness, primary education, integration lessons.*

### **KIRISH**

So`nggi yillarda ta'lim-tarbiya tizimida yangi avlod tarbiyasida jahon fani va madaniyatining ilg`or yutuqlarini jamlagan, o`tmish ajdodlarimiz aql-zakovoti mahsuli sifatida yaratilgan milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda zamonaviy ta'lim-tarbiya berish uslublarini shakllantirish muammosi vujudga keldi. Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining asosi. Shu bois mamlakatimizda ham jismonan, ham ma'nan barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy datsuri”, “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida”gi Qonun hamda “Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi”, “2008-2012 yillarda uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini modernizatsiyalash

va ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat darajasiga ko'tarish Davlat dasturi", 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida va boshqa me'yoriy hujjatlarda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish vazifalari belgilangan bo'lib, bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan ishlash, ularni barkamol avlod sifatida shakillantirish davlat miqyosida muvaffaqiyatli amalga oshirilishida zamin bo'lmoqda.

## **MATERIAL VA METODLAR**

Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillash-tirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" degan fikri muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim amaliyoti ko'rsatishicha, maktab ta'limida fanlararo aloqadorlikni yo'lga qo'yish fan va jamiyat hayotida bugungi kunda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlarning yorqin ifodasidir. Ushbu aloqadorlik o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishi, dunyo haqidagi yaxlit tasavvurlarini rivojlantirish va amaliy va ilmiy-metodik tayyorgarligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Bunday tayyorgarlik umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilarini darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ishlab chiqarishda va umuman har qanday faoliyatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini erkin qo'llash imkoniyatini beradi.

Ilm-fan yutuqlari va ularning insonlar hayotidagi o'rni rivojlangan mamlakatlar maktab ta'limi mazmuni va strukturasi ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida o'quv soatlari keskin qisqartirildi, o'quv materiallari mazmuni modernizatsiya qilindi. Turli o'quv predmetlarini o'qitishda soatlarning qisqarishi, o'quv materiallari mazmunining ilmiy jihatdan murakkablashishi natijasida o'quvchilarga qo'yilayotgan talablar kuchaydi, ta'lim sifatida birmuncha pasayishlar kuzatilmoqda.

O'quvchilar o'quv materiallarini o'zlashtirishida sodir bo'layotgan bunday pasayishlar yosh avlodning intellektual rivojlanishiga ta'sir etmay qolmaydi. Bu holat esa o'qituvchilardan o'quvchilarga bir fan doirasida bog'liqliklar asosida turli hodisalarni o'rganishni taqozo etadi. Tabiat hodisalarini, ularning tuzilishi, mohiyati va funksiyalarini, qonuniyatlarini o'rganish o'quvchilar tafakkurida qiyoslash, analiz va sintez, abstraksiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosa chiqarish kabi tafakkur operatsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Kadrlar tayyorlash milliy modelida fanning tabiat va jamiyat to'g'risidagi yangi fundamental hamda amaliy tadqiqiga oid yo'nalishlarini rivojlantirish,

yuqori malakali, ilmiy salohiyatga ega pedagogik kadrlar tayyorlash, ularni jahon fani integratsiyasi darajasida ilmiy jihatdan savodxonligini va mahoratini oshirish shu asosda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim va tarbiya mazmunini yangilash, sifat va samaradorligini ko'tarish, har bir fan bo'yicha o'quvchilarning nazariy bilimi, amaliy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish ta'kidlangan. Erkin fikrlovchi, ijodkor, mamlakatimizning mustaqillik mafkurasiga sadoqatli bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalash boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda fanlararo aloqadorlik qonuniyatlarining yaratilishi, aloqadorlik tizimining tarkib topishi ta'limda istiqbolli vazifalar yechimini ta'minlaydi.

### **NATIJA VA TAHLIL**

Fanlararo aloqadorlik nazariyasining taraqqiyotida tabaqalashtirilgan holat hukm sursa ham amaliyotda integratsiya, o'zaro aloqadorlik fanning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan fanlararo aloqadorlik muammolarini hal etishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy hayot talabidir. Boshlang'ich maktabda integratsiyani amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi amalga oshiradi. U bolalarning matematikaga, yozishga, tabiat ko'pgina boshlang'ich tushunchalarga va yana ko'pgina narsalarga o'rgatadi. O'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang'ich sinflarda bir o'qituvchining dars berishini, integratsiyaning bir usuli deb hisoblasak ham bo'ladi. Integratsiyani amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin, muammoning mohiyati shundaki, usullarning birlaridan yuz o'girib, ikkinchisidan barcha darajalarida o'qituvchilarning (psixologik va fiziologik) yosh xususiyatlarini hisobga oladigan integratsion choralar tuzishni kiritishidir. Muammoning bunday qo'yilishi integratsiyaning turli ta'lim pog'onalarida turli xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi. Boshlang'ich maktabda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko'rish maqsadga muvofiq. Ta'limning keyingi pog'onalaridan u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi.

Bugungi kunda, ya'ni ta'lim-tarbiyaning hozirgi zamonaviy bosqichida o'qituvchining ishlash tizimi tubdan o'zgarimoqda va pedagogik texnologiyalar, integratsiya-lar, innovatsiyalar amaliyotda keng qo'llanilmoqda. O'quv fanlararo aloqadorlik ta'minlangan sharoitda o'quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok qilish qobiliyati, faolliklari, iziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. O'quv

fanlararo aloqadorlikni turli o'quv fanlari bo'yicha o'quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta'minlov-chi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

«Intergratsiya» so'zi lotincha integratio-tiklash, to'ldirish, «integer» butun so'zidan kelib chiqqan.

Integratsiya tushunchasi quyidagi ikki xil jarayon sifatida talqin etiladi:

birinchidan, tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon;

ikkinchidan, tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni. Genetik jihatdan integratsiya-uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va nihoyat o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o'rganilayotgan o'quv predmetlari doirasida ma'lum didaktik birliklar orasida o'rnatilib, ularni o'rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi, bundan farqli o'laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv predmeti yoki integratsiyalab o'rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishni talab etadi.

Bu o'z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi, etuk shaxsni shakllantirishga imkon beradi. Zero u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish, turkumlash, shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi. Bu operatsiyalar o'rganilayotgan ob'ektni barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab etish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo'lgan tabaqalashtirish (differenziatsiya)ga tayangan holda rivojlanib boradi yoki aksincha.

Integratsiya masalasini pedagog olimlar va amaliyotchilar quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etishni tavsiya etadilar: - o'quv predmetlari va fanlar turkumi doirasidagi mazmunni integratsiyalab o'rganish; - turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash; - ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllarini integratsiyalash va shu kabilar. Bu yo'nalishlarning har birining aniq

o‘z maqsadi bo‘lib, uni amalga oshirish uchun mos shakl, metod, vosita va shart-sharoitlarni talab etadi. Amaliyotda ulardan uyg‘un holda foydalanilgandagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkinligini ham shu o‘rinda eslatib o‘tish lozim. Yaxlit tizimni tuzishda integratsiyalanuvchi aloqadorlik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularni ichki ilmiy aloqadorlik ham deb ataladi. Tizimlashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ichki ilmiy aloqadorlikni tartibga keltirish yo‘li bilan yaxlitlikni yuzaga keltirishdan iboratdir. Bu jarayonda hosil bo‘ladigan yaxlitlik yangi sifat ko‘rsatgichlariga ega bo‘ladi.

Integratsiyalashtirishning mohiyati, nazariy sintez vositasi sifatida yangi darajadagi bilish natijalariga erishishdir. Ta‘lim-tarbiya jarayonida integrativ yondashuvni amalga oshirish tizim yoki mavjud shakldagi yaxlit ob‘ektning ichki va tashqi aloqalari, uni tashkil etish va boshqarish qonuniyatlarini bilgan holda olib borilishi mumkin. Integrativ yondashuv mazmunan tutash, aloqador, mantiqiy bir-birini taqozo etuvchi va birbiriga singib chuqurlashtiruvchi va kengaytiruvchi o‘quv fanlarini integratsiyalash uchun qo‘llanilib, yaxlit mantiqiy mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishni ko‘zda tutadi. Agar XIX – XX asrlar oralig‘ida jahon pedagogikasida A.Gerd, D.Kaygarodov, A.Pavlov singari olimlar boshlang‘ich maktabni tashkil qilish, unda olamni anglash jonli va jonsiz predmetlar haqida yaxlit tushunchalarni shakllantirish orqali amalga oshirilsa, o‘quvchining biluv faoliyati samarali kechishi haqidagi o‘z qarashlarini bayon qilgan bo‘lsalar, YAn Komenskiy, D.Lokk, M.Pestalotsi, K.Ushinskiy qarashlarida ayni ta‘lim samaradorligiga fanlararo aloqa vositasida erishish mumkinligi asoslandi. Ushbu qarash XX asrning oxirgi o‘n yilliklariga qadar S.Baranova, N.Talizina, M.Lvov, N.Svetlovskaya, E.Koladin kabilar ishlarida ancha takomillashtirildi. Boshlang‘ich ta‘limdagi fanlararo va fanga oid tushunchalar aloqadorligiga tayanib ta‘lim samaradorligiga erishish yo‘llari, usul va vositalar XX asr oxiriga qadar Rossiyalik olimlar N.Drujinina, T.Nazarova, I.Blinova, R.Matyushova tomonidan keng ko‘lamda tadqiq qilindi.

XXI asrga kelib, fanlararo aloqa o‘zaro yaqin tushunchalarga asoslanib, yoki aloqador mavzular doirasida ularning mohiyatini o‘quvchiga tushuntirishda ta‘limni tizimli yaxlitlashtirish, uzviylashtirish o‘zaro mujassamlash asosida bilim berish – ta‘lim mazmunini integratsiyalash muammosiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda integratsiyalashgan ta‘lim muammosiga boshlang‘ich ta‘limda ham jiddiy diqqat qaratilayotganligining sababini professorlar R.Mavlonova va N.Rahmonqulova “Boshlang‘ich ta‘limning integratsiyalashgan pedagogikasi”(2009), “Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi” (2013) nomli o‘quv

qo'llanmalarida quyidagicha izohlaydilar: "O'quv predmetlari orasidagi integratsiya predmetlar tizimini inkor etmaydi, balki predmetlar orasidagi aloqalar va bog'liqliklarni chuqurlashtirishga qaratilgan yondashuv – differensiya va integratsiya orasidagi munosabatni tushunishga tayanadi... turli fanlarning element va qismlarini bir butunga birlashtirishga yo'naltirilgan integratsiya bir predmet bo'yicha bilimlarni ikkinchisiga ko'chirish yoki faoliyatning almashinishi emas, balki fanlar integratsiyasi yo'nalishlarini aks ettiruvchi yangi didaktik ekvivalentlarni yaratish jarayonidir [1].

Chet el ta'limi tajribasi shuni ko'rsatdiki, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni rivojlantirish uchun asos bo'luvchi integratsiyalashgan fanlar ko'pgina mamlakatlar o'quv dasturlaridan allaqachon joy olgan. Ularda asosiy e'tibor o'quvchilarga boshlang'ich ta'lim orqali faqat o'quv predmetlari asosida bilim berishni emas, balki ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ko'pgina xorijiy mamlakatlar boshlang'ich maktablarining o'ziga xos xususiyati integratsiyalangan kurslar bo'yicha ta'lim bo'lib qoldi. Kursning maqsadi bolani dunyo bilan suhbatga tortish, inson, tabiat, jamiyat, fan, san'at bilan suhbatlashadigan; faqat odamlar suhbatlashadigan til bilangina emas, hayvonlar, o'simliklar tili bilan, rassomlar, musiqachilar, olimlar foydalanadigan til bilan tanishtirishdir... Olamning umumiy ko'rinishini tovushlar, tasvirlar, ranglar orqali tanishdir; bola esa ham dunyoni, ham o'zini o'rganuvchi, tekshiruvchi o'rniga qo'yiladi"[1].

Olimlar qarashlari shuni anglatadiki, ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang'ich sinflardan o'quvchilarda tabiat va jamiyat haqida yaxlit tasavvur uyg'otish va ularning rivojlanish qonuniyatlariga o'quvchi munosabatini tarkib toptirishdan iborat. Holbuki, bugungi kunda DTS bilan o'quv dasturlari o'rtasida nomuvofiqlik vujudga kelmoqda. Boshlang'ich ta'lim DTS da "Ona tili", "Matematika", "Tabiat" ta'lim sohalari ko'rsatilgan holda amaldagi o'quv rejasidan 10 ta predmet joy olgan. Bu holat o'quvchiga taqdim etilayotgan bilimlarda maydalashish va mavzular takrorini keltirib chiqarmoqda. Qaytarish va takrorlar esa o'quvchini zeriktiradi, vaqtdan unumli foydalanishga monelik qiladi. Misol tariqasida 1-4 sinflarning yillik taqvimiy ish rejasini oladigan bo'lsak, bir qator mavzular qaytarilayotganini, takrorlanayotganining guvoxi bo'lamiz [2]. Bu takroriylik asosan bir paytga (xafta ichida, bir kunda) to'g'ri keladi. Demak, ularni o'zaro bog'lab, bitta kompleks dars ishlanma yaratish natijasida integatsiyalashgan dars tashkil qilamiz. Natijada, o'quvchilar mujassam bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. "O'qish" darsidan "Vatan", "Odobnoma" dan "Bobolardan meros yurt", "Musika" dan "Qo'shiq aytish qoidalari", "Tasviriy san'at" dan "Vatanjonim-vatanim" mavzulari ayni bir



paytda o'rganiladi. Shuning uchun bu mavzularni predmetlararo integratsiyadan foydalanib uzviylashtirilsa, bitta dars vaqti, imkoniyatlari tejaladi.

### **XULOSA**

Darhaqiqat, integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish natijasida pedagogik, psixologik jihatdan ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda qulay shart-sharoit vujudga keladi; umumdidaktik talablar uzviylikda bajariladi; o'quvchining vaqti, kuchi tejaladi; ortiqcha ruhiy va jismoniy zo'riqlashlarning oldi olinadi, ta'lim samaradorligi oshadi. O'quvchilar zarur ko'nikma va malakalarni, tushunchalar hamda bilimlarni o'quv predmetlari mazmunini uyg'unlashtirish natijasida har tomonlama chuqur o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladilar.

### **REFERENCE**

1. R.Mavlonova, R.Rahmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., Ilm ziyo, - 2009. 49-bet.
2. Asaulyuk E.P. Integrirovanny podxod v obuchenii mladshix shkolnikov // Perspektivy nauki. 2011. №10 str.222-226
3. Jurayev, J. S. O. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 11-14.
4. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent, Universitet, 1998
5. Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. – Jizzax: 2007.

## **SHAXS AXLOQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O`RNI**

**Sabirova Karomat Sadullaevna -**  
Urganch davlat universiteti o`qituvchisi  
[sv997710@gmail.com](mailto:sv997710@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada shaxs axloqiy tarbiyasini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o`rni masalalari ko`rib chiqilgan va bu hususda muallifning shaxsiy nuqtai nazarlari keltirib o`tilgan. SHu bilan birga mavzuga oid muallifning shaxsiy nuqtai nazarlari ham maqoladan o`rin olgan.*

**Kalit so`zlar:** *axloqiy tarbiya, ma`naviy meros, ma`naviy-axloqiy qadriyatlar, axloq normalari, shaxs barkamolligi, axloqiy me`yorlar, axloqiy ong, milliy qadriyat.*

## **THE ROLE OF NATIONAL VALUES IN THE FORMATION OF PERSONAL MORAL EDUCATION**

**Sabirova Karomat Sadullaevna -**  
Teacher. Urgench State University  
[sv997710@gmail.com](mailto:sv997710@gmail.com)

### **ANNOTATION**

*This article discussed the role of national values in the formation of moral education of the individual and the author's personal views in this regard. In addition, the author's personal views on the subject are included in the article.*

**Keywords:** *moral education, spiritual heritage, spiritual and moral values, moral norms, personal perfection, moral norms, moral consciousness, national values.*

### **KIRISH**

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma`naviy sohada islohatlarning amalga oshirilishi kelajagi buyuk davlatimizning yoshlarini har tomonlama yetuk, jismonan baquvvat, raqobatbardosh, intellektual salohiyatli bo`lgan barkamol avlod tarbiyasi oldiga muhim vazifalarni qo`ymoqda. Bu, avvalo, kelajak avlodni ma`naviy – ahloqiy jihatdan har tomonlama tarbiyalashni, ularda bilim, keng dunyoqarash va e`tiqodga ega bo`lishni talab etadi. Chunki mamlakatimiz kelajagi va istiqboli ana shu avlod tarbiyasiga har tomonlama bog`liq.

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

## **MATERIAL VA METODLAR**

Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me'yorlardir. Axloq (lotincha «moralis» xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi. Axloqiy me'yorlar to'g'risidagi bilimlar o'quvchilar ongiga ta'lim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o'quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida ko'rinadi.

Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqlol g'oyasining o'quvchilar ongida aks etishidir.

Axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyat ta'lim-tarbiya jarayonida yo'lga qo'yilayotgan axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, debatlar xalq xo'jaligining turli sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan, ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish hamda sport sohalarida yuksak darajadagi muvaffaqiyatlarni qo'lga kirish bilan O'zbekiston Respublikasi nomini jahonga mashhur qilayotgan, uning obro'-e'tiborining oshishiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan shaxslar hayoti va faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlardan samarali foydalanish, vatanparvarlik namunalari ko'rsatgan, xalq qahramonlari namunasida shakllantiriladi.

Axloqiy tarbiya o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni samarali tashkil etishda ong, his-tuyg'u hamda xulq-atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir.

Zero, ular birligida ma'lum kamchiliklarning yuzaga kelishi ham o'quvchilarning komil shaxs bo'lib kamol topishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyoqarash tabiat, jamiyat, inson tafakkuri hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir.

YUksak ma'naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalq farovonli yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo'lish, o'zida

irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish kabi xislatlarni mustaqil O'zbekiston Respublikasi hayotida ustuvor bo'lgan tamoyillar sifatida e'tirof etish mumkin.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi asoslari tayanch omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida axloqiy mazmundagi suhbat, ma'ruza, bahs-munozara, konferentsiya, seminar hamda debatlardan foydalanish o'zining ijobiy natijalarini beradi.

### **NATIJA VA TAHLIL**

Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanishning ahamiyati va o'rni katta. Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi. Biron -bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga hos milliy madaniyatining sohibiga aylandi. Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda.

Tarixiy tajriba, an'alarining meros bo'lib o'tishi- bularning barchasi yangidan- yangi avlodlarga tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog'i lozim. Bizning madaniyatimiz butun insoniyatni o'ziga rom etib kelayotgan markaz bo'lib qolganligi tasodif emas. Samarqand, Buxoro, Xiva faqat olimlar va san'at ihlosmandlari uchungina emas, balki tarix va tarixiy qadriyatlar bilan qiziquvchi barcha kishilar uchun ziyoratgohga aylangan. Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr- bardoshi ma'naviy uyg'onishning yana bir bitmas- tujanmas manbaidir.

Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch totuv yashagan markaz bo'lib kelgan. Etnik sabr- toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham qimmatbaho an'alarini, shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik an'alarini avaylab qabul qilganlar. Oila qadriyatlari va qon- qarindoshlik munosabatlaring qayta tiklanishi o'z umrini yashab bo'layotgan oila- urug'.

Har bir xalqning o'ziga yarasha urf-odatlarini, marosimlarini bo'ladi. Agar biz dunyo xalqlarining hayotiga nazar tashlasak bir-biriga o'xshamagan, turli-tuman

marosimlarni ko'ramiz. Marosimlar jamiyat, xalq va shaxs hayoti-faoliyatidagi muhim o'zgarishlar, ijtimoiy ahamiyatga molik voqea-hodisalar bilan bog'liq bo'lib, ular ibrat orqali tarbiyalash, ruhiy-estetik ta'sir ko'rsatish vazifasini bajaradi. Marosimlarda milliy, diniy urf-odatlar va rasm-rusumlar ham o'z ifodasini topadi. O'zbek xalqining paydo bo'lishi tarixi qanchalik uzoqqa borib taqalsa, uning milliy an'analari, urf odatlari, marosimlari ham shunchalik teran tarixiy ildizga ega. Ular xalqning ma'naviy ehtiyojlari zaminida paydo bo'lib, shakllanib, sayqallanib o'z mazmunida shu xalqning orzu-o'ylari, istaklari, turmush tarzi, axloq normalarini mujassam etadi. Shuning uchun ham har bir xalq, millat, elat ularni ko'z qorachig'iday avaylab-asrashi, taraqqiy ettirishi, kelgusi avlodlarga ma'naviy qadriyat sifatida etkazmog'i lozim. Darhaqiqat, an'analar, urf-odatlar, marosim va bayramlar xalqning, millatning ma'naviyati, qadriyatlarini ajralmas qismidir.

O'zbeklarning urf-odatlari, marosimlari va bayramlari rang-barang hamda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bir necha ming yillar mobaynida shakllanib kelgan. Masalan, bola tug'ilishi (chilla, beshik kerti), sunnat to'yi, nikoh va motam marosimlarida O'rta Osiyo xalqlariga xos umumiy o'xshashliklar mavjud. O'zbeklarda jamoa munosabatlariga oid urf-odatlarni shaharda mahalla, qishloqda qishloq jamoasi aks ettirgan, ularning faoliyatida erkaklar va bolalar qatnashgan. O'tmishda barcha udumlar, marosimlar qishloq va shaharda mahalla jamoalarining tashabbusi bilan o'tkazilgan.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, o'zbek mavsumiy marosimlarini quyidagi turkumlarga tasnif etish mumkin:

Har qanday ijtimoiy hodisaning, shu jumladan, milliy g'oyani va milliy ma'naviy qadriyatlarning mohiyatini ochib berish uchun quyidagilarga aniqlik kiritish:

1. tushunchaning ta'rifi (definisiyasi);
2. tushunchaning tavsifi (xarakteristikasi);
3. milliy ma'naviy qadriyatlarning mazmuni;
4. ularning kelib chiqishi va rivojlanishi (evolyusiyasi);
5. ijtimoiy maqsadi va vazifalari (funktsiyalari);
6. tuzilishi (strukturasi);
7. amal qilish usul va vositalari (texnologiyasi);
8. shakllari va ko'rinishlari tasnifi (klassifikatsiyasi) va nihoyat, jamiyat hayotining boshqa sohalariga ta'sirini bilish lozim.

Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlarini

ham ma`naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o`ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o`ynaydi.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmugs tarzida o`ziga xos mezon vazifasini o`taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo`layotgan faoliyat turlari va rasmlar va rasmlar baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo`ljallari, «zamona qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma`naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

Milliy ma`naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to`g`anoq bo`ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir.

Ma`naviyat, qadriyatlar va milliy g`oya - jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o`zaro uzviy aloqadorlikda bo`lgan sohalaridir.

Ma`naviyat, milliy qadriyatlar va istikdol g`oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma`lum davrlarida ma`naviyat va milliy g`oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo`lib maydonga chiqadi.

O`zbekiston istiqlolining asoschisi Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab taraqqiyotning o`ziga xos va o`ziga mos yo`lini belgilovchi milliy ma`naviy qadriyatlar masalasiga juda katta e`tibor qaratildi. Xalqimiz ma`naviyatini yuksaltirishning ilmiynazariy, fundamental konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Milliy o`zlikni anglash aynan ma`naviy qadriyatlarni o`zlashtirish, o`z xalqining tarixi, madaniy merosini o`rganish, bugungi holati va ertanga istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mehnati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma`lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma`naviy boyliklarga ega bo`lishga yo`naltirilgan bo`ladi.

Milliy ma`naviy meros, qadriyatlarning tarkibi, ko`rinishlari Milliy ma`naviy meros va qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo`lib, uning tarkibi quyidagilardan iborat:

- tarixiy meros va tarixiy xotira;
- madaniy yodgorliklar, qadimiy qo`lyozmalar;
- ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;
- san`at va milliy adabiyot;
- axloqiy fazilatlar;
- diniy qadriyatlar;

- urfodat, an`ana va marosimlar;
- ma`rifat, ta`limtarbiya va hokazolar.

O`zbek xalqi jahon madaniyati hazinasiga munosib hissa qo`shgan millatlar qatoridan faxrli o`rinni egallaydi. Madaniy yodgorliklar, me`morchilik san`ati namunalari, qadimiy qo`lyozmalar — milliy ma`naviyatning bebaho durdonalari, xalqimiz uchun eng qadrlı va muqaddas bo`lgan boyliklardir. Bularni avaylab asrash, kelajak avlodlarga yetkazish ma`naviyat sohasidagi eng dolzarb vazifadir.

Milliylik xalqning ruhiyati va ma`naviyati, ayniqsa, san`at va adabiyot rivojida yorqin ifodalanadi. Ezgulik va poklikni, insoniylik va haqqoniylikni kuylagan buyuk asarlar, qaysi janrda yoki qaysi tilda yaratilganidan qat`iy nazar, jahonga taniladi, pirovardida yana shu millatning xalqaro nufuzini yuksaltiradi.

Milliy ma`naviy qadriyatlar tizimida axloqiy sifat, diniy qadriyatlar munosib o`rin egallaydi va milliy o`zlikni anglashning muhim sharti, omili sifatida namoyon bo`ladi. Axloqiy va diniy qadriyatlar aksari hollarda o`zaro bog`liq bo`lib, jamiyatning ma`naviy yuksalishida, yosh avlod tarbiyasida birdek muhim ahamiyatga ega.

Har bir xalq, millat yaratgan ma`naviy qadriyatlar, uning dunyoga qarashi va hayotga munosabati, o`ziga xos betakror xususiyatlari, ayniqsa, urf-odat va marosimlarda to`laqonli namoyon bo`ladi. Marosimchilik bir qator ijtimoiy funksiyalarni bajaradi, milliy o`zlikni saqlashda, yoshlarni tarbiyalashda, muayyan royallarni ruhiyatga singdirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tarbiya va ta`limning milliy xususiyatlari ham ma`naviy qadriyatlar tizimida o`z o`rniga ega. Xalqning kelajagi yoshlarga bog`liq ekanligi qanchalik haqiqat bo`lsa, bularni milliy ruhni tarbiyalash zarurati ham umum e`tirof etilgandir. Milliy tarbiya- xalqning o`z-o`zini saqlash va istiqbolini ta`minlash omilidir. Barkamol avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarimizning o`rni juda katta. O`zbek xalqining yoshlari milliy g`oya, qadriyatlar bilan yo`g`irilgan tarbiyani olishi kerak. Yoshlarmiz bugungi kunda xar tomonlama barkamol avlod bo`lib etishib kelmoqda. Zamonaviy taraqqiyot bizning yoshlarmiz dunyoqarashiga xam kuchli ta`sir ko`rsatmoqda albatta. Ana shunday sharoitda xam biz kattalar yoshlarning barkamol bo`lib shakllanishiga katta e`tibor qaratib, ularning milliy qadriyatlarmizni e`zozlashlariga o`rgatib bormog`imiz asosiy vazifalarimizdan biridir.

Bugungi kun yoshlari milliy urf-odatlarimizning shakllarini, aniq mazmunlarini chuqur anglagan bo`lishlari lozim. Ana shundagina kelajak avlod o`zbek millatining qadriyatlarni, ma`naviyatini, madaniyatini saqlab qoladigan, vatanni ximoya qiladigan insonlar bo`lib etishadilar.

Bu ezgu maqsadlarning amalga oshishida ota-onalar, pedagog murabbiylar xamjixat bo`lib xarakat qilishlari muxim.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, asrlar davomida avloddan avlodga o`tib kelgan milliy ma`naviy qadriyatlar milliy g`oyaga ma`naviy zamin, negiz bo`lib xizmat qilmoqsa. Unga xalq, millat, jamiyat amal qilish uchun kuchli, qudratli, ta`sirli milliy mafkura kerak. Milliy ma`naviy qadriyatlarning har bir tarkibiy qismi xalqning mustaqilligini mustahkamlash va kelajagini ta`minlashda muhim ahamiyatga ega. Xar tomonlama rivojlangan, gormonik rivojlangan, milliy qadriyatlarimizni e`zozlaydigan barkamol avlod tarbiyasida mahalla, ota-onalar va pedagoglarning o`zaro xamjixatligi asosiy omillardan xisoblanadi. Milliy qadriyatlarimizni e`zozlaydigan, o`z hayot faoliyatida doimo millat g`ururi bilan ish olib boradigan yoshlarning tarbiyalanishi millat kelajagini, rivojlanishini ta`minlaydi

### **REFERENCE**

6. Ibragimova G., To`raqulov X.A., Alibekova R. "Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo`yicha yordamchi uslubiy qo`llanma. - Toshkent: Cho`lpon, 2003.
7. Pedagogika //A.K.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, O`qituvchi, 1996.
8. Yusupov E. Inson kamolotining ma`naviy asoslari. – Toshkent, Universitet, 1998
9. O`G`Li, J. S. S. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 11-14.
10. Hasanboyev J., To`raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. – Jizzax: 2007.



## **O‘ZBEKISTONDA MAHALLIY INSTITUTLAR RIVOJLANISHINING MILLIY XUSUSIYATLARI**

**Turmanov Sag‘indiq Turg‘anbayevich**

Qoraqalpoq Davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik maqomini qo‘lga kiritishi munosabati bilan butun O‘zbekiston miqyosida jamiyatda butunlay yangi siyosiy institutlarini yaratish doirasida o‘z hududida shu singari milliy hususiyatga ega mahalliy institutlarni yaratishga kirishganligi yoritilib berilgan. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish instituti huquqiy davlat alomatlaridan biri bo‘lib, fuqarolarning davlat va mahalliy hamjamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishlaridagi huquqlarini ta‘minlashning muhim kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur institut fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.*

**Kallit so‘zlar:** *huquqiy davlat, fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish institutlari, davlat hokimiyati, oila, mahalliy boshqaruv, qonuniylik, inson huquqlari, qonuniy manfaatlar ustuvorligi, demokratiya, ijtimoiy adolat, mahalliy muammolar.*

### **РЕЗЮМЕ**

*В статье говорится, что в связи с обретением Республикой Узбекистан независимости приступил к созданию на своей территории местных институтов схожего национального характера в рамках создания совершенно новых политических институтов в обществе. Институт местного самоуправления является одним из признаков верховенства закона и служит важной гарантией прав граждан на участие в управлении делами государства и местного сообщества. Этот институт играет важную роль в формировании гражданского общества.*

**Ключевые слова:** *верховенство закона, институты самоуправления граждан, государственная власть, семья, местное самоуправление, легитимность, права человека, приоритет законных интересов, демократия, социальная справедливость, вопросы местного значения.*

### **ABSTRACT**

*The article says that in connection with the acquisition of independence by the Republic of Uzbekistan, he began to create local institutions of a similar national character on its territory as part of the creation of completely new political*

*institutions in society. The institution of local self-government is one of the signs of the rule of law and serves as an important guarantee of the rights of citizens to participate in the management of state and local community affairs. This institution plays an important role in the formation of civil society.*

**Key words:** *rule of law, institutions of citizens' self-government, state power, family, local self-government, legitimacy, human rights, priority of legitimate interests, democracy, social justice, local issues.*

## **KIRISH**

Siyosiy tizimni shakllantirishda davlatning markaziy apparati, siyosiy partiyalar, nohukumat tashkilotlaridan tashqari, davlat hokimiyatining mahalliy organlari va fuqarolar o'zini – o'zi boshqarish institutlari singari boshqa omillar ham ishtirok etmoqda. Tajribaning ko'rsatishicha, davlat va uning institutlari faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan aynan davlat hokimiyati mahalliy organlari va fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish institutlarining siyosiy jarayonlardagi ishtiroki bilan belgilanadi. Davlat hokimiyatining mahalliy organlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, hokimlar rahbarlik qiladigan viloyat, tuman va shahar hokimiyatlariga bo'linadi. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlariga shaharlar, qishloqlar va ovullar mahallalarida tuziladigan fuqarolar yig'ini kiradi. Bu holatdan davlat hokimiyati mahalliy organlari va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, vazifalari hamda tuzilishining o'ziga xos jihatlariga ko'ra, turli siyosiy institutlar ekanligi kelib chiqadi. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati vazifalarini bevosita amalga oshirmaydi, biroq ular siyosiy tizimga kiradi. Umuman olganda, bunday bo'linish va tushunish ko'pgina demokratik davlatlarda uchraydi. Etatik va deetatik bo'lgan ikki tamoyilning birlashuvi ularda jamiyat ishlari va mahalliy institutlarni demokratik boshqaruv shakli sifatida idrok etiladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Deetatik tamoyil fuqarolik jamiyatining davlat ustidan uning nazoratini faollashtirish, unga siyosiy partiyalar, manfaatdor guruhlar va vakillik organlarining ta'sirini kengaytirish, davlatning qator funksiyalarini markaz tasarrufidan chiqarish, uning ayrim organlari faoliyatida o'zini o'zi boshqarish ishlarini kuchaytirishdan iborat. Etatik tamoyil davlatning, shu jumladan mahalliy hokimiyatning jamiyatni boshqarish va birlashtirish vositasi sifatidagi rolini oshirishda, kuchli ijtimoiy huquqiy davlatni barpo etishda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, bir tomondan fuqarolik institutlarining faoliyati faollashadi, aholining yanada ko'proq o'zini o'zi boshqarish uyushmalari shakllanadi, boshqa tomondan, davlat, uning institutlari

(hokimlar)ning boshqaruvchi va muvofiqlashtiruvchi roli kuchayadi. Uzbekiston milliy davlatining bu xususiyatlari xalqimizning tarixiy-siyosiy tajribasi va ularning kuchli hokimiyatga intilishidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, shuni ham unutmaslik lozimki, hozirgi vaqtda siyosiy olamda nafaqat demokratik institutlar va demokratik qadriyatlarning kengayishi, balki jamiyatning barqaror taraqqiyoti garovi sifatida milliy davlatni mustahkamlash, kuchli davlatni barpo etishga intilish kuzatilmoqda. Davlat hokimiyatining viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi (tumanga bo‘ysunadigan shaharlar, shuningdek shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) vakillik organlari Xalq deputatlari kengashidir. Davlat hokimiyatining viloyatlar, tumanlar va shaharlardagi ijroiya hokimiyati bular xokimliklar va davlat boshqaruvining boshqa organlaridir. Viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda vakillik va ijroiya hokimiyatiga rahbarlik qiladi. Joylardagi davlat hokimiyati vakillik va ijroiya organlari faoliyatining asosiy tamoyillari demokratiya, ijtimoiy adolat, qonuniylik, oshkoralik, inson huquqlarini ta’minlash, davlat va mahalliy manfaatlarni hisobga olish tamoyillaridir.

Davlat hokimiyati mahalliy organlari faoliyatining huquqiy asoslari joylardagi davlat hokimiyati vakillik va ijroiya organlari to‘g‘risidagi qonunchilik bilan yaratilgan.

O‘zbekistonda Xalq deputatlari kengashi va hokim, davlat organlari, viloyatlar, tumanlar, shaharlar bilan turli tarmoqlar va boshqaruv sohalarida umumiy manfaatlarni namoyon etuvchi tadbirlarni amalga oshirish uchun shartnoma va boshqa munosabatlarga kirish huquqiga ega.

#### **Xalq deputatlari kengashi va hokim:**

1) fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda ularning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy,

madaniy va boshqa manfaatlarini qondirish uchun nodavlat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik qiladi;

2) nodavlat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi;

3) nodavlat tashkilotlarning ayrim ijtimoiy foydali dasturlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Mahalliy o‘zini - o‘zi boshqarish instituti huquqiy davlat alomatlaridan biri bo‘lib, fuqarolarning davlat va mahalliy hamjamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etishlaridagi huquqlarini ta’minlashning muhim kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur institut fuqarolik jamiyatining shakllanish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston mustaqilligi e‘lon qilinishi bilan mahalliy boshqaruvning milliy zamonaviy tizimi asta-sekin shakllana boshlandi. Mahalliy boshqaruv organlarini yaratish va faoliyat ko‘rsatishi uchun tashkiliy, siyosiy-huquqiy sharoitlarni ta‘minlash maqsadida ko‘p ishlar amalga oshirildi. Jahondagi har qanday davlatning butun demokratik institutlaridan eng qadimiysi va eng boy hamda shonli tarixga ega bo‘lgan kishilar hayoti ibtidoiy bosqichidagi o‘zini - o‘zi boshqarish - bu mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishdir. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyati, uning yuksak demokratik qiymatga ega ekani hamma yerda ijtimoiy ong va ijtimoiy amaliyotda o‘z tasdig‘ini topdi. Mahalliy hamjamiyat inson tabiatiga to‘la javob bera oladigan yagona uyushmadir, chunki barcha kishilar to‘plangan yerda mahalliy hamjamiyatlar, jamoalar o‘z-o‘zidan vujudga keladi<sup>11</sup>. Aynan mahalla xalqimizning mentalitetini, uning yaxshi sifatlarini belgilaydi. Ko‘p asrlar mobaynida unda o‘zbek xalqining ma‘naviy-axloqiy qarashlari, uning madaniyati, an‘analari, urf-odatlarini shakllandi va saqlab qolindiki, ular vositasida bugungi yosh avlod tarbiya topmokda. O‘zbekiston mustaqil taraqqiyotning ilk kunlaridanoq davlat tomonidan mahallaga katta yordam ko‘rsatilgani bejiz emas.

Mahallaning hayotimizdagi roli va ahamiyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov takror va takror so‘z yuritganlar: «Jamiyatimizning muhim o‘ziga xos jihati shundaki, u jamoaviylik, jamoa manfaatlarining birligi, jamoatchilik fikrining ustuvorligiga asoslangan. Shuning uchun jamiyatni demokratlashtirish tizimida uning asosiy tamoyillari, eng avvalo, ijtimoiy adolatni hayotga tatbiq etishda mahalla katta rol o‘ynaydi. Bugungi kunda oilalarning haqiqiy moddiy ahvolini, ularning moddiy va madaniy manfaatlarini doirasini yaxshiroq biladigan boshqa tuzilma mavjud emas. Mahalla eng adolatli, xalq ishonchini qozongan yo‘l va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmidir. U jamiyatimizdagi islohotlarni amalga oshirishda ishonchli asos va samarali vositaga aylanishi lozim»<sup>12</sup>.

O‘zbekiston sovet hokimiyati yillarida murakkab davrni bosib o‘tdi. Chunki 1924-1990 yillarda Sobiq Ittifoq tarkibidagi davlat sifatida hech bir mustaqil suverenitetga va demokratik erkinlikka ega emas edi. Davlat erkin bo‘lmagan davrda fuqarolarning ham erkin bo‘lmagani kunday ravshan. Shunday ekan sovet hokimiyati davrida O‘zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti qaramlik sharoitida kechdi. Har qanday tashkiliy-huquqiy mexanizmlar SSSRning xohishi

<sup>11</sup>Организация местного самоуправления. - М.: Инфра-пресс, 1988. - С. 38.

<sup>12</sup>И.А. Каримов. Узбекистон иктисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Тошкент. «Узбекистон», 1996.- 175-б.

bilan shakllantirildi. Bu davrda davlatchiligimizni asriy an'analari qaytadan baholandi. Jumladan, davlat qurilishida barcha bo'g'inlar sotsialistik mafkura asosida yo'lga qo'yildi. Imkon darajada hududni uzoq vaqt ushlab turish, mustamlakachilik qoidalarini bosqichma-bosqich kuchaytirish yo'lidan borildi. Vaholanki, uzoq yuz yilliklar davomida davlatchilikning muhim yutuqlari mavjud edi. Lekin hech bir islohot milliy an'analarga asoslantirilmadi. Buni ming yillik tarixga ega bo'lgan mahallaga nisbatan e'tiborning Mahalla komissiyalari shahar sovetlariga bo'ysungan. Shu davrda mahalla komissiyalari bir qator vazifalarni bajarishga mas'ul bo'lgan. Ular shaharlarning iqtisodiy, xo'jalik va madaniy ahvoli, aholining yashash tarzi, maishiy holatini yaxshilash vazifasini bajargan. Chunki mahalla komissiyalari aholiga eng yaqin tuzilma sifatida muhim rol bajarar edi.

Boshqa jamoatchilik ishlarida ham uning imkoniyatlarini chetlab o'tib bo'lmas edi. Shuningdek, siyosiy jarayonlarda, ya'ni saylovlarda shahar sovetlarini qo'llab-quvvatlagan, bolsheviklar tomonidan chiqarilgan qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni ijro etilishida qatnashgan. Soliq va yig'implarni yig'ishda, obodonlashtirish tadbirlarida, onalik va bolalikni muxofaza qilish, aholi salomatligini saqlash ishida ishtirok etgan. Amalga oshirilgan ta'lim islohotlarida yangi ko'rinishdagi maktablarning o'z hududida tashkil etilishiga tashabbuskor bo'lgan. Aholining savodsizligini tugatish bilan bog'liq tadbirlarda ham faol bo'lgan<sup>13</sup>. Oila insoniyat tarixidagi eng muhim qadriyatlardan hisoblanadi. U faqat nasl qoldirish emas, balki insonlarni bir-biriga suyanib yashash, o'zaro fikrlashish, bugun va kelajak haqida qayg'urish, ta'lim-tarbiya berish uchun ham noyob ijtimoiy tuzilmadir. Oila insonni menligini anglatadi, yashashdan maqsadini kamol topishiga xizmat qiladi. Oila – nikoh munosabatlarini, urug' ichi munosabatlari va urug'lararo munosabatlarni tartibga solish zaruriyati bilan yuzaga keladi. Oila jamiyatning tayanchi, uning birinchi va birlamchi yadrosi, zarrasidir. O'sib kelayotgan yosh avlodning mustaqil hayotga tayyorlaydigan betakror maktab hisoblanadi. O'zligimizga qaytish, milliy urf-odatlarimizni e'zozlash, kattalarga hurmat va kichiklarga g'amxo'rlik, odamiylik, halollik, olijanoblik, mehr-oqibat singari asl insoniy fazilatlar aynan oila muhitida shakllanadi.

O'zbekistonda 1990-yillarda onalarga, bolalarga va ko'p farzandli oilalarga katta moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatilib vaziyat biroz yaxshi bo'la boshlagan. Davlat tomonidan oilalar ta'minotini yaxshilashga ko'maklashadigan choralar ko'rila boshlandi. Xususan, 1989-1990 yillarda O'zbekiston bo'yicha 2,5 million oilaga

<sup>13</sup>Шадманова С., Ахмедов Т. Маҳаллакомиссиялари фаолиятида трансформацион жараёнлар // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. – №3. – 2014. – Б. 62.

jami 700 ming gektar sugʻoriladigan yer qoʻshimcha tomorqa sifatida berildi. Shaxsiy tomorqa yerlarini ajratilishi juda koʻplab aholi qatlamlari uchun birlamchi oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va qoʻshimcha daromadga ega boʻlish imkoniyatini berdi. Ushbu davrlar oson boʻlgani yoʻq. Ayniqsa, bozorlarda tilanchilik qilib yurgan, aravachalarda bironing yuklarini tashiyotgan, boshqalarning choʻntaklariga koʻz olaytirayotgan minglab balogʻatga yetmagan bolalar uchrab turar edi. Bularning aksariyati ota-onalari giyohvandlikka, ichkilikbozlikka berilib ketib, farzandlarini qarovsiz qoldirgan oilalar vakillaridir. Ota-onasi haydab yuborgan, oʻz tirikchiligini oʻzi qilayotgan bolalar ham mavjud edi. Oʻzbekistonda bunday bolalar bilan ishlovchi, ularni ota-onalari oldiga qaytaruvchi, mehr-muruvvat joylariga joylashtiruvchi tashkilotlar bor edi. Masalan, ichki ishlar boʻlimlari<sup>14</sup>.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgan vaqtda demokratik vaziyat ham birmuncha murakkab boʻlgan. Buni aholi tarkibida bolalar va oʻsmirlarning koʻpligi bilan izohlash mumkin. Bunday qatlam doimiy ravishda davlat koʻmagi va gʻamxoʻrligiga ehtiyoj sezgan. 1993 yilgi statistika boʻyicha Rossiya va Belarusda 15 yoshgacha boʻlgan bolalar va oʻsmirlar 24 foizdan sal koʻproqni, Qozogʻistonda 33,2 foizni tashkil etgan boʻlsa, Oʻzbekistonda esa 43,1 foizni tashkil qilgan. Respublikada jami aholining yarmidan koʻprogʻi – bolalar, oʻquvchi yoshlar, pensiyadagilar va nafaqaxoʻrlar, yaʼni ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj qatlamlar hisoblangan. Aholida oila aʼzolari sonining koʻpligi Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa mamlakatlar kabi Oʻzbekistonga ham xos xususiyatdir. Oʻsha vaqtlarda respublikada oilaning oʻrtacha soni 5,5 kishidan iborat, bir qancha viloyatlarda esa 6 kishidan oshgan. Xuddi shu vaqtda bu koʻrsatkich MDHning Yevropa qismidagi mamlakatlarda 3,2 kishini tashkil etgan<sup>15</sup>.

Aholining mazkur toifalari uchun kundalik zarur mollarni sotib olishda, kommunal va transport xizmatiga haq toʻlashda qoʻshimcha imtiyozlar joriy etildi. Pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalar miqdori ancha oshirildi. Ikki yoshgacha boʻlgan goʻdaklar hamda kamqonlik kasaliga uchragan homilador ayollarning bepul ovqatlanishi tashkil etildi. Umumiy taʼlim maktablarida boshlangʻich sinflarning oʻquvchilariga bepul nonushta berildi. Maktab oʻquvchilari va talabalar tushlik ovqati qiymatining 50 foizi chegirib tashlandi. 1991 yildan boshlab ish haqini oshirish toʻgʻrisida yettita hujjat qabul qilindi. Shu maqsadlarga yarim trillion soʻmdan koʻproq mablagʻ sarflanib, oilalarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash uchun farzand tugʻilgandan soʻng bir necha koʻrinishdagi nafaqa va imtiyozlar belgilandi.

<sup>14</sup> Юсупов Э., Юсупов Ў. Оила – маънавият булоғи. –Т., 2003. –Б. 28-29.

<sup>15</sup>Каримов И. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б. 292.

Birinchiidan, bola boquvchi onalarga nafaqa miqdori oshirildi, avval mazkur nafaqa to‘lashning bir yarim yil bo‘lsa, bu muddat ikki yilgacha uzaytirildi. Bunday nafaqa ishlovchi onalarga ham, ishlaymaydigan onalarga ham tatbiq qilindi. Ikkinchiidan, o‘n olti yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga yagona nafaqa joriy etilib, bolalarga ilgari berib kelingan hamma nafaqa va imtiyozlar bekor qilindi. Bolalarga beriladigan to‘lovlar tizimi takomillashtirildi. Bolalarga beriladigan yigirmadan ziyod turli nafaqalar o‘rniga 1994 yilning sentyabridan boshlab barcha bolali oilalar uchun yagona nafaqa joriy etildi, uning miqdori nafaqa oluvchi oilaning tarkibi bilan bevosita bog‘liq qilib qo‘yildi. 16 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalar uchun nafaqalar ota-onasining va umuman oilaning daromadlari miqdoridan qat’i nazar, barcha oilalarga to‘lana boshladi. Uchinchiidan, 1994 yilning oktyabridan davlat kam daromadli oilalarga faol yordam bera boshladi. Ayni mana shunday oilalarga moddiy yordam joriy etildi.

Oilaning ajralmas qismi bo‘lgan ayollarning yashash va ishlash sharoitlari masalasida chuqur o‘ylab ko‘rish, hal etish kerak bo‘lgan muammolar bor edi. 1995 yilgi ma‘lumotlarga qaraganda mamlakatimizda ayollar sanoat ishlab chiqarishda ishchi va xizmatchilarning 44,3 foizini, qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lganlarning 49,0 foizini tashkil etgan. Sanoat sohasida band bo‘lgan ayollarning 18 foizi tungi smenada ishlagan. Uy-ro‘zg‘or ishlarining asosiy qismi ham ish bilan band bo‘lgan ayollarning zimmasida edi. Tug‘ish yoshidagi ayollarning 60-70 foizi kamqonlik kasaliga uchragan. Ayrim shahar va qishloqlarda 15-16 yoshli qizlarni erga berish hollari ham ko‘paygan. Oilani rejalashtirish, ayollar va yosh go‘daklarning salomatligini mustahkamlash haqidagi fikrlar ham qishloq aholisi orasida yetarli targ‘ib etilmadi. Yaqin qarindoshlar o‘rtasida nikohning salbiy oqibatlarini ham sezilarli bo‘lgan.

O‘zbekistonda oila farovonligini ta‘minlash, aholining barcha vakillari manfaatlarini ro‘yobga chiqarish borasida davlat tomonidan bir qator islohotlar amalga oshirildi. 1998 yil - “Oila yili” deb e‘lon qilinishi oila farovonligini ta‘minlash bo‘yicha yaxlit davlat dasturini tatbiq etilishini ta‘minladi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri islohotlarning mohiyatini buzib ko‘rsatadigan va xalqimizning axloqiy negizlariga, uning ko‘p asrlik an‘analariga putur yetkazadigan salbiy ko‘rinishlarga qarshi kurashdir. Aynan mahalla to‘ylar, dafn marosimlarini o‘tkazishdagi isrofchilik, dabdababozliklarning payini qirqish borasida qattiq ish olib borishi lozim, bularga O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining shu davrdagi 1998 yil 28

oktyabridagi Farmonida adolatli baho berilgan<sup>16</sup>. Albatta, mahallalarga katta boshqaruv vakolatlari berilayotganda ularning fuqarolar siyosiy faolligini rivojlantirishdagi roli ortishi ko'zda tutiladi. Chunki fuqarolar yig'inining huquqlari yetarli bo'lmasa, ular o'zini o'zi boshqarish borasidagi funksiyalarini ijro eta olmaydilar. Ya'ni, mahalla xalq va davlat oldidagi mas'uliyatini his etishdan avval, ular oldin tegishli huquqlarga ega bo'lishi lozim.

Hozirgi vaqtda jamiyatning siyosiy sohasini erkinlashtirish maqsadlarida mahallalar va fuqarolar yig'inlariga o'zini o'zi boshqarish borasida yetarli vakolotlar berilgan. Mahallalar o'z hududlarida yashayotgan fuqarolarning turli ijtimoiy muammolarini hal qilishda bevosita ishtirok etmoqdalar. Ular keksa va yolg'iz qolgan fuqarolar, yetimlar, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar manfaatlarini himoya qilmoqdalar, ushbu ishlarni amalga oshirishda mahalla faollariga rahbarlik qilmoqdalar. Shu bilan birga, mahallalar shaxsning ma'naviy kamol topishi va kishilar amaliy tashabbus ko'rsatishlari uchun ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlagan holda zaruriy shart-sharoitlar yaratmoqdalar. Fuqarolarning mahalla yig'inlari ijtimoiy ta'minot organlari va boshqa muassasalar bilan birgalikda kam ta'minlangan oilalar va yolg'iz qolgan nafaqaxo'rlarga beg'araz moddiy yordam ko'rsatishni tashkil qilmoqdalar. Bundan tashqari, mahallalar o'z hududlarida eko logik muammolar va kishilar hayotining moddiy sharoitlarini yaxshilash muammolarini hal qilmoqdalar, hashar yo'li bilan aholini hududni ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlariga jalb qilmoqdalar, mahalliy aholi o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish va h.k.lar borasida tarbiyaviy va tushuntirish ishlariga rahbarlik qilmoqdalar. Mazkur barcha ishlar fuqarolar faolligini oshirish orqali amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishishi bilanoq yurtimizda yangi demokratik isloxlarni boshlab berdi. Uning tashabbusi bilan: 2017 yil 3 fevraldagi "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni ushbu tizimni rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berdi, mahalla instituti talablarga muvofiq ravishda takomillashmoqda.

Farmonga muvofiq, mahalla institutini yanada takomillashtirishning beshta ustuvor yo'nalishi belgilandi<sup>17</sup>:

<sup>16</sup>Маҳалла: фуқаролар ўзинни ўзи бошқаришнинг ҳуқуқий асослари (маҳаллалар фаолиятини тартибга солувчи қонун ҳужжатлари тўплами). - Т.: «Маҳалла» хайрия жамғармаси, 2003. - 109-110-66.

<sup>17</sup> <https://lex.uz/docs/3106223>.



1. fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, ularni odamlarga real yordam va yordam ko'rsatadigan mahalliy tuzilishga aylantirish;
2. o'zaro hurmat, mehr va muruvvat, ijtimoiy hamjihatlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish muhitini shakllantirishda mahallalarning ahamiyati va vakolatlarini yanada oshirish;
3. yoshlarni ma'naviy rivojlangan va jismonan sog'lom shaxs sifatida tarbiyalashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarini kuchaytirish;
4. mahallalarning jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, huquqbuzarliklar to'g'risida erta ogohlantirishda, fuqarolarning qonunga hurmat hissini kuchaytirishda bevosita ishtirokini kengaytirish;
5. huquqlar va qonuniy manfaatlarni himoya qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, mahalla tizimida yagona huquqni qo'llash amaliyotini ta'minlash.

Yuqoridagi Farmonga muvofiq, amaldagi Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashiga yuridik shaxs maqomi berildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari, tumanlar va shaharlar uning tarkibiy bo'linmalari shakllandi. Ushbu asosiy vazifalar va yangi normalarni amalga oshirish uchun ushbu Farmon kengashlar faoliyatini yanada takomillashtirish va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan kompleks chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlandi va amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 18 fevraldagi PF-5938-son Farmoni hamda «O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2020 yil 18 fevraldagi PQ-4602-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida 1. O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi (keyingi o'rinlarda — Vazirlik) huzurida yuridik shaxs tashkil etmagan holda byudjetdan tashqari «Obod va xavfsiz mahalla» jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma) tashkil etildi<sup>18</sup>. Davlatimiz rahbarining 2018 yildagi farmonlari bilan «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari qabul qilindi va ushbu dasturlar doirasida 5 millionga

<sup>18</sup><https://lex.uz/docs/4789015>

yaqin yurtdoshimiz yashaydigan 1 ming 200 ta mahalla va qishloqdagi sharoitlar yaxshilandi. Ushbu farmonlar asosidagi islohotlar bugungi kunda O‘zbekistonda maxaliy institutlarining takomillashishida katta ahamiyatga ega. O‘zbekistonning zamonaviy tajribasi, rivojlanishning tarixiy xususiyatlari, shuningdek milliy va ma’naviy qadriyatlar, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqib, mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni hal qilishda fuqarolarning o‘ziga xos mustaqil faoliyat instituti samaradorligini tasdiqlaydi. Qonuniylik, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, demokratiya, ijtimoiy adolat, mahalliy muammolarni hal qilishda mustaqillik, jamoatchilikning o‘zaro yordami, ijtimoiy sheriklik, mahalliy urf-odat va an’analarni hisobga olish - mana shu tamoyillar mahalla institutlarida milliy mentalitetimizdan kelib chiqib keng miqyosli demokratik o‘zgarishlarda muvaffaqiyatli ishtirok etmoqda.

## **XULOSA**

O‘zbekistondagi mahalla tufayli asrlar davomida aholining ijtimoiy va iqtisodiy xatti-harakatlarini rag‘batlantirish, ijtimoiy qadriyatlarni hurmat qilish, jamiyat oldidagi majburiyatlar va javobgarlikning so‘zsiz bajarilishini kafolatlovchi munosabatlar axloq qoidalarining maxsus tamoyillari shakllanib kelmoqda va saqlanib kelinmoqda. Bularning barchasi, mahallalarda kuzatilayotgan fuqarolar o‘rtasidagi yuqori darajadagi ishonch bilan birga, fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun zarur shartdir.

Bugungi kunda demokratik davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning noyob instituti sifatida mahallaning tajribasidan demokratik yo‘l bilan o‘tayotgan boshqa mamlakatlarda samarali foydalanish mumkin.

## **REFERENCES**

1. Мирзиёев, Шавкат Мирмонович. Ми все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. Вступление на торжественной церемонии вступления в должность Президента Республики Узбекистан на совместном заседании палат Олий Мажлиса / Ш.М. Мирзиёев. – Ташкент : Ўзбекистон, 2016. - 56 с.
2. Организация местного самоуправления. - М.: Инфра-пресс, 1988. - С. 38.
3. И.А. Каримов. Узбекистон иктисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Тошкент. «Узбекистон», 1996.- 175-6.

- 
4. Шадманова С., Ахмедов Т. Маҳалла комиссиялари фаолиятида трансформацио нжараёнлар // Демократлаштиришваинсонҳуқуқлари. –№3. – 2014. –Б. 62.
  5. Юсупов Э., Юсупов Ў. Оила – маънавият булоғи. –Т., 2003. –Б. 28-29.
  6. Каримов И. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б. 292.
  7. Маҳалла: фуқаролар ўзини ўзи бошқаришнинг ҳуқуқий асослари (маҳаллалар фаолиятини тартибга солувчи қонун ҳужжатлари тўплами). - Т.: «Маҳалла» хайрия жамғармаси, 2003. - 109-110-бб.
  8. [хттпс://лех.уз/досс/3106223](https://lex.uz/doss/3106223).

## **JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZOLIK O'ZBEKISTON UCHUN QANCHALIK FOYDALI?**

**Nosurullayev Qodir Abdisharib o'g'li**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Xalqaro huquq” yo'nalishi magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada jahon savdo tashkilotiga a'zolik O'zbekiston iqtisodiyotiga qanday ta'sir qilishi foydali va zararli tomonlari haqida yozilgan.*

***Kalit so'zlar:** Eksportyor, monopolist, umumiy resurs, energetika mustaqilligi, liberallashtirish.*

### **ABSTRACT**

*This article discusses the benefits and harms of WTO membership to the Uzbek economy.*

***Keywords:** Exporter, monopolist, common resource, energy independence, liberalization.*

### **KIRISH**

Ma'lumki, Jahon savdo tashkiloti (JST) — mamlakatlararo savdo qoidalarini boshqarib turuvchi yagona xalqaro tashkilot hisoblanadi.

Avvalo qayd etish lozimki, JST (WTO, ingl. World Trade Organization)ning asosiy maqsadlaridan biri o'zini o'zi himoya qilishni kuchaytirish va proteksionizm qo'llanishini bekor qilishdan iborat. Mazkur tashkilot xalqaro tijorat uchun qulay huquqiy tizimni taqdim eta oladigan cheksiz imkoniyat eshigi. O'zaro qabul qilingan muhim hujjatlar davlatlarning o'z savdo siyosatlarini kelishilgan mezonlarda olib borishlarida mas'uliyat yuklaydi. Bundan ko'zlangan maqsad — jahon bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda tovarlar va xizmatlarni ishlab chiquvchilar, eksportyor va importyorlarga ko'mak berishdir.

Xalqaro savdoni liberallashtirish, savdo bitimlarining odilligini ta'minlash, iqtisodiy o'sish va xalq farovonligini oshirish JSTning asosiy funksiyalari sirasiga kiradi. JST unga a'zo bo'lgan mamlakatlardan ichki bozorni erkinlashtirishni qat'iy talab qiladi. Ushbu vazifani bajarish esa unchalik oson kechmaydi. Sababi arzon va sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi chet el korxonalariga raqobat qila olmagan milliy korxonalar tanazzulga uchrashi ayni haqiqatdir.

Shunday ekan, O'zbekiston uchun kutiladigan natija nima bo'ladi? Albatta, har bir ishning samaradorligi o'sha -davlat, muhitdagi yaratilgan sharoitlar va tayyorgarlik darajasiga chambarchas bog'liq kechadi. Buning uchun:

— iqtisodiyotni erkinlashtirish va sanoat tarmoqlari baravar rivojlanishini tartibga solish;

— narx-navoni tartibga solish va maqbul soliq tizimini vujudga keltirish;

— alohida sektorlar va ishlab chiqarishda subsidiyalarni saqlash;

— tovarlarni standartlash va sertifikatlash qilish tizimini tartibga solish;

— xorij sarmoyalari jozibadorligini oshirish;

— import va eksport boj to'lovlari tarifini tartibga solish talab qilinadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Har bir davlatning bu tashkilotga a'zo bo'lish jarayoni o'rtacha 8 — 10, ba'zi davlatlar uchun esa 10 — 15 yilni tashkil etadi. O'zbekiston 1995-yilda ariza topshirgan bo'lishiga qaramasdan, faqat 2017-yildan boshlab, ijobiy siljish kuzatilyapti. Lekin ustuvor sohalarning boshqaruvi 30 yildirki, monopolistlarning qo'lida turibdi. Masalan, transport sohasida yagona aviakompaniya, temir yo'l kompaniyasi xohlagan narxini o'rnatadi, jamiyat, -davlatchilik ular bilan samarali kurasha olmaydi. Bundan O'zbekiston iqtisodiyoti ko'p yildirki, aziyat chekmoqda.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, dunyoning eng katta iqtisodiyot egalari — AQSH, G'arbiy Yevropa davlatlari, -Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlar JSTdan unumli foydalana oladi. Kichik davlatlar, jumladan, O'zbekiston ham bu imkoniyatlardan to'liq foydalana olmasligi ularning umumiy resurslariga borib taqaladi. Mamlakatimizning JSTga a'zoliqi YEOIning tartib-qoidalari va monopoliyasiga tushib qolmaslikning oldini oladi, deb hisoblaymiz. Ichki monopolistlardan qutulish muammosi hal bo'ladi. Xalqaro darajada erkin raqobat tizimi o'z-o'zidan yaratiladi.

Mavzuni kengroq ochib berishda mazkur tashkilotning tarixi va tarkibiy tuzilishiga alohida to'xtalib o'tish joiz. JSTga 1995-yil yanvarda asos solingan. 1994-yil 15-apreldagi Marokash deklaratsiyasida «uning natijalari jahon iqtisodiyotini mustahkamlaydi va butun dunyoda savdoni, investitsiyalarni kengaytirib, ishchi kuchi bandligi, daromadlarning o'sishiga olib keladi. Shuningdek, u jamoaviy bahslar, muzokaralar va taqdimlash orqali mamlakatlar orasidagi savdo aloqalarini rivojlantiruvchi platforma hisoblanadi», deb yozib qo'yilgan.

1994-yildagi mahsulotlar savdosi haqidagi bitim, xizmatlar savdosi haqidagi bosh bitim, intellektual mulk haqidagi bitim Jahon savdo tashkilotining tarkibiy qismlariga kiradi. Mazkur hujjatlar a'zo mamlakatlarning parlamentlari tomonidan tasdiqlangan.

1995-yildan faoliyatini boshlagan bu tashkilotga ayni vaqtda a'zo bo'lgan 164 davlat uchun yangi bozorlar ochiq hisoblanadi. O'ndan ziyod turli yo'nalishdagi bitimlar uning normativ-huquqiy bazasini tashkil etyapti. Mazkur hujjatlar talabini

bajarish tashkilotning barcha a'zolari uchun majburiy sanaladi. A'zo bo'lishni istagan davlatlar o'z milliy qonunchiligini ularga muvofiqlashtirishi kerak.

Tashkilotda qarorlar ishtirokchi mamlakatlar yordamida konsensus — umumiy ovoz berish orqali qabul qilinadi. Nizomda qaror ko'pchilik ovozlar evaziga qabul qilinishi belgilab berilgan bo'lsa-da, hozir bunday voqea tashkilot tarixida yuz bermadi. Qarorlar qoidaga ko'ra, ikki yilda bir marta chaqiriladigan Vazirlar konferensiyasi tomonidan qabul qilinadi. Borayotgan ishlar borasida javobgar bo'lgan Bosh kengash yig'inlarini tashkilotning ma'muriy qarorgohi joylashgan Jeneva shahrida bir yilda bir marta o'tkazadi. Yig'ilishlarda tashkilotga a'zo mamlakatlar vakillari, elchilar ishtirok etadi. Bosh kengash qoshida nizolarni hal etish va savdo siyosati tahlillari bilan shug'ullanadigan organlar bor (jami 650 xodim ishlaydi). Bundan tashqari, uning tarkibida savdo va rivojlanish bo'yicha qo'mita, savdo balansi borasida cheklovlar o'rnatuvchi qo'mita hamda byudjet, moliya va ma'muriy masalalar bilan shug'ullanadigan qo'mita faoliyat yuritadi. Bosh kengashdan quyi pog'onada yana uchta kengash: tovarlar savdosi bo'yicha kengash, xizmatlar savdosi bo'yicha kengash va intellektual mulk huquqi bo'yicha kengash faoliyat yuritadi.

Tashkilotga a'zo bo'lishning ijobiy jihatlari ko'p. Birinchidan, uning zamirida iqtisodiy manfaat turadi. Ya'ni to'siqlarsiz o'zaro mahsulot ayirboshlashga erishiladi va tovar ayirboshlanishi yuksak texnologiyalarning qo'llanilishi hamda rivojiga hissa qo'shadi.

Ikkinchidan, xalqning turmush darajasini yaxshilashga turtki beradi, insonlarga sifatli mahsulot iste'mol qilish imkonini yaratadi.

Uchinchidan, eksport qilinayotgan mahsulotlar hisobiga milliy mahsulotlar tannarxi tushirilishiga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, milliy ishlab chiqarish hajmini oshirib, byudjetga pul tushumlarini ko'paytiradi, savdo liberallasuvi mamlakat va alohida vatandoshlarimizning daromadlarini oshiradi.

Beshinchidan, mehnat bandligiga ijobiy ta'sir etadi.

BMTga a'zo aksar davlatlar JSTga ham a'zo bo'lib kirgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasi 19 yillik kutishlardan keyin 2012-yilda, Qirg'iziston 1998-yilda, Tojikiston 2012-yilda, Qozog'iston 2015-yilda a'zolikka qabul qilindi. Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon JSTga a'zolikka "energetika mustaqilligiga erishish va aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash" sari tashlangan muhim qadam, deb baholagan. Ammo bu jarayon silliq kechadi, degani emas. Demak, hukumat birinchi navbatda

mahalliy shirkatlarni himoya qilishga qaratilgan jiddiy tadbirlarni ishlab chiqishi kerak bo‘ladi.

Bu o‘rinda tashkilotga a‘zolikning afzalliklarini Xitoy davlati misolida ko‘rib chiqish ayni muddaodir. -Xitoy 15 yillik murakkab muzokaralar olib borgandan so‘ng, ushbu kelishuvlar asosida 2001-yil 11-dekabrda tashkilotga 143-a‘zo bo‘ldi. Biroq hukumatga bu borada qator og‘ir va mashaqqatli talablarni ilgari surishdi. Tarifni pasaytirish, AQSH kompaniyalari uchun zarur bo‘lgan sanoat mahsulotlari tariflarini 25 foizdan 7 foizgacha qisqartirish, Amerika fermerlari uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxini 31 foizdan 14 foizgacha arzonlashtirish, bank sektori, sug‘urta, telekommunikatsiya va kasbiy xizmatlar kabi muhim sohalardagi qator tarmoqlarni keng miqyosda ochish, tizimli islohotlar olib borish, oshkoralik masalasida chuqur islohotlarni o‘tkazish, Xitoyda faoliyat yuritayotgan xorijiy kompaniyalarga to‘siqlarni bartaraf etish shular jumlasidandir.

Ko‘rinib turibdiki, Xitoyning JSTga a‘zo bo‘lishi bilan bog‘liq asosiy muammo bozorga kirish imkoniyati emas, balki iqtisodiy rejimning shaffofligi, huquqiy, ma‘muriy va institutsional tizimni shakllantirish majburiyatlarini bajarish mexanizmi bo‘lgandi.

Muzokaralarning yakuniy bosqichida XXRgayana ushbu vazifalar ham qo‘yildi: eksportni rejalashtirish va eksport-import rejalarini amalga oshirish siyosatini rejalashtirish tizimini bekor qilish; tashqi savdo rejimining shaffofligi, litsenziyalash va kvota tizimi, davlat xaridlari bozori, xorijiy ishbilarmonlarga ichki bozor xizmatlaridan foydalanishni erkinlashtirish; eksport subsidiyalarini olib tashlash; davlat korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashdan voz kechish va qishloq xo‘jaligini himoya qilish.

Mazkur tahlildan xulosa shuki, O‘zbekiston zimmasiga ham JST tomonidan siyosat va iqtisodda ochiqlikni ta‘minlash, eksport-import va boshqa iqtisodiy tizimlarda rejalashtirishdan voz kechish, qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlarini import qilish bo‘yicha davlat monopoliyasini bekor qilish yuklanadi. Ammo Xitoy bu shartlarni qabul qilishni davr zarurati, jahon iqtisodi qoidasini hurmat qilish, deb tushundi. Shunchalik murakkablik bo‘lishiga qaramasdan, Xitoy hukumati JSTga a‘zo bo‘lishning qiyinchiliklaridan ko‘ra, imkoniyatlari ko‘proq bo‘lishiga qattiq ishonadi.

Tarixiy qarorga kelganidan so‘ng, mamlakat ikki masalada yutdi: JSTga a‘zolik tufayli 2008-yilda boshlanib, hozirga qadar davom etayotgan jahon moliyaviy inqirozi sharoitida arzon bo‘lgan Xitoy mollari uchun cheklovli kvotalar olib tashlandi, xalqaro mehnat taqsimotidagi eng foydali jihati — arzon ishchi kuchini

eksport qilishga erishildi. Hozirgi kunda xorijda ishlayotgan 70 million muhojir (Gonkong va Tayvandan tashqari) yiliga taxminan 70 milliard dollar mablag'ni Xitoyga yuborib turadi.

Shu o'rinda mamlakatimiz uchun bu borada qanday muammolar yuzaga keladi, degan haqli savol tug'iladi. Birinchidan, O'zbekistonning JSTga a'zoligi bojxona soliqlarini 8 — 10 foizgacha qisqartirishga olib keladi. Bundan esa Davlat byudjeti zarar ko'radi. Biroq, o'z navbatida, bojxona tariflarining keskin qisqarishi O'zbekiston bozorlarida mahsulotlarning arzonlashuviga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotni liberallashtirish, sanoatni xususiylashtirish, bozor erkinligiga davlat aralashuvini cheklash borasida tugallanmagan ishlar turibdi.

Uchinchidan, respublika ichkarisida zamon talabiga mos bozorbop mahsulot ishlab chiqaruvchilar, xususan, paxta ishlab chiqarishga ixtisoslashgan o'zbek fermerlari arzon va sifatli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi Xitoy, Hindiston, BAA savdo shirkatlariga raqobat qila olmasligi xavfi tug'iladi. Oqibatda qishloq xo'jaligi daromadsiz sohaga aylanib qolishi, bu esa 49,5 foizi qishloqlarda yashaydigan aholi uchun yangi infratuzilmani yaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Qishloqqa sanoat tarmoqlari kirib kelishi G'arb mamlakatlarida bo'lganidek, fuqaroning tafakkur dunyosi jiddiy o'zgarishiga va ijtimoiy faolligiga olib keladi.

Intellektual mulk huquqi tizimi va bozorining shakllanmaganligi, ixtirolarni amaliyotda qo'llash, qaroqchi (pirat) mahsulotlar bozorining avj olganligini bartaraf etish yo'nalishida ham muammolar to'plangan.

Xususan, adabiy va badiiy asarlarni himoya qilishga doir Bern konvensiyasi (1971-yil 24-iyulda qabul qilingan Parij hujjati), "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunga zid ravishda respublikamizdagi va chet el mualliflarining yaratilgan asarlarini noqonuniy takrorlash — litsenziyasiz (qaroqchi) mahsulotdan foydalanish, kontrafakt mahsulotlarni CD, DVD, VCD, VHS, mp3 shaklidagi disklarga ko'chirib, qalbaki nusxasini bozorlarda bemalol sotib, daromad ko'rish holatlari mamlakatimiz miqyosida avj olgan. Savdoga oid intellektual mulk huquqlari haqidagi bitim (TRIPS), g'oya va ixtirolar uchun adolatli raqobat muhitini yaratish, nohalol raqobat majburiyatlari bo'yicha ham qator vazifalar hamon yechilmagan.

Endi O'zbekiston tajribasida JSTga a'zo bo'lish afzalliklari va ayrim kamchiliklarimiz xususida mulohaza yuritsak. Bugungi kunda ekspertlar guruhi ("Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo'yicha Idoralararo komissiya tarkibini tasdiqlash to'g'risida"gi 2018-yil 24-dekabrda hukumatning 1040-son qarori) tayyorgarlik ishlarini boshlab yuborgan. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi



mutasaddi bo‘lgan maxsus komissiya sezilarli tashkiliy-huquqiy tadbirlarni amalga oshirganiga shubhamiz yo‘q. Shunday bo‘lsa-da, bu borada matbuotda yetarli axborot berilmaganligi bois, tahlilimiz asosida quyidagi ishlarni amalga oshirish zarurligiga e‘tiboringizni qaratmoqchi edim.

Birinchidan, mamlakat fuqarolari ijtimoiy guruhlarida daromadlar darajasining jiddiy farqlanishi “bo‘shliq”ni yuzaga keltiryapti. Xuddi shu “bo‘shliq” boshqa sohalarda islohotlarni o‘tkazishga xalaqit bermoqda.

Ayni chog‘da mamlakatimizdagi kambag‘allik darajasi 12 — 15 foiz atrofida ekanligi ma‘lum qilindi. Bu 4-5 million aholi yetarli daromad manbaiga ega emasligi, ijtimoiy himoyaga muhtojligini bildiradi. Bizningcha, muammoning yagona yechimi shuki, “Yashash minimumi to‘g‘risida”gi qonun va konsepsiyani tezroq qabul qilishimiz lozim. Yuqoridagi komissiya “iste‘mol savatchasi” va “yashash minimumi”ni belgilash bo‘yicha xorijiy tajribani o‘rganish va tahlil qilish ishlarini tugallashi maqsadga muvofiq. Hozirgi murakkab pandemiya sharoitiga qaramasdan, mazkur qonunga ehtiyoj kundan-kunga oshib boraveradi.

Ikkinchidan, ana shu muammoni tan olgan holda, JSTga a‘zolikni istab, yaqin yillarda erkinlashtirish va raqobatni jadallashtirish dasturlarini qo‘llagudek bo‘lsak, jamiyatda ijtimoiy muammolar battar ko‘payadi. Jahon bankining hisob-kitoblariga ko‘ra, O‘zbekistonda 4 milliongacha bo‘lgan fuqarolarning ishlamasligi, qishloq joylarida ishsizlarni qo‘shgan holda, ularning soni taxminan 6 millionga yetishi, Rossiyada 3 million kishining mavsumiy asosda ishlashini hisobga olmaslik mumkin emas. Mamlakatning JSTga a‘zo bo‘lishidan eng ko‘p zararni qishloq aholisi ko‘radi.

Uchinchidan, 2010 — 2019-yillarda YAIM (yalpi ichki mahsulot)ning aholi jon boshiga dinamikasi bir tekis rivojlanmagani, 2017-yilda bu ko‘rsatkich 1491 AQSH dollarini tashkil etgani, O‘zbekistonning JSTgaa‘zo bo‘lishi natijasida Xitoy tajribasida bo‘lgani singari ishsizlar sonining ko‘payib ketishiga va subsidiyalar asosida moliyalashtiriladigan mashinasozlik, dehqonchilik tarmoqlari ahvolining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

To‘rtinchidan, mamlakat yirik tarmoqlarining bu iqtisodiy jarayonga tayyor emasligi, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ichki bozor narxlari tashqi bozor narxlaridan yuqori ekanligi bilan xarakterlanadi. Oddiy misol: 2020-yil iyul oyida Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tomonidan “UzAuto Motors” AJda “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun talablari buzilishi bo‘yicha deputat so‘rovi ko‘rib chiqildi. Qo‘mitaning maxsus komissiyasi tomonidan o‘tkazilgan tekshiruvlar kompaniya avtomobil narxlarini asossiz oshirganini tasdiqladi. Unga ko‘ra,

avtomobillar narxlari 3 million soʻmdan 19 million soʻmgacha asossiz oshirilgani aniqlandi.

Bunga oʻxshagan holatni boshqa monopol korxonalar misolida ham koʻrsa boʻladi. Oʻzbekiston tashkilotga qoʻshiladigan boʻlsa, ijobiy jihat shuki, 1996-yildan beri “UzAuto Motors” kabi avtomobil sanoatidagi proteksionizm siyosatidan voz kechilishiga, monopoliya tugatilishiga va aholi turmush farovonligi oshishiga erishiladi.

Oʻzbekiston Respublikasining JSTga kirishini tezlashtirish boʻyicha Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga BMTning Taraqqiyot dasturi, Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Jahon banki, Xalqaro rivojlanish boʻyicha AQSH agentligi (USAID), Xalqaro hamkorlik boʻyicha Germaniya jamiyati (GIS) texnik koʻmak berayotganini ham taʼkidlab oʻtish lozim.

Maʼlum boʻlishicha, 2020-yilning 7-iyul kuni Shveysariyaning Jeneva shahrida videokonferensiya shaklida Oʻzbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga kirishi boʻyicha ishchi guruhining 4-yigʻilishi boʻlib oʻtgan. Oʻzbekiston delegatsiyasiga Bosh vazir oʻrinbosari, investitsiyalar va tashqi savdo vaziri S. Umurzoqov boshchilik qilgan. Yigʻilish doirasida Oʻzbekistonning tashqi savdo rejimi toʻgʻrisida kengaytirilgan Memorandum muhokama qilingan.

JST — global platforma, undan mamlakat yaxshi foyda koʻradi. Oʻzbekistonning JSTga aʼzo boʻlishdagi imkoniyatlarini qisqacha baholasak, bular — keyingi yillarda jiddiy islohotlarni boshidan kechirgan turizmning rivojlanishi, integratsiyalashuv imkoniyatlari ortishi, notarif cheklovlarning kamayishi, iqtisodiyotda toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar ulushining oshishi, davlat monopoliyasining qisqarishida koʻzga tashlanadi. Lekin bu masalaning tashqi tarafi, shakli, xolos. Bizningcha, asosiy masala ichki tashkiliy-tuzilmaviy va texnologik tarafida — mazmunida boʻlib qolgan.

## **XULOSA**

Xulosa shuki, Oʻzbekistonning xalqaro tashkilot vakillari bilan muzokaralari 2-3 yilga choʻzilishi ehtimoli mavjud. JSTga aʼzolik masalasi oson hal boʻlmaydi, oldinda juda murakkab bosqichlar turibdi.

Bir maqolada masalaning barcha jihatlarini batafsil yoritishning imkoni yoʻq. Mavzu va muammolar koʻlami shu qadar kengki, ularning birortasini koʻzdan qochirish yangi muammoni keltirib chiqarishi mumkin. Misol uchun, togʻ-kon, neft-gaz sanoati, energetika, temir yoʻl, havo yoʻllari sohalarida xususiylashtirish hali oxiriga yetkazilmaganligi jiddiy muhokama qilinishi lozim.

Eng muhim jihat shundaki, O‘zbekiston, birinchi navbatda, o‘zining ichki iqtisodiy-ijtimoiy muammolarini hal qilishi kerak. Geoiqtisodiyot bilan ham jiddiy shug‘ullanishga to‘g‘ri keladi. Bir vaqtning o‘zida ikki tashkilot kuzatuvchisi sifatida ham JST, ham YE OII bilan hamkorlik qilinayotganligi rahbariyat oldida o‘ta murakkab vazifalarning oqilona yechimini topishni ko‘ndalang qo‘yadi. Ushbu dolzarb masalalarning ijobiy yechimiga erishish uchun O‘zbekistonning milliy taraqqiyot yo‘li va yuksak farovonlikka erishishiga xizmat qiladigan yangicha yondashuv hamda qarashlar belgilab olinadi, deb ishonamiz.

JSTga a‘zolik, avvalo, monopolist boshqaruvga barham beradi va erkin raqobat muhitini yaratadi.

Bunday dadil qadam esa yurtimiz istiqboli uchun, shubhasiz, muhim rol o‘ynaydi.

### **REFERENCES**

1. Omuraliev E.K. Biz o'zaro munosabatlarni kengaytirish uchun juda ko'p imkoniyatlarga egamiz. Qirg'iziston Respublikasining JSTga a'zoligi to'g'risida // AKIpress. 1996 yil - № 36.
2. Ponkratova L.A., Chjao Xing. Xitoyning tashqi savdosi: tarkibiy o'zgarishlarni dinamikasi va baholash xususiyatlari. Milliy manfaatlar: ustuvor yo'nalishlar, 2011 yil. 2 (95), bet. 44-53.
3. Jahon savdo tashkiloti rasmiy sayti ma'lumotlari [www.wto.org](http://www.wto.org)

## **EKOLOGIYA MUHOFAZASI VA SUV SIFATINING NAZORAT QILINISHI**

**Ibragimova Shohsanamxon**

Fargona davlat universiteti Ekologiya va atrofmuhit  
muhofazasi yo'nalishi talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada muallif zamonaviy megapolislarda suv sifatining nazorat qilinishi va monitoring tizimi bo'yicha hamda suv kadastrining amalga oshiradigan ishlari yuzasidan ilmiy ma'lumotlar bergan.*

***Kalit so'zlar:** megapolis, suv monitoring, suv sifati, suv kadastri, analiz-sintez ishlari, suv ob'ektlari, ichimlik suvlari.*

### **ABSTRACT**

*In the article, the author provides scientific information on the system of water quality control and monitoring in modern megacities, as well as the work of the water cadastre.*

***Keywords:** megalopolis, water monitoring, water quality, water cadastre, analysis-synthesis works, water bodies, drinking water.*

### **KIRISH**

Ekologiya va uni asrab-avaylash uchun, albatta, shu soha vakili bo'lish shart emas. Zero, bizga tabiatdan mehribon do'st yo'q. Har bir yil almashinuvi, fasllarning o'ziga xos xususiyatlari, toliqqan tananing sof havodan to'yinishi kabi ijobiy xususiyatlarini bizga in'om etib turadi. Ayniqsa, suv! Xalqimizda ne'matlar ichida inson hayotini ta'min etadigan, tiriklik manbayi bo'lgan suvni qadrlash va asrashga undovchi qimmatli fikrlar talaygina. Suvning tozaligini saqlash, sifatini oshirish va uni aholiga yetkazib berishda soha vakillari ilg'or.

Hayot manbayi bo'lmish suvning ham sifatini ta'minlash juda muhimdir. Suvning sifati suv resurslarini integratsiyali boshqaruvda asosiy omil hisoblansa-da, bu jihat qariyb 2000-yilgacha e'tibordan chetda qolib, o'rganilmay kelindi. Bunga yana bir sabab, transchegaraviy suv va ular dinamikasining kam o'rganilganligidir. Suvning sifatini nazorat qilish uchun davlatning milliy siyosati va mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish juda zarur edi. Boisi, yangi qurilayotgan shaharlar aholisini toza, sifatli suv bilan ta'minlash davlat siyosatining bir bo'g'ini desak, xato bo'lmaydi. Suvning monitoring qilinishi suv ma'lumotlarini yig'ish, ular asosida suv resurslaridan foydalanish mezonlarini ishlab chiqish uchun muhim va kerakli.

Bunday masalani hal qilish tashkiliy infrastrukturadan tashqari, davlatlararo siyosatning muhimligini ham ko'rsatadi. Investitsiya hisobiga qurilayotgan zamonaviy turar joy binolarining qurilish chizmalarida ham suv yo'llari alohida o'rin egallaydi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bugungi globallashuv davrida butun dunyodagi davlatlarda ko'llar va oqimlardan tortib qirg'oq suvlari va estuarlarigacha suv sifatini kuzatish muhim dasturlardan biriga aylangan. Suvning tozalik darajasi haqida shunchaki gapirish oson. Biroq suvning monitoring qilinishi oson kechadigan jarayon emas. Suv monitoringini tashkil etishda shu soha mutaxassislari tomonidan bir qator ishlar amalga oshiriladi. Ular:

1. Kimyoviy sharoitlarning namunalarini olish.
2. Cho'kindi jinslarni tahlil qilish.
3. Yog'lar va pestitsid, eritilgan kislorod va ozuqa moddalarini topish uchun baliq to'qimasi ekstraktlarini qo'llashni o'z ichiga olgan natijalarni to'plash.

Yuqoridagi mezonlar asosida suvning iste'molga yaroqlik darajasi ham aniqlanadi. Megapolislarda suv monitoringi muhim omil ekanligini unutmazlik kerak. Bu borada aholi salomatligiga suvning ta'siri va ularning suvdan oqilova foydalanishlarini nazorati ham yo'lga qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasida suv kadastrini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" gi qonuniga muvofiq olib boriladi. Suv kadastrini mamlakatning suv resurslari to'g'risida tartibga solingan ma'lumotlarni tashkil qiladi. Shuningdek, jami suvlarning miqdor va sifat tavsiflari bo'yicha hisobga olingan ma'lumotlar hamda suvdan foydalanishni qayd etish kabi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oldi. Suv kadastrini yet usti suvlari, yer osti suvlari va suvdan foydalanish kabilarni o'rganadi.

Suv sifatini yaxshilashda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Suvni rangsizlantirish—suvga rang beruvchi moddalarni yo'qotish.
2. Suvni mayda suzib yuruvchi zarrachalardan tozalash.
3. Suvni zararsizlantirish—suv tarkibidagi bakteriyalarni yo'qotish.
4. Suvni yumshatish—suvdagi kalsiy va magniy kationlari miqdorini kamaytirish.
5. Suvni chuchuklashtirish—suvdagi ortiqcha tuz miqdorini kamaytirish.

Yuqoridagi omillar orqali inson hayotiga foydali bo'lgan ichimlik suvi sifatini yuqori darajaga oshirish mumkin.

---

## **XULOSA**

Suv sifatini muntazam ravishda monitoring qilib borish orqali suv bilan bog'liq muammolar hal qilinadi. Kelgusida suv bilan bog'liq ziddiyatlar kelib chiqishi oldi olinadi. Tabiat tomonidan bizga in'om qilingan suvning inson hayotidagi o'rni juda katta. Suv sifati monitoring insoniyat hayotining barqaror va sog'lom rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo sayyorasida megapolislarning qurilishi shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytda suv sifatini monitoring qilish ishlariga ham talab ortib bormoqda.

## **REFERENCES**

1. Barayev F.A., Serikbayev B.S., Mamasoliyev A.B va boshqalar. Suv resurslari va suvdan tejamli foydalanish. Toshkent, 2014
2. Frog B.N.Levchenko A.L. Vodopodgotovka. M.1996.

## **KDJ-3 KOMPLEKS KIMYOVIY QO'SHIMCHA QO'SHILGAN KONSTRUKTSION-ISSIQLIK IZOLYATSION POLISTIROLBETONNING FIZIK-MEXANIK XOSSALARI**

1. Ilmiy rahbar t.f.n., dots **Abduholiqov Abulqosim Abdujabborovich**

[abduholiqov@gmail.com](mailto:abduholiqov@gmail.com)

Toshkent arxitektura qurilish instituti ilmiy kotibi

**Yoqubov Alimardon Abdug'appon o'g'li**

[architectmardon@gmail.com](mailto:architectmardon@gmail.com)

Namangan muhandislik-qurilish instituti o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada, polistirolbeton xaqida umumiy ma'lumotlar, ishlatilish soxalari, polistirolbetonni tayyorlash uchun xomashyo materiallari uning fizik-mexanik xossalari xaqida umumiy ma'lumotlar ko'rsatilgan va tadqiqot usullaridan foydalanilgan xolda polistirolbetonning fizik-mexanik xossalarini o'rganildi. KDJ-3 kompleks kimyoviy qo'shimcha yordamida konstruksion-issiqlik izolyatsion polistirolbetonning fizik-mexanik xossalari shakllantirildi.*

**Kalit so'zlar:** Kengaytirilgan polistirol granulari, KDJ-3 kompleks kimyoviy qo'shimcha, qulay joylashuvchanlik, qo'zg'aluvchanlik, o'rta zichligi, fraksiya, suv talabchanlik.

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье приведены общие сведения о полистиролбетоне, областях применения, общие сведения о физико-механических свойствах сырья для производства полистиролбетона и изучены физико-механические свойства полистиролбетона с помощью исследовательских методов. Физико-механические свойства конструкционного и теплоизоляционного полистиролбетона формировались с помощью комплексной химической добавки КДЖ-3.*

**Ключевые слова:** пенополистирольные гранулы, комплексная химическая добавка КДЖ-3, удобное расположение, возбудимость, средняя плотность, фракция, водопотребность.

### **ABSTRACT**

*This article provides general information about polystyrene concrete, areas of application, general information about the physical and mechanical properties of raw materials for the production of polystyrene concrete and studied the physical and*

*mechanical properties of polystyrene concrete using research methods. Physical and mechanical properties of structural and thermal insulation polystyrene concrete were formed with the help of complex chemical additive KDJ-3.*

**Keywords:** *Polystyrene concrete, expanded polystyrene granules, KDJ-3 complex chemical additive, convenient location, excitability, medium density, fraction, water demand.*

## **KIRISH**

Hozirgi davrda mamlakatimizda qurilish ishlari hajmi kundan–kunga ortib bormoqda, bu esa qurilishning asosiy qismi bo'lgan, qurilish materiallariga bo'lgan talabni ortib borishiga sabab bo'lmoqda. An'anaviy qurilish materiallari bilan bir qatorda zamonaviy qurilish materiallardan foydalanish jarayoni shiddat bilan orta boshladi. Zamonaviy qurilish ishlarida, binolarning yuqori sifatli issiqlik izolyatsiyasini ta'minlash, energiya va resurslarni tejashga yordam berish dolzarb vazifalardan biridir.

Binolarni loyihalash va qurishda individual binolarning massasini kamaytirish masalasi o'rinli. Qurilishda yengil betondan foydalanish ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bunda esa to'suvchi konstruktsiyalarni (polistirolbeton, gazobeton, penabeton) kabi issiqlik izolyatsion va yengil betonlarga almashtirish orqali, massasini kamaytirilmoqda, bu esa binoning massasini sezilarli darajada kamaytirilishiga olib keladi. Binoning massasini kamaytirish, yuk ko'taruvchi elementlarga tushadigan yukni kamaytiradi, buning natijasida qurilish xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi. Polistirolbeton bunday materiallar orasida o'zining alohida xossalari bilan ajralib turadi. Har qanday yengil betonlarning xossalarini yaxshilashda turli xil kimyoviy qo'shimchalarning o'rni beqiyosdir.

## **ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR**

Polistirolbetonning ko'plab xossalarini 50-60 yillardan beri o'rganilib kelinmoqda. Tadqiqot natijalari MDH mamlakatlari olimlari va tadqiqotchilari A.A.Евдокимов, В.А.Рахманов, В.Г.Довжик, Т.И.Милх, В.И.Мелихова, О.В.Журба, И.Л.Тонков, В.Г.Парфенов va boshqalar tomonidan yozilgan ilmiy ishlar va maqolalarda keltirilgan.

Polistirolbeton-kengaytirilgan polistirol granulalari, suv va bog'lovchi asosida ishlab chiqariladigan yengil beton hisoblanadi. Kengaytirilgan polistirol granulalar polistirolbeton uchun to'ldiruvchi sifatida ishlatiladi. Kengaytirilgan polistirol granulalarning fraksiyasi 20 mm dan katta bo'lmasligi hamda uning namlik miqdori 15% dan ko'p bo'lmasligi kerak. [1.](iqtibos)



И.И.ТОНКОВ issiqlik izolyatsiyalovchi polistirolbetonning sovuqqa chidamliligi xossasini ko'plab experimentlar yordamida tadqiq qildi. Tadqiqotlarni zichligi  $150 \text{ kg/m}^3$  dan  $600 \text{ kg/m}^3$  bo'lgan kubik namunalarda amalga oshirdi. U polistirolbetonning suv shimuvchanligini 12-15 % ga tengligini va boshqa yengil betonlar (penobeton, gazobeton, keramzitobeton) ga nisbatan bu xossasining yaxshiligi bilan ajralib turadi. Bu xossasining yaxshiligi tufayli polistirolbetonning boshqa fizik-mexanik xossalarini ijobiylikini belgilab beradi. U tadqiqotlar natijasida polistirolbetondan qurilishda konstruktiv-issiqlik izolyatsion material sifatida foydalanish mumkinligini tasdiqlaydi. [2.]

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mahalliy va xorijiy manbalarning taxlili orqali polistirolbetonning ko'plab xossalari o'rganilganligiga va o'rganishlar natijasida ishlab chiqarishni tashkil qilinganligiga e'tibor beradigan bo'lsak, polistirolbetonning ustida ko'plab amaliy-nazariy tadqiqotlar qilingan degan xulosaga kelamiz. Polistirolbeton g'ovakli strukturaga ega bo'lganligi sababli biz uni juda yengil betonlar(g'ovakli betonlar) guruhiga kiritamiz va asosan issiqlikni himoyalash uchun to'suvchi konstruksiyalarda ishlatiladigan material deb xisobaymiz. Ammo ko'plab ilmiy tadqiqotlar natijasida uning tarkibiga qurilish qumi, kvarts qumi, keramzit qumi kabi mayda fraksiyalik to'ldiruvchilar qo'shib uning zichligini yuqori qilingan va qurilishda faqat issiqlikni himoya qilish uchun emas balki yuk ko'taruvchi element sifatida ham foydalanishimizga ham imkon beradi.

Bog'lovchi sifatida portlandsement yoki shlakaportlandsement ishlatilishi maqsadga muvofiq, chunki bu bog'lovchilarni polistirol bilan bog'lanishi boshqa sementlarga nisbatan ancha ijobiydir. Polistirol granulasining zichligi juda kam bo'lganligi sababli sement bilan bog'lanishdagi bo'ladigan reaksiyani amalga oshirish juda qiyindir, shuning uchun biz kimyoviy bog'lovchilardan foydalanamiz.[1.](iqtibos)

Polistirolbeton ishlatilish joyiga ko'ra quydagi turlarga bo'linadi:

xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, huquqiy madaniyatini oshirish, ular o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

xotin-qizlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o‘rganish, bartaraf etish borasida chora-tadbirlar belgilash;

huquqbuzarlikdan jabrlangan, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan maxrum

---

<sup>21</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги “Хотин-қизлар ва эркеклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги ЎПҚ-562-сон қонуни // URL: <https://lex.uz>.

etish joylaridan ozod qilingan xotin-qizlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish choralari tashkil etish;

Toshkent viloyati, Chinoz tumani, "Tulzorobod" mahallasida joylashgan Respublika qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasasining ta'minoti, maishiy shart-sharoitlari, ta'lim berish jarayonlari hamda ma'anaviy-ma'rifiy ishlari tashkil etilishida ko'maklashish;

xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish borasida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning o'zaro hamkorligini ta'minlash.

Xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'linmalar zimmasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklanishi mumkin.

Xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida birgina Toshkent shahrida 2020 yil 12 oyi davomida ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar umumiy yo'nalishda 636 tadan 630 taga yoki 0,9 foizga kamayishiga erishilgan.

Oila-turmush doirasida sodir etilgan jinoyatlar 14 taga yoki 13,5 foizga (89/103) kamaygan.

Xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar mahalla kesimida taxlil qilinganda, 2020 yilda 514 ta mahalladan 241 tasi (43,89 foizi)da xotin-qizlar tomonidan jinoyatlar sodir etilmagan<sup>22</sup>.

Ushbu davrda MJtKning 190-moddasi asosida javobgarlikka tortilib, profilaktik hisobda turgan ayollar soni 586 nafar bo'lib, ularning bor yo'g'i 99 nafari (19,2 foizi)ni Toshkent shahar aholisi tashkil etsa, qolgan 487 nafari (80,8 foizi)ni boshqa viloyatlardan kelganlar tashkil qiladi. Xotin-qizlar huquqbuzarliklarining bu kabi miqdor va sifat ko'rsatkichlari Toshkent shahrida xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini alohida, o'ziga xos tarzda tashkil etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Erishilgan natijalarga qaramasdan, xotin-qizlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasida quyidagi muammolarning mavjudligi ko'zga tashlanmoqda:

*birinchisi*, ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'linmalari malakali mutaxassislar kadrlar bilan ta'minlanmagan. Chunki, IIV Akademiyasida ham, Toshkent davlat yuridik universitetning filialida ham ichki ishlar organlarining xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'linmalari uchun malakali mutaxassislar yetishtirib berishni nazarda tutuvchi tor mutaxassisliklar mavjud emas.

<sup>22</sup> Toshkent shahar Ichki ishlar bo'sh bo'sharmasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'sharmasining 2020 yil yakunlari b'uyicha hisoboti.

Vaholanki, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida xodimlardan pedagogik, psixologik va profilaktik taktik kabi maxsus bilimlar talab etiladi. Aks holda muammoli xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, ularni bartaraf etish va bu kabi toifadagi xotin-qizlarga profilaktik ta'sir ko'rsatishda kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi;

*ikkinchisi*, milliy qonunchiligimizda voyaga yetmaganlar singari, xotin-qizlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi masalalarini ham xotin-qizlar va ular bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib huquqiy tartibga solish zarurati mavjud;

*uchinchisi*, Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasidagina qonun hujjatlarida xotin-qizlarning ijtimoiy tengligini ta'minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari yarataldi.

Biroq shu bilan birga, ushbu qonun normalari talablarining ijtimoiy xayotga to'liq tadbiiq etilishini ta'minlash, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy, huquqiy va amaliy muammolarini tadqiq etish va shu asosda ilmiy asoslangan ilmiy xulosa, amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqish uchun fundamental, ilmiy va amaliy tadqiqotlar o'tkazilishini tizimli yo'lga qo'yish talab etiladi.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, maqolada ilgari surilgan fikr-mulohazalar *birinchidan*, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish dolzarb vazifa ekanligini asoslashga; *ikkinchidan*, xotin-qizlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida mavjud muammolarni aniqlashtirishga; *uchinchidan*, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish yo'nalishlarini belgilab olishga; *to'rtinchidan*, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyatini oydinlashtirishga xizmat qiladi.

## **REFERENCES**

1. Аёллар жиноятчилигининг сабаб ва шароитлари ҳамда профилактикаси. Ўқув қўлланма. Қ.Р.Абдурасулова Д.М.Миразов, Ж.С. Мухторов ва бошқалар. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2016. – Б. 5.

2. Тошкент шаҳар Ички ишлар бош бошқармаси Хуқуқбузарликлар профилактикаси бошқармасининг 2020 йил якунлари бўйича ҳисоботи.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот–Шукр / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ. Ўз. Рес. ФА Тил ва адабиёт ин-ти. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2008. – 608-б.

4. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги “Хотин-қизлар ва эркеклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида”ги ЎРҚ-562-сон қонуни // URL: <https://lex.uz>.

5. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 2 сентябрдаги “Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги ЎРҚ-561-сон қонуни // URL: <https://lex.uz>.

6. *Холбаев С.* Аёл, оила жамият/ Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: - Б. 4.

## **SUD HOKIMIYATI MUSTAQILLIGINING INSTITUTSIONAL JIHATLARIGA OID XALQARO STANDARTLARNI O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISH**

**Mohichehra Yuldasheva,**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti  
YUNESKOning “Xalqaro huquq va inson huquqlari” kafedrasini  
“Xalqaro huquq” yo`nalishi magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada sud hokimiyati mustaqilligining institutsional jihatlari o'ld xalqaro standartlarning O'zbekiston qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalari haqida yozilgan.*

***Kalit so'zlar:** sud hokimiyati, sud organlari, mustaqillik prinsipi, mustaqil sud, institutsional mustaqillik, implementatsiya.*

### **ABSTRACT**

*This article deals with the implementation of international standards in the legislation of Uzbekistan on the institutional aspects of the independence of the judiciary.*

***Keywords:** judiciary, judiciary, principle of independence, independent judiciary, institutional independence, implementation.*

### **KIRISH**

BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining Sudyalari va advokatlari mustaqilligini ta'minlash bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Diego Garsiya-Sayan o'zining dastlabki mulohazalarida “Umuman olganda mamlakatda sud hokimiyati mustaqilligini kuchaytirish tomon ko'rilgan choralarga qaramasdan mavjud tizim iyrarxiyaga asoslangan tizim bo'lib, unda sudlar raislari, siyosiy organlar va prokuratura organlarining ta'siri haddan ziyod ko'p bo'lib qolmoqda. Mening fikrimcha, O'zbekiston sud tizimida mavjud bo'lgan hokimiyatning de-fakto vertikal strukturasi hamda sudyalarni tayinlash va lavozimdan bo'shatishga qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatlari aralashuvining turli shakllari birinchi navbatda bartaraf etilishi lozim”<sup>23</sup>, deb O'zbekistonda sud hokimiyati mustaqilligining institusional va individual jihatlari huquqiy baho bergan edi.

<sup>23</sup> БМТнинг Судьялар ва адвокатлар мустақиллиги бўйича махсус маърузачиси Диего Гарсия-Саяннинг Ўзбекистонга расмий ташриф натижалари бўйича дастлабки мулоҳазалар.// <http://www.un.uz/uzb/news/display/348>.



Universal va mintaqaviy xalqaro shartnomalarda har bir shaxsga uning huquqlari va burchlari aniqlanayotganda, shuningdek jinoyat sodir etishda ayblanayotgani bilan bog'liq ishi ochiq sud majlisi tartibida, nufuzli mustaqil sud tomonidan adolat va xolislik asosida ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlangan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Zamonaviy konstitutsiyaviy davlatlarda sud hokimiyati mustaqilligi hokimiyatlar taqsimlanish prinsipiga asoslanib, ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlari hokimiyatning uchta alohida tarmog'ini o'zida namoyon qiladi. Hokimiyatni suiste'mol qilishning oldini olishga qaratilgan o'zaro tiyib turish va muvozanatda saqlash tizimini hosil qiladi. Mustaqillik prinsipi – sud hokimiyati konstitutsiyaviy institut sifatida, aniq bir ish bo'yicha qaror qabul qilayotgan sudyalarning esa ijro, qonun chiqaruvchi hokimiyatlar va boshqa organlar tomonidan hech qanday tashqi ta'sirsiz o'zlarining professional vazifalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozimligini anglatadi.

Faqat mustaqil sud hokimiyatigina xolis, qonunga asoslanib, inson huquqlari va shaxsning asosiy erkinliklarini himoya qilgan holda odil sudlovni amalga oshira oladi. Bu vazifa samarali hal qilinishi uchun jamoatchilik sud organlari o'z funksiyalarini mustaqil va xolis amalga oshirish qobiliyatiga to'liq ishonishi lozim. Qachonki, ishonch yo'qolishni boshlasa, na sud hokimiyati institut sifatida, na alohida sudyalarning bu muhim vazifani hal qila olishadi yoki ularning bu vazifani ado etayotganiga shubha bilan qarashadi.

Sud hokimiyati mustaqilligi prinsipi sudyalarning shaxsiy foydasiga emas, balkim hokimiyatning suiste'mol qilinishidan insonlari himoya qilishga xizmat qiladi. Shuning uchun, sudyalarning kelib tushgan ishlarni ko'rib chiqishda, o'zining shaxsiy hohishidan kelib chiqib o'z bilganlaricha harakat qila olishmaydi, ularning burchi faqat qonunni qo'llash hisoblanadi. Shaxs huquqlarini himoya qilish sohasida, sudyalarning har bir tegishli holatda inson huquqlari bo'yicha milliy va xalqaro normalarni qo'llash uchun javob beradi.

1985 yil Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlar bilan muomala qilish bo'yicha 7-Kongressi “Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari”ni qabul qilgan va Bosh Assambleya tomonidan bir ovozda maqullangan<sup>24</sup>.

<sup>24</sup> Суд органлари мустақиллигининг асосий принциплари. БМТнинг жиноятчиликнинг олдини олиш ва ҳуқуқбузарлар билан муомала қилиш бўйича 1985 йил 26 августдан 6 сентябргача Миланда бўлиб ўтган еттинчи конгрессда қабул қилинган ва БМТ Бош Ассамблеясининг 1985 йил 29 ноябрдаги 40/32-сонли резолюцияси билан тасдиқланган. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига оид халқаро ҳужжатлар: тўплам. – Тошкент: “Адолат”, 2004. – Б. 109-113.

Shu sababli, ushbu prinsiplar BMTga a'zo davlatlar tomonidan bu masalada umum e'lon qilingan fikr sifatida tavsiflanadi va bu prinsiplar xalqaro nazorat organlari va xalqaro nohukumat tashkilotlar tomonidan sudyalarning mustaqilligini baholashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu prinsiplar quyidagi masalalarga bag'ishlangan:

- sud organlari mustaqilligi;
- so'z va uyushish erkinligi,
- malaka, tanlov va tayyorlov,
- xizmat sharoitlari va vakolatlar muddati,
- kasbiy sir va immunitet,
- jazolash, lavozimdan chetlashtirish va ishdan bo'shatish<sup>25</sup>.

Mustaqillik va xolislik tushunchalari bir-biri bilan o'zaro bog'liq va ayrim xalqaro nazorat organlari ularni birgalikda ko'rib chiqishadi. Ushbu tushunchalarning har biri o'zining aniq ma'nosiga va maxsus talablariga ega. Mustaqillik tushunchasi sud hokimiyati mustaqilligini ifodalovchi konstitutsiyaviy prinsip hisoblanadi. Sud hokimiyati mustaqilligi inson huquqlari bo'yicha, xalqaro huquq bo'yicha ijro etuvchi hokimiyat bilan xolis shartlar va kafolatlar asosida "xohish-iroda", balki maqom" yoki "boshqalar bilan munosabatni" bildiradi. Sud hokimiyati mustaqilligi maqomi yoki munosabati Individual va institutsional munosabatlarni nazarda tutadi. Sudyaning individual mustaqilligi kafolatlangan vakolat muddatida ifodalansa, sudning institutsional mustaqilligi ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlar bilan institutsional va ma'muriy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

BMT Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasiga ko'ra xolislik tushunchasi "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt 14-moddasi 1-bandiga muvofiq sudyalarning ishlarni ko'rishda noxolis va bir taraf manfaatlariga ko'zlab ishlamasliklari lozim<sup>26</sup>. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga ko'ra xolislik tushunchasi sub'ektiv va xolis elementlarni o'z ichiga oladi. Sud nafaqat xolis bo'lishi, balkim sudning hech bir a'zosi qandaydir shaxsiy adovatli yoki noxolis bo'lishi hamda xolislik nuqtai nazaridan ham xolis bo'lishi lozim.

**Institutsional mustaqillik** bu sud hokimiyatining boshqa hokimiyatlar – ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlardan mustaqil bo'lishini anglatadi. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 1-prinsipiga asosan "Sud organlarining mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanadi va mamlakat konstitutsiyasi yoki

<sup>25</sup> Ўша жойда.

<sup>26</sup> Доклад Комитета по правам человека, A/48/40 (Part II) 1 November 1993, docstore.chchr.org. SelfServices FileslanderPDF

qonunlarida mustahkamlanadi. Barcha davlat organlari va boshqa muassasalar sud organlari mustaqilligini hurmat qilishlari va bunga rioya qilishlari shart"<sup>27</sup>, deb belgilangan. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 7-prinsipiga asosan "Har bir a'zo davlat sud organlariga o'z funksiyalarini lozim darajada bajarish imkonini beradigan tegishli vositalarni taqdim etishi shart"<sup>28</sup> ligi qayd qilingan.

Boshqa hokimiyat tarmoqlaridan sud organlari mustaqilligini ta'minlash maqsadida bu mustaqillikni Konstitutsiyada agar u bo'lmasa, boshqa huquqiy hujjatda kafolatlab qo'yish lozim.

Konstitutsiyada belgilangan mustaqillikni amaliyotda qo'llash masalasini xalqaro huquqda aniq ko'rsatilmagan bo'lsada, sud hokimiyati o'z funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq ma'muriy masalalarini hal qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozimligi tushuniladi. Bu sudlarda sudb'yalar o'rtasida ishlarni taqsimlash va boshqa malalalarda o'z ifodasini topadi, "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 14-prinsipida ko'rsatilgani kabi bu masala sud tizimining ichki ishi hisoblanadi<sup>29</sup>.

"Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 7-prinsipiga asosan "Har bir a'zo davlat sud organlariga o'z funksiyalarini lozim darajada bajarish imkonini beradigan tegishli vositalarni taqdim etishi shartligi"<sup>30</sup> belgilangan.

O'z funksiyalarini lozim darajada bajarish imkonini beradigan vositalarsiz sud sudyalar va sud xodimlari o'z vazifalarini yetarli darajada bajara olishmaydi, tashqi bosimlarga bardosh beraolmaydi, korruptsiyaga moyilligi oshadi.

Ma'muriy va moliyaviy masalalar haqida gap ketganda mustaqillik har doim ham mutlaq bo'lmasligi mumkin, hokimiyatning uchta tarmog'i bir biridan mustaqil hisoblansada, ayrim masalalarda, jumladan, resurslarni taqsimlashda o'z xarakteri bilan bir biriga bog'liq hisoblanadi. Bu hokimiyatlar taqsimlanish prinsipiga asoslangan ichki keskinlik hisoblanib, bu tizimda bo'lishi muqarrar bo'lsada, misol uchun, parlament sud hokimiyati byudjetini nazorat qilish orqali sud hokimiyatining samarali faoliyat ko'rsatishiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

<sup>27</sup> Суд органлари мустақиллигининг асосий принциплари. БМТнинг жиноятчиликнинг олдини олиш ва ҳуқуқбузарлар билан муомала қилиш бўйича 1985 йил 26 августдан 6 сентябргача Миланда бўлиб ўтган еттинчи конгрессда қабул қилинган ва БМТ Бош Ассамблеясининг 1985 йил 29 ноябрдаги 40/32-сонли резолюцияси билан тасдиқланган. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига оид халқаро ҳужжатлар: тўплам. – Тошкент: "Адолат", 2004. – Б. 10-111.

<sup>28</sup> Ўша асар.– Б. 111.

<sup>29</sup> Суд органлари мустақиллигининг асосий принциплари. БМТнинг жиноятчиликнинг олдини олиш ва ҳуқуқбузарлар билан муомала қилиш бўйича 1985 йил 26 августдан 6 сентябргача Миланда бўлиб ўтган еттинчи конгрессда қабул қилинган ва БМТ Бош Ассамблеясининг 1985 йил 29 ноябрдаги 40/32-сонли резолюцияси билан тасдиқланган. // ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига оид халқаро ҳужжатлар: тўплам. - Тошкент: "Адолат", 2004. –Б. 112.

<sup>30</sup> Кўрсатилган асар.– Б. 111.

“Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari” 1-prinsipiga asosan “Barcha davlat organlari va boshqa muassasalar sud organlari mustaqilligini hurmat qilishlari va bunga rioya qilishlari shart”<sup>31</sup>. Bu juda chuqur ma’noga ega bo’lib, ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyat shu jumladan, politsiya, jazoni ijro etish tizimi, ijtimoiy sohalar, ta’lim tizimi chiqarilgan qarorlarga qo’shilmasalarda sud organlari qarorlarini hurmat qilishlari va unga rioya qilishlari shart. Sud hokimiyatiga nisbatan hurmat qonun ustuvorligini va inson huquqlarini ta’minlashda mutlaq zarur bo’lib, barcha hokimiyat tarmoqlari va barcha davlat muassasalari sud organlarining mustaqil qaror chiqarishlariga to’sqinlik qiladigan har qanday aralashuvlarning oldini olishi shart.

Sud organlarining qarorlar qabul qilishdagi mustaqilligi “Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari” 4-prinsipida qo’shimcha tarzda mustahkamlangan bo’lib, unga ko’ra “Odil sudlov jarayoniga g’ayriqonuniy yoki ruxsat etilmagan aralashuvlar bo’lmasligi kerak hamda sudlar chiqargan qarorlari qayta ko’rilmaydi. Ushbu prinsip qonunga muvofiq amalga oshiriladigan sud organlari chiqargan hukmlarning sud tartibida qayta ko’rilishiga yoki yengillashtirilishiga to’sqinlik qilmaydi”<sup>32</sup>.

“Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari” 3-prinsipiga asosan “Sud organlari sud xususiyatiga ega bo’lgan barcha masalalarga nisbatan vakolatga hamda ularga berilgan ish qonunda belgilangan vakolatlarga kirish-kirmasligini hal qilishdan iborat mutlaq huquqqa egadir”<sup>33</sup>.

Sudlarning vakolatiga oid masalalarni mustaqil hal etish qoidasi milliy va xalqaro darajada o’z ifodasini topgan bo’lib, Inson huquqlari bo’yicha Yevropa sudining vakolati esa “Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to’g’risida”gi Yevropa konvensiyasi 32-modda 2-bandida<sup>34</sup> mustahkamlangan.

Sud hokimiyat tarmog’i sifatida nafaqat ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlardan mustaqil bo’lishi balki, sudyalarda o’z professional majburiyatlarni bajarayotganlarida mustaqillikdan foydalanish huquqiga ega. Albatta, bu sudyalarda o’z bilganlaricha yoki o’zlari xohlaganlaricha qarorlar chiqaradi degani emas, ular o’zlariga topshirilgan ishlarni faqatgina qonunga asoslanib, o’ziga nisbatan

<sup>31</sup> Kўrsatilgan asar.– B.110-111.

<sup>32</sup> Суд органлари мустақиллигининг асосий принциплари. БМТнинг жинойтчиликни олдини олиш ва ҳуқуқбузарлар билан муомала қилиш бўйича 1985 йил 26 августдан 6 сентябргача Миланда бўлиб ўтган еттинчи конгрессида қабул қилинган ва БМТ Бош Ассамблеясининг 1985 йил 29 ноябрдаги 40/32-сонли резолюцияси билан тасдиқланган. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига оид ҳужжатлар: тўплам. - Тошкент: "Адолат", 2004. – Б.111.

<sup>33</sup> Ўша жойда.

<sup>34</sup> Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms Rome, 04/11/1950. <https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list-1conventions/treaty/005>

bildirilgan tanqidlar, tahdidlar, qiyin va nozik masalalar bo'lishiga qaramasdan adolatli qarorlar chiqarishi lozim.

Xalqaro huquqda sudyalarning qanday tayinlanishi lozimligi to'g'risida imperativ norma mavjud emas, deklarativ tushdagi tavsiyalar mavjud. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" da sudyalar tayinlanishi yoki saylanishi to'g'risida holat ko'rsatib o'tilmagan. Faqatgina "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 10-prinsipida "Sud lavozimlariga tanlab olingan shaxslar yuksak axloqiy xislat va qobiliyat, shuningdek huquq sohasida tegishli tayyorgarlik va malakaga ega bo'lishlari lozim. Sudyalarni tanlashning har qanday usuli g'ayriqonuniy sabablar bo'yicha sudyalarning tayinlanishiga yo'l qo'ymasligini kafolatlashi kerak. Sudyalarni tanlaganda ular irqi, tana rangi, jinsi, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy yoki boshqa ahvoli bo'yicha ajratilmasligi kerak, biroq yuridik lavozimga nomzod tegishli mamlakatning fuqarosi bo'lishi kerakligi haqidagi talabga ajratish sifatida qaralmasligi lozim"<sup>35</sup>ligi qayd qilingan.

Sudyalarni tanlab olishning usullaridan qat'i nazar ularning professional tayyorgarlik darajasi va axloqiy sifati tanlab olish uchun yagona mezon sifatida xizmat qilishi lozim.

Agar sudyalar lavozimida uzoq kafolatlangan muddatda bo'lishmasa, ularning mustaqilligiga jiddiy xavf mavjud, ular qarorlar chiqarayotganida bosimga uchrashlari mumkin. Shuning uchun "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 11-prinsipida "Sudyalarni vakolat muddati, mustaqilligi, xavfsizligi, tegishli tarzda mukofotlanishi, xizmat sharoitlari, pensiyasi va pensiyaga chiqish yoshi qonunda belgilangan tarzda kafolatlanishi kerak"ligi belgilangan<sup>36</sup>. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 12-prinsipiga ko'ra "Tayinlanadigan yoki saylanadigan sudyalar pensiyaga chiqqaniga qadar yoki vakolat muddati belgilangan mamlakatlarda ushbu muddat o'tganiga qadar kafolatlangan vakolat muddatiga egadir"<sup>37</sup> deb qayd qilingan kafolatlangan lavozimda bo'lish muddatisiz yoki qisqa kafolatlangan muddatga sudyalarni tayinlash yoki saylash 11 va 12 prinsiplarning buzilishi hisoblanadi. Sudyalarga doimiy mandatni taqdim qilish

<sup>35</sup> Суд органлари мустақиллигининг асосий принциплари. БМТнинг жиноятчиликнинг олдини олиш ва ҳуқуқбузарлар билан муомала қилиш бўйича 1985 йил 26 августдан 6 сентябргача Миланда бўлиб ўтган еттинчи конгрессда қабул қилинган ва БМТ Бош Ассамблеясининг 1985 йил 29 ноябрдаги 40/32-сонли резолюцияси билан тасдиқланган. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига оид ҳужжатлар тўплам. – Тошкент: "Адолат", 2004. –Б. 112.

<sup>36</sup> Ўша жойда.

<sup>37</sup> Кўрсатилган асар. – Б. 111.

sudyalarning mustaqilligini maksimal darajada kafolatlaydi va fuqarolarning sud hokimiyatiga ishonchini oshiradi.

Sud tizimining mustaqilligini ta'minlash va targ'ib qilishda yordam berish uchun ishlab chiqilgan asosiy prinsiplar davlatlarning milliy qonunchiligi va amaliyoti doirasida hukumatlar tomonidan hisobga olinishi va hurmat qilinishi va sudyalari, advokatlar e'tiboriga etkazilishi kerak. Ijroiya va qonun chiqaruvchi hokimiyat a'zolari va umuman jamoatchilik.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, sud hokimiyati mustaqilligi tushunchasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

✓ birinchidan, sud hokimiyati konstitutsiyada mustahkamlangan mustaqillikka ega bo'lishi lozim, jumladan, u boshqa hokimiyat tarmoqlari ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlardan mustaqil bo'lishi lozim;

✓ ikkinchidan, sud hokimiyati ichki masalalarda, jumladan, sud ma'muriyatchiligida, suddagi ishlarning sudyalari o'rtasida taqsimlanishida ham mustaqil bo'lishi lozim,

✓ uchinchidan, sud hokimiyati moliyaviy masalalarda ham mustaqil bo'lishi lozim va o'z funktsiyalarini samarali amalga oshirishga yetarli mablag'ga ega bo'lishi lozim;

✓ to'rtinchidan, sud hokimiyati qarorlar qabul qilishda mustaqil bo'lishi lozim, hukumat va boshqa muassasalar sud organlari tomonidan chiqarilgan qarorlarni hurmat qilishi va unga rioya qilishlari shart;

✓ beshinchidan, sud hokimiyati yurisdiksiya vakolatga ega bo'lishi lozim, vakolat masalasini aniqlashda sudlarning mustaqilligi bildiradi;

✓ oltinchidan, sud hokimiyati adolatli sud jarayonini tashkil qilish va asoslantirilgan qaror chiqarishni ta'minlashga majbur.

### **REFERENCES**

1. Сулайманов О.Р. Суд ҳокимияти мустақиллигига оид халқаро стандартлар. / Монография –Т.: «Tafakkur qanoti», 2020.

2. БМТнинг Судьялар ва адвокатлар мустақиллиги бўйича махсус маърузачиси Диего Гарсия-Саяннинг Ўзбекистонга расмий ташриф натижалари бўйича дастлабки мулоҳазалар. // <http://www.un.org/uzb/news/display/348>.

3. Суд органлари мустақиллигининг асосий принциплари. БМТнинг жиноятчиликнинг олдини олиш ва ҳуқуқбузарлар билан муомала қилиш бўйича 1985 йил 26 августдан 6 сентябргача Миланда бўлиб ўтган еттинчи конгрессида

қабул қилинган ва БМТ Бош Ассамблеясининг 1985 йил 29 ноябрдаги 40/32-сонли резолюцияси билан тасдиқланган. // ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига оид халқаро ҳужжатлар: тўплам. -Тошкент: “Адолат”, 2004. –Б. 112.

**4.**Суд органлари мустақиллигининг асосий принциплари. БМТнинг жиноятчиликни олдини олиш ва ҳуқуқбузарлар билан муомала қилиш бўйича 1985 йил 26 августдан 6 сентябргача Миланда бўлиб ўтган еттинчи конгрессида қабул қилинган ва БМТ Бош Ассамблеясининг 1985 йил 29 ноябрдаги 40/32-сонли резолюцияси билан тасдиқланган. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига оид ҳужжатлар: тўплам. - Тошкент: "Адолат", 2004. – Б.111.

## **JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHNING XALQARO HUQUQIY TARTIBI: O'ZBEKISTON MISOLIDA**

**Eshtokhtarov Shahboz Qahramon o'g'li**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

[eshtukhtarovshakhboz@gmail.com](mailto:eshtukhtarovshakhboz@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur tadqiqotda Jahon savdo tashkilotining qanday tashkilot ekanligi, tashkilotga a'zolikning huquqiy tartibi, tashkilot tomonidan xalqaro savdoning boshqarilishidagi huquqiy normalar tizimi, tashkilotning davlatlar uchun afzalliklari va zararli tomonlari, shuningdek O'zbekistonning ushbu tashkilotga a'zo bo'lishi huquqiy o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar:** Jahon savdo tashkiloti, a'zolik, antidemping, GATT, GATS, TRIPS, TRIMS, proteksionizm, milliy rejim tamoyili.*

### **ABSTRACT**

*The study examines what kind of organization the WTO is, the legal framework for membership, the system of legal norms governing international trade, the organization's advantages and disadvantages for countries, and Uzbekistan's membership in the organization.*

***Keywords:** World Trade Organization, membership, antidumping, GATT, GATS, TRIPS, TRIMS, protectionism, the principle of national regime.*

### **KIRISH**

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan jarayonlarning tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni erkinlashtirish jahon xo'jaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biriga aylanmoqda. Barcha mamlakatlarda bojxona bojlarining pasayishi, ko'plab turdagi cheklashlarning bekor qilinishi kuzatilmoqda. Ko'plab mamlakatlar yashirincha proteksionistik (davlatning o'z ichki bozorini himoya qilish siyosati) chora-tadbirlardan ham keng foydalanmoqdalar.

Bunday chora-tadbirlar jumlasiga milliy ishlab chiqarish turlariga dotatsiyalar berish, eksportni subsidiyalash, turli xil me'yorlar va standartlar joriy qilish hamda boshqalarni kiritish mumkin. Jahon xo'jaligida erkin savdo va proteksionizm o'rtasida vujudga kelayotgan ziddiyatlarni hal etishda, xalqaro savdoni boshqarish, uning taraqqiyotiga bo'lgan to'siqlarni yo'q qilish va erkinlashtirishida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, xususan, Jahon savdo tashkiloti (JST) muhim o'rin egallaydi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmonida 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlangan. Mazkur strategiyasining 3.1-bandida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘rnatilgan sur‘atlarini saqlab qolish maqsadida xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, *yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish*, puxta o‘ylangan tashqi qarzlarni siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish lozimligi belgilandi<sup>38</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-dekabrda “Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘yicha Idoralararo komissiya tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1040-son qarorida O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga kirishi jarayoni tayyorgarlik bosqichi ishlarini samarali tashkil etishni va tizimli asosda muvofiqlashtirishni ta‘minlash maqsadida Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘yicha Idoralararo komissiya tasdiqlandi<sup>39</sup>.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD**

Jahon savdo tashkilotining mamlakatlar hamda jahon savdosiga ahamiyati shu paytga qadar salmoqli darajada o‘rganilgan. Buning boisi, ushbu tashkilot 1994-yilda tashkil etilgan bo‘lsa-da, uning dastlabki shakli bo‘lgan GATT 1947-yilda tashkil topgan. Shu sababli, olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy taqdiqotlar olib borilgan.

Xususan, mahalliy olimlarimizdan G.Yuldasheva, M.X.Voxidova; Sh.Xajibakiev, shuningdek, xorijiy olimlardan E. Petersmann, M. Herdegen, I.V.Zenkinlar tomonidan ilmiy taqdiqotlar olib borilgan.

Shuningdek, taqdiqot ishida mavzusining spetsifikatsiyasi tizimli-tuzilmaviy, dialektik, mantiqiy, rasmiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy va qiyosiy-tipologik taqdiqot metodlariga murojaat qilishni taqozo etdi.

Umum mantiqiy metodlar – induksiya, deduksiya, analiz, sintez va maxsus huquqiy metodlar qo‘llanildi. Ilmiy adabiyotlar va huquq normalarini sharhlashda grammatik taqdiqot metodidan ham foydalanildi. Taqdiqotda ilmiy mushohada, tizimli va iqtisodiy-statistik taqdiqot, taqqoslash va guruhlash usullari qo‘llanildi.

<sup>38</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. <https://lex.uz/docs/-3107036>

<sup>39</sup> Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-dekabrda 1040-son qarori bilan tasdiqlangan Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘yicha Idoralararo komissiya tarkibi. <https://lex.uz/docs/-4124260>

## **MUHOKAMA**

JSTga a'zo bo'lish tabiatan murakkab bo'lib, iqtisodiyotning barcha sohalariga ta'sir qiladi va nafaqat mamlakatning tashqi savdo rejimiga (bojxona stavkalari, texnik reglament, sanitariya va fitosanitariya tadbirlari va boshqalar), qishloq xo'jaligi (qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash), iqtisodiyot, narxlarni tartibga solish va boshqalar), intellektual mulk, xizmatlar (chet el kompaniyalari xizmatlari), davlat buyurtmalari, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqalarni tartibga solishga ham o'zgarishlar kiritadi.

Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan mamlakatimizning asosiy savdo sheriklari, O'zbekistonni jahon savdosiga yanada ochiqroq qo'shilishini qo'llab-quvvatlaydi va O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoniga har tomonlama yordam beradi. Xususan, Yevropa Ittifoqi O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonini moliyalashtirish uchun 5 million yevro miqdorida grant ajratdi. Tomonlar o'rtasidagi bitim 2019-yil 11-noyabrda Bryusselda imzolangan va Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida, shu jumladan, zarur hujjatlarni tayyorlashda, o'zbekistonlik mutaxassislarining JST shartnomalari bo'yicha bilimlarini oshirishda O'zbekistonga yordam ko'rsatishni nazarda tutadi.

Mamlakatlarning JST ga a'zo bo'lishi ushbu davlatlardagi iqtisodiy rivojlanish hamda mamlakatdagi monopoliyani bartaraf etishning asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining JST ga a'zo bo'lish uchun ariza topshirganiga 25 yildan oshiqroq bo'lgan bo'lsa-da, haligacha ushbu jarayon davom etmoqda. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, boshqa mamlakatlarni JST ga a'zo bo'lishi 4-15 yilni tashkil etadi. Shu boisdan, O'zbekistonning ushbu mamlakatga a'zo bo'lishiga to'sqinlik qilib kelayotgan muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim.

JSTning o'ziga xos xususiyati shundaki, tashkilot o'z a'zo davlatlarining savdo amaliyotini bosqichma-bosqich erkinlashtirish, raqobat va mamlakatlar o'rtasidagi savdo almashinuvining samaradorligi uchun ko'proq imkoniyatlar yaratish orqali savdoni rivojlantiradi. I.A. Xamedov va A.M. Alimovlar ta'kidlanganidek, tashkilot a'zo davlatlar o'rtasida kamsitilmaydigan savdo-sotiqni ta'minlaydi, savdo amaliyotining shaffofligi va bashorat qilinishini qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek a'zolar o'rtasida yuzaga keladigan savdo nizolarini hal qiladi. Mamlakatlar Jahon savdo tashkilotiga erkin savdo imkoniyatlaridan foydalanish va JSTning nizolarini hal qilishning yaxlit mexanizmidan foydalanish maqsadida qo'shilishadi, bu esa o'z navbatida bizning davlatimizning ushbu tashkilotga a'zo bo'lishining asosiy sabablaridan biridir.

## **NATIJARLAR**

O'zbekistonning ushbu tashkilotga a'zo bo'lishi natijasida O'zbekiston qonunchilida kutilayotgan o'zgarishlarni tizimli tahlil qilish hamda xalqaro normalar bilan unifikatsiyalash kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini oladi hamda ortiqchi ovoragarchilikni cheklaydi.

JST ga a'zo bo'lish natijasida O'zbekistonning xalqaro huquqiy ahvolidagi o'zgarishlar hamda boshqa mamlakatlar bilan bo'ladigan savdo-sotiq va boshqa turdagi munosabatlarda kutilayotgan o'zgarishlar O'zbekistonning hozirgi avholiga qay darajada ta'sir etishini tadqiq etish kutilayotgan muammolarni oldini olish va bartaraf etishni kafolatidir.

Birinchidan, jahon bozoriga beg'araz kirish masalalarini o'rganish kerak. Mamlakatlar JSTga birinchi navbatda JSTning boshqa a'zolari bozorlariga kirish huquqini olish uchun qo'shilishadi, bundan tashqari ular tashkilotning barcha a'zolariga beradigan afzalliklaridan foydalanishi mumkin, masalan kamsitilmasdan savdo qilish. Ushbu afzallik chegaradagi savdo choralari ham, mamlakat ichkarisiga ham tegishli. Birinchi holda, bu Jahon savdo tashkilotining barcha a'zolari uchun bir xil import tariflari va bojlari qo'llanilishini kafolatlaydigan va har qanday kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydigan eng ma'qul bo'lgan tamoyilga o'xshaydi. Holbuki, ikkinchisi, milliy rejim tamoyili, JSTning barcha a'zolarini import qilinadigan tovarlarga nisbatan milliy mahsulotga nisbatan bir xil tartibda qo'llashni majbur qiladi. Biroq, JSTga a'zo bo'lmagan mamlakatlarda chet el tovarlariga mahalliy mahsulotlarga nisbatan unchalik qulay sharoit berilmaydi. Shu sabablarga ko'ra, JSTga qo'shilmasdan, mamlakatlar eksporti ham tariflar, ham mahalliy tartibga solish nuqtai nazaridan unchalik qulay bo'lmagan munosabatga duch kelishi mumkin.

Ikkinchidan, X.S. Islomxo'jaev ta'kidlaganidek, JST o'z a'zolarini tashqi savdo bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni barcha a'zolarga taqdim etishni va rejalashtirilgan o'zgarishlar to'g'risida oldindan xabardor qilishni majbur qiladigan shaffoflik tamoyilini o'rnatish orqali bashorat qilinadigan savdo uchun shart-sharoitlar yaratishi mumkin. Keyinchalik, a'zolar rejalashtirilgan o'zgarishlarga moslashish uchun ma'lumotga ega bo'ladilar, bu esa savdo noaniqligi va a'zo davlatlar uchun xavflarni kamaytiradi.

Savdolarning ochilishi, shuningdek, berilgan imtiyozlar bilan bir qatorda, ichki sanoatga zarar yetkazish xavfini tug'dirishi mumkin, chunki ichki bozor tashqi va ichki bozorlarda qattiq raqobatga duch kelishi mumkin. Xalqaro raqobat mahalliy sanoat tarmoqlarining daromadlari va rentabelligini pasaytirib, ularni o'z bizneslarini

optimallashtirishga majbur qilishi mumkin, bu esa ish haqining pasayishi yoki ish joylarining yo'qolishi kabi salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, savdoning o'sishi firibgarlik va bozor ulushini olishning axloqiy bo'lmagan usullari ko'rinishidagi nohaq ishbilarmonlik amaliyoti xavfini ham oshiradi. Xalqaro amaliyotda kompaniyalar raqobatbardosh tarmoqlarni bozordan siqib chiqarib, bozor ulushini ko'paytirishning yuqori narxlari, demping va boshqa adolatsiz usullariga murojaat qilganliklari haqida ko'plab misollar mavjud. Ammo, agar mamlakatda bozorni kuzatish uchun ishlaydigan tegishli qoidalar va institutlar tizimi o'rnatilgan bo'lsa, bunday xatarlarni yengish va ularni minimal ko'rsatkichlarga kamaytirish mumkin.

Savdo munosabatlari sohasidagi nizolarning aksariyati buzilish faktidan yoki ushbu qonunbuzarliklarning xususiy kompaniyalar manfaatlariga ta'sir qiladigan oqibatlaridan kelib chiqadi deb ta'kidlashning boshlanishiga asoslanib, shuningdek, kelgusida qo'llanilishi va samaradorligini ta'minlash maqsadida Jahon savdo tashkilotining O'zbekiston Respublikasi uchun nizolarni hal qilish tizimi, savdo aloqalari sohasida davlat-xususiy sherikligini o'rnatish zarur. Hukumat va ishbilarmon doiralarning o'zaro o'xshash tizimi o'rnatilgan AQSh, Xitoy va Yevropa Ittifoqi kabi ilg'or mamlakatlar va assotsiatsiyalar tajribasidan foydalangan holda, savdo vakili institutini yaratish taklifi ilgari surilmoqda yoki faoliyati xalqaro savdo bo'yicha, xususan, JSTdagi faoliyat masalalari bo'yicha tavsiyalar berishga yo'naltirilgan maxsus komissiya tuzish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, biz ularga Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlarning tashqi bozorlarida ko'rilgan choralarning noqonuniyligi to'g'risida shikoyat va takliflarni qabul qilish huquqini berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, bu esa davlat organlari va kompaniyalarining harakatlarini muvofiqlashtirish va ularni himoya qilishga imkon beradi. JST shartnomalarining buzilishi to'g'risida o'z vaqtida xabar berish orqali davlat manfaatlarini himoya qilinadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining ushbu tashkilotga qo'shilish jarayoni juda mashaqqatli va uzoq davom etadi, bu ba'zi jihatlar uchun mavjud tizimlar va huquqiy me'yorlarni to'liq isloh qilishni, ba'zilarida esa davlat savdosini liberallashtirishga qaratilgan tuzatuvchi normalarni joriy etishni talab qiladi. Shu munosabat bilan, Jahon savdo tashkilotining hozirgi pozitsiyasi ko'rib chiqilishga arziyerdahozirda u yerda a'zo davlatlar tashkilotning institutsional vakolatxonasini tubdan o'zgartirish to'g'risida takliflar kiritmoqdalar, tabiiyki, bu bizning davlatimiz uchun bevosita kichik ahamiyatga ega bo'lmaydi. Shu sababli, davlat va umuman uning iqtisodiyoti uchun ijobiy va salbiy oqibatlarga olib kelishi ehtimolini inobatga

olgan holda ushbu tashkilotga qo'shilishning barcha jihatlarini tizimli va har tomonlama tahlil qilish kerak.

## **XULOSA**

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, Jahon savdo tashkilotiga O'zbekiston uchun kirish – bu iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bozor islohotlarini rivojlantirish uchun ko'proq imkoniyat va rag'batdir. Shu bilan birga, ushbu islohotlar tarkibiga import bojlarini pasaytirish, chet el tovarlari uchun ichki bozorni mahalliy ishlab chiqarish bilan teng raqobatlashishi va ko'p tomonlama savdo muzokaralari orqali o'z savdosini erkinlashtirishni davom ettirish majburiyatini o'z ichiga oladi. Shu sababli, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning potentsialini kuchaytirish va ularning raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini oshirish zarur.

Bu ularning chet el mahsulotlarini qabul qilish sababli ichki bozordan siqilib chiqishiga yo'l qo'ymaslikdir. Shuningdek, faqat shu holatda savdo cheklovlarining kamaytirilishi, shubhasiz, ishbilarmonlik faolligini oshiradi, sarmoyalarni jalb qiladi va mamlakatning xalqaro qiymat zanjirlariga qo'shilishiga yordam beradi, bu esa davlatning iqtisodiy ko'rsatkichlarining keyingi modernizatsiyasi va o'sishida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zolikka kelajakda qabul qilinishi inobatga olingan holda quyidagilar taklif etiladi:

tovar va mahsulotlar bozorga kirish huquqiga ega bo'lishi uchun, JSTga a'zo mamlakatlar GATT – 1994 II moddasi bilan tartibga solinadigan Tariflar ro'yxatida (Schedule of Concession) belgilangan maksimal boj stavkalarini oshirmasligi shart. Bundan tashqari, JST a'zolari, tovar va mahsulotlarni bozorga kirishida miqdoriy cheklovlarni ham qo'llashi qat'iy man qilinadi. Shuningdek, JSTga a'zo mamlakatlar tarifsiz to'siqlari (masalan, bojxona rasmiylashtirish protseduralari) savdoga ortiqcha to'siq bo'lishiga yo'l qo'ymasliklari kerak.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga tegishli tartibga qayta ko'rib chiqilishi lozim. Jumladan, mazkur Kodeksning quyidagi miqdoriy cheklovlar belgilash huquqini beruvchi moddalar qayta ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq:

✚ 54-moddasi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimida tovarlarni qayta ishlashga yo'l qo'yishga doir miqdoriy cheklovlarni belgilashi mumkin);

✚ 82-moddasi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirishga doir miqdoriy cheklovlarni belgilashi mumkin);

✚ 364-moddasi (Tovarni bojxona hududiga olib kirishda tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat muayyan mamlakatdan olib kirilishi miqdoriy cheklovlar (kvotalar) yoki tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning boshqa choralarini orqali boshqarib turiladigan tovarlarga majburiy tartibda taqdim etiladi);

✚ Bojxona kodeksining Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar va tarif preferensiyalari deb nomlanuvchi 43-bobi Eng ko'p qulaylik tug'diruvchi rejim tamoyili va Milliy rejim tamoyili asosida qayta ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

Antidemping bitimida, shuningdek, JSTga a'zo davlatlarning tekshiruv organlari antidemping tekshiruviga kirishish va uni amalga oshirishga doir qoidalar batafsil bayon etilgan. Shuningdek, vakolatli organ tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan antidemping tekshiruvi haqida xabardor qilish va tekshiruv natijalarini e'lon qilish majburiyatlari haqida Antidemping bitimining 12-moddasida ko'rsatilgan. Bundan tashqari, Antidemping bitimining 13-moddasida mustaqil sudlar, arbitraj sudlari yoki ma'muriy sudlarning mavjudligi hamda antidemping protseduralarida tekshiruvlarga doir xulosalarni yoki yakuniy xulosalarni ko'rib chiqishga doir protseduralarning mavjudligini talab qilinadi.

Bizning qonunchiligimizda bu turdagi nizolar ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqilishi belgilangan. Shu boisdan, Antidemping bitimida belgilangan qoidalarni implementatsiya qilish maqsadida antidemping bilan aloqador nizolarni arbitraj sudlarida ko'rib chiqish tartibini qonunchiligimizda joriy etishimiz lozim.

Bundan tashqari, qonunchiligimizda mavjud bo'lgan investitsion cheklovlarni bartaraf etish choralarini ko'rish, bu maqsadda O'zbekiston Respublikasining Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonunidagi investitsiya kiritish man etilgan sohalarni qayta ko'rib chiqish lozim, shuningdek mamlakatimizdagi investitsiyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni JST va uning TRIMS bitmi qoidalariga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

JST faoliyati to'g'risidagi fikrlar va qarashlarning hozirgi beqarorligi sababli biz ushbu tashkilotga a'zo bo'lishga da'vogar sifatida voqealar rivojlanishining barcha mumkin bo'lgan oqibatlari va natijalarini ko'rib chiqishimiz kerak. Biroq, shu bilan birga, jahon savdosi pozitsiyalarining o'zgarishi munosabati bilan mamlakat savdo tizimini o'zgartirish g'oyasining o'zi savdo-sotiqni tartibga solishning milliy tizimida ijobiy ko'rinishda bo'lishi mumkin.

## **REFERENCES**

1. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish

tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. –Toshkent: O'zbekiston, 2016. -56 b.

2. Xalqaro iqtisodiy huquq. Darslik. Mas'ul muxarrir prof. G.Yuldasheva. Mualliflar jamoasi. Toshkent:TDYuU nashriyoti, 2019, 186 bet.

3. Белов, В. А. Международное торговое право и право ВТО в 3 кн. Книга 2. Частноунифицированное международное торговое право : учебник для бакалавриата и магистратуры / В. А. Белов. — Москва : Издательство Юрайт, 2019. — 426 с.

4. Страны СНГ в системе всемирной торговой организации тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.14, кандидат экономических наук Захаров, Андрей Александрович. 2010. <https://www.dissercat.com/content/strany-sng-v-sisteme-vsemirnoi-torgovoi-organizatsii>

5. Юридическая природа и тенденции развития сложно структурных комплексов норм, создаваемых международными организациями для регулирования мирового торгового оборота тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 12.00.10, доктор юридических наук Никифоров, Вадим Алексеевич. 2011. <https://www.dissercat.com/content/yuridicheskaya-priroda-i-tendentsii-razvitiya-slozhnostrukturnykh-kompleksov-norm-sozdavaemy>

## **AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA CHET EL DAVLATLARINING QONUN HUIJATLARI TAHLILI**

**Raxmatova Yulduz**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Xalqaro miqyosida axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim bo'lgan samarali xalqaro hamkorlikning istiqboli davlatlarning mahalliy qonunchiliklari va sohaga doir tamoyil va tushunchalarning talqiniga bog'liq ekanligi kundek ravshan. Shu nuqtai nazardan, sohadagi xalqaro hamkorlik masalalariga doir xulosalar va takliflar berish dastlab mahalliy qonunchiliklarning tahliliga asoslanishi muhimdir. Mazkur maqola bir necha davlatlarning axborot xavfsizligini ta'minlash va sohaga doir jinoyat ishlarini javobgarlikiga tortish bo'yicha qonunchiliklarni ko'rib chiqadi va tahlil qiladi. Tahlil uchun qiyosiy-huquqiy va taqqoslash kabi ilmiy usullardan foydalanildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki faqatgina Polsha jinoyat qonunchiligidagina axborot xavfsizligini qonunan muhofaza qilishga tizimli yondashuv mavjud. Boshqa bir necha davlatlarda turli turdagi maxfiy ma'lumotlarning tizimli himoya qilinishini kuzatish mumkin. Ko'plab davlatlarda, shu jumladan Rossiya Federatsiyasida ham, axborot xavfsizligiga qarshi harakatlarni jinoiy javobgarlikka tortish masalalari Jinoyat kodeksining ma'lum bir qisimlarida tarqoq joylashgan.*

**Kalit so'zlar:** *axborot xavfsizligi, xalqaro hamkorlik, xalqaro huquq, axborot maxfiyligi, kiber jinoyat, kiber xavfsizlik.*

## **ANALYSIS OF FOREIGN LEGISLATION IN THE FIELD OF INFORMATION SECURITY**

**Rakhmatova Yulduz**

University of World Economy and Diplomacy, Master's

### **ABSTRACT**

*It became obvious that the prospect of effective international cooperation, which is important in ensuring information security at the international level, depends on the local legislations, principles, and interpretation of concepts related to the sphere. In this regard, it is important to give conclusions and suggestions on the issues of international cooperation in the field initially based on the analysis of local legislation. This article reviews and analyzes legislation on the provision of information security and prosecution of criminal cases in the field of information*



*security of several states. Scientific methods such as comparative-legal and comparison were used for the analysis. The analysis shows that there is a systematic approach to the legislative protection of information security only under Polish criminal law. In many states the issues of criminal liability for actions against Information Security are in certain parts of the Criminal Code.*

**Keywords:** *information security, international cooperation, international law, information confidentiality, cybercrime, cybersecurity*

## **АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В ОБЛАСТИ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ**

**Рахматова Юлдуз**

Степень магистра Университета мировой экономики и дипломатии

### **АННОТАЦИЯ**

*Известно, что перспектива эффективного международного сотрудничества, которое важно для обеспечения информационной безопасности на международном уровне, зависит от местного законодательства, принципов и толкования понятий, относящихся к данной сфере. В связи с этим важно дать выводы и предложения по вопросам международного сотрудничества в этой области, первоначально основанные на анализе местного законодательства. В данной статье рассматривается и анализируется законодательство об обеспечении информационной безопасности и возбуждении уголовных дел в области информационной безопасности ряда государств. Для анализа использовались такие научные методы, как сравнительно-правовой и сравнительный. Анализ показывает, что системный подход к законодательной защите информационной безопасности существует только в рамках польского уголовного законодательства. Во многих государствах вопросы уголовной ответственности за действия, направленные против информационной безопасности, находятся в определенных разделах Уголовного кодекса.*

**Ключевые слова:** *информационная безопасность, международное сотрудничество, международное право, конфиденциальность информации, киберпреступность, кибербезопасность.*

### **KIRISH**

*Xalqaro axborot xavfsizligini ta'minlashda xalqaro tashkilotlarning o'rni, muvofiqlashtiruvchi va tashkilashtiruvchi sifatida juda yuqori bo'lsada, davlatlarning*

mahalliy qonunchiligi, ularning mazkur masala yuzasidan milliy tamoyil va qarashlari xalqaro tashkilotlar miqyosida sohadagi hamkorlikning qay yoʻsinda borishini belgilab berishi turgan gap. Bunga misol yuzasidan Rossiyaning Yevro hududdagi yagona 2001-yilgi konvensiyaga qoʻshilmagan davlat boʻlganligida ham koʻrish mumkin. Bunga asosiy sabab sifatida, masullar tomonidan Rossiyaning sohadagi milliy qarashlari va shu bilan birga Rossiyaning masala yuzasidan bazi tamoyillari bilan konvensiya olgʻa surayotgan tamoyillar oʻrtasidagi ziddiyatlarning mavjudligi asosiy sabab sifatida koʻrsatildi. Bu kabi xalqaro maydonda axborot xavfsizligini taʼminlash borasidagi hamkorlik masalalarida yuz berayotgan hodisalar, mahalliy qonunchilik va davlatlar tamoyillaridagi farqning xalqaro hamkorlikdagi ahamiyati qanchalik muhim ekanligi va bu tafovutlar sohadagi samarali xalqaro hamkorlikni tashkil qilish uchun chuqur oʻrganilishi kerak ekanligini koʻrsatadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Solishtirma tahlillar shuni koʻrsatdiki, koʻplab xorijiy davlatlarning jinoiy qonunlarida axborot xavfsizligini jinoiy-huquqiy himoyalashga tizimli yondashuv mavjud emas. Ammo, baʼzi davlatlarning qonunchiligida, qonun bilan himoya qilinadigan axborotlar maʼlum bir tur sifatida belgilab qoʻyilgan. Yaʼni, Polsha Respublikasi Jinoyat kodeksining “Axborotni himoya qilishga qarshi jinoyatlar” deb nomlangan 33-bobi davlat sirlarining maxfiylikni buzish, rasmiy va kasbiy sirlarga nisbatan noqonuniy harakatlar, aloqa maxfiylikni buzish, muhim maʼlumotlarga qarshi hujumlar kabi xatti-harakatlarga nisbatan javobgarlikka tortish toʻgʻrisida moddalar mavjud[1].

Koreya Respublikasining Jinoyat Kodeksida maxfiy maʼlumotlarga qarshi hujumga oid, “Maxfiylikni buzishga oid jinoyatlar” deb nomlangan 35-bob mavjud. Unga koʻra kasbiy sirlarni ochish va aloqa maxfiylikni buzish javobgarlikka tortiladi[2].

Kasbiy yoki rasmiy sirlarga nisbatan hujumlar koʻplab chet davlatlarining qonunchiliklarida jinoyat sifatida qaraladi. Masalan, Estoniya Jinoyat kodeksida kasbiy yoki rasmiy faoliyat bilan bogʻliq maxfiy sirlarni saqlash majburiyatini buzish 157-modda mavjud boʻlib, unga muvofiq shaxs, boshqa shaxsning sogʻligi, shaxsiy hayoti yoki tijorat faoliyati toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni oshkor qilsa, va lekin u bunday maʼlumotlarni qonun bilan sir tutishi kerak boʻlsa va bunday maʼlumotlar unga kasbiy yoki rasmiy faoliyati davomida maʼlum boʻlgan boʻlsa, shaxs bu qilmishi uchun jinoiy javobgar hisoblanadi[3].

Rossiya Federatsiyasida bu kabi maʼlumotlarning maxfiylikni buzishni javobgarlikka tortuvchi maxsus qonunlar mavjud emas. Garchi bu kabi qonunlarni

jinoyat kodeksiga qo‘shish ko‘pchilik tomonidan qo‘llab quvatlansada, shuni hisobga olish kerakki Rossiya Federatsiyasida rasmiy va kasbiy sirlar tushunchasini ta’riflash borasida hech qanday federal aktlar mavjud emas, va bu kabi ma’lumotlar maxfiylikka qarshi harakatlarni javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qonunlarni, masalaga kompleks yondashuvsiz, to‘g‘ridan to‘g‘ri jinoyat kodeksiga qo‘shish ijroda ko‘plab tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Hozirgi kunda, kasbiy yoki rasmiy ma’lumotlarning maxfiylikni buzish masalalari ma’lumotning turi va uni maxfiylikka putur yetqazgan shaxsning kimligiga qarab Rossiya Federatsiyasi jinoyat kodeksining turli moddalarida tarqoq joylashgan. Bular oila yoki shaxsga oid maxfiy ma’lumotlarga, aloqaning maxfiylikiga, bola boqib olishning maxfiylikiga qarshi amalga oshirilgan jinoiy xatti-harakatlarga oid 137, 138, 155- moddalar keltirib o‘tilgan. Ko‘plab sobiq Sovet ittifoqi davlatlarida, bu kabi jinoiy xatti-harakatlarga oid qonunlar odatda jinoyat kodeksining konstitutsiyaviy fuqarolik huquqlar uchun ajratilgan qismida keltirib o‘tilgan. Bu kabi yondashuvni, Armaniston Respublikasining Jinoyat kodeksining “Shaxs va fuqaroning konstitutsiyaviy ozodligi va haq-huquqlari” deb nomlangan 19-bobida[4] va Ukraina Jinoyat kodeksining “Shaxsiy haq-huquqlarga qarshi jinoyatlar” uchun ajratilgan 5-qismida ko‘rish mumkin[5] Shu masalaga doir qiziq yondashuvni Germaniya qonunchiligida ko‘rish mumkin. Germaniya Federal Respublikasining Jinoyat kodeksi 15- qismining 203-moddasiga ko‘ra shaxsiy sirlarni, ya’ni shaxsga ish jarayoni mobaynida oshkor bo‘lgan shaxsiy yoki tijorat sirlarini buzish uchun javobgarlik belgilangan. Ya’ni Germaniya qonunchiligi, kasbiy yoki rasmiy sirlarni oshkor etishni, bu ma’lumotlar shaxsga ish beruvchi tomonidan oshkor etilishi taqiqlangan axborotni oshkor etish sifatida javobgarlikka tortadi[6, 7].

Fransiya Jinoyat kodeksi “shaxsiy hayotning yaqinligi” tushunchasidan foydalanadi[8], va kodeksga ko‘ra, maxfiy ravishda ifoda etilgan so‘zlarning yozib olinishi yoki ruxsatsiz jo‘natilishi, va insonning ruxsatsiz uni shaxsiy joyda rasmga olinish, ruxsatsiz u insonning rasmini jo‘natilishi bu tushunchaning buzilishi sifatida javobgarlikka tortiladi. Shu bilan birga, shaxsga doir bu kabi ma’lumotlarni jamoaga oshkor qilish ham qonun bilan jazolanadi.

Shaxsiy hayot huqqining tarkibiy qismi bo‘lmishi aloqa yoki yozishmalar, pochta, telegraf va boshqa xabarlarining maxfiylik huquqi ham chet el jinoyat qonunchiligi bilan himoyalangan. Biroq, bu borada davlatlar qonunchiligida farqlar uchrab turadi. Belgiya qonunchiligi aloqa yoki telefon aloqasi sirlarini buzilishini jamoat tartibiga qarshi jinoyat sifatida belgilaydi[9]. Ispaniya Jinoyat kodeksi[10] bu kabi maxfiy ma’lumotlarni buzish borasida hech qanday qonun keltirmaydi. Ispaniya

Jinoyat kodeksining 197-moddasi shaxsiy hayotni himoya qilishga bag'ishlangan, ammo jinoiy javobgarlik shaxsning ruxsatsiz unga tegishli bo'lgan xatlar, elektron xatlar, elektron omborlar va arxivlarda joylashgan ma'lumotlarni yig'ish va oshkor etish va bu jarayonda texnik vositalardan foydalanish uchun belgilangan. Qonuniy uslub nuqtai nazaridan, Estoniya qonuniy yondashuvi ham e'tiborga sazovor. Estoniya Jinoyat kodeksining aloqaning maxfiyligini buzish haqidagi 156-moddasi, aloqa vositalarini umuman ifodalab o'tmagan va masalani juda qisqa ta'kidlab o'tgan: "Aloqa vositalari orqali aloqaning maxfiyligini buzish javobgarlikka tortiladi". Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksida, yozishmalar maxfiyligini buzish va aloqa maxfiyligini buzish alohida ajratilgan. Yozishmalar maxfiyligini buzish bu shaxs o'ziga tegishli bo'lmagan, muhrlab yopilgan xat yoki biror hujjatning, texnik vositalardan foydalangan holda uni ochmay turib hujjat ichidagi ma'lumot bilan tanishish deb ta'riflangan. Aloqa maxfiyligini buzish esa, shaxsga jo'natilgan ma'lumotlarni, shaxsiy yoki ish beruvchi tomonidan, jo'natgan tomon roziligisiz tarqatish oshkor etish hisoblanadi.

Ko'plab davlatlarda, tijorat yoki bankga doir ma'lumotlarga nisbatan noqonuniy harakatlar amalga oshirish jinoyat hisoblanadi. Shu bilan birga juda kam sonli davlatlarda bu kabi ma'lumotlarni yig'ish sanoat yoki tijorat josusligi hisoblanadi. Misol uchun Belorusiya respublikasining Jinoyat Kodeksining 254 moddasi sanoat josusligiga, ya'ni tijorat ma'lumotni yoki bank sirlarini noqonuniy ish qilish yoki oshkor qilish maqsadida to'plash, jinoiy javobgarlikka tortiladi[11]. Avstriya Jinoyat kodeksi ham tijorat yoki sanoat sirlarini oshkor etishni javobgarlikka tortadi[12]. Shu bilan birga, har qanday tijorat yoki sanoat sirlarini chet-el davlati uchun yig'ish, juda katta jinoyat hisoblanadi. Rossiyada tijorat, soliq yoki bank sirlarini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni olish va oshkor qilish uchun javobgarlik Jinoyat kodeksining 183-moddasida nazarda tutilgan. Ta'kidlash joizki, ko'plab chet el jinoyat qonunchiligi tijorat va bank sirlarinigina qamrab oladi, ammo Rossiya Federatsiyasida esa ushbu masalalar soliq sirlarini ham o'z ichiga oladi. Aytish kerakki, tijorat, bank va soliq sirlari turli huquqiy xususiyatga ega. Rossiya qonunchiligida soliq siri rasmiy va professional maxfiy tushuncha bilan to'la qamrab olinadi va jinoyat huquqi himoyasiga mustaqil ravishda muhtoj emas.

Davlat sirini oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlik chet-el jinoyat qonunchiligida har xil yo'llar bilan ko'zda tutilgan. Masalan, Avstriya Jinoyat kodeksida davlat sirlarini qasddan oshkor qilish (252-modda), davlat sirlarini buzish (253-modda) va davlat sirlarini ustidan tergov olib borish (254-modda) uchun javobgarlik belgilovchi maxsus bo'lim mavjud. Avstriyaning Jinoyat kodeksi 255-

moddasida davlat sirlarini belgilaydi. Unga ko'ra, Avstriyaning mudofaasini zaiflashtiruvchi yoki Avstriyaning boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlari bilan aloqalariga putur yetqazuvchi, cheklangan sonli insonlarga ma'lum bo'lgan va boshqa davlatlar hukumatlari, tashkilotlari va ishchilaridan sir saqlanishi kerak bo'lgan yozma materiallar, chizmalar, modellar va yozishmalarni o'z ichiga oluvchi ma'lumot, uskuna yoki bilimlar davlat siri hisoblanadi. Germaniya Federativ Respublikasi qonunchiligi, davlat sirlariga Avstriya Jinoyat kodeksiga nisbatan ancha batafsilroq yondashadi. Germaniya Federativ Respublikasining Jinoyat kodeksi davlat sirlariga doir jinoyatlar bo'yicha 5 ta moddani o'z ichiga oladi. Bular josuslik (94-modda), davlat sirini oshkor qilish (95-modda), davlat sirini oshkor qilish yoki buzish maqsadida davlat siriga egalik qilish (96-modda), ayg'oqchilik agentligi faoliyati (98-modda). Kodeksning 97a-moddasi, erkin demokratiyani buzishga qaratilgan yoki Germaniyaning boshqa davlatlardan yashirin bo'lgan quroliy kuchlari to'g'risidagi maxfiy sirlarini oshkor qilish uchun javobgarlik belgilangan. Germaniya qonunchiligida ham, Avstriya kabi, davlat sirlari uchun ta'rif Jinoyat kodeksida berib o'tilgan. Germaniya Federativ Respublikasining Jinoyat kodeksining 93 moddasiga asosan, davlat siri bu, Germaniyaning tashqi mudofaasiga xavf yoki zarar yetqazmasligi uchun boshqa davlatlardan sir tutilishi kerak bo'lgan, faqatgina cheklangan sonli insonlarga ma'lumot bo'lgan faktlar, vositalar yoki ma'lumotlardir.

Fransiyaning Jinoyat kodeksi, boshqalardan farqli o'laroq, davlat sirining ta'rifini o'z ichiga olmaydi va bu atamani umuman ishlatmaydi. Balki, Fransuz qonun milliy mudofaa sirlari atamasidan foydalanadi. Fransiya Jinoyat kodeksining 413-9 moddasining 1-qismiga binoan milliy mudofaa sirlari quyidagilardan iboratdir: axborot, texnologiyalar, ma'lumotlar, hujjatlar, ma'lumotlar va milliy mudofaaga taalluqli fayllar. Oshkor qilinishi bilan milliy mudofaaga zarar yetkazishi yoki milliy mudofaaning sirlarini buzishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlar ham bular ichiga kirishi mumkin. Axborotni milliy mudofaaga tegishli ekanligini tasniflash tartibi Davlat Kengashining maxsus qarori bilan belgilanadi.

Ispaniyaning jinoyat qonunchiligi, xuddi Fransiya singari, davlat siri tushunchasini o'z ichiga olmaydi, ammo Ispaniya Jinoyat kodeksida sirlar va milliy mudofaa bilan bog'liq maxfiy ma'lumotlar kabi tushunchalar mavjud. Bu ma'lumotlar, yopiq va maxfiy, oshkor bo'lishi milliy mudofaaga zarar yetkazishi mumkin kabi ta'riflarga ega. Bu kabi ma'lumotlarga oid jinoyatlar tergov qilish, qalbakilashtirish, buzish, maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilish kabi harakatlarni o'z ichiga oladi.

Rossiya Federatsiyasida, davlat siri tushunchasi Rossiya Federatsiyasining 1993-yil 21-iyuldagi davlat sirlari to'g'risidagi 5485-1 sonli aktining 2-moddasida belgilab qo'yilgan[13]. Unga ko'ra oshkor bo'lishi Rossiya Federatsiyasining xavfsizligiga putur yetkazishi mumkin bo'lgan davlat tomonidan maxfiyligi himoya qilinayotgan davlatning harbiy kuchlari, tashqi siyosati, iqtisodiyoti, tergov va izlanish faoliyatlari haqidagi ma'lumotlardir. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 275 – xiyonat haqidagi, 276 – josuslik haqidagi, 283 – davlat sirini oshkor qilish to'g'risidagi, 283.1 – davlat siri bo'lgan ma'lumotlarni noqonuniy qo'lga kiritish, va 284 – davlat sirini o'z ichiga olgan hujjatlarni yo'qotish to'g'risidagi moddalari, boshqa davlatlarning jinoyat kodeksidagi analoglaridan farq qilmaydi.

O'tgan asrning oxirida rivojlangan mamlakatlarning aksariyati kiberjinoyatchilik deb nomlangan salbiy ijtimoiy hodisa bilan yuzlanishlariga to'g'ri keldi. Dastlab, kompyuter axborot sohasida jinoyatlar sodir bo'lishi bilan bir qatorda, chet el qonunchilik organlari ikki yo'nalishda rivojlana boshladi: an'anaviy qoidalarni kengroq talqin qilish; kiberjinoyatchilik bo'yicha ixtisoslashtirilgan qoidalarni ishlab chiqish[31, 34]. Shu bilan birga, chet-el qonun chiqaruvchilarida kompyuter ma'lumotlariga qarshi noqonuniy xatti-harakatlarni jinoiy javobgarlikka tortish masalasi milliy qonunchiliklarga nisbatan boshqacha tarzda hal qilindi. Kompyuter ma'lumotlariga qarshi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha MDH davlatlarining jinoyat qonuni ko'p jabhalarda bir biriga o'xshash bo'lib, ularning ko'pchiligida MDH davlatlarining Jinoyat kodeksining namunaviy qoidalari[14] qabul qilingan, ammo ularning ba'zilar o'zgarib bormoqda. Masalan, Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksining 30 – bobi [15]. Kiberjinoyatlar deb nomlangan. Ilgari kodeksning bu bobi kompyuter axborot sohasidagi jinoyatlar deb nomlangan edi. Ushbu bobning 271 – moddasida kompyuter tizimlariga noqonuniy kirish uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan. Ushbu moddaga qo'shimcha sifatida asosiy tushunchalarga ham ta'rif berilgan, jumladan, kompyuter tizimlariga tegishli dasturiy ta'minot yordamida ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash bilan shug'ullanadigan har qanday qurilma yoki o'zaro bog'liq qurilmalar guruhi sifatida ta'rif berilgan. Kodeksga ko'ra kompyuter ma'lumotlari kompyuter tizimida foydalanish va qayta ishlash uchun mos bo'lgan har qanday ma'lumotni (faktlar, ma'lumotlar, dasturiy ta'minot va tushunchalar) anglatadi. Shu bilan bir qatorda, Ozarbayjon Jinoyat kodeksining 30-bobi quyidagilar uchun javobgarlikni nazarda tutadi:

kompyuter ma'lumotlarini noqonuniy saqlash (272-modda);

kompyuter tizimiga yoki kompyuter ma'lumotlariga noqonuniy aralashish (273-modda);

kiberjinoyatlar uchun qilingan vositalarni tarqatish (273-1-modda);

kompyuter ma'lumotlarini qalbakilashtirish (273-2-modda).

Kompyuter ma'lumotlarini qalbakilashtirish moddada keltirilgan ta'rifga asosan haqiqiy bo'lmagan kompyuter ma'lumotlarini haqiqiy (to'g'ri) kompyuter ma'lumotlari sifatida ishlatish yoki ulardan foydalanish maqsadida kompyuter ma'lumotlarini qasddan kiritish, o'zgartirish, o'chirish yoki cheklashni anglatadi.

2015-yil yanvar oyidan kuchga kirgan Qozog'iston Respublikasining yangi jinoyat kodeksi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalaridagi jinoyiy harakatlar" deb nomlangan 7 – bobni o'z ichiga oladi. Bu bobga 9 ta modda kiritilgan[16]:

205-modda: Axborot tizimiga yoki axborot kommunikatsiyalari tarmog'iga noqonuniy kirish bo'yicha;

206-modda: Axborotni noqonuniy o'chirish yoki o'zgartirish bo'yicha;

207-modda: Axborot tizimi yoki axborot kommunikatsiyalari tarmog'ining ishlashini qasddan buzish to'g'risida;

208-modda: Axborotni noqonuniy egallab olish bo'yicha;

209-modda: Axborotni uzatishga majbur qilish bo'yicha;

210-modda: Zararli dasturlardan foydalanish, ularni ishlab chiqish va ularni tarqatish bo'yicha;

211-modda: Maxfiy elektron axborot resurslarini noqonuniy tarqatish bo'yicha;

212-modda: Noqonuniy maqsadlarni ko'zlagan Internet-resurslarni joylashtirish va shu kabi xizmatlar ko'rsatish bo'yicha;

213-modda. Mabil aloqa abonent qurilmasining identifikatsiya kodini noqonuniy ravishda o'zgartirish va abonent identifikatsiya kodini o'zgartiruvchi dasturiy ta'minotni yaratish, ishlatish, va tarqatish bo'yicha.

Davlatlar qonunchiligi yuzasidan solishtirma tahlillar shuni ko'rsatadiki Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 272-moddasiga binoan javobgarlikka tortilishi ko'zda tutilgan kompyuter ma'lumotlariga noqonuniy kirish harakatlarini tavsiflashda yagona yondashuv yo'qligi kuzatildi. Kompyuter ma'lumotlari ba'zi davlatlarda, ushbu turdagi jinoyatning predmeti sifatida qaraladi. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksining 202-moddasi "a" bandida shaxs o'zi uchun yoki boshqa biron bir shaxs uchun unga ega bo'lishga ruxsat berilmagan qonunan himoya qilingan ma'lumotlarni noqonuniy ravishda olganligi uchun jinoyiy javobgarlik ko'zda tutilgan. 202 – moddaga qo'shimcha maxsus eslatmada, bu noqonuniy harakat har

qanday elektron va magnit vositalar orqali, to'g'ridan to'g'ri sezilmaydigan ma'lumotlarni o'tqazishni ham o'z ichiga olishi keltirib o'tilgan. 2007-yilda Jinoyat kodeksiga kiritilgan 202-moddaning "b" bandida esa, biror shaxs boshqa bir ruxsatga ega bo'lmagan shaxsdan noqonuniy qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni, ma'lumotning qanday turda bo'lishidan qat'iy nazar, telefon, faks, va boshqa har qanday ma'lumot o'tkazish vositalari orqali qabul qilishni jinoiy javobgarlikka tortilishi ko'zda tutilgan. Fransiya Jinoyat kodeksining 186-1 moddasida telekommunikatsiya vositalaridan ma'lumotlarni noqonuniy yo'l bilan olish jinoiy javobgarlikka tortilishi ta'kidlangan. 323-moddaning birinchi qismiga binoan, avtomatik ma'lumotlarni tahlil qilish tizimga yoki tizimning bir qismiga ruxsatsiz kirish va bu ruxsatsiz kirish oqibatida tizimning ma'lumotlari o'chirilishi, o'zgartirilishi yoki shikastlanishi jinoiy hisoblanadi. Moddaning ikkinchi qismi avtomatik ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlarining ishiga aralashish va xalaqit berish xatti-harakatlarini jinoiy javobgarlikka tortish masalalarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga moddaning uchinchi qismi esa, firibgarlik yoki sohtalashtirish maqsadida tizimning ma'lumotlarini o'zgartirish kabi masalalarni qamrab oladi.

### **XULOSA**

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, faqatgina Polsha jinoyat qonunchiligidagina axborot xavfsizligini qonunan muhofaza qilishga tizimli yondashuv mavjud. Boshqa bir necha davlatlarda turli turdagi maxfiy ma'lumotlarning tizimli himoya qilinishini kuzatish mumkin. Ko'plab davlatlarda, shu jumladan Rossiya Federatsiyasida ham, axborot xavfsizligiga qarshi harakatlarni jinoiy javobgarlikka tortish masalalari Jinoyat kodeksining ma'lum bir qisimlarida tarqoq joylashgan.

### **REFERENCES**

1. Kuznetsova, N. & Lukashov, A. Criminal Code of the Republic of Poland, 2001.
2. Criminal Code of the Republic of Korea, 1953, [www.refworld.org/docid/3f49e3ed4.html](http://www.refworld.org/docid/3f49e3ed4.html).
3. Criminal Code of Estonia, 2002, <http://www.legaltext.ee/text/en/X30068K8.htm>
4. Criminal Code of the Republic of Armenia, 2002, [www.parliament.am/legislation.php?sel=show&ID=1349&lang=rus](http://www.parliament.am/legislation.php?sel=show&ID=1349&lang=rus).
5. Criminal Code of Ukraine, 2001, <https://zakon1.rada.gov.ua/laws/show/2341-14>



6. Petrukhin, I. Personal Secrets (Man and Authorities), Moscow: Institute of State and Law, 1998
7. Criminal Code of Azerbaijan Republic (1999) Date Views 26.11.2015. <http://www.constcourt.gov.az/laws/32>
8. Golovko, L. Criminal Code of France. St. Petersburg: Yuridicheskiy Tsentr Press, 2002
9. Matsnev, N. Criminal Code of Belgium. St. Petersburg: Yuridicheskiy Tsentr Press, 2004
10. Kuznetsova, N. & Reshetnikov, F. Criminal Code of Spain. Moscow: Zertsalo, 1998
11. Criminal Code of the Republic of Belarus, 1999, <http://etalonline.by/?type=text&regnum=HK9900275>
12. Serebrennikova, A. Criminal Code of Austria. Moscow, 2001
13. Act of the Russian Federation No. 5485-1 "On State Secret" (1993, July 21)
14. Model Criminal Code of the CIS Member States, Adopted by the Resolution of Interparliamentary Assembly of the CIS Member States, 1996
15. Daniel, J. & Pol, Sh. Information Privacy Act - University of Baltimore, 2016
16. Criminal Code of Kazakhstan Republic, 2014, [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=31575252#pos=335;247&sel\\_link=1004096288](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252#pos=335;247&sel_link=1004096288)

## **DINIY MATNLARNI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR**

**Nilufar Tursunpo'latovna Salohiddinova**

Termiz davlat universiteti lingvistika: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi

magistranti

Tel. 99. 536-40-87

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada o'zbek diniy matnlar tarkibida faol uchraydigan toponimlar, polisonimlar, oykonimlar, gidronimlar, xromonimlar, zoonimlar tahlil qilinganligi ham ekzotik lug'atning qo'llanish ko'lami va chastotasi haqida muayyan tassavur paydo bo'lishi haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *O'zbek diniy matnlari, uar tarkibida faol uchraydigan toponimlar, polisonimlar, oykonimlar, gidronimlar, xromonimlar, zoonimlar, ekzotik lug'at.*

## **СРЕДСТВА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ РЕЛИГИОЗНЫХ ТЕКСТОВ**

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье анализируются топонимы, полисонимы, ойконимы, гидронимы, хромонимы, зоонимы, которые активно встречаются в узбекских религиозных текстах, и дается представление о масштабах и частоте использования экзотического словаря.*

**Ключевые слова:** *узбекские религиозные тексты, активные топонимы, полисонимы, ойконимы, гидронимы, хромонимы, зоонимы, экзотический словарь.*

## **MEANS FOR FORMING RELIGIOUS TEXTS**

### **ABSTRACT**

*The article analyzes the toponyms, polysonyms, oikonoms, hydronyms, chromonyms, zoonyms, which are actively found in Uzbek religious texts, and gives an idea of the scope and frequency of use of the exotic dictionary.*

**Keywords:** *Uzbek religious texts, active toponyms, polysonyms, oikonoms, hydronyms, chromonyms, zoonyms, exotic dictionary.*

### **KIRISH**

Maqolada o'zbek diniy matnlar tarkibida faol uchraydigan toponimlar, polisonimlar, oykonimlar, gidronimlar, xromonimlar, zoonimlar tahlil qilinganligi ham ekzotik lug'atning qo'llanish ko'lami va chastotasi haqida muayyan tassavur paydo bo'lishiga ko'maklashadi. Lingvistik material diniy matnlar bo'lib hisoblanadi.

Ammo yondashuvlarimiz semantik-stilistik va leksikografik-statistik tahlil metodlaridan foydalanishimizga ko'ra farq qiladi. Unda o'zbekcha diniy matnlarga xos bo'lgan funktsional-stilistik jihatlariga ahamiyat berildi. Ushbu turdagi matnlarning orfoepik, leksik-grammatik o'ziga xosliklarini aniqlashga, yaxlit holda esa, bu matnlarni o'zbek tilining alohida uslubi sifatida qabul qilish kerakmi yoki mavjud uslublarning biri tarkibida qarash ma'qulmi, degan masalalarga e'tibor qaratildi. Quyida biz diniy matnning lingvistik mohiyatini anglashga harakat qilib o'tamiz.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Maqolada 500 dan ortiq ekzotik lug'at ekzotik lug'at elementlari tahlil qilingani haqida ma'lumot berilgan va ular ekzotik so'zlar, ekzotik atoqli otlar va ekzotik frazeologiya tarzida mavzuiy guruhlariga ajratilgan. Bu kabi guruhlariga ajratib amalga oshirilgan tahlil ushbu leksik qatlamning leksik-semantik, o'rni bilan stilistik xususiyatlarini tahlil qilishga yo'l ochadi. Biz ham diniy matnlar tahlilida bu tasnifdan foydalandik. Adabiyot sifatida diniy matnning lingvistik mohiyati bilan bog'liq bo'lgan ilmiy adabiyot, monografiya va dissertatsiyalar tahlilga tortilgan.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

O'zbek diniy matnlar mavzuiy guruhlari tarkibida qaralgan teonimlar haqida ham atroflicha ma'lumotlar berilganligi bilan alohida e'tiborga molik. Muallif teonimlar doirasida atroflicha bilim to'plash barobarida, o'z qarashlarini ham bayon etib, «O'zbek diniy matnlarda uchraydigan diniy tushuncha va tasavvurlar, muqaddas hisoblanuvchi diniy dargohlar, ilohiylashtirilgan prediniy matnet va buyum, diniy rasm-rusum, marosim, odat hamda Alloh, payg'ambar hamda farishtayu avliyolarga, diniy adabiyotlarga berilgan maxsus nomlar – atoqli otlarni shartli ravishda teonimlar guruhida tahlil qildik», deb yozadi va o'zbek diniy matnlarda uchraydigan ekzotizmlarning 30-35 foizini teonimlar tashkil qilishligini aytadi va teonimlarni quyidagicha guruhlaydi:

1. Allohning nomlari.
2. Payg'ambarlarning nom va laqablari.
3. Farishtalar nomlari.
4. Diniy adabiyotlar, oyat va suralarning atoqli otlari.
5. Kecha va kunduzning diniy tushuncha bilan bog'liq nomlari.
6. Islomda muqaddas sanaluvchi joy, narsalarning atoqli otlari.

A.O'rozboevning «Ogahiyning "Riyoziy ud-davla" asarida ijtimoiy-siyosiy leksika» mavzusidagi nomzodlik va «Ogahiyning tarixiy asarlari leksikasi» deb

nomlangan doktorlik dissertatsiyalarida diniy matnlarga oid kuzatishlar mavjud. Xususan, nomzodlik dissertatsiyasining «Asardagi ijtimoiy-siyosiy leksikaning mavzuiy-semantik guruhlari» deb nomlangan I bobida diniy-siyosiy rutba va mansablarni ifodalovchi alohida soʻzlar guruhi, jumladan qozi (musulmon jamoasidagi sudbʻya), shayx-شيخ (1. Ilohiyot olimi. 2. Tariqat piri. 3. Qadamjo mutasaddisi), mujovir-مجاور (qadamjolarida diniy ilmlar bilan shugʻullanuvchi shaxs, mutasaddi), shayx ul-islom-الإسلام شيخ (oliy ruhoni unvoni), mufti-مفتي (diniy va dunyoviy ishlarni fiqhiy (islom huquq meʼyorlari) jihatdan oʻrganuvchi, fatvo beruvchi), oxund/oxun-اخذند (ilohiyot olimi, muallim), eshon-ایشان (eshon, pir soʻzining maʼnodoshi), xalifa-خليفة (1. Paygʻambar alayhissalomdan keyin islom davlatini boshqargan shaxslar. 2. Tariqat pirlari, diniy maktab muallimlarining yaqin, ishongan kishisi, yetuk shogirdlari), mullo-ملا (ilohiyot ilmlari bilimdoni, diniy maktab oʻqituvchisi, savodli, olim kishi), murid-مريد (ixtiyoriy ravishda shayx, pir, murshidga qoʻl bergan kishi), soʻfi-صوفي (1. Ishi faqat Xudo bilan boʻlgan, Vujudi mutlaqning mavjudligini tan oluvchi va u bilan bogʻliqlikni yuksak darajaga yetkazishni maqsad qilgan kishilar. 2. Masjidda azon aytuvchi – muazzin), muazzin-مؤذن (azon aytuvchi kishi) ekzotik lugʻatamentlari tahlil qilingan.

Shuningdek, doktorlik dissertatsiyasining «Ogahiy tarixiy asarlari leksikasining mavzuiy-semantik guruhlari» deb nomlangan birinchi bobida diniy leksikaga oid ekzotik lugʻatamentlar tahlil qilingan va u asosan nomzodlik dissertatsiyasida amalga oshirilgan natijasidir. Ayni paytda, ushbu bobning «Diniy terminlar» qismida kuzatishlar koʻlami fors tilidan oʻzlashgan diniy terminlar tahlili hisobiga kengaytirilgan va ular: a) mutlaq iloh tushunchasini ifodalovchi soʻzlar; b) paygʻambar tushunchasini ifodalovchi soʻzlar; v) farishta tushunchasini ifodalovchi soʻzlar; g) jannat va doʻzax tushunchasini ifodalovchi soʻzlar; d) ibodatga aloqador tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar; j) turli mazmundagi diniy terminlar kabi kichik mavzu guruhlarga boʻlingan.

A. Oʻrazboevning ikki soʻz – yazdon va paygʻambar ekzotik lugʻat elementlariga oid tahlillari eʼtiborga molikdir. Chunki, tahlil jarayonida iloh maʼnosidagi yazdon ning «Avesto» da yazatanam, pahlaviy tilida yaztân, yazdân shakllarida ishlatilgan boʻlib, aslida avestoviy «iloh» maʼnosidagi yazata soʻzining koʻpligidir, degan fikrni aytadi. Bu esa teologik tushunchalarning xalqimiz orasida islomdan avval ham mavjud boʻlganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Muallif paygʻambar tushunchasini anglatuvchi soʻzlardan biri paygʻambar yoki payombar ning turkiy ifodasi savchi, yalavach soʻzlari ekanligini aytadi. Bu soʻzlar keyingi davrlarda passiv qatlamga oʻtgan va deyarli qoʻllanilmaydigan boʻlgan.

O'zbek diniy matn tadqiqi haqida gap ketar ekan, prof. J.Omonturdievning bu boradagi xizmatlarini alohida ta'kidlash joiz. Olimning «Ma'rifatnoma» asari nafaqat uzoq yillar davomida katta ilm va tajriba to'plagan kishining, balki qalbi islom nuri bilan ma'rifatlangan bir donishmand insonning qalb bitiklaridir. SHu bois kitobda diniy tilga oid juda ko'plab so'z va iboralarga duch kekzotik lug'atamiz.

Olimning e'tiqodicha, bugun o'zini o'qituvchi va ustoz deb hisoblaydigan har bir murabbiy dunyoviy bilimlar bilan birgalikda diniy bilimlardan ham xabardor bo'lishi hamda til madaniyatini puxta egallashi zarur. Aytaylik, «...diniy mavzuda gapirilganda, voiz odatda, «bismillo» bilan boshlab, Allohga hamdu sano, Payg'ambarga na't, durud aytilish, sahobalarga xayriyat (yaxshilik) tilash bilan boshlab, «As-salomu alaykum va rahmatullohu va barakotuhu» iborasi bilan tugatadi. O'rni bilan, nutq madaniyati talabiga ko'ra, nutqiy kamtarlik uchun Allohga shukr, Allohga shukrlar bo'lsin, Alhamdulillah, Allohga hamdu sanolar bo'lsin, To'g'rirog'ini Alloh biladi (Vallahu a'lam bissavab), inshoolloh, Xudo xohlasa, Xudo saqlasin, nauzi Billah (Alloh saqlasin), Allohning marhamati, Allohning irodasi kabi iboralar qo'llaniladi. Alloh nomi aytilganda, Subhonahu va taolo (Pok va oliy Zot), taborak va taolo (barakotli va oliy), olamlar tarbiyakunandasi (rabbisi), Parvardigor (tarbiyakunanda), Parvardigori olam, Yaratgan, Yaratgan egam yoki uning 99 ismi sifati (Al-Asma ul-husno – Go'zal ismlar); Payg'ambar nomiga Mustafo (Tanlangan), Janob, Hazrat, Faxri koinot, ikki olam sarvari, Rasuli Akram, Rasulilloh sallallohu alayhi va sallam; Sahobai kiromlar nomlariga roziyollohu anhu (Alloh undan rozi bo'lsin) kabi yuksak hurmat ifodalovchi so'z va iboralar qo'shib aytiladi».

Muallifning tasdiqlashiga ko'ra, ma'ruzachi matn diniymi, dunyoviymi, ma'rifiymi, bundan qat'iy nazar, g'oyani – mohiyatni egasiga – tinglovchiga yetkaza olishi zarur. U mavzuga doir o'z qarashlarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan dalillash jarayonida diniy-tasavvufiy ta'limotga oid so'zlarni tahlil qiladiki, ularning barchasi hozirgi ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda faol qo'llanilayotganidan dalolat beradi. Yana shu holat diqqatga sazovorki, bu tahlillarda har bir til birligining talaffuzi va imlosiga ham e'tibor berilgan: alloh/allah, mayit, marhum (rahm qilingan), rahmatli; murdaxona, ta'ziyaxona, azaxona; azador, ta'ziyador, ta'ziyachi, fotihachi singari ekzotik lug'atementlar o'zbek xalqi mentaliteti va nutqi odobi nuqtai nazaridan tahlil qilingan; sayid, xo'ja, eshon, pir, to'ra, xon, bek kabi atamalarning asl mohiyatini sharhlangan. Mana shu tarzda sho'roviy mafkura tufayli zavol topgan ona tilimiz va mumtoz nutqimiz haqida qimmatli fikrlar bayon etilgan.

Tadqiqotchining hammualliflikda tuzgan «Ma'rifiy-irfoniy istilohlar izohli lug'ati»ni esa bugungi o'zbek dinshunosligi va lug'atshunosligida katta voqea deb aytish mumkin. Lug'atda hozirgi o'zbek tilida qo'llanilib kezkotik lug'atinayotgan 1500 dan ortiq diniy, diniy-ma'rifiy, diniy-falsafiy, diniy-dunyoviy istiloh va iboralarning izohi berilgan.

Mualliflarning yutug'i shundaki, barcha musulmon millatlarining ibodat tili arab tili ekanligidan, diniy istilohlar arab, fors, o'zbek va boshqa tillardan bo'lishidan qat'iy nazar, ularni o'zbek tilining professional so'z qatlami deb hisoblashadi hamda masalaga «namoz, ro'za, zakot, azon, haj, nikoh, janoza, taroveh, juma, hayit namozlari yoki umuman, va'zxonlik, qiroatxonlik kabi ibodatlar, diniy anjumanlar arabiy matn, oyat va duolar asosida ijro etiladi. Bu jarayonlar, avvalo, diniy istilohlarni bilish va ularni to'g'ri qo'llashni taqozo etadi» degan nuqtai nazardan yondashadi. Biz ishimizda lug'at maqolalaridan unumli foydalandik va ular o'zbek diniy matnlarda uchraydigan atamalarga funktsionallik nuqtai nazaridan yondashishimizda ko'maklashdi.

Sh.Maxmaraimovaning «O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha kontseptual lug'ati» da tadqiqotimiz mavzusiga doir fikrlar bildirilgan. SHu ma'noda uning «Mifologik mantiqqa asosan ibtidoiy odam o'zini tabiat hamda jamiyatning ajralmas bo'lagi deb tasavvur qilgan. ...Piravord natijada esa butun tabiatni insonga xos shakl-shamoyillarda qabul qilish, tabiiy, ijtimoiy, madaniy ob'ektlarni metaforik qiyoslash yuzaga kezkotik lug'atib, umumiy personifikatsiya jarayoni kechgan», degan qarashlari qimmatlidir.

Darhaqiqat, tabiat va jamiyat mahsuli sifatida odamzod bir umr qiyoslashlar va o'xshatishlar asosida o'zligini va narsa-hodisalarning mohiyatini anglashga urinadi. Shu boisdan totemizm, fetishizm, animizm, shomonizm kabi diniy e'tiqodlar ham olamni anglashning o'ziga xos yo'llari sanalgan. Bu e'tiqodlar zamiridagi bog'lanishlar esa inson va borliq o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri emas, balki metaforik xarakterda, tasavvurlar asosida bo'lgan.

Faqat insongagina xos bo'lgan metaforik tafakkur tabiat va jamiyatdagi jamiki mavjudotlar, narsa va hodisalarning nomlanishlarni yuzaga kezkotik lug'attiruvchi eng qulay usul bo'lishi barobarida, bu atamalarning o'z jarayonida ifodalilik ko'lamining kengayib borishiga ham turtki bo'lgan. O'zbek tilidagi bir qism diniy atamalar semantik-stilistik ma'nolari turli-tumanligining sabablaridan biri ham shu.

Sh.Maxmaraimova ushbu lug'atida ajina, Azozil, Azroil-عزرائل, alvasti, anqo-أنقى, arsh-عرش, a'rof-أعراف, behisht, Dajjol-دجال, Duldul, do'zax, Jabroil-جبرائيل, jin-جن, iblis-إبليس, Isrofil-إسرافيل, Malak-ملك, Munkar-منكر, Nakir-نكير, Odam-ادم, Ato-عطاء,

farishta- فرشته, Xizr- خضر, chilton, shayton- شیطان, Havvo- حواء kabi 24 ta teonimga atroflicha izoh bergan.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bizning kuzatishlarimizda ham lingvistik material diniy matnlar bo'lib hisoblanadi. Ammo yondashuvlarimiz semantik-stilistik va leksikografik-statistik tahlil metodlaridan foydalanishimizga ko'ra farq qiladi. Unda o'zbekcha diniy matnlarga xos bo'lgan funktsional-stilistik jihatlarga ahamiyat berildi. Ushbu turdagi matnlarning orfoepik, leksik-grammatik o'ziga xosliklarini aniqlashga, yaxlit holda esa, bu matnlarni o'zbek tilining alohida uslubi sifatida qabul qilish kerakmi yoki mavjud uslublarning biri tarkibida qarash ma'qulmi, degan masalalarga e'tibor qaratildi.

### **REFERENCES**

1. Karimov S. O'zbek tilining diniy uslubi haqida ba'zi mulohazalar // Istiqlol yillari: milliy-diniy qadriyatlarning xalqqa qaytishi. O'zbekiston Respublikasi Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasining O'zR. Mustaqilligining 10 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2001.
2. Karimov S., Mamatov X., Bo'riev I. Yuristning nutq madaniyati. – Toshkent: «Zarqalam», 2004. -158 b.
3. Кожина М.Н., Дускаева Л.Р., Салимовский В.А. Стилистика русского языка. Электронный ресурс. Усхебник, 4-е изд. – Москва: Флинта: Наука, 2008.
4. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. – Москва: 1983, - 223 с.
5. Кунгуров Р. Стилистика имени существительного в узбекском языке. – Ташкент, 1983. 161 с.
6. Махмараймова Ш. О'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha kontseptual lug'ati. – Toshkent: CHO'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018, -100 b.
7. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent: O'zbekiston, 2000, -80 b.
8. Mirtojiev M. O'zbek tili fonetikasi - Toshkent: «Fan», 2013, -421 b.
9. Месхковская Н.Б. Пособие для студентов гуманитарных вузов. – Москва: Агентство «ФАИР», 1998. -352 с. ИСБН 5-88641-097-Х.
10. Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. – Toshkent: «Fan», 1984, -160 b.

**BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARINING KREATIV  
SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

**Nuraliyeva K.I**

NamDU "Boshlang`ich ta`limda ijtimoiy fanlarni o`qitish metodikasi kafedrasida o`qituvchisi

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada boshlang`ich sinif o`quvchilarining kreativ salohiyatini shakllantirishning mazmun mohiyati ochib berilgan. SHuningdek, kreativ salohiyatini amalga oshirishni o`ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.*

*Tayanch so`zlar: Shaxs, o`quvchi, ta`lim, tarbiya, kreativ salohiyat, hamkorlik, tasavvur, tafakkur, g`oya*

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФОРМИРОВАНИЯ  
ТВОРЧЕСКОЙ СИЛЫ У НАЧАЛЬНИКОВ**

**Нуралиева К. И**

НамГУ в начальном образовании. преподавание социальных наук  
преподаватель кафедры методологии

**АННОТАЦИЯ**

*В статье раскрыта сущность содержания формирования творческого потенциала младших школьников. Также плаваются особенности реализации творческого потенциала.*

*Ключевые слова: человек, студент, образование, воспитание, творческий потенциал, сотрудничество, воображение, мышление, идея.*

**PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FORMATION OF  
CREATIVE POWER OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS**

**Nuraliyeva K. I**

NamSU In primary education teaching social sciences  
teacher of the department of methodology

**ABSTRACT**

*This article reveals the essence of the content of the formation of creative potential of primary school students. Also, the peculiarities of the realization of creative potential are melted.*



*Key words: Person, student, education, upbringing, creative potential, cooperation, imagination, thinking, idea*

## **KIRISH**

O`zbekiston taraqqiyotining ma`naviy-axloqiy va kasbiy asoslari to`g`risida fikr yuritib, istiqloq sharoitida o`quvchilarning bilim asoslarini puxta egallashlari bilan birga mustaqil va kreativ fikrga ega bo`lgan, g`oyaviy, mafkuraviy jihatdan chiniqqan, kasbiy mahoratini mustaqil vatanimizning ravnaqi yo`lida fidokorona safarbar eta oladigan ruhda tarbiyalash lozimligini dolzarb vazifa qilib qo`yilgan.

Har qanday jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorligi o`sha jamiyat fuqarolarining ma`naviy-axloqiy, intellektual va kasbiy salohiyati darajasiga bog`liq. Shunday ekan, ma`naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan to`laqonli shakllanmagan shaxsda o`z vatani, millati, egallagan kasb-kori bilan faxrlanish tuyg`usi sayoz bo`ladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini vatanparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo`ylik, xalqsevarlikka o`rgatish lozimdir. Aslini olganda, axloq ma`naviyatning o`zagi hisoblanadi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomaladangina iborat emas. Axloq boshlang`ich sinf o`quvchilarining yurish-turishida, o`zini tutishida, insonlar bilan muomala madaniyatida namoyon bo`ladi. Axloq-bu avvalo insof va adolat tuyg`usi, iymon, halollik, mehr-oqibat, bag`rikenglik, mehnatsevarlik, rahmdillik, samimiylik, sahiylik, shirinso`zlik ekanligini alohida uqtirib o`tish lozimdir. Agar boshlang`ich sinf o`quvchisi o`quv-biluv va tarbiyaviy faoliyatning maqsadini bilmasa, o`qituvchi tomonidan qo`yilgan vazifalarni tushunmaydi hamda qabul qilolmaydi. O`quvchining majburiyati qiziqish asosida bo`lmay, balki majburiy, sun`iy va lozim bo`lsa tazyiq ostida sodir bo`ladi. O`quvchi darslik mazmunidagi mavzularni shunchaki ko`r-ko`rona “o`rganish”ga yoki ayrim munosabatlarni quruq yodlab olishga majbur bo`ladi. “O`qituvchi-o`quvchi” va “Tarbiyachi-tarbiyalanuvchi” munosabati “subyekt-subyekt” munosabatlar darajasiga ko`tarilmas ekan, o`quvchida tarbiya jarayoniga va bilim, ko`nikma, malakalarini egallashga nisbatan befarqlik vujudga keladi. Barchamizga ayon bo`lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o`zibo`larchilikka tashlab qo`yilsa, o`sha yerda ma`naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha-qayerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo`lsa, o`sha yerda ma`naviyat qudratli kuchga aylanadi.<sup>40</sup> O`sib va rivojlanib boruvchi inson ta`lim va tarbiya obyekti hisoblanadi. Butun

<sup>40</sup> Karimov I. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. Ma`naviyat-2008

hayoti davomida insonning rivojlanish jarayoni davom etaveradi. Bu jarayonda u turli o'zgarishlarni, jismoniy, ruhiy, miqdor va sifat o'zgarishlarni o'z boshidan kechirib boradi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishdagi say harakatlarning biri – bu o'quvchilarning zamon talablariga xamnafas tarzda ta'lim olishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxs bo'lib yetishishida chuqur bilim egallashlarini talab etmoqda. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning kreativlik salohiyatini shakllanishiga turtki bo'ladi. Bugungi kunda dunyo miqyosida to'rtinchi sanoat tamaddunining dvigateli-xarakterga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. Atrofga nazar tashlasak har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelish mumkin: virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar, elektron xizmatlar, tuproqsiz hosil olish... bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsulidir. Odatiy bo'lib tuyulgan kitob, musiqa, samolyot va hattoki lampalar ham qachonlardir orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi natijasida yaratilgan. Bu esa o'z-o'zidan ta'lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika faniga «kreativlik» degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa ilmiy bilimning bugungi kundagi rivojlanishi, kreativlikning shaxsni, jamiatni va davlatni rivojlantirishga ta'siri ushbu masalasini ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o'rganishni talab etmoqda. Ayniqsa umumta'lim maktablarida o'quvchilarning kreativligini rivojlantirishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik yo'naltirilganligini quyidagi pedagogik shart-sharoitlar asosida shakllantirish mumkin, agarda:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining tug'ma istedodi gavdalansa;
- dunyoda va yurtimizda ro'y berayotgan yangiliklardan boxabar bo'lib borsa va ularni kundalik hayoti faoliyatida qo'llab borsa;
- mavjud psixologik to'siqlarni yengib o'ta olsa;
- o'quvchilarning kreativ salohiyati o'qituvchilar tomonidan e'tiborga olinsa va qo'llab-quvvatlansa.

Kreativlik - bu shaxsning individual xususiyati bo'lib, madaniy vositalarni shaxsiy tushunchalaridan kelib chiqqan holda qo'llashi va rivojlantirishidir. Kreativlik psixologik nuqtayi nazardan tahlil etilgan va bugungi kunda pedagogik nuqtayi nazaridan tadqiq etishni talab etayotgan muhim pedagogik muammodir. Kreativlik-bu o'quvchilarni innovatorlikka undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi. Kreativlik o'quvchilarning shaxsiy sifatlarining integratsiyasidir. Chunki

o`quvchi tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo`lmas ekan, bunday o`quvchi hech qachon ijodkorlikni namoyon eta olmaydi. Turli xil muammoni o`quvchining o`zi mustaqil holatda bajarish jarayonida uchragan muammolarni yengishda o`quvchining kreativlik salohiyati shakllanadi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Kreativ salohiyat tushunchasi murakkab va serqirradir.

Kreativlik-o`quvchilarda o`z-o`zidan paydo bo`ladigan sifat emas, u o`quvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o`zlashtirishi va o`zining kundalik faoliyatida qo`llay olish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, innovatsion yangiliklarni o`z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olishi bilan bog`liqdir. O`quvchining kreativligining shakllanishi «ehtiyotlar, yo`nalishlar va «Men» kontseptsiya»laridan kelib chiqadi. Ta`lim olish kengligida kreativlikni rivojlantirishning asosiy pragmatik tavsifi sifatida dialog xizmat qiladi. Shaxsning kreativligini psixolog olimlar o`quvchilarning insho yozishlari jarayonida tahlil etishga harakat qilishgan. Hamda quyidagi ishlar amalga oshirilgan. Yosh avlodni bilimli, har tomonlama rivojlangan, komil shaxs sifatida shakllantirishda o`qituvchilarning ijodkorligi, o`z sohasi bo`yicha bilimlarini doimo oshirib borishi, so`nggi yangiliklarni o`zining pedagogik faoliyatida qo`llay olishlari, bir so`z bilan aytganda ularning kreativlik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday kreativlik ayniqsa O`zbekiston Respublikasining ta`lim sohasidagi strategik yo`lida juda ham muhimdir. Kreativ salohiyat ijod bilan bog`liq holda o`rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog`liq holda tahlil etiladi. Ijodning psixologik asoslari sifatida quyidagi elementlar qabul qilingan.

Bular:

1. Qabul qilish.
2. Xohish va istak.
3. Tasavvur qilish.
4. O`z-o`zini kuzatish.

Shu bilan bir qatorda bilimning asosini tashkil qilishda asosiy o`rinni egallaydigan fikr yuritish bilan tasavvur qilish quyidagi elementlar belgilanishi e`tirof etgan.

Bular:

1. Aqliy mehnat.
2. Intuitsiya.
3. Dunyoqarash

Buyuk olim V.A.Slastyonin ijodkorlikning asosiy xislatlarini quyidagicha belgilagan:

- shaxsning ijodiy motivatsiyani qo`llaganligi.
- qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o`z kamolotiga intilish
- kreativlik, bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyati va o`z kamolotiga intilish;
- ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o`zaro yordam berish qobiliyati;

Kreativ salohiyatga ega o`quvchilar boshqalarga taqlid qilmasdan, o`zlari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga kreativ va mustaqil yondashadilar. Shu kreativ salohiyat jamiyat a`zolari bilan muomalada bo`lishi, munosabat o`rnatishi natijasida shakllanib boradigan sifatlardan biridir. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini kreativ salohiyatini takomillashtirishda uning psixologik holati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, insonning ruhiy xususiyatlarining rivojlanishi (aql, iroda, diqqat, harakat va h.k.), hayotda o`z o`rnini topa olishi, uning vatan, xalqning ravnaqi yo`lida og`ishmay, e`tiqod bilan xizmat qilishi, iymonli bo`lishi insonni shaxs darajasiga ko`taradi. Bunday sifatlarning ro`yobga chiqishi tarbiyaga bog`liq bo`ladi. Boshlang`ich sinf o`quvchisining kreativ salohiyatini takomillashtirish mobaynida-uning o`sishi, qandaydir yangi xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta`lim jarayonida o`zini-o`zi nazorat qilish, materialni takrorlashda tekshirish, eska tushirish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar boshlang`ich sinf o`quvchilariga eslab qolish va eslash usullari o`rgatilmasa, ular materialni bevosita takrorlashda, uzoq vaqt to`xtalib qoladilar. Shuning uchun ham eslash qiyin mehnat hisoblanadi. Lekin o`quvchilar materialni eslashni xush ko`rmaydilar va uni osongina tiklash yo`lini tushunmaydilar. Materialni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va eslash usullarini o`rgatish mantiqiy xotira o`sishining garovidir. O`quvchilar xotirasiga tayanib ko`p narsani eslab qolsa, undagi bilishga bo`lgan qiziqishi yanada kuchayadi. Dars jarayonida mavzuni yaxshi tushunish uchun ma`suliyat bilan yondashadi. Masalan, 2-sinf o`qish darsida darslikdagi A.Obidjonni “O`zbekistonim” sh`erini o`quvchi mustaqil yod olib sinfda aytib bersa, bunday holatda o`quvchida o`ziga bo`lgan ishonch yuqori bo`ladi. Fanga bo`lgan qiziqishi ortadi. Qolaversa ma`suliyat sari harakat qiladi. Yana ham ko`p narsalarni bilishga intiladi. Shu bilan birgalikda, biror ma`lumotni eslab qolishda hayol surish orqali amalga oshirish ham maqsadga muvofiqdir. Boshlang`ich sinf o`quvchisining hayoli o`z o`quv faoliyatining ta`siri, talabi, imkoniyat va shart-sharoitlari orqali tarkib topadi. O`quvchining hayoli tevarak – atrof taassurotlari, dunyo ajoyibotlari, ko`rsatmalilik, tasviriy san`at

asarlarni yetarli darajada aks ettirish bilan vujudga keladi. Ta`lim jarayonida boshlang`ich sinf o`quvchilarining yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvur obrazlari hayol yordamida muayyan voqealikka aylanadi. O`rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o`qilgan badiiy asarlardagi obrazlar tartibga solinadi, yaxlit bir butunlikdan iborat umumlashgan obrazlar tizimi yaratiladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilari hayolning xususiyatlaridan yana bir hayotiy voqelik bilan fantaziyaning o`zaro aralashib ketishidir. O`quvchilar xayolparastlikka, fantaziya berilishining oldini olishga pedagoglar, umuman kattalar doimo ahamiyat berishlari kerak. Boshlang`ich sinf o`quvchilari ta`lim jarayonida anchagina ilmiy tushunchalarni o`zlashtirishda, oldingi darslarda o`zlashtirilgan turli alomatlar, belgilar, xususiyatlarni qorishtirib, chalkashtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiradigan narsa va xodisalar bilan ularning belgilari o`rtasida uzviy bog`lanish tarkib topmagan bo`ladi. 1-4-sinf o`quvchilari, ya`ni boshlang`ich ta`lim davri kiradi. Bu davrda bolalarda:

- boshlang`ich sinf davrdagi bola o`quvchi maqomi darajasiga yetadi,
- barcha tana a`zolari rivojlanish bosqichida bo`lib, lekin suyaklari hali to`liq qotib ulgurmagan bo`ladi,
- psixologik qo`zg`olish va tormozlanishi tez o`zgaruvchan bo`ladi,
- o`yin faoliyatidan ko`proq o`qish faoliyatiga o`tishi talab etiladi,
- maktabga borishga doir psixologik yo`nalish olish ishlari amalga oshiriladi, Shuningdek, endigina maktabga qadam qo`ygan bola quyidagi turlardagi qiyinchiliklarga duch keladi:

- maktabga borishi bilan bolaning shuningdek, endigina maktabga qadam qo`ygan bola quyidagi turlardagi qiyinchiliklarga duch keladi:

- maktabga borishi bilan bolaning kun tartibida o`zgarishlar bo`ladi,
- o`qituvchilar bilan tengdoshlari (sinfdoshlari) bilan muloqatda bo`lishi,
- egallagan bilimlarini amalda qo`llashi va h.k.

Boshlang`ich sinfda o`qiyotgan bola uchun shaxsiy yutuqlari – o`qishda, sportda bolalar orasidagi nufuzi va obro`si katta ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, aynan bu davrda o`quvchiga e`tiborli bo`lish, oltin so`zlar (barakalla, ota-onanga rahmat, tashakkur, senga ishonaman....) bilan rag`batlantirish, jamoa orasida ijobiy baholash, kayfiyatini ko`tarish orqali o`quvchilarni ijodiy salohiyatini yuksaltirish mumkin.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda: kreativ salohiyat deganda o`quvchilar boshqalarga taqlid qilmasdan, o`zlari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga ijodiy

yondashdilar degan fikr yetakchilik qiladi. Kreativlik xususida gap borar ekan, shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, xis-tuyg`ularida, xatti-xarakatida muayyan faoliyat turlarida namoyon bo`ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorlikning muhim omili sifatida ham aks etadi. CHunki har bir inson ham o`z dunyoqarashi va bilimiga asoslangan holatda faol bo`lishga intiladi. Qolaversa, kreativlik zehni o`tkirlikni belgilab beradi, o`quvchilarning diqqat-e`tiborini ta`lim jarayoniga faol jalb etishni ta`minlaydi. SHundan kelib chiqib zamonaviy ta`lim sifatini oshirish, ta`lim muassasalarida taxsil olayotgan o`quvchilarning o`quv faoliyatini samarali tashkil etish muammosi, zamonaviy o`qitish usullaridan keng foydalangan holda o`quvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirish davr talabidir.

### **REFERENCES**

1. Karimov I. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. Ma`naviyat-2008
2. T. G`afforova, SH. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova O`qish kitobi 2-sinf. Toshkent — 2018.20-b
3. Egamberliyeva N., Xodjaev B. Pedagogikaning ayrim dolzarb muammolari: mohiyat, talqin va yechim. T.: —Fan va texnologiya, 2013.
4. SHaripov SH. O`quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviylikini ta`minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. –T., 2012
5. Muslimov N.A. Kasb ta`limi o`qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2007.
**Kalit so'zlar:** *Koreys tili, konglish, tilshunoslik, tarix, leksik tarkib, kichik guruhlar, ijtimoiy va lingvistik muhit, ta'sir, semantika, tilshunoslik, ommaviy axborot vositalari*

### **ABSTRACT**

*This article explores the impact of learned words on modern Korean. Assimilated words appear with the development of science, technology, culture, economy, industrial relations. Many of the words learned are firmly entrenched in the vocabulary of the Korean language and are gradually losing their novelty and becoming active vocabulary. Assimilated words can perform not only nominative but also expressive functions. Some words that refer to objects, concepts, and events mean to evaluate them.*

**Keywords:** *Korean, Conglish, Linguistics, History, Lexical Content, Small Groups, Social and Linguistic Environment, Influence, Semantics, Linguistics, Media*

### **KIRISH**

So'nggi o'n yilliklarda zamonaviy jamiyat o'z tarixida eng qiziqarli va voqealarga boy davrlaridan birini boshdan kechirdi, bu shubhasiz tilda o'z aksini topdi, chunki jamiyat gapiradigan til u bilan rivojlanadi va o'zgaradi. Zamonaviy koreys tilini rivojlantirishning etakchi yo'nalishlaridan biri bu asosan ko'p miqdordagi yangi so'zlarning kirib kelishidir, asosan xorijiy so'zlardan foydalanish va o'zlashtirishdir. Ko'pincha, bu jarayon ingliz tilidan o'zlashtirilgan so'zlar misolida

kuzatiladi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, umuman koreys tilining so'z boyligi va ommaviy axborot vositalari (ommaviy axborot vositalari) tilidagi o'zgarishlar faqat chet tillaridan o'zlashtirish jarayonlari bilan chegaralanmaydi; zamonaviy o'quvchilar tilida ko'plab terminlar (ularning ko'plari atamalar turkumidan oddiy so'zlar sinfiga o'tadigan), vulgarizmlar, jargon, jargonlar va boshqalarning paydo bo'lishiga guvoh bo'lishmoqda. Ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan yangi so'zlar va tuzilmalarning rivojlanishi va ularning ma'nolarining manba tilidan yoki manba uslubi deb ataladigan narsadan tilning asosiy leksik fondiga o'tishini va bularning

yangi ma'nolarini shakllantirishni ko'rib chiqadigan lingvistik o'zgarishlarga bag'ishlangan.<sup>50</sup>

Hozirgi vaqtda ommaviy axborot vositalari til holatining eng mobil "konservatori" bo'lganligi sababli, tadqiqot uchun material manbai sifatida ommaviy axborot vositalarini tanlash mantiqan to'g'ri xisoblanadi. Bir tomondan, barcha so'nggi til o'zgarishlari ommaviy axborot vositalarining matnlarida aks etadi, boshqa tomondan, ommaviy axborot vositalari ko'pincha tillarning o'zgarishi va rivojlanishiga ta'sir qiladi, bu biz tadqiq qilish uchun tanlagan mavzuning dolzarbligi uchun asosdir.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tilning o'zgarishi har doim tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelgan, chunki bu sohadagi ishlar juda katta amaliy ahamiyatga va dolzarblikka ega; bundan tashqari, olimlar hech qachon bunday tadqiqotlar uchun materiallar etishmaslik muammosiga duch kelmaydi.<sup>51</sup>

Ushbu tadqiqotning maqsadi tilning leksik darajasi edi, chunki ushbu darajadagi barcha darajadagi qarzlarni ko'rib chiqish mumkin emas. Bundan tashqari, statistika shuni ko'rsatadiki (til sohasidagi har qanday statistik ma'lumotlarning yaqinlashishini hisobga olgan holda) so'zlar va iboralar ko'pincha qarzga olinadi va frazeologik va sintaktik iboralar juda kam uchraydi, garchi yaqinda vaziyat biroz o'zgargan bo'lsa va sintaktik (tarkibiy) qarzlar endi noyob narsa emas.

Koreys tilining rivojlanish tarixi; chet tillardan o'zlashtirilgan so'zlar bilan boyitilganligi Koreya mamlakatining iqtisodiyoti rivojlanayotgan va rivojlangan davr bilan bog'liq. Biroq, lingvistik o'zlashtirishningning sabablari orasida ekstralingvistik,

<sup>50</sup> [http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact\\_id=3311348](http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3311348)

<sup>51</sup> Turli vaqtlarda G.O. Vinokur («Заметки по русскому словообразованию», 1946), Karaulov Yu.N. («О состоянии русского языка современности», 1991), L.P. Krysin. «Иноязычные слова в современном русском языке», 1968) va boshqalar. Lingvistik ensiklopedik lug'atda o'zlashtirish "lisoniy aloqalar natijasida bir tildan ikkinchisiga o'tkazilgan chet tilining elementi (so'z, morfema, sintaktik qurilish va boshqalar), shuningdek, elementlarning o'tish jarayoni bir tildan boshqasiga. "



tashqi (ular odatda ijtimoiy, aqliy, estetik, tarixiy sabablarni o'z ichiga oladi) va sof lingvistik, ichki sabablarni ajratish kerak.<sup>52</sup> Masalan, 컴퓨터 "kompyuter", 인터넷 "Internet", 타이머 "taymer", 프린터 "printer" so'zlari bizning hayotimizga ularni ifodalaydigan denotatlar bilan bir vaqtning o'zida kirib keldi. Ushbu guruh ichida retseptorlari tili madaniyati uchun yangi voqeliklarni bildiruvchi, ammo shu bilan birga manba tilida mos keladigan ekvivalentlarga ega bo'lmagan juda kichik so'zlar guruhini ajratish kerak.<sup>53</sup>

Chet tilidan o'zlashtirishning yana bir sababi - ijtimoiy-psixologik – ekstra va intralingvistik sabablar orasida oraliq pozitsiyani egallashidir. Gap shundaki, ba'zida manba tilida ma'lum bir ma'noni qabul qilish retseptor tiliga qaraganda ma'no jihatidan aniqroq, qisqa, etimologik jihatdan "ravshan" bop keladi va bu ham chet tili so'zini o'zlashtirish va keyin uni almashtirish uchun sabab bo'lib xizmat qiladi. Masalan:

‘일절’과 ‘일체’를 혼동하여 쓴 대표적인 예로 ‘안주 일절’이라는 표현을 들 수 있다. 많은 음식점에서 ‘모든 안주를 모두 취급한다’는 뜻으로 ‘안주 일절’이란 표현을 사용하곤 한다. 그러나 ‘일절’이라는 단어는 ‘아주, 전혀, 절대로’의 뜻으로, 흔히 행위를 그치게 하거나 어떤 일을 하지 않을 때 쓰는 말이다. 일절의 뜻을 정확하게 이해하고 ‘안주 일절’이라는 표현을 파악하자면, 안주를 취급하는 음식점과는 어울리지 않는 표현이라는 것을 알 수 있다.<sup>54</sup>

Zamonaviy tsivilizatsiyaning shakllanishi xabarlarini ommaviy ravishda yaratish texnologik imkoniyatining paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir (bosma ixtiro - matbuot). Ilm-fan dunyoga press-relizlarni yaratish uchun majburiy usulni taqdim etdi. O'zlarining tili va leksik tuzilishiga ega bo'lgan ommaviy axborot vositalari shu

<sup>52</sup> O'zlashtirishning ahamiyati va ko'plab tadqiqotlarga qaramay, o'zlashtirish sabablarini tasniflash masalasi sanoqli asarlarda yoritilgan (Krisin LP " Иноязычные слова в современной жизни ", 1996, Breiter MA " Англицизмы в русском языке: история и перспективы ", 1997). Ikkala olim ham til-retseptorlari kognitiv bazasida mos tushunchaning yo'qligini (ya'ni yangi hodisa, ob'ektni nomlash zarurati) chet tilidan qarz olishning asosiy sababi deb atashadi.

<sup>53</sup> Misol tariqasida M.A. Breiter "shop-tour" va "auto-tour" so'zlarining paydo bo'lishini keltiradi - leksemalar chet tili elementlaridan tashkil topgan, ammo manba tilida lug'at va denotativ yozishmalarga ega emas. Ba'zi tilshunoslar ushbu kichik guruhni ajratib olishning qonuniyligi haqida bahslashmoqdalar, chunki bu holda biz so'z yasash modellari haqida gapiramiz va bunday qarzlar tilning leksik darajasiga tegishli emas. Ko'pincha, o'zlashtirish yoki chet tilidagi so'z boshqa madaniyatdan kelib chiqqan yangi haqiqatni belgilash uchun retseptorlari tilida vaqtincha mavjud bo'lganidek, noqulay tavsiflovchi iborani imashtiradi. Bunday almashtirishlarga "timeshare", "privacy", "property" so'zlari misol bo'la oladi. Ko'pincha, hatto eng keng tarqalgan tavsiflovchi aylanma ham manba tilidagi so'zga kiritilgan barcha ma'no va ma'nolarni aks ettira olmaydi, shuning uchun vaqt o'tishi bilan bunday tavsiflovchi burilishlar chet tilidagi ekvivalentlar bilan almashtiriladi. Qarang: M.A. Breiter. «Англицизмы в русском языке: история и перспективы: Пособие для иностранных студентов-русистов». М., 1996. - S. 20-26.

<sup>54</sup> <http://www.urimal365.kr/index.jsp?control=page&part=view&idx=11945>

tarzda paydo bo'ldi. Gazeta va jurnalistik uslub tematik jihatdan juda xilma-xildir, bu uning so'z boyligining favqulodda kengligi va xilma-xilligini belgilaydi, masalan:

외래어·신조어 마구 조합해 사업명 지어 (광주=연합뉴스) 장아름 기자 = 'Go~興!! 온마을교육', '동구동락(東區同樂)'... 공공기관이 신규 사업이나 캠페인 명칭으로 국적불명의 외래어·신조어를 조합한 구호를 만들어내고 있다<sup>55</sup>.

Yuqoridagi misoldan kelib chiqadiki, har bir uslub so'zni o'ziga xos tarzda ishlatadi. Demak, ilmiy nutq so'zning ma'nosini tushuncha bilan cheklaydi - aniq, chegaralangan, barqaror. Og'zaki nutqda so'z harakatchanligi bilan ajralib turadi, keng, noaniq ma'noga ega. Badiiy adabiyotdagi so'z o'zining ichki shakli, unga xos bo'lgan obrazlarning ta'sirlanishi bilan tavsiflanadi. Bu so'zlashuv nutqidan kam bo'lmagan harakatchan va moslashuvchan, ammo so'zning harakatchanligi, so'z birikmalarining imkoniyatlaridan ongli ravishda foydalanib, yozuvchi faoliyati natijasida paydo bo'ladi. Keling, tilda o'zlashtirish paydo bo'lishining sabablarini vaqt va tarixiy voqealarga mos ravishda tildagi o'zgarishlar bilan birga keladigan hodisa sifatida ko'rib chiqamiz. Chet tilidan o'zlashtirishning bir necha sabablari bor:

1) yangi hayot, yangi ob'ektlar, yangi tushunchalar jamoat hayotida paydo bo'ladi (브렌트, 마트, 수프);

2) yangi so'zlar ilgari jamiyat hayotida bo'lgan, ammo tegishli belgilanmagan hodisalarni bildiradi. Odatda ularning mavjudligi susaytirildi. Bular 마피아, 메너저; kabi so'zlar;

3) yangi so'z ilgari so'z birikmasi yordamida chaqirilgan narsani bildiradi (reyting - kompaniya, siyosatchi mavqei, o'z turidagi ro'yxatdagi transfer; 이미지-"o'zini" tasviri, 모델, va boshqalar.);

4) yangi so'zlar sub'ektning ijtimoiy rolining o'zgarishini ta'kidlaydi (오피스 ofis - ofis, ofis maydoni);

5) yangi so'zlarni o'zlashtirish xorijiy so'zlar urf bo'lishiga bog'liq bo'lib chet el madaniyati ta'siriga bog'liq.

Shunday qilib, yangi so'zlarning aksariyati ilm-fan, texnika, madaniyat, iqtisodiyot, ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanishi bilan paydo bo'ladi. Ushbu so'zlarning aksariyati hayotga qat'iy kirib boradi, yangilikligini yo'qotadi va faol so'z birikmalariga o'tadi. Yangi so'zlar turli yo'llar bilan paydo bo'ladi: ba'zilari allaqachon tilda mavjud bo'lgan so'zlar modeliga ko'ra yaratilgan, boshqalari to'liq o'zlashtirilgan.

<sup>55</sup> [http://www.korean.net/new\\_okf/search/search.do?query=외래어](http://www.korean.net/new_okf/search/search.do?query=외래어)

Uchinchidan, semantik transformatsiyalar ro'y beradi, bunda yangi so'z eskidan obrazli foydalanish natijasidir, bu uning polisemiyasini oshiradi, tilni boyitadi. O'zlashtirilgan so'zlar nafaqat nominativ, balki ekspressiv funktsiyani ham bajarishi mumkin. Ob'ektlarni, tushunchalarni, hodisalarni belgilashdagi ba'zi so'zlar ularni baholashga o'tdi.

Xitoy tilidan kirib kelgan so'zlar. Qadimgi xitoy tilining koreys tilida tutgan o'rni

Zamonaviy koreys tili so'z boyligining muhim qismi o'zlashgan so'zlar, "sinizmlar" dan iborat. Qadimgi koreyslarning xitoy yozuvlari bilan tanishishi, o'zlarining koreys tilidagi so'zlarini iyerogliflar bilan yozish zarurligini keltirib chiqardi. Bu, birinchi navbatda, ismlar - shaxsiy ismlar va geografik atamalar, shuningdek "hyanga" xalq qo'shiqlariga tegishli degan fikr mavjud.

Aslida, iyerogliflar xitoy tili uchun yozuv tizimi sifatida yaratilgan bo'lib, bu ularni boshqa tuzilishga ega tilni yozish uchun ishlatishni qiyinlashtirgan. Koreya qo'shni mamlakatlarda iyerogliflarni tarqatgan birinchi mamlakat xisoblanadi. Ularning xitoy yozuvlaridan foydalanishga kirishishi qadimgi Koreyaning qudratli qo'shnisi bilan rivojlangan to'g'ridan-to'g'ri va uzoq muddatli aloqalari bilan izohlanadi. Dastlab xitoy tilidan faqat alohida so'zlar olingan deb taxmin qilish mumkin, bu lingvistik aloqalar paytida tabiiy xoldir. Koreyslar xitoy grafikalaridan 2000 yil oldin foydalangan bo'lsalar-da, u faqat Baekje, Silla va Kogure gullab-yashnashi davrida keng qo'llanilgan. Buni aniq faktlar tasdiqlaydi: 600 yilda Kogurda

"Yugi" ning yangi nashri qayta ishlangan shaklda nashr etilgan, "Sogi" 1375 yilda Baekje shahrida tuzilgan va Guksa ("Imperiya tarixi") 1545 yilda Silla shahrida paydo bo'lgan.

Koreyada xitoy yozuvining o'rnini lotin tilini o'rta asrlar Yevropa uchun ahamiyati bilan taqqoslash mumkin, Bonn, Parij, London va boshqa Yevropa shaharlari universitetlarida nafaqat ilmiy risolalar lotin tilida yozilgan, balki ma'ruzalar ham o'qilgan va og'zaki ifodalangan. Koreyalik olimlar va yozuvchilar o'zlarining ona tillarida gaplashib Xitoy tilida yozdilar. Shunday qilib, ular ikki tilli edilar. Qadimgi afsonaga ko'ra, "xancha", ya'ni Koreys iyerogliflari qushlar va hayvonlar izlarini uzoq vaqt kuzatib, taniqli xitoy faylasufidan ilhomlangan xolda yaratilgan. Ayni paytda, iyerogliflar bilan vaziyat butunlay boshqacha edi. Shubhasiz, "xancha" jamoaviy ongning ko'p asrlik harakatlari mevasidir. Iyerogliflarning asl shakllari va chiziqlari haqiqiy ob'ektlarni, narsalarni, tabiat ob'ektlarini sxematik ravishda nusxalashgan. Masalan, "산" 山 (tog ') belgisi shubhasiz tog'larning chizmalariga o'xshaydi va "문" 門 (eshik) belgisi eshik bargidir. Ushbu guruh

litograflar deb ataladi va ularning soni cheklangan. Keyingi iyerogliflar guruhi - oddiy diagrammalar, qachonki raqamlar - ramzlar mavhum narsalarni yoki narsalar va hodisalar o'rtasidagi munosabatni ifodalaganda. Xrestomatiya mavzusi iyeroglif-raqamlar bo'lishi mumkin: "일" 一 (bitta), "이" 二 (ikkita), "삼" 三 (uch) (lotin bilan taqqoslang. I, II, III.). Ikki va undan ortiq sodda "xancha"larning tarkibidan yangi hosilalar paydo bo'ldi. Sinologlar tilshunoslari "xancha"ning shakllantirishning kamida yana bir necha usullarini sanaydilar.

Eski koreys maktabining asosiy vazifasi aynan Xanmuni va u bilan bog'liq bo'lgan narsalarni o'rgatish edi. Eng qiyin narsa bir necha ming so'zlarni umuman yodlash emas, balki kelib chiqishi bilan koreys tilidan juda uzoq bo'lgan tilning grammatikasi va obrazli tizimini o'zlashtirish edi. Bundan tashqari, koreys ziyolisi yoki mansabdor kishisi nafaqat qadimiy xitoy tilini yaxshi bilishi, balki butun xitoy madaniy an'alarini yaxshi bilishi kerak edi. Bilimdon koreys 1500 yil oldin Xitoy siyosatining murakkab tomonlarini bilishi, xitoy she'riyatining yuzlab sahifalarini yodda tutishi va neo-konfutsiylikning murakkab falsafiy inshootlarini tushunishi kerak edi. Ko'plab koreyslar - olimlar, shoirlar va yozuvchilar aynan Xanmunda yozganliklari sababli xalqaro miqyosda tan olingan: ularning asarlarini nafaqat Koreyaning o'zida, balki mintaqaning ko'plab yaqin shtatlarida ham o'qish mumkin edi. Quyida koreys tilidagi iyerogliflarning xitoycha frazeologik birliklarining "고사성어" materialidagi ma'nosini ko'rib chiqamiz. Masalan: "이심전심" (以心傳心)" Yo'ldosh ", " sherik ", " shogird ", " izdosh ". Bu ikki yoki butun odamlar guruhi bitta tush ko'rganda, orzu qiganda ishlatiladi: bitta jon ikk ta'nda yashaydi:

以(이) bir narsadan, nimadir orqali;

心(심) jon, do'st, ko'krak;

傳(전) gapirish, uzatish, yuborish;

心(심) jon, do'st, ko'krak.

Zamonaviy koreys tilining lug'ati bir necha qatlamlarda taqdim etilgan. Bular mahalliy koreyscha so'zlar, shu jumladan onomatopeya (onomatopoeia), xanmun yoki xitoy tilidan o'zlashtirilgan so'zlar, sanskrit, mo'g'ul, yurxen va manchu tillaridan o'zlashtirilgan eski so'zlar, rus, ingliz va boshqa Evropa tillaridan shuningdek yapon tilidan o'zlashtirilgan yangi so'zlar.

## **XULOSA**

Shunday qilib, chet tilidagi lug'at jamiyatda qizg'in munozaralarga sabab bo'ladi. O'zlashtirilgan so'zlar yangi redmetlar va tushunchalar bilan birga keladi. Shu bilan birga, o'zlashtirish uchun qulay shart-sharoit sifatida xalqlar - ona tillarida

so'zlashuvchilar o'rtasidagi ozmi-ko'pmi yaqin siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar xizmat qiladi. Ma'lumki, o'zlashtirilgan so'z, agar uning leksik tizimida o'zlashtirish uchun zarur shartlar mavjud bo'lsa, tilda osonroq mustahkamlanadi. Bunga tilning istalgan tushunchasini aniq yoki batafsil yetkazib berishi, uning turli xil so'zlarga qo'shilishi bilan uning semantik ma'nolarini farqlashi, so'zning semantik tuzilishini soddalashtirishi kiradi.

## **REFERENCES**

1. Ахметшина, Л.В. Английская заимствованная лексика в современных татарских средствах массовой информации: исследование на материале татарской периодической печати конца XX – начала XXI вв. Дис. ... канд. филол. наук / Л.В. Ахметшина. – Казань, 2009. – 165 с.
2. Беззубов А.Н. Введение в литературное редактирование: уч. пособие. СПб., 1997.
3. Брейтер М.А. Англицизмы в русском языке: история и перспективы: Пособие для иностранных студентов-русистов. М., 1996.
4. Вайнрайх, У. Языковые контакты [Текст] / У. Вайнрайх. – Киев: Вища школа, 1979. – 264 с.
5. Васильева Е. Неоправданное использование заимствованной общественно-политической лексики в СМИ // Вопросы Интернет-образования, 2005.
6. Дьяков А.И. Причины интенсивного заимствования англицизмов в современном русском языке. Язык и культура. - Новосибирск, 2003
7. Хайруллин, М.Б. Проблемы развития лексической системы татарского литературного языка [Текст] / М.Б. Хайруллин. – Казань: Изд-во ИЯЛИ АНТ, 2000. – 202 с. 1.

## **LISONIY INTERFERENSIYANING INTONATSION DARAJASIGA DOIR MASALALAR**

**Yoquthon Nurmatovna Yormatova**

Fargʻona viloyati XTXQTMOHM oʻqituvchisi,  
Fargʻona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Maqola intonatsion tizim darajasidagi til aralashuvi muammolari va uning o'ziga xosligi, tilshunoslar tomonidan ushbu hodisani turlicha baholash masalalariga bag'ishlangan. Til darajasida bilingualizm sharoitida va yangi yo'nalishlarni shakllantirishda intonatsion tizim darajasida lingvistik aralashuvni o'rganish bo'yicha fikr-mulohazalar va xulosalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** lingvistik interferentsiya, intonatsion tizim, intonatsiya modellari, bilingualizm, nutq intonatsiyasi, interferentsiya tushunchalari, til darajalari.*

## **LINGUISTIC INTERFERENCE AT THE LEVELS OF THE INTONATION SYSTEM**

**Yormatova Yokuthon Nurmatovna**

The Regional Center For Retraining And Upgrading Of Public Education Of  
Ferghana Region, Independent Researcher Of Fergana State University, Uzbekistan  
Fergana City

### **ABSTRACT**

*The article is devoted to the problems of linguistic interference at the levels of the intonation system and its specificity, the different assessments of this phenomenon by linguists. Feedback and conclusions on the study of linguistic interference at the levels of the intonation system in the context of bilingualism at the language level and the formation of new areas are presented.*

***Keywords:** linguistic interference, intonation system, models of intonation, bilingualism, speech intonation, interference concepts, language levels.*

### **KIRISH**

Fikrning notoʻgʻri anglanishi faqatgina grammatik yoki leksik jihatlarga bogʻliq boʻlib qolmay balki intonatsiyani notugʻri qoʻllash orqali soʻzlovchi tinglovchi uchun tushunarsiz fikr bildirishi mumkin. Intonasion aksent yoki boshqacha qilib aytganda, intonasion xatolik natijasida yuzaga keladigan intonasion interferentsiya fikrning maʼno jihatdan notoʻgʻri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Tilshunoslar (Palmer, 1924; Cook, 1968; Martinkenas, 1987; Vishnevskaya, 1993; Interferensiya zvukovix sistem, 1987)<sup>56</sup> ning fikriga ko‘ra o‘zga tildagi aksent ko‘p hollarda aynan intonatsiyada ko‘zga tashlanar ekan. Ko‘plab ingliz millati vakillari xorijliklar nutqidagi grammatik xatolikni kechiradilar. Sababi mazkur xatolik so‘zlovchining nutqi noto‘g‘ri talqin qilinishining aksi deb qabul qilinmaydi. Biroq intonatsiyadagi xatolik madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot jarayonining buzilishiga ta’sir etishi mumkin deb hisoblab, bu xatoni jiddiy qabul qilishlari mumkin. Nutqqa intonasion libos kiydirilmas ekan ingliz millati vakili so‘zlovchi xorijlik ekanligini osongina tushunib oladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

“Xorijiy tilni o‘rganishdagi eng katta qiyinchilik bu aynan o‘sha til intonatsiyasini o‘rganishda namoyon bo‘ladi” – deb ta’kidlaydi tilshunos olim L.R.Zinder.<sup>57</sup> Chindan ham intonasion interferensiya murakkab va jiddiy xarakterga ega hodisadir. Intonatsiyani notug‘ri qo‘llagan nutq egasining xorijlik ekanligini aniqlash til egasi uchun unchalik ham qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Shuningdek, intonatsiyadagi xatolik nutqning tushunish borasida qiyinchiliklarga olib kelishi bilan bir qatorda uni asl ma’nosi qanday ekanligini yoki uning semantik qirralarini ochishda ayrim xatoliklarni keltirib chiqarishi mumkin. 1924 yildayoq tilshunos olim H.Palmer o‘zining “English Intonation with Systematic Exercises” nomli asarida quyidagilarni yozib qoldirgan: “Ingliz tiliga xos bo‘lmagan talaffuz” yoki “xorijiy aksent” deb qabul qilinadigan holatlar ko‘pincha xorijiy tildagi intonatsiya orqali yuzaga chiqadi. Ingliz tilida so‘zlaydigan xorijliklar tilni benuqson qo‘llaydilar, biyron so‘zlaydilar go‘yoki tilda “suzadilar” va hattoki urg‘uni ham to‘g‘ri qo‘llaydilar. Biroq ularning intonatsiyasi shundayki, biz ularni xorijlik ekanliklarini darrov payqab olamiz va ko‘p hollarda ularning nima haqida gapirayotganlari biz uchun mavhum bo‘lib qolaveradi”.<sup>58</sup>

Ingliz tili intonatsiyasi borasida juda ham ko‘plab va salmoqli ishlar olib borgan taniqli tilshunos olim V.Kuk yuqoridagi fikrni quyidagicha sharhlaydi: intonasion xatoliklar grammatik xatoliklar kabi tilga oid xatoliklardir; biroq inglizlar

<sup>56</sup> Palmer, H. E. English Intonation with Systematic Exercises / H. E Palmer. – Cambridge : Heffer, 1924. – 105 p. Cook V. Active Intonation.-London: Longmans., 1968. \*» 99 p. Мартинкенас А.А. Сравнительный анализ эффективности использования визуальных опор в процессе обучения иноязычной интонации (немецкий язык, языковой вуз): Автореф. дис. . канд. филол. наук. М., 1988. - 23 с.Вишнеvская, Г. М. Интерференция и акцент: (на материале интонационных ошибок при изучении неродного языка) : дис. ... д-ра филол. наук : 10.02.19 / Г. М. Вишнеvская. – Санкт-Петербург, 1993. - 373 с.

<sup>57</sup> Зиндер Л.Р. Общая фонетика. М. : Высш. шк., 1979. – 312 с.

<sup>58</sup> Palmer, H. E. English Intonation with Systematic Exercises / H. E Palmer. –Cambridge : Heffer, 1924. – 105 p.

grammatik xatoni intonatsiyadagi xatoga qaraganda to'g'ri qabul qiladilar: ingliz millati vakili grammatik xatoga ko'z yumishi mumkin, biroq intonasion xatoga hech kachon yon bosmaydi. Intonatsiyadagi xatolikni eshitgan ingliz uni tildagi xatolik deb emas balki, so'zlovchining nima demoqchi ekanligiga (nutqiga) nisbatan notug'ri munosabatda ekanligining aksi deb qabul qiladi.<sup>59</sup>

Intonatsiya ham fonetikaning supersegment birliklaridan biri sifatida nutqdagi ijtimoiy madaniy ma'lumotni yetkazib beruvchi vosita hisoblanadi. Olimlar segment va supersegment vositalarning roli borasidagi turlicha izlanishlar olib borganlar va bu izlanishlarida ularga turlicha izoh berilgan. Ayrim tadqiqotchi olimlar segment vositalarga urg'u bergan bo'lsalar, boshqa bir olimlar esa supersegment vositalarning ijtimoiy madaniy farqlanishda ahamiyati katta deb hisoblagan. Aslida esa segment va supersegment vositalarning o'ziga yarasha o'rni va ahamiyati bor deb hisoblash o'rinli bo'lar edi.

Intonatsiya faqatgina fikrni ifodalashdan tashqari nutqqa ma'no va emotsional-ekspressivlik beradi. Shuningdek intonatsiya tinglovchining hislariga ta'sir eta olish kuchiga ham ega desak xato bo'lmaydi. Intonatsiya tufayli so'zlovchi nutqi o'ziga xos bo'yoq bilan jilolangan turli-tuman nutq shakllariga ega bo'ladi<sup>60</sup>. Tilshunos olim N.I.Jinkin ta'biri bilan aytganda "intonatsiya "ifoda indikatori" bo'lib, shaxsning o'zini tanituvchi va namoyon qiluvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi<sup>61</sup>.

Har qanday tildagi interferensiya hodisasi uning intonatsiyasida yorqin namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'rganilayotgan tillarni qay darajada o'zlashtirishga bog'liq jarayon hisoblanadi. Interferensiyaning fonetik darajasi fonetik interferensiya deb ataladi. Keyingi yillarda ko'plab tilshunos olimlar interferensiyaning turlariga bag'ishlab anchayin salmoqli ishlar, izlanishlar olib bordi. Biroq lisoniy interferensiyaning intonatsiya darajasida o'rganish o'zining murakkabligi va istalgan tilning intonasion sistemasi rang-barangli sabab, mazkur mavzuga bag'ishlangan tadqiqotlar boshqa turlarining tadqiq etilishiga qaraganda kamroq o'rganilgan.

Taniqli rus tilshunos olimi G.M.Vishnevskaya, bilingv nutqidagi intonasion sistemalarning tabiiy yoki sun'iy til kontakti sharoitida o'zaro ta'sir etishini intonasion interferensiya<sup>62</sup>, deb ta'kidlagan. Til egasiga kommunikativ jihatdan ta'sir etishda intonatsiyaning alohida roli bor, deb izohlaydi yana bir tilshunos olim

<sup>59</sup> Cook V. Active Intonation. -London: Longmans,, 1968. \*» 99 p.

<sup>60</sup> Всеволодский-Гернгросс, В. Н. Теория русской речевой интонации / В. Всеволодский-Гернгросс. - Петербург : Государственное издательство, 1922. - 128 с. : ил., нот.

<sup>61</sup> Газиёва, М.М. Просодика. "Akademnashr" Тошкент – 2019. - Б. – 49-50 Б. – 51.

<sup>62</sup> Вишневецкая, Г.М. Интерференция и акцент (на материале интонационных ошибок при изучении неродного языка) [Текст]: дис. ... д-ра филол.наук / Г.М. Вишневецкая. СПб., 1993.



N.D.Klimov<sup>63</sup>. Bilingv tomonidan ona tili yoki ikkinchi chet tili intonasion modellarining ona tili bo‘lmagan tildagi nutqqa beixtiyor qo‘llab yuborishi muloqot davomida maqsadning notug‘ri anglanishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida til normalari va qoidalarning buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bilingv tomonidan yo‘l qo‘yiladigan navbatdagi xatolik bu uning o‘zlashtirgan chet tili intonasion modellarini taxminan yoki yetarli darajada bilmay turib muloqot jarayonida qo‘llab yuborishidir. Mazkur holatda tinglovchi bo‘lgan til egasidan xatoliklar yashiriladi, sababi u faqat o‘z ona tili normalaridan kelib chiqib mazkur intonasioon modelni o‘zicha talqin qilishga urinadi va so‘zlayotgan bilingvning nima demoqchi ekanligi unga mavhumligicha qolaveradi.

Ikki til egasi ya‘ni bilingv nutqining til egasi tomonidan tushunish darajasi quyidagi interferensiya tiplarining klassifikatsiyasiga asoslanadi: tushunishni qiyinlashtiradigan interferensiya ( bunda so‘zlovchining umuman olganda, nima demoqchi ekanligini tushunish qisman saqlanib turiladi); tushunib bo‘lmaydigan interferensiya (bunda so‘zlovchining nima demoqchi ekanligi unchalik ham tushunarli emas); tushunishga to‘sqinlik qiladigan interferensiya ( muloqotni tubdan izdan chiqarib, tushunmovchilik keltirib chiqaradi).<sup>64</sup> Bu kabi interferensiya turlarini mos ravishda zaif, o‘rtacha va kuchli interferensiya, deb ham ataydilar.<sup>65</sup>

Xorijlik kishi nutqini tinglayotganda intonatsiya vositalari orqali nutqdagi uning nozik ma‘nosini tinglovchi o‘tkazib yuborishi yoki anglashga ulgurmay qolishi mumkin. Ma‘lumki ko‘p hollarda boshqa tildagi hazil-mutoyiba, ajablanishning turli ko‘rinishlari, g‘azab, achchiqlanish, nafratlanish, jirkanish intonatsiya bilan beriladi va bu holatlarni anglash tinglovchiga qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy. Shuningdek, xorijiy tilni o‘rganishdagi qiyinchiliklardan biri aynan intonatsiyadir, desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Shuningdek, xorijiy tilni o‘rganishdagi qiyinchiliklardan biri aynan intonatsiyadir desak xato qilmagan bo‘lamiz. Kishilar xorijiy tilda biyron so‘zlashi, so‘zlarni benuqson talaffuz qilishi mumkin, biroq aynan intonatsiyaga kelganda esa xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin. Intonatsiyaga asoslanib kishi qay darajada muloyim, his-hajonga boy, muloqotga dahldorligini va b. bilish mumkin. Shuningdek intonatsiya nutqning ma‘no doirasini kengaytiribgina qolmasdan balki fikrning nozik taraflarini ochib berishiga ham xizmat qiladi. “Oddiygina “salom” so‘zini, -

<sup>63</sup> Климов Н.Д. Некоторые проблемы изучения иностранного акцента как фактора устноречевого воздействия [Текст] / Н.Д.Климов// Проблемы организации речевого общения. М., 1981. С. 63-77.

<sup>64</sup> Бородулина М.К., Карлин А.Л Лурье А.С., Минина Н.М. Обучение иностранному языку как специальности (немецкий язык). М.: Высш.школа,1982.-255 с.

<sup>65</sup> Абдыгалиев, С.А. Пути преодоления лексической интерференции при обучении немецкому языку : автореф. ... дис. канд. филол. наук. / С.А.Абдыгалиев. – Москва, 1975. – 17 с.

deb ta'kidlaydi I.Andronikov, kibr bilan, uyatib, befarqlik, muloyimlik, g'amginlik, ta'sirsiz, do'stona, uzuq-uzuq, iztehzoli qilib aytish mumkin". Aynan intonatsiyaning rang-barangligi evaziga og'aki nutq yozma nutqqa nisbatan fikrni, tuyg'uni va kayfiyatni mo'ljalga aniq yetkaza oladi. "Ha so'zini 50 xil yo'sinda ifodalash mumkin", - deydi B.Shou, - shuningdek "yo'q" so'zini ham" va faqatgina bir usul bilan ularni yozuvga tushirish mumkin". Yana ham aniqroq yondashadigan bo'lsak tilda intonatsiya yetkazib bera oladigan ma'noni yozuv to'laligicha yoritib bera olmasligiga guvoh bo'lamiz. Shu o'rinda tilshunos olim R.Kingdon "intonatsiya – tilning yuragidir"<sup>66</sup> deb ta'kidlaganini eslash o'rinli bo'lar edi.

### **XULOSA**

Tilshunoslikda intonatsiyaga bo'lgan qiziqish uzoq yillarga borib taqalsada, mazkur sath borasidagi muammolar, yechimini kutayotgan masalalar va to'ldirilishi lozim bo'lgan kemtik joylar hali hanuz mavjuddir. Bir so'z bilan aytganda esa intonatsiya masalalari bugungi kunda ham o'z ahamiyati va dolzarbligini yo'qotgan emas.

### **REFERENCES**

7. Дьяков А.И. Причины интенсивного заимствования англицизмов в современном русском языке. Язык и культура. - Новосибирск, 2003
8. Saidov, S. (2021). IBN AL-MUQAFFANING ISLOM TARJIMA SAN'ATIGA QO'SHGAN HISSASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1).
9. Jurayev, S. S. O. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA BAXT-SAODAT MASALASI. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1).
10. O'G'Li, J. S. S. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 11-14.

<sup>66</sup> Р. Кингдон. Практика в английской интонации. 1978г.

## **UYG'UR TILIDAGI O'SIMLIK NOMLARIDA ARABIZMLAR**

**Gisarov F.M.**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada uyg'ur tilidagi ba'zi arabizmlar haqida mulohaza yuritiladi. Uyg'ur tili ham barcha turkiy tillar kabi o'zining morfemik, morfologik, leksik-semantik, grammatik, sintaktik, stilistik o'ziga xos tizimiga ega bo'lgan qadimiy tillardan biri hisoblanadi.*

**Kalit so'zlar:** arabizm, qomusiy bilimlar, "Kitobu s-saydana fi-t-tib", Susrut, Qirotus

### **ABSTRACT**

*This article discusses some of the Uyghurs in Arabic. Uyghur, like all Turkic languages, is one of the ancient languages with its own morphemic, morphological, lexical-semantic, grammatical, syntactic and stylistic system.*

**Keywords:** Arabicism, encyclopedic knowledge, "Kitabu s-saydana fi-t-tib", Susrut, Qirotus

### **KIRISH**

Qomusiy bilimlar sohibi Abu Rayhon Beruniy "Kitobu s-saydana fi-t-tib" ("Tibbiyot farmakognoziyasi") nomli asarning muallifidir. Mazkur kitobda sharq tabobatida qo'llanilgan 674 ta dorivor o'simliklar va 90 xil o'simlik mahsulotlari haqida ma'lumotlar jamlangan. Abu Rayhon Beruniyning "Saydana" asarida bundan tashqari 104 ta hayvonlarning go'shti, ichki a'zolari, shoxi, junlaridan tayyorlanadigan shifolik ahamiyatiga ega bo'lgan mahsulotlar keltirilgan. Abu Rayhon Beruniyning farmakognoziya fani oldidagi katta xizmatlaridan yana biri shuki, alloma o'zigacha boshqa olimlar tomonidan noto'g'ri qo'llanib kelgan yoki nodurust tarjima etilgan 113 ta dorivorlarning nomlari, ya'ni atamalarida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tanqid qilgan va ularni qanday atash to'g'ri bo'lishini ta'riflab, asoslab bergan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Abu Rayhon Beruniy o'zidan oldin va o'z zamonida ilmiy asarlar yaratgan, tabobat ilmi bo'yicha kitoblarni yunon, grek, rum tillaridan arab tiliga, suryoniy tilga tarjima qilib bergan ko'plab olimlarning ishlarini sinchiklab o'rganib chiqdi. Beruniy o'zining "Saydana" asarida o'sha olimlarning, tabiblar va tarjimonlarning ismlarini birma-bir keltirib, ularning fanga qo'shgan hissalarini ta'kidladi. Olim "Farmakognoziya" asarini yaratishda nafaqat ilmiy asarlardan, balki badiiy

adabiyotlardan ham oqilona foydalandi, shuningdek mazkur olim va adiblarning ro‘yxatini tuzib, o‘z kitobida bu ro‘yxatni kelajak avlodlar uchun taqdim etdi. Alloma o‘zining bu kitobida har bir o‘simlik borasida burungi olimlar, ulamolar bildirgan fikrlarni ham birma-bir keltirib o‘tadi. Abu Rayhon Beruniyning «Tibbiyot farmakognoziyasi» yoki «Dorivor o‘simliklar haqida kitob» asarida ismlari keltirilgan olimlar ro‘yxati:

Susrut (arabcha yozuvida ismning oxirgi harfi dol bilan tugagan, biroq Susrud deb tarjima qilinmagan). Qadimgi hind tabobati vakili eramizdan oldingi VI asrlarda yashagan. Susruta ayurveda asarining muallifi.)

Gippokrat-Buqrot (eramizdan oldingi 460-355-yillarda yashagan). Uning “Buqrot aforizmlari” nomli asarini va shu asarga Galen yozgan sharhlari bilan birga suryoniy va arab tiliga Xunayn ibn Ishoq tarjima qilgan.

Aristotel (eramizdan oldingi 384-322-yillarda yashagan). Olim Aristotelning «Hayvonlar haqida kitob»idan iqtiboslar keltirgan. “Toshlar haqidagi kitob” asari Aristotelga tegishli emas, degan fikrni birinchi bo‘lib o‘rtaga tashlagan.

Feofrast (eramizdan oldingi 370-285-yillarda yashagan.) Aflotun va Aristotelning shogirdi bo‘lgan va uning botanikaga oid ikki asari “O‘simliklar sababi” va “O‘simliklar bo‘yicha tadqiqotlar” to‘liq saqlanib qolgan.

Qirotus (Cratevas) bu olim va tabib podsho Mitridat Yevpator (eramizdan oldingi 132-63-yillarda hukmronlik qilgan) ning saroy tabibi bo‘lgan. U besh jildlik dorivor o‘simliklar kitobi muallifi bo‘lgan.

Kleopatra –(e.o.69-30-yillarda Misr malikasi bo‘lgan) va “Kleopatra kitobi” nomli zaharli o‘simliklar to‘g‘risida asar yozib qoldirgan. Beruniy o‘z kitobida 11 paragrafida Malika Kleopatra asaridan iqtiboslar keltirgan.

Nikolay al-Iskandariy, bu olimning ismi Galenning “O‘n olti kitob”ini to‘plab, sharhlagan yetti vrachlardan biri sifatida adabiyotlarga kiritilgan.

Dioskorid (eramizdan oldin Kichik Osiyoda Anasarbda tug‘ilgan va Rim imperatorlari Klavdiy, Neronlar hukmronlik yillarida yashagan) Uning “Davolash vositalari” nomli asari mashhur. Bu asarda 570 ta shifobaxsh o‘simliklardan olinadigan dorilar bayon qilingan.

Charaka hind vrachi Panchanad (Panjob) da tug‘ilgan va Charaka samxita asari bilan mashhur bo‘lgan.

Arxigen Rim imperatori Trayan hukmronligi davrida faoliyat ko‘rsatgan. (eramizdan oldingi 83-117-yillar). Bu muallif “Saydana” asarida ikki paragrafda keltirib o‘tilgan.

Ruf bu grek anatomi va vrachi ham Rim imperatori Trayan hukmronlik davrida faoliyat olib borgan Galendan keyingi mashhur tabib sanaladi. Uning asarlari Xunayn ibn Ishaq tomonidan arab tiliga tarjima qilingan. «Saydana»da bu olim toʻrtta paragrafda eslab oʻtiladi.

Jolinus –Klavdiy Galen e.o.129-yilda kichik Osiyodagi Pergam shahrida tugʻilgan va u Gippokratdan soʻng eng yirik antik vrach hisoblanadi. Beruniy Jolinusning quyidagi asarlaridan foydalangan: «Sodda dorilar haqida kitob», «Oson tayyorlanadigan dorilar haqida», «Dori tayyorlash xususida kitob», «Kasalliklarga qarshi dorilar», «Taryoq», «Ovqatlar haqida kitob», «Davolash usuli», «Glaukonga bagʻishlangan kitob», Bulardan tashqari Beruniy uning asarlariga yozilgan sharhlarni ham tahliliy oʻrgangan.

Aflimun Gippokrat (Buqrot)ning zamondoshi boʻlgan mashhur olim hisoblangan. Beruniy uning «Suv havozalari» asaridan iqtiboslar keltirgan.

Filagriy eramizdan oldingi IV-asrda yashagan tabib. U «Saydana» asarida bir oʻrinda keltirilgan.

Oribaziy (325-402 yoki 403-yillarda yashagan). Bu vrach 70 kitobdan iborat ensiklopediya yozgan. U oʻgʻli uchun «Sinopsis» asarini yozib bergan. Beruniy Oribaziyni 70 ta paragrafda eslatgan.

Atyus al-Amidiy (502-575-yillarda yashagan), u 16 jildlik tibbiy toʻplam muallifi sanaladi. Beruniy oʻzining «Saydana» kitobida Al-Amidiyning «Kunnashu Amidiy» (Amidiy toʻplami) asarini 28 oʻrinda keltirib oʻtgan.

Stefan-ehtimol Stefan al-Iskandariy boʻlib, u imperator Irakliy podsholigi davrida (610-641-yillarda) Konstantinopolda saroyda vrachlik qilgan. «Saydana»da bu vrach faqat bir oʻrinda eslatilgan.

Pavel (615-690-y.y.) Egin orolida tugʻilib oʻsgan, Arablar u yerni ishga ol etgach, Iskandariyada yashagan qadimgi grek medisinasi eng soʻnggi vakili hisoblanadi. Pavel yetti kitobdan iborat tibbiyot ensiklopediyasining muallifi sanaladi. Beruniy uning asarlaridan 190 ga yaqin iqtiboslar keltirgan.

Abu Jurayj-Abu jurayj Ar Rohib, u xristian vrachlik maktabi vakillaridan biri boʻlib, yozma asarlari nomi keltirilmagan. Biroq «Saydana» kitobida Beruniy tomonidan 25 ta paragrafda zikr etib oʻtilgan.

Jurjiys-Jurjis ibn Jibril ibn Buxteyshu, fors xristianlari vrachlik maktabi vakili sanaladi. (VIII-IX asrlar). Jurjis grek medisinasi asarlarini arab tiliga tarjima qilishni boshlab berganlardan hisoblanadi. Suryoniy tilida uning «Kunnash» (Toʻplam) asari maʼlum. «Saydana»da Jurjisning bu kitobidan bitta iqtibos keltirilgan.

Masarjavayx-bu yahudiy millatiga mansub vrach taxminan 660-750-y.y.da Basrada faoliyat yuritgan. U Iskandariya maktabivakili Aronning tibbiyot ensiklopediyasini suryoniy va arab tillariga tarjima qilgan. Bu yahudiy vrachning “Dorilarning o‘rnini bosuvchi vositalar” nomli kitobi saqlanib qolgan.”Saydana”da 25 ta paragrafda Masarjavayhga murojaat qilingan.

Ayyub Ar Ruhaviy-u vrach Galen asarlarini suryoniy tiliga tarjima qilgan.(820-y.) «Saydana»da bir joyda Ruhaviyning balzami borasida fikri iqtibos qilingan.

Al Dimashqiy (Bu kabi ismlarda shamsiy harflardan oldingi al artikli kelganda, shamsiy harf tashdidlanib Ad Dimashqiy etib o‘qilishi kerakligiga amal qilinmagan.) Bu vrach Masix nomi bilan ma’lum bo‘lgan Iso ibn Xakam Ad Dimashqiyning otasi bo‘lgan. Iso masix ad Dimashqiy Bag‘dod, Makka, Madina shaharlaridagi shifoxonalarni boshqargan. «Saydana»da bu olim ishlari 27 paragrafda keltiriladi.

Jibril ibn Buxteyshu ibn Jurjis-Jurjis ibn Jibrilning nabirasi, bu vrachning nomi asarda 13 ta o‘rinda keltiriladi. “Jibril sharhlari” asari unga tegishlidir.

Al-Ahvaziy Beruniy bu olimning AlXorazmiy jadvalini nohaq tanqid qilgani uchun tanqid qiladi va shu masalaga bag‘ishlab 600 betdan iborat “Ikki o‘rtasida vositachi” nomli asar yozadi. “Saydana”da Al Ahvaziy nomi 20 ta o‘rinda eslatiladi.

Ibn Al-Bitriq-Abu Zakariyo Yahyo (Yuhanna) ibn al-Bitriq- podsho Ma‘mun davrida tarjimonlik bilan shug‘ullangan vrach Abu Yahyo al Bitriq- ning o‘g‘li. Beruniy “Ibn al Bitriq tarjimalari”ga to‘rt o‘rinda murojaat qilgan, lekin qaysi asarning tarjimasini ekanligi ko‘rsatilmagan.

Salmavayh (225/840-yilda vafot etgan) Salmavayh ibn Bunan Bag‘dod shahrida Ma‘mun va Mu‘tasim podsholigi davrida yashagan vrach, “Saydana”da bu vrach bir o‘rinda zikr etilgan.

Masih-Abu l Hasan Iso ibn Hakam Masix ad Dimashqiy Horun ar Rashid davrida vrachlik bilan shug‘ullangan. U Damashqlik Hakam ad Dimashqiyning o‘g‘li bo‘lgan.Uning “Hayvonlardan olinadigan foydali dorilar” kitobi to‘rt o‘rinda zikr etilgan.

Ibn Masavayh-Xorun ar Rashidning saroyida tibbiy asarlarni grek va yunon tillaridan arab tiliga tarjima qilgan vrach.”Saydana”da Ibn Masavayhning ismi 115 martaga yaqin zikr etilgan.Ibn Masavayh 857-yilda Samarrada vafot etgan.

Ali Ibn Rabbon At Tabariy-bu vrach Marvda tug‘ilgan, keyinroq otasi va oilasi bilan Tabaristonga ko‘chib o‘tgan, keksayib qolganda islomni qabul qilgan.Uning “Firdavs ul Hikma” asari ma’lum. “Saydana”da bu vrachning ismi to‘rt o‘rinda zikr etilgan.

Al Jaxiz- Abu Usmon Amr Ibn Baxr al Joxiz (780-869 y.y.)- Basrada yashagan arab filologi, faylasufi, adibi, «Saydana»da uning «Hayvonlar to‘g‘risida kitob»i 8 paragrafda zikr etiladi.

Sabur-Sabur ibn Sahl-Jundishopur shifoxonasida boshlaruvchi bo‘lib ishlagan va 850-yilda Bag‘dod shahriga taklif qilingan. Bu vrachning “Sabur farmakopiyasi” asari uch asr davomida dorixonalar va shifoxonalarda asosiy manba bo‘lib kelgan. “Saydana”da bu kitobdan bitta o‘rinda iqtibos keltirilgan.

Al Kindiy-Abu Yusuf Yoqub ibn Ishoq ibn As Sabboh al Kindiy-800-yillarda Basrada tug‘ilgan, Bag‘dodda yashagan buyuk arab faylasufi, qomusiy olimi. Uning asarlari qatorida 30 ta medisina bo‘yicha asarlari turadi. Beruniy o‘z kitobida 7 o‘rinda bu muallif ishlaridan iqtiboslar keltirib o‘tgan.

Xunayn ibn Ishoq-(808-873 y.y.)-Abu Zayd Xunayn ibn Ishoq al Ibodiy Xiro shahrida farmasevt oilasida tug‘ilgan. Yahyo ibn Masavayhning shogirdi, arab, fors, suryoniy va grek tillarini mukammal bilgan tibbiyot tarjimoni va vrach. U Galen, Buqrot, Aflotun, Aristotel, Dioskrid, Ptolemey, Oribaziy va Pavel asarlaridan 150 tasini arab tiliga tarjima qilgan.Uning 100 ga yaqin original asarlar yozganligi keltiriladi, biroq ular to‘liq saqlab qolinmagan.”Saydana”da Xunayn ibn Ishoqning uchta asari: “Dorilarning ishonchli ro‘yxati”, “Sodda dorilar nomlari haqida”, “Xunayn taryoqi”dan ko‘p iqtiboslar keltiriladi.

Ibn Masa-Iso ibn Masa Marv shifoxonasida vrachlik qilgan, to‘g‘ri ovqatlanish, qon olish, hammomlardan to‘g‘ri foydalanish haqida asarlar yozgan.”Saydana”da 36 ta paragrafda uning ismi zikr etilgan.

Xubaysh-Xubaysh ibn al Hasan al A’sam Ad Dimashqiy Xunayn ibn Ishoqning jiyani va shogirdi. U ustozining asarlarini suryoniy tiliga tarjima qilgan. Xubaysh Galenning 35 ta asarini arab va 3 ta asarini suryoniy tillariga tarjima qilgan. “Saydana”da unga 7 ta paragrafda murojaat qilingan.

Ibn Sarabiyun-Yuxanna (Yahya)ibn Sarabiyun (Serapion)-Ixxasr ikkinchi yarmida Damashqda yashagan suriyalik vrach, medisina bo‘yicha ikkita to‘plam yozgan va u “Saydana”da 4 o‘rinda zikr etilgan.

Saxarbuxt-Iso ibn Saxarbuxt va uning “Sodda dorilarning kuchi haqida” kitobi “Saydana”da 80 marta zikr etilgan.

Abu Hanifa (815 yoki 825-895)-Abu Xanifa Axmad ibn Dovud ibn Vanand Ad Dinovariy va uning “O‘simliklar haqida kitob”i “Saydana”da 230 o‘rinda zikr etilgan.

Sobit ibn Qurra-Abu l Hasan Sobit ibn Qurra as Sobi al Xarroniy(834-901 y.y.) va uning “Tibbiyot fanining ganjinasi” kitobi “Saydana”da bir o‘rinda keltirilgan.

Ishoq-Xunayn ibn Ishoqning o'g'li Abu Yo'qub Ishoq ibn Xunayn ibn Ishoq al Ibodiy va uning "Sodda dorilar haqida kitob", "Hamma yerda uchraydigan dorilar" kitoblari "Saydana"da ikki paragrafda keltirib o'tilgan.

Qusto-Qust ibn Luka al Ba'lbakkiy, Suriya (Ba'albakka)da tug'ilgan, arman millatiga mansub vrach, faylasuf, astronom, matematik olim, Armanistonda vafot etgan."Saydana"da 8 paragrafda eslab o'tilgan.

Al Jayhaniy - Buxoro amiri Nasr II(Ikkinchi)ning vaziri Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Nasr Al Jayhoniyy va uning "Davlatni bilishda yo'llarning ahamiyati" kitobi "Saydana"da 3 o'rinda eslab o'tilgan.

Ar Roziy-Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ibn Yahyo ar-Roziy, turli sohalarda 260 ga yaqin asar yozgan buyuk olim, "Saydana"da Beruniy bu olimni va asarlarini 270 marta eslatib o'tgan.

Abu Zayd al Balxiy (235/850-322/934)-Abu Zayd Ahmad ibn Sahl al Balxiy, Balx okrugida tug'ilgan Al Kindiyning shogirdi, Al Balxiy va uning "Kimyo kitobi" "Saydana"da 2ta paragrafda keltirilgan.

Xamza al Isbahoniyy -Abu Abdulloh Xamza ibn al Hasan al Isbahoniyy(Isfahoniyy)(280/893-360/970) Isfahon shahrida tug'ilgan, Bag'dod shahrida yashagan tarixchi,filolog olim. Beruniy uning fors tilidagi asarlarini va olimni "Saydana"da bir necha o'rinlarda keltirib o'tgan.

Sobit(976-yilda vafot etgan)-Sobit ibn Sinon va uning "Tarix" kitobi "Saydana"da uchta paragrafda keltirilgan.

Abu l Hasan At Turunjiy va uning "Kunnash"(To'plam) kitobi «Saydana» da 17 marta keltirib o'tilgan.

Ibn Mandavayh-Abu Ali Ahmad ibn Abdurrahmon ibn Mandavayh al Isfahoniyy Adud Davla tomonidan Bag'dodga taklif etilgan. Bu olim 40 ga yaqin kichik risolalar yozgan."Saydana"da 12 paragrafda zikr etilgan.

Abu l Hasan al Amiriy (991-yilda olamdan o'tgan).Abu l Hasan Muhammad ibn Yusuf al Amiriy an Nisaburiy, "Saydana"da bu olim 2 o'rinda zikr etilgan.

Buxteyshu ibn Abdulloh(Ubaydulloh bo'lishi ham mumkin)va uning "Al Kofiy" kitobidan Beruniy bir necha iqtiboslar keltirgan.

Ibn Samanjun (1009-1010 yilda vafot etgan)Abu Bakr Xamid ibn Samanjun va uning "Sodda dorilar haqida"kitobiga 2 o'rinda murojaat qilingan.

Abu sahl (1010-yilda olamdan o'tgan) Abu Sahl Iso ibn Yahyo al Masihi Al Jurjoniyy-vrach, tabiatshunos, astronom va faylasuf. Gurgonda tug'ilgan, Xorazmlik bu olim Ibn Sino, Beruniy va Abu l Xayr kabilar bilan birga ijod qilgan. "Tib



san'atining yuz san'ati" kitobini muallif xorazmshoh Abu l Abbos Ma'mun ibn Ma'munga bag'ishlagan. Bu muallif va kitobi "Saydana"da 8 o'rinda zikr etilgan.

Ali ibn Iso Bu ism ko'z shifokori Sharafuddin Ali ibn Iso al Kahhalga tegishli bo'lsa kerak deb yozadi U.I. Karimov. Ali ibn Isoni Beruniy o'z kitobida 2 marta keltirib o'tgan.

Abu l Xayr al Hasan ibn Sivar ibn Bobo ibn Behnom ibn al Hammar 942-yilda Bag'dodda tug'ilgan, mantiq va falsafa bilan shug'ullangan. Abu l Xayr Beruniy va Ibn Sino bilan birga Ma'mun akademiyasida ishlagan olimdir. U suryoniy tilidan arab tiliga tarjimalar qilgan. "Saydana"da Abu l Xayr 70 martaga yaqin keltirilgan.

Abu Ali ibn Miskavayh (1030-yilda olamdan o'tgan), uning "Xalqlar tajribalari" kitobidan tashqari "Ichimliklar kitobi", "Eguliklar kitobi", "Sodda dorilar haqida" kabi asarlari "Saydana"da 4ta paragrafda keltirib o'tilgan.

Yuqorida ismlari keltirilgan olimlardan tashqari Abu Rayhan Beruniy o'z asarida Abu l Abbos Xushshakiy, Abu Zayd al Arrajjoniy, Abu Malik, Abu Mu'oz, Abu Nasr An Nisaburiy, Abu Nasr Al-Xatibi, Abu Sa'd al Jurjoniy, Abu Saxl ar Rasailiy, Abu Umar, Al Azdiy, Ali ibn Xamza al Isbahoniy, Badig'urus, Bishr ibn Abdulvahhob al Fazariy, Bishr As Sijoziy, Germes, Az Zanjaniy, Irohim Al Valiy, Ibrohim as Sandaniy, Yushubuxt al Matran, Al Ma'mun, Muhammad Attor, An Najjar, As Savahiliy, As Sibaviy, As Sullabiy, At Tohir ibn Muhammad, Tohir As Sijaziy, Al Umaniy, Al Fahlaman yoki Al Bahlaman, Hakam ibn Xunayn, Hasan, Hofiz ad Din, Al Xuziy, Chendiy(yoki Cheng Chi-mashhur xitoylik tabib, dieta saqlash bo'yicha kitob muallifi II asrning ikkinchi yarmida yashagan) kabi mualliflarning asarlaridan ham iqtiboslar keltirgan. Sharq tabobati ilmining shakllanishi va taraqqiy topishida Uyg'ur tabibchiligi ham salmoqli ahamiyatga egadir. Shinjong Xalq Sixxiya nashriyatida 2012 yilda chop etilgan II qismdan iborat "Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi" ensiklopediyasida Uyg'ur dorivor o'simliklar bilan davolash tarixi, tibbiy usullarning benazirligi, xalq tabobati texnikasi, inson tanasining fiziologik tuzilmalari orasidagi uzviy bog'liqlik, inson tanasi a'zolarining faoliyati, ushbu faoliyatni yaxshilash yo'lida foydali dorivorlarning o'ziga xos ahamiyatli jihatlari, tabiatda xom uchraydigan shifobaxsh o'simliklarning turlari, ulardan inson salomatligini yaxshilashda qo'llanish metodlari, mazkur o'simliklarning kimyoviy tarkiblari va ularni tabobatda ishlatish me'yorlari kabi masalalar batafsil bayon etilgan. Ushbu ensiklopedik salohiyatga ega bo'lgan kitob uyg'ur tabobatchilik-dorigarchilik(farmasevtika)oliy maktab(o'quv yurt)lari uchun darslik vazifasini o'tab kelmoqda.

Abdurahim Yusup bosh tuzuvchi bo‘lgan mazkur II qismli tabobat darsligining muallifi Ali Hoji Emchidir. Kitobni tuzishda Ruqiya Qovuz hamda Abul Qosim Muhammad Siddiqlar o‘zlarining katta hissalarini qo‘shgan. 1987-yilda Shinjong Uyg‘ur tabobatchilik oliy texnikumiga asos solinib, kechki ta‘lim boshlanadi. 1998-yildan esa Shinjong tibbiy universiteti va Cho‘nglar maorif instituti birlashib, davolash va dorivorchilik kasblari bo‘yicha o‘qish ishlari yo‘lga qo‘yildi. 2005-yildan buyon Jiyonshi Jo‘ngyi tabobatchilik instituti bilan birlashdi. Uyg‘ur tabobatining to‘liq davolash va dorigarchilik fakulteti ochilib, kunduzgi hamda kechki bo‘limlarga talabalar qabul qilinib kelinmoqda.

Mahmud Qoshg‘ariy asarining nomiga e‘tibor qaratilsa, “Devonu lug‘oti-t-turk” so‘z birikmasining o‘ziyoq arab tilida ekanligi ko‘rinadi, tarjimasi “Turk tillari devoni(qomusi)”.

X asrlardan boshlab Markaziy Osiyo mintaqalariga arab tilidagi yangi madaniyat va ilm-fanning kirib kelishi natijasida maorif ishlari, ya‘ni maktab, madrasalarda ta‘lim arab tilida olib borilgan. Ilm ahli ta‘lim olish, ilmiy ishlarni amalga oshirish maqsadida Arab xalifaligining markazlari bo‘lgan Kufa, Bag‘dod, Misr kabi shaharlarga borishgan va arab tilida ijod qilganlar. Mahmud Qoshg‘ariyning ushbu asari ham arab tilida yozilganligi bejiz emas. Shinjong Xalq Sixxiya nashriyotida 2012 yilda chop etilgan II qismdan iborat “Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi” ensiklopediyasida qayd etilgan dorivor o‘simliklar nomlari o‘rganib chiqilganda ushbu atamalarning ham taxminan 25% i arabcha ekanligi ko‘zga tashlandi. Bu atamalarni aynan arab tilidan o‘zlashgan atamalar deyish unchalik o‘rinli bo‘lmasa kerak. Uyg‘ur tabobatida uyg‘ur xalq tilida ma‘lum va qo‘llanib kelingan shifobaxsh o‘simliklar nomlari arab tiliga o‘girilgan deyish to‘g‘riroq bo‘ladi, chunki bu so‘zlar arab tili Markaziy Osiyoga kirib kelishidan oldinroq mahalliy xalqlarning milliy tillarida mavjud edi.

Mahmud Qoshg‘ariyning jahon ilm-faniga qo‘shgan ulkan hissasi uyg‘ur tilidagi atamalarni arab tiliga o‘girib, o‘z davri ilm ahliga tanishtirganligidir. Mutafakkir olimning Devonida keltirilgan nomlar orqali dorivor o‘simliklar arab tilida ham o‘z muqobillarini topa oldi. “Uyg‘ur tabobati xom dorilar ilmi” ensiklopediyasi hozirgi kunlarda Shinjong-Uyg‘ur avtonom rayoni Tibbiyot ilmgohlarida asosiy darslik sifatida o‘qitilmoqda.

### **Tabobat atamalaridagi arabizmlarida uyg‘ur tili fonetikasi ta‘siri**

Uyg‘ur tili tarixan ilg‘or tillar bilan uchrashish chog‘ida o‘sha tillardan ilm-fanga oid terminlar va badiiy, diniy sohalardagi so‘zlarni o‘zlashtirib oldi.

Arslan Abdullaevning 2010 yilda Shinjong Xalq nashriyotida bosmadan chiqqan “Hozirgi zamon uyg‘ur tili” nomli kitobida arab tilining uyg‘ur tiliga ta’siri nomli paragrafida shunday ma’lumotlar keltirilgan: “Uyg‘ur tilining arab tili bilan aloqasi uyg‘urlarning islom dinini qabul qilgan vaqtdan boshlanadi...”

14-asrdan boshlab islom dini Turfan tarafga tarqaldi, buning bilan arab tili va yozuvi sharqiy va shimoliy Shinjongga kengaydi. Shinjongdan topilgan ijtimoiy-iqtisodiy vasiqalarda arab tilidan kirgan Haq, Qissa, Kitab, Mal, Adam, Ali kabi so‘zlar uchraydi<sup>67</sup>

“Uyg‘ur tilining izohli lo‘g‘ati”da jamlangan 35836 ta so‘zlar kompyuter statistikasi bo‘yicha tekshirilganda, ulardan 2669 tasi arab tilidan (7,4 foiz), 1470 tasi (4,1 foiz) fors tilidan, 2356 ta so‘z (6,6 foiz) rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar ekanligi ma’lum bo‘ldi. 28802 (80,4 foiz) ta so‘z uyg‘ur tiliga xos so‘zlar ekanligi aniqlandi.<sup>68</sup>

Tarixda uyg‘ur alifbosi bir necha marotaba o‘zgarishlarga uchradi. Qadimgi uyg‘ur yozuvi namunalari to‘liq saqlab qolinmagan bo‘lsa-da, u yozuvning mavjud bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar adabiyotlarda keltirib o‘tiladi. Arab yozuvi va tili ta’siri ostida tuzilgan uyg‘ur alifbosida arab tiliga xos fonetik xususiyatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Arab tilidagi fonetik jihatlar uyg‘ur tilidagi fonetik imkoniyatlar asosida moslashtirib chiqildi. Bu imlo o‘zgartirishlari alifbodagi harflarning fonetik jihatlarini to‘liq ochib berolmadi. Arab tilidagi tovushlar uyg‘ur tili fonetik imkoniyatlariga to‘liq mos kelmadi. Biroq, arab tilining mavqeyi boshqa tillarga kuchli ta’sir o‘tkazdi. Tilshunos olimlar milliy tillar grammatikasi va alifbosini qayta ko‘rib, arab harflari asosida shakllantirib chiqish vazifasini ado etdilar. Bu jarayonning qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilganligini vaqt ko‘rsatadi, albatta. B ujarayonning ijobiy va salbiy tomonlari bo‘lganligi sir emas. Uyg‘ur tilida mavjud bo‘lmagan tovushlarni yozuvda aks ettirish arab tovushlarini noto‘g‘ri talqin etilishiga o‘xshash hodisalarni yuzaga keltirdi. Arab tilidagi emfatik, sirg‘uvchi, til oldi-tish uchi tovushlari va boshqa xususiyatlarni uyg‘ur alifbosida ifodalashda qator yangi harf birikmalari sun’iy ravishda yasaldi. Xuddi shu hol kirill yozuvi talablari asosida uyg‘ur alifbosini shakllantirish jarayonida ham kuzatildi. Bunda ham tilshunos olimlar kirill alifbosi tarkibiga yangi bir ko‘rinishli harflar va diftonglar triftonglarni ifodalash uchun qo‘shma harflarni ixtiro etdilar. Har ikkala jarayon ham uyg‘ur yozuvini to‘g‘ri o‘qish va to‘g‘ri tushunishda muammolar keltirib chiqardi.

<sup>67</sup> А.Абдуллаев Ҳозирги замон уйғур тили. Шинжонг. 2010. 157-бет.

<sup>68</sup> А.Абдуллаев Ҳозирги замон уйғур тили. Шинжонг. 2010. 161-бет.

Quyida arabcha soʻz va soʻz birikmalarida uygʻur tili fonetikasi, artikulyatsiyasi imkoniyatlaridan kelib chiqib paydo boʻlgan oʻzgarishlarga ayrim misollar keltiriladi:

17. **خوخا** Xoʻxa –Boshqa nomlari Shukoily, Charcha, Avnan ka tap.

Lot. Herba Cirsium helenioides, Ing. Japanese Thistle. (119-b). Izoh: Abu Rayhon Beruniyning saylanma asarlari toʻplami IVtomida X V X oʻzagidan yasalgan Xaux oʻsimlik nomi mavjud (409-bet)Persiki deb tarjima qilingan (U.I.Karimov), lekin shaklan bir oʻzakdan yasalgan soʻzlarga oʻxshasada, biroq maʼnosi toʻgʻri kelmaydi.

4. **بابونه** Babune- Boshqa nomlari: Govche shamiy, Babunej, Govche shamiy-murihiy; Lot. Herba Matricaria chamomilla, Ing. Matricaria Herb.(154-bet).

5. **ببلله** Belile-Boshqa nomlari: Belilej, Belile, Behire, Lot. Fructus terminalia bellirica, Ing. Belleric Terminalia fruit.(173-b).

Babune va Balile soʻzlarida arab yozuvidagi soʻzlarning oxirida muannaslik hamda bir donalik maʼnolarini anglatuvchi ta marbuta(atun) qoʻshimchasi qisqa (a) unlisiga aylantirib talaffuz etilishi uygʻur tili fonetikasi taʼsirida (e) qilib aytilgan. Yozuvda ham Soʻzlarning oxirgi ta qoʻshimchasi yumshoq h-hoyi havvaz harfining toʻrtinchi, yaʼni soʻz oxiridagi koʻrinishiga oʻzgargan.

15. **سوقمونييا** Suqmuniya-Boshqa nomlari: Mehmude, Mehmude Suqmuniya, Lot. Resina Convolvulus scammonia, Ing. Scammonia.(205-b). Izoh: Bu oʻsimlik nomi Beruniyda Saqamuniya (542/531-bet) deb keltirilgan, arabcha yozuvida ham Sin harfidan keyingi Vav harfi yoʻq. Rus tiliga Skammoniy deb tarjima qilingan.Bu nom oʻsimlik nomining lotincha va inglizcha variantlari(Scammonia)dan rus tiliga oʻzlashganligi koʻzga tashlanadi.

Uygʻur tabobati ensiklopediyasidagi Suqmuniya oʻsimlik nomi va Beruniy asaridagi Saqamuniya atamasi bir giyohning nomi, biroq arabcha talaffuzi va uygʻurcha talaffuzida farq bor.

18. **رہیان** Reyhan **رہیان** Boshqa nomlari: Shah Supirem, Tilsi, Rayhan; Lot. Herba Ocimum basilicum, Ing. Basil Herb. (88-b). Abu Rayhon Beruniyning “Abu Rayhon” kunyasi mana shu oʻsimlikni bolalik va yoshlik paytida yaxshi koʻrganligi va qulogʻiga taqib yurganligi uchun berilgan degan maʼlumot baʼzi adabiyotlarda uchraydi.Beruniyda bu oʻsimlik nomi Rayxon deyilgan va yorabcha yozuvida Hoyi Xuttiy ishlatilgan, uygʻur yozuvida esa Sirgʻaluvchi Xoyi Xuttiy uygʻur tilining fonetikasida yoʻqligi asosida Hoyi havvaz bilan almashtirilgan. Rayxon va Rayhan nomlari bir oʻsimlik nomidir. Rus tiliga Bazilik deb oʻgirilgan.Boshqa nomlari masaldasida ham Shoh Iparam (Beruniyda) uygʻurchasi Shoh Supiram boʻlib

o'zgarib ketishi sababi bevosita uyg'ur tiliga o'zlashish yoki aksincha til fonetik hodisasi ta'siri mavjud.

29. **أمان** Aman **نه مه ن** – Boshqa nomi: Ko'k aman, Lot. Folium Artemisiae absintium, Ing. Argy Wormwood Leaf .(317-b). Beruniyda bu o'simlik nomi keltirilmagan. O'zbek tiliga bu o'simlik nomi Achchiq shuvoq, Ermon deb tarjima qilingan (Dorivor o'simliklarning lotincha- o'zbekcha-ruscha-arabcha va forschatojikcha lug'ati. Toshkent. 2004. 20-bet). Ibn Sinoda bu o'simlik nomi Erman - Afsantin deb keltirilgan.(196-bet).

34. **مؤغاس** Mug'as, Boshqa nomlari: Afrika Mug'asi, Mida, Lot. Radix Stephania Tetranda, Ing. Root of orient vine. (332-b). Beruniyda 817-bet, Mug'as atamasi keltirilgan, biroq arabcha yozuvida bu ikki so'z ikki xil yozilgan. Uyg'urcha yozuvida oxirgi harf Sin bilan, Beruniyda Sa un bilan ifodalangan. Buning sababini uyg'urcha arab yozuvida Sa un harfi kiritilmaganligida deb tushunish kerak. Uyg'ur tili fonetikasida sirg'aluvchi Sa tovushi mavjud emas, arab tilidagi bu tovush va uni ifodalovchi harf oddiy s harfi va tovushi bilan beriladi.

37. **سلبينهج** Selbinej **سه لبينهج** – (boshqa nomi keltirilmagan), Lot. Ferula persica, Ing. Ferula.(345-bet). Bu atamada bosma xatosi tufayli Sakbinaj so'zi Salbinaj bo'lib qolganligi aniqlandi. Sakbinaj nomi lotinchasi(Dorivor o'simliklarning lug'atida 55- bet) Ferula persica Willd deb keltirilgan. O'zbek tiliga bu o'simlik nomi **Eron kavragi** deb o'girilgan. Rus tilida bu giyoh Ferula persidskaya deb ataladi. Beruniyda Sakbinaj so'zida Sin harfidan keyingi Hoyi Havvaz yo'q. Uyg'ur alifbosida qisqa a unlisini ifodalash uchun bu harf orttirilgan. Rus tiliga Sagapen deb tarjima qilingan (Beruniy IV tom. 535-bet).

17. **ئودسلب** Ud Salib Bu atamada U'd so'zidagi Aynun harfi uyg'ur alifbosida Hamza va vov birikmasi bilan ifodalangan.

22. **تمرهيندى** Temri hindiy Bu so'z birikmasida gi Tamr so'zi uyg'ur yozuvida Ta un dan so'ng Hoyi havvaz orttirib yozilgan. Bu ish qisqa a unlisini ifodalash uchun amalga oshirilgan.

36. **ئابدملك** Abid milik Abd un so'zi arab tilida Aynun harfi bilan yoziladi. Uyg'ur alifbosi xususiyatlari asosida Abid Milik atamasida ham imlo o'zgarishi sodir bo'lgan. Talaffuzda ham bu o'zgarish seziladi. Uyg'ur tilida bu kabi arabcha so'zlar muloyim aytiladi.

88. **لهيهتوتتس** Lihyatu t tis Bu so'z birikmasini morfemik, leksik tahlil etishda uni qismlarga ajratishda xatoga yo'l qo'yimaslik muhim. Bu so'zlar Lihyatun (soqol) va Tisun(Taka) so'zlarining arabcha izofa birikmasida birikuvi natijasida

yasalgan. “Taka soqoli” soʻz birikmasi shu koʻrinishdagi oʻsimlikni atashda tashbehlantirish yoʻli orqali yuzaga kelganligi koʻrinadi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqorida keltirilgan soʻzlar va soʻz birikmalarida arab leksikasiga xos jihatlar yaqqol koʻzga tashlanadi. Arab tili morfologiyasi nuqtai nazaridan arab tilida soʻzlar muayyan formalar asosida yasaladi. Ushbu soʻzlarning asli oʻzagi, tub semantik maʼnolari arabiy yoki turkiy (uygʻurcha) ekanligini oʻrganish uygʻur tabobat atamalari semantikasini tushunishda ahamiyatlidir. Bu soʻzlar va soʻz birikmalari uygʻur tabobatida uzoq yillardan buyon qoʻllanib kelinayotganligi sababli ular uygʻur tili soʻz boyliklari qatoriga kirib boʻlgan, biroq soʻzlarning formal shaklida arab morfologiyasi qoidalari koʻrinib turadi.

Shu jihatdan atamalarni oʻzbek va boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida ularning tub mazmunini aniqlash muhim va bu terminlarning oʻzbek tilidagi muqobillarini topa olish tarjima jarayonida mahorat hamda bilimni talab qiladi.

Soʻz birikmalarida birinchi soʻzda aniq boʻlmagan maʼno ikkinchi aniqlovchi soʻzning mazmuni yordamida oydinlashadi. Arab tilida soʻz birikmalari asosan, moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar ishtirokida yasaladi. Tabobat boʻyicha bitilgan qadimgi risolalarda atamalarning semantik kelib chiqishi masalasi toʻliq yoritilmaganligi bois, yillar davomida masalaning yechimi chigallashib, murakkablashib borishi kelib chiqadi. Quyidagi holatlar soʻzlarning leksik-semantik jihatlarini yoritish jarayonini qiyinlashtiruvchi omillar hisoblanadi:

1. Soʻzlar tarixan siyosiy-ijtimoiy, ilmiy, gumanitar aloqalar davomida bir tildan boshqa tilga oʻzlashish jarayonini boshdan kechiradi.
2. Soʻzlar atamalar darajasiga oʻtishda sinonimlik xususiyatini yoʻqotib, yaqqol termin sifatini kasb etib boradi.
3. Termin atamalarni lugʻaviy leksik tadqiq qilishga ehtiyoj kamayib boradi.
4. Soʻzlarning terminlashuvida ayrim leksikologik buzilishlar sodir boʻladi.
5. Terminlarning internasionallashuvi mazkur terminning ilmiy-texnik maqomiga, ahamiyatiga mos ravishda keng yoki aksincha tor maʼno kasb etadi.
6. Termin soʻzlarning tildan tilga oʻzlashuvi jarayonida dominant til grammatik, morfologik, fonetik jihatlari oʻzlashtiruvchi tildagi shu kabi qoidalarga moslashtiriladi. Biroq bu moslashtirilish jarayonida milliy tilning fonetik, fonologik, orfografik, morfologik xususiyatlari ustuvorlik qiladi.
7. Qadimgi terminlar talaffuzi va yozuv shakllaridagi tafovutlar noshirchilik sanoatining darajasi bilan ham bogʻliq boʻlgan. Asarlarni qoʻlyozmalar va koʻchirma namunalardan qayta koʻchirish davomida koʻplab xatolarga yoʻl

qo'yilganligi keyingi tadqiqot ishlari mobaynida muayyan termin turli ma'nolarda ishlatilishiga sabab bo'ladi.

### **REFERENCES**

1. A.P.Беруни.Избранные произведения. Том IV.Ташкент. 1974.
2. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. Toshkent. 1992. 1 jild.
3. Xolmatov H.X., Karimova S.U., Ahmedov O'.A., Sobirov R.S. Dorivor o'simliklarning lotincha-o'zbekcha-ruscha-arabcha va forsha-tojikcha lug'ati. Toshkent. 2004.
4. "Uyg'ur tabobati xom dorilar ilmi" ensiklopediya. XXR. Shinjong . 2010.
5. A.Abdullaev. «Hozirgi uyg'ur tili grammatikasi» Shinjong xalq nashriyoti. 2010.
6. Abu Rayhon Beruniy Tanlangan asarlar to'plami 4 tom. "Dorivor o'simliklar haqida kitob".
7. Nurmonov A.Tanlangan asarlar 2-jild.Toshkent -2012.

**KORRUPSIYA FENOMENINI O‘RGANISHDAGI ILMIY NAZARIY  
YONDASHUVLAR VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA  
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATI.**

**Aslonov Jasur Abduxalilovich**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro huquq” fakulteti magistri.

e-mail: [jasurlion85659@gmail.com](mailto:jasurlion85659@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: Yusufjanov Odil Abdugafurovich**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro huquq va inson  
huquqlari” kafedrasida mudiri,  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent.

**ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi doirasida korrupsiyaga qarshi olib borilgan davlat siyosati, poraxo‘rlikni oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy huquqiy islohotlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashda mavjud kamchiliklarni o‘rganish va ularni bartaraf etish usullari haqida so‘z boradi. Maqola muallifi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashni yanada kuchaytirish va ijtimoiy hayotda poraxo‘rlikning salbiy oqibatlarini oldini olish maqsadida xalqaro qonunchilikda e‘tiborga olingan korrupsion jinoyatlarning ba‘zi xususiyatlarini milliy qonunchilikda aniq belgilab olish va ijtimoiy hayotda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish muhim vazifa ekanligi ta’kidlangan.*

**Kalit so‘zlar:** korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, milliy xavfsizlik, xalqaro qonunchilik, korrupsiyaga qarshi kurash siyosati.

**ABSTRACT**

*This article describes the state anti-corruption policy, socio-economic legal reforms aimed at preventing corruption and mechanisms for their implementation, as well as the implementation of the Strategy of actions on the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021, as well as it is about studying the existing shortcomings in the fight against corruption and ways to overcome them. In order to further strengthen the fight against corruption in the Republic of Uzbekistan and prevent the negative consequences of corruption in public life, it is important to clearly define in the national legislation some features of corruption crimes in international law and to form immunity against corruption in public life. highlighted.*



***Keywords:** corruption, anti-corruption, national security, international law, anti-corruption policy.*

## **KIRISH**

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan, jahon hamjamiyati vakillarini tobora tashvishga solayotgan global muammolardan biri bo'lgan korrupsiya jamiyat xavfsizligi va barqarorligi, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy rivojlanishi va hukumatning institusional rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan illatlardan biridir. Korrupsiyaga oid jinoyatlar hukumat vakillarining jamiyat oldidagi obro'siga putur yetkazibgina qolmay, ichki va tashqi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning samarali yo'lga qo'yilishida ham jiddiy muammo tug'diradi. Korrupsiya bilan bog'liq muammolarning keng talqin qilinishi va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan chora-tadbirlarning kuchaytirilishiga qaramay ushbu jinoyatni ildiz otib borishi uning mohiyatini yanada chuqurroq tahlil qilish va paydo bo'lish sabablarini kengroq o'rganishga undaydi. Zero, "korrupsiya kasalligini" yengishda bugungi kunda mamlakatimizda joriy qilingan ma'muriy chora tadbirlarning o'zi yetarli emas. Poraxo'rlikni oldini olishgan bo'lgan urinishlar har tomonlama puxta ishlab chiqilishi, bunda aholining milliy mentaliteti, siyosiy madaniyati, ijro etuvchi hokimiyat organlari ustidan nazoratni amalga oshiruvchi fuqarolik institutlarining rivojlanganlik darajasini ham qamrab olinishi lozim. Korrupsiya hodisasining ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, poraxo'rlik jinoyatijuda keng qamrovli tushuncha bo'lib, hatto korrupsiya so'zining etimologiyasi ham ingliz adabiyoti va boshqa xalqlar adabiyotida tarixiy nuqtai nazardan turlicha ma'no va konnotatsiyaga ega[1, B.129]. Aksariyat chet el tadqiqotchilarining talqiniga ko'ra, korrupsiya atamasi lotincha "corruptio" - "talon taroj" va "buzilish" ma'nolarini anglatuvchi so'zdan kelib chiqqan[2, B.5]. Ushbu tushunchaning axloqiy va madaniy prinsiplar asosidagi talqini rus tadqiqotchisi, yuridik fanlar nomzodi Mishin G.K. izlanishlarida o'z aksini topadi. Uning fikriga ko'ra, korrupsiya atamasi lotin tilidagi ikkita so'zdan iborat bo'lib, "cor", "ruptum" – "yurak", "ruhiyat", "buzilishi", "barbod bo'lishi" degan ma'noga ega[3,B.364]. Oksford ingliz tili lug'atida korrupsiya tushunchasining 9 ta ma'nosi berilgan bo'lib, ulardan faqat bittasini siyosiy kontekstda qo'llash mumkin: korrupsiya pora yoki boshqa ta'magirlik turlari orqali davlat vazifalarini bajarish yoki bajarmaslik davlat, korporatsiyalar va boshqa idoralarda korrupsiya amaliyotlaridan foydalanish yoki ularda ishtirok etish[4, B.974]. O'zbek tilining izohli lug'atida esa mansabdor shaxslarning o'zlariga ishonib topshirilgan huquqlari va hokimiyat vakolatidan

shaxsiy boyluk orttirish maqsadida foydalanishi (korrupsiya poraxoʻrlik, mansabni suisteʻmol qilish va boshqa noqonuniy harakatlarni oʻz ichiga oladi)[5].

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Oʻzbekiston Respublikasining 2016 yil 24 noyabrda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi qonuni 3 modasida korrupsiya — shaxsning oʻz mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud oʻzga shaxslarning manfaatlarini koʻzlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish deya izohlanadi. Korrupsiya atamasiga berilgan taʻrifning oʻzgarib borishi ushbu tushunchani zamonlar osha ijtimoiy hayotda turli maʼnolarda qoʻllanilishi bilan bogʻliqdir.

Korrupsiya fenomeni keng qamrovli tushuncha boʻlganligi sababli bugungi kunda ushbu muammoni oʻrganishda turli xil yondashuvlar mavjud: sotsiologik yondashuv, yuridik (kriminologik) yondashuv, iqtisodiy, siyosiy yondashuv va axloqiy madaniy yondashuv.

Shulardan biri sotsiologik yondashuv boʻlib, bunda korrupsiyani oʻrganishga boʻlgan urinishlar korrupsiya xodisasini tushuntirishda turli xil metodlarni paydo boʻlishiga sabab boʻldi. Manbalarda keltirilishicha, sotsiologik nuqtai nazardan korrupsiya uning subʼektlari, korrupsiya sohalari, korrupsiyadan koʻzlangan maqsad va uni amalga oshirish usullari, korrupsiya shakllari va uning obʼektlari kabi oʻzaro aloqadorlikda boʻlgan elementlarni qamrab oluvchi interaktiv munosabatlarda shakllangan, ishtirokchilarning ratsional tanlovi asosida amalga oshadigan, moddiy va ramziy resurslarni almashinishni ifodalaydigan disfunktsional hodisadir (E.Giddenson, Yu. Xabermas, Dj. Mid, G.Blumer, N. Luman, T. Parsons, R. Merton, N. Smelzer, Dj. Xomans, P. Blau, A. Daune, G. Bekker, Dj. Koulman, M. Olson). Bunda korrupsiyani ijtimoiy hayotga salbiy taʻsiri va ijtimoiy munosabatlarda oʻzaro ishonchsizlik hamda taʻmagirlikni yuzaga keltirishini oldini olish maqsadida aholiga poraxoʻrlikni jamiyat taraqqiyotini orqaga suruvchi, odamlar oʻrtasida ijobiy xarakterga ega axloqiy munosabatlar oʻrnatilishiga toʻsqinlik qiluvchi illat ekanligini singdirish muhim ahamiyatga ega.

**Siyosatshunoslik** fani doirasida korrupsiyaga boʻlgan eʼtibor XX asrning 60 yillarida yuzaga kela boshladi. Bu sohada oʻz izlanishlari bilan muvaffaqiyatga erishgan siyosatshunos olimlar poraxoʻrlikning asosiy elementi sifatida davlat amaldorlarining pora olishi hamda ularning bevosita boshqaruvga ega chiqishga intilishlarini taʻkidlashadi. Xususan, ingliz akademigi, yurist va diplomat Djeyms Brays fikriga koʻra korrupsiya jamiyatda 4 xil koʻrinishda uchraydi:

- 1) davlat xizmatchilarini naqd pul ko‘rinishida pora olishi;
- 2) davlat xizmatchilarini boshqa narsalar vositasida pora olishi;
- 3) hujjatlar oldi sotdisi;
- 4) nomzodlar foydasiga chayqovchilik bilan shug‘ullanish[6,B.149].

Djeyms Brays qarashlarini davom ettirgan yana bir siyosiy partiyalar faoliyatini o‘rganuvchi olim M. Dyuverje ham saylovlar qatnashchilari o‘rtasida g‘alabaga erishishda poraxo‘rlik harakatlaridan foydalanishlarini ta’kidlaydi [7,B.201]. Bunda korrupsiya jamiyatda mansabdor shaxslarni hokimiyatni egallash va saqlab qolish uchun o‘z lavozimlaridan noqonuniy foydalanishlarini ifodalovchi hatti harakatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Siyosiy fanlar doktori Baxtiyor Omonov ta’kidlashicha, O‘zbekiston Respublikasida ham korrupsiya sxemalari, mehnat qilmasdan tezda boyib qolish mexanizmlari, ishlangan usullari “zanjiri” uzib tashlanmas ekan, davlatimizning har qanday siyosiy, iqtisodiy islohotini hayotga olib kirish, xalqni farovon qilish vazifasi qog‘ozda qolib ketaveradi. Zero korrupsiyaga qarshi kurash faqatgina tegishli organlarning emas balki, barchaning ishi bo‘lishi zarur[8]. Olib borilgan izlanishlar natijasida shunga guvoh bo‘lamizki, korrupsiyaga qarshi kurashda aholini siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta’minlash, mansabdor shaxslar faoliyati ustidan jamiyat nazoratini o‘rnatish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, fuqarolarda siyosiy madaniyatni kuchaytirish samarali natijalarga olib kelishi mumkin.

**Iqtisodiy nazariya**da korrupsiya deganda davlat xizmatchilarini davlat resurslarini shaxsiy manfaatlari uchun ishlatish hisobiga foyda olishga qaratilgan xatti harakatlar tushuniladi[9]. Bunda moddiy imtiyozlar va imtiyozlar taqsimlanishini hamda soliqlar hajmini belgilovchi va ularni ustidan nazoratni amalga oshiruvchi asosiy organ davlat bo‘lsa, amaldorlar esa davlat tomonidan ajratilgan imtiyozlarni taqsimlash huquqiga ega bo‘lgan shaxslardir. Ko‘proq imtiyozga ega chiqishni xohlovchi shaxslar yoki kompaniyalar ko‘proq moddiy foyda olish maqsadida ushbu imtiyozlarni sotib olishga harakat qilishlari mumkin. AQSHning Yel universiteti professori Rouz Akkerman fikriga ko‘ra korrupsiyani avj olishi jamiyatning iqtisodiy hayotida davlat amaldorlarining haddan tashqari va samarasiz aralashuvi bilan bog‘liq[9, B.400]. Shunday ekan korrupsiyaga qarshi kurashda asosiy choralardan biri sifatida davlat amaldorlarining o‘zboshimchaliklariga chek qo‘yish va mansabdor shaxslarni jamiyatning iqtisodiy faoliyatiga aralashuvini kamaytirish belgilab olinishi lozim.

Korrupsiya tushunchasining **yuridik tavsifi** o‘z xizmat vakolatlaridan xudbinlik bilan foydalanadigan mansabdor shaxslarning porxo‘rligi va ta’magirligi bilan

ifodalanuvchi xavfli noqonuniy hodisa deb hisoblanadi. Bunda korrupsiya nafaqat jinoiy xarakterga ega, balki u ma'muriy huquqiy, fuqarolik va intizomiy xususiyatlarni ham o'zida mujassamlashtirgan murakkab fenomenga aylanadi. Yuridik sohada ham ko'pgina olimlar korrupsiyaning huquqiy mohiyatini va uni bartaraf etish chora-tadbirlarini asoslab berishga urinishgan. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashda huquqiy tartib faoliyati, uning yuzaga kelishi va rivojlanishiga oid muammolarni, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy mexanizmlari tahliliga oid ma'lumotlarni N.G.Aleksandrova, S.S.Alekseyeva, L.I.Antonovoy, B.C.Afanaseva, V.V.Borodina, G.A.Gadjiyeva, Yu.I.Grevsova, D.A.Kerimova, S.F.Kechekyana, A.I.Koroleva, M.M.Kuritsina, D.I.Lukovskoy, L.A.Nikolayevoy, M.N.Marchenko, I.F.Pokrovskogo, V.P.Salnikova, L.I.Spiridonova G.Nurmuhammedova, B.Isroilov, R.Obidov kabi olimlarning ilmiy asarlarida uchratishimiz mumkin. Taniqli rus olimi G.N.Borzenkova fikriga ko'ra korrupsiyani mansabdor shaxslar o'zlarining rasmiy vakolatlaridan xudbin maqsadlar uchun foydalanishlari asosida vujudga keluvchi boshqaruv apparatining parchalanishi deb tushunish kerak[10,B.30]. Bunday yondashuvning kengroq talqinini S.P.Kushnirenko tomonidan berilgan ta'rifda ko'rishimiz mumkin: "Korrupsiya bu davlat amaldorlarining o'z xizmat vakolatlaridan uchinchi shaxs yoki guruh manfaatlari yo'lida ularni moddiy rag'batlantirish uchun muntazam foydalanishlarini ifodalovchi ijtimoiy huquqiy hodisa bo'lib, uning natijasida davlat hukumati va davlat xizmatlarining obro'yi pasayadi. Bunda mansabdor shaxslar o'z xizmat vakolatlaridan bevosita yoki bilvosita foydalanadilar"[11]. Demak, korrupsiya natijasida davlat hukumatining avtoriteti yo'qolib, davlat boshqaruv apparati parokandalikka uchrashi mumkin. Bunday holatning oldini olish esa mutassadi tashkilotlar va davlat organlari tomonidan poraxo'rlikni kamaytirishga oid kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilishini talab qiladi. Bizning fikrimizcha, korrupsiyaga qarshi siyosatni yo'lga qo'yish masalasi davlat boshqaruv organlarining oldiga puxta ishlab chiqilgan reja asosida ish ko'rishdek juda murakkab muhim vazifani qo'yadi. Chunki korrupsiyaga qarshi qaratilgan siyosiy faoliyat mamlakatdagi korrupsiya bilan bog'liq kriminologik vaziyatni tahlil qilib va kelajakda kutilishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan hisobga olgan holda mamlakatda mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlar asosida amalga oshirilishi lozim. Shu o'rinda avvalambor korrupsiyaga qarshi siyosat tushunchasining ta'rifini aniqlab olish kerak. Ilmiy manbalarga asoslanadigan bo'lsak korrupsiyaga qarshi siyosat bu davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyani oldini olish va uning salbiy oqibatlarini kamaytirishga, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni va

shartlarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy nazariy jihatdan asoslangan, tizimli va izchil faoliyatidir. Siyosatshunos olim professor V.Lopatin fikriga ko‘ra korrupsiyaga qarshi siyosat tarkibida quyidagi elementlar mavjud bo‘lishi lozim:

a) korrupsiyaga qarshi siyosat konsepsiyasi, uning maqsadlari va tamoyillarini shakllantirish;

b) inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha davlat va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

d) korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni va choralarni belgilash, shuningdek korrupsiyaga qarshi siyosatni amalga oshirish sub’ektlarini aniqlash;

e) korrupsiyaga qarshi kurashni shakllantirish va amalga oshirishda hokimiyat vakolatlarini aniqlash;

f) qonun ishlab chiqarish va huquqni muhofaza qilish faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurash prinsiplarini aniqlash va amalga oshirish, korrupsiyaga qarshi standartlarga muvofiq jamiyatning huquqiy ongini shakllantirish[12, B.25].

Korrupsiya hodisasini jamiyat hayotidan ildizi bilan yo‘qotib yuborish imkonsizdir, ushbu illatga qarshi faqatgina profilaktik chora-tadbirlar qo‘llanilishi mumkin. G.Nurmuhammedova fikriga ko‘ra korrupsiyaga qarshi kurashda kurashning maqsadini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Korrupsiyaga qarshi kurashning maqsadini aniqlashda umumiy (bosh maqsad) va aniq vaziyatga asoslangan (muayyan muddat ichida) maqsadga ajratish mumkin[13]. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida aniq vaziyatga asoslangan korrupsiyaga qarshi kurash chora-tadbirlari O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi **“2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida** to‘laqonli o‘z aksini topdi[14].

Yuqoridagi farmonga ko‘ra harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Harakatlar strategiyasida korrupsiyani oldini olish bilan bog‘liq chora tadbirlarga alohida e‘tibor berilgan bo‘lib, korrupsiyaga qarshi kurash ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Harakatlar strategiyasida belgilab olingan korrupsiyaga qarshi kurash bilan bog‘liq vazifalarni va boshqa ustuvor maqsadlarni amalga oshirishni nazorat qiluvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligidagi Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Milliy komissiya tuzildi[15].

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashning tashkiliy huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lib, korrupsiyaga qarshi kurashda asos

bo‘luvchi xalqaro kelishuvlar ratifikatsiya qilingan, konseptual strategik va milliy reja asosida antikorrupsion hujjatlar, shu bilan birga ularni amalga oshirishga qaratilgan normativ huquqiy qonunlar qabul qilingan.

2003 yilda qabul qilingan **BMTning “Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi”** dunyo hamjamiyati a‘zolari oldiga korrupsiyaga qarshi kurashning tizimli siyosatini ishlab chiqish vazifasini qo‘ydi. Jumladan, O‘zbekistonda ham korrupsiyaga qarshi kurashda ijro etuvchi hokimiyatda boshqaruv jarayonlarining aniq va shaffof bo‘lishiga korrupsiyaga qarshi kurash ustidan nazoratni amalga oshirishning samarali mexanizmlari hali hanuz ishlab chiqish va mavjud chora tadbirlar tizimini isloh etish talab etiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash va ularni oldini olish borasida olib borilgan islohotlar tahsinga sazovordir. Zero, ushbu islohotlar amalda o‘z samarasini ko‘rsatayotganligini O‘zbekiston Respublikasini **Transparency International** xalqaro tashkilotining statistik ma‘lumotlariga qaraganda korrupsiya indeksi 2007-2020 yillar oralig‘ida **9 ballga** yoki **175-o‘rindan 146-o‘ringa ko‘tarilganligidan** ham bilib olish mumkin[16].

Korrupsiyani yo‘q qilishga qaratilgan muhim qadamlardan yana biri bu O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan xalqaro standartlarga muvofiq 2017 yil 3 yanvar kuni “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning imzolanishi bo‘ldi. Qonunda “korrupsiya”, “korrupsion huquqbuzarlik”, “manfaatlar to‘qnashuvi” kabi tushunchalarga izoh berilgan bo‘lib, unga ko‘ra:

- aholining huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlikni shakllantirish;

- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyadan ogohlantirish bo‘yicha choralarni amalga oshirish;

- korrupsion huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularning oqibatlari, sabablari va keltirib chiqargan sharoitlarni bartaraf etish hamda korrupsion huquqbuzarliklar sodir etilgani uchun muqarrar jazolash tamoyilini tadbiq etish kabilar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevralda PQ-2752-sonli “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qaroriga muvofiq 2017-2018 yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha

Davlat dasturi tasdiqlandi. Ushbu Davlat dasturida 5 ta yo‘nalish bo‘yicha 50 dan ortiq korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Respublikamizning 60 dan ortiq vazirlik va idoralarida korrupsiyaga qarshi idoraviy rejalar ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Bundan tashqari korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha “Respublika idoralararo komissiyasi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi. Komissiyaga O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori raislik qiladi va komisiyaning ishchi organi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi faoliyat olib boradi. Uning tarkibi davlat organlari rahbarlari va ekspertlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ilmiy doiradagi 43 nafar a‘zodan iborat. Komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlar barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar tomonidan ijro etilishi majburiydir. Komissiya huzurida korrupsiyaga qarshi kurash choralari va bu boradagi tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarni amalga oshirish holatini ko‘rib chiqish va tahlil qilish bo‘yicha Ekspertlar guruhi tashkil etildi[17].

**Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida parlament nazorati samaradorligi oshirilishi davlat organlarida korrupsiya bilan bog‘liq holatlarni kamaytirishga yo‘l ochib berdi.** Oliy Majlis palatalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo‘yicha qo‘mitalar hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari kengashlari, tuman va shahar xalq deputatlari kengashlarining tarkibida qonuniylikni ta‘minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha **doimiy komissiyalar** tashkil etildi. Davlat organlari va tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (komplayens-nazorat)ni joriy etish yo‘lga qo‘yildi.

**Korrupsiyaga oid islohotlarni amalga oshirishda sud-huquq tizimi ham e‘tibordan chetda qolmadi.** Avvalo, 2017 yildan boshlab sudyalarni dastlabki besh yillik, keyingi o‘n yillik muddatga tayinlash tartibi va keyinchalik muddatsiz (umrbod) lavozimda bo‘lish muddati belgilandi. Sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyatini samaradorligini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi va Sud hokimiyati organlarini rivojlantirish jamg‘armasi va budjetdan tashqari Adliya organlari va muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etildi. Sud huquq tizimida korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan yana bir muhim voqea O‘zbekiston oliy sudi yangi interaktiv veb-saytini ishga tushirilganligi bo‘ldi. Veb-saytga E-SUD elektron sud tizimi va E-XSUD hujjat almashish tizimi ulangan bo‘lib, bu fuqarolarga hujjatlarni elektron shaklda rasmiylashtirish imkonini beradi. Jinoiy ishlar bo‘yicha tergov va sud jarayonlarini

osonlashtirish maqsadida 2018 yil sentabr oyidan boshlab "onlayn translyatsiya" interaktiv xizmatining birinchi bosqichi ishga tushirildi.

Harakatlar strategiyasi bilan bog'liq islohotlar doirasida **Prokuratura tizimida** ham bir qator o'zgarishlarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi bir qancha prezident farmonlari va qarorlar qabul qilindi. Korrupsiyaga qarshi kurashda prokuratura organlari faoliyatini ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida, 2018 yil iyun oyida Bosh prokuratura rasmiy veb-sayti (prokuratura.uz) ishga tushirildi. Saytda fuqarolarni Bosh prokuraturaga qabul qilish jadvali, O'zbekiston murojaatlari to'g'risidagi Qonun hujjatlari, Bosh prokuratura murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi xodimlari ro'yxati, shuningdek, viloyat prokurorlari va unga tenglashtirilgan prokurorlarning murojaatlar bilan ishlash bo'yicha katta yordamchilari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosining sud hujjatlarini ijro etishda mulkni elektron onlayn savdolar orqali sotish jarayonini maksimal avtomatlashtirish, inson omilini va auksionlarni o'tkazishda tashqi aralashuvni bartaraf etish maqsadida "E-IJRO AUKSION" yagona elektron savdo maydonchasi joriy qilindi.

Yana bir e'tirofga loyiq jihat shundaki, harakatlar strategiyasi davrida eng katta qadamlardan biri Davlat organlari, jamoat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi aloqa tizimiga aloxida e'tibor qaratilgani bo'ldi. Davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarida yuqori axloqiy me'yorlarni shakllantirish maqsadida kadrlar tayyorlash va ularni malakasini oshirish yuzasidan ham bir qator qonuniy hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil qilindi. U davlat organlari va tashkilotlarida xodimlarni boshqarish va inson resurslarini rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul hisoblanadi[18].

Agentlikka milliy kadrlar zaxirasini boshqarish, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestrini yuritish, vakant lavozimlarning yagona ochiq portalini tashkil etish va yuritish, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholashning o'lchanadigan indikatorlari tizimini joriy etish kabi vazifalar yuklatildi. Bundan tashqari, ushbu agentlik huzurida Davlat xizmatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil qilindi.

Bundan tashqari, Korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni takomillashtirish maqsadida, **Ichki ishlar vazirligi** huquqbuzarliklarning oldini olish Bosh boshqarmasi, Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jinoyat qidiruv boshqarmasi tarkibida korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash boshqarmasi tuzildi.



Amalga oshirilgan ijobiy ishlarga qaramay, bugungi kunda O‘zbekistonda davlat yoki davlat xizmati sohasida amalda bo‘lgan yagona qonun yo‘q.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni oldini olish mexanizmini yanada takomillashtirish uchun 2017–2018 yillarda Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha davlat dasturining 2-bandi 2017 yil oktabrigacha «Davlat xizmati to‘g‘risida»gi qonun loyihasini ishlab chiqishni ko‘zda tutgan edi. Qonun konsepsiyasi 2017 yil dekabrda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan ishlab chiqilishi, tegishli qonun loyihasi bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi, 2018 yilda qonun konsepsiyasi va loyihasi Adliya vazirligi tomonidan takomilga yetkazilib, Prezident administratsiyasiga kiritilishi, Prezident administratsiyasida ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilishi ko‘zda tutilgan edi. Mazkur loyiha davlat xizmatlari organlari faoliyatining barcha sohalariga taalluqli bo‘lib, u hamon muhokamalar jarayonida.

Shuningdek, Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik Konvensiyasiga (Strasburg, 1999 yil 27 yanvar), Korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik Konvensiyasiga (Strasburg, 1999 yil 4 noyabr) va Xalqaro tijorat bitimlarini amalga oshirishda xorijiy mansabdor shaxslarni pora berib sotib olishga qarshi kurashish Konvensiyasiga (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyoti tashkiloti, 1997 yil 17 dekabr) qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish taklif etilmoqda.

Bundan tashqari, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida belgilangan xorijiy davlat mansabdor shaxslariga va xalqaro davlat tashkilotlarining mansabdor shaxslariga pora berish, yuridik shaxslarning javobgarligi va boshqa korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish choralarini ta‘minlash bo‘yicha tegishli normalarga milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqish kiritilmoqda.

Shu o‘rinda ta‘kidlab o‘tish joizki, 2010 yildan buyon O‘zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Istanbul harakatlar rejasida ishtirok etmoqda. 2019 yil 21 mart Parijda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Istanbul harakatlar rejasi monitoringining to‘rtinchi bosqichi bo‘lib o‘tdi, uning natijalariga ko‘ra xalqaro ekspertlar O‘zbekiston ushbu tashkilotning avvalgi barcha tavsiyalari bo‘yicha yutuqlarga erishganligini ta‘kidlashdi. Mazkur monitoring yakunlari bo‘yicha berilgan 47 ta tavsiyalarni bajarish yuzasidan 31.07.2019 yilda «Yo‘l xaritasi» tasdiqlandi[19].

Xususan, mazkur tavsiyalar asosida O‘zbekiston Respublikasi 2019 yilda Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo‘yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar

to'g'risidagi MDHning Kishinev konvensiyasiga (Kishinyov sh., 2002 yil 7 oktabr) qo'shildi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi asosida respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashishda bir qator qonun hujjatlari yaratilib, ommaviy axborot vositalari orqali, turli uchrashuvlar, davra suxbatlari, tadbirlarda aloxida tushuntirilayotgan bo'lsada, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunchiligimizda mavjud kamchiliklar bartaraf etilmasligi oqibatida afsuski hali korrupsiyaning keskin kamayishiga erishganimiz yo'q.

Masalan, O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 2 fevraldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 27-moddasida "Yuridik shaxslar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi" deb ko'rsatilgan bo'lsada[23], O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining VI bobi, 17-moddasida "Jinoyat sodir etgunga qadar o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar" deb ko'rsatib o'tilgan yoki Jinoyat kodeksida Yuridik shaxslar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortilishi to'g'risida aniq ko'rsatmalar belgilanmagan[20].

Shuningdek, huquqiy atamalar borasida Konvensiya mansabdor shaxs (public official) atamasini ishlatadi. Konvensiyaning o'zbek tiliga tarjima qilingan hamda Bosh Prokuratura veb-saytida e'lon qilingan variantida mazkur atama ommaviy mansabdor shaxs sifatida tarjima qilingan. Ammo O'zbekiston qonunchiligida ommaviy mansabdor shaxs tushunchasi mavjud emas. Qonunchilikda mansabdor shaxs tushunchasiga ta'rif berilmagan bo'lib, Rustamboyevning «O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar» (Maxsus qism) kitobida mansabdor shaxs, uning tarkibiga kiruvchi mas'ul mansabdor shaxs, hokimiyati vakillari va boshqa toifalariga ta'rif berilgan[21, 553-bet]. Jinoyat kodeksi moddalarini talqin qilishda mazkur sharhdagi tavsiflarga amal qilinib kelinsada, O'zbekiston qonunlariga ko'ra u rasmiy sharh hisoblanmaydi va normativ xarakterga ega emas. Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining (JK) pora berish va pora olish moddalarida mansabdor shaxs atamasi ishlatilgan bo'lib, mansabdor shaxs atamasiga sharhda berilgan tavsif va Konvensiya talab qilgan atama tavsifi o'rtasida tushunmovchiliklar barataraf etilmagan.

E'tiborga loyiq yana bir jihat shundaki, xalqaro standartlarga muvofiq poraxo'rlik jinoyati tarkibining muhim elementlariga aniq ta'rif berib o'tilgan bo'lsada, milliy qonunchiligimizda ushbu elementlar kengroq talqin etilmaganligi korrupsiyaga oid jinoyatlarga xolis baho berishda bir muncha qiyinchiliklar tug'diradi.

Ana shunday korrupsiya jinoyati tarkibining asosiy elementlaridan biri nomoddiy bo‘lmagan foydani (moddiy ob‘ekt bo‘lmagan va aniq o‘lchovga ega bo‘lmagan qimmatlikni) yoki pul bilan bog‘liq bo‘lmagan yoki ulardan iborat bo‘lmagan foydani ham o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston jinoyat qonunchiligiga esa hali ham poraning predmeti sifatida nomoddiy qimmatliklar kiritilmagan.

Poraxo‘rlik jinoyatlari tarkibining navbatdagi zaruriy elementi bu jinoyatlarning uchinchi shaxslar manfaatlari yo‘lida sodir etilishidir. Bunda jinoyatni kriminalizatsiya qilishda faqat mansabdor shaxs uchun emas, balki boshqa har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs uchun ham moddiy yoki moddiy bo‘lmagan qimmatliklarni olishini anglatadi. Xalqaro standartlarga ko‘ra, uchinchi tomon har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Jinoyat kodeksi, poraxo‘rlikni uchinchi shaxslar manfaatlari foydasiga kriminalizatsiya qilmaydi, faqat mansabdor shaxsning o‘zi porani olishi yoki bunday shaxsga pora berishini jinoyat deb tan oladi.

Shuningdek, Oliy sud plenumining "poraxo‘rlik holatlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida"gi qarorida ham poraxo‘rlikni uchinchi shaxslar foydasiga jinoiy javobgarlikka tortish masalasiga tegishli emasligi ta’kidlangan[22].

**Poraga va’da, taklif va yoki uni qabul qilish.** Korrupsiyaga oid navbatdagi muhim elementporaga va’da qilish, taklif qilish yoki uni qabul qilish predmeti Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti Konvensiyasi, Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi Yevropa Kengashi Konvensiyasi va BMTning korrupsiyaga qarshi Konvensiyasida tugallangan jinoyat sifatida keltirilgan. O‘zbekiston Jinoyat kodeksida mazkur jinoyat kriminalizatsiyasi masalasi haligacha hal etilmagan.

**Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning navbatdagi elementlaridan yana biri** mansab vakolatini suiste‘mol qilish uchun javobgarlik masalasi Jinoyat kodeksining 205-moddasida ko‘rib chiqilgan. Bu moddaning tahlili unda korrupsiya omilining mavjudligini ko‘rsatsa ham ushbu modda kompozitsiyasining majburiy elementlaridan biri bo‘lgan **“jiddiy ziyon“** (“существенный вред”) tushunchasining ta’rifi yo‘qligidadir.

Istanbul harakatlar rejasi doirasidagi monitoring davomida ushbu atama ostida nima nazarda tutilayotganligi, huquq-tartibot idoralari uning mavjudligini qanday aniqlayotganligi xususidagi savolga hech qanday javob ola olmadilar.

Poraxo‘rlik jinoyatining keyingi elementi bu **ta’sirni suiste‘mol qilish bo‘lib**, BMTning korrupsiyaga qarshi Konvensiyasiga ko‘ra, ushbu qilmish uchun jinoiy javobgarlikni o‘rnatish ixtiyoriydir. Yevropa Kengashining Korrupsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risidagi Konvensiyasining 12-moddasiga ko‘ra bu qilmish uchun

javobgarlikni oʻrnatish bu aʼzo davlatlar uchun majburiydir. Istanbul harakatlar rejasida ishtirok etuvchi davlat uchun (Oʻzbekiston uchun ham) kriminalizatsiya qilinishi kerakligi taʼkidlangan boʻlsada, bu borada ham milliy qonunchiligimizda aniq qoidalar belgilanmagan.

**Pul yuvish (legallashtirish).** Navbatdagi korrupsiya jinoyatining elementi pul yuvish (legallashtirish) haqida Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 243-moddasida soʻz boradi. Ushbu javobgarlikni qoʻllashning muayyan jihatlari Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudining 2011 yil 11 fevraldagi "jinoiy faoliyatdan olingan tushumlarni legallashtirish hollarida sud amaliyotining ayrim masalalari toʻgʻrisida"gi 1-son qarorida belgilab qoʻyilgan. Ammo Istanbul harakatlar rejasida pul yuvish uchun javobgarlikni Oʻzbekiston Jinoyat kodeksida yanada aniq qoidalar bilan mustahkamlab qoʻyish tavsiya etildi.

**Korrupsiya jinoyatlarini ochishda eʼtiborga loyiq boʻlgan yana bir muhim element bu chet el amaldorlarining poraxoʻrligidir.** Jinoyat kodeksining VIII boʻlimida belgilangan taʼrifga koʻra, chet el mansabdor shaxsining taʼrifi mansabdor shaxsning umumiy taʼrifiga kiritilgan. Bu taʼrif xalqaro standartlarga toʻla mos kelmaydi. Bu taʼrif Konvensiyalarda nazarda tutilganidan ancha tor boʻlib, hatto baʼzi oʻrinlarda korrupsiyaning bu turiga xos xususiyatlar keng yoritilmagan.

**Korrupsion jinoyatlarning boshqa tarkibiy xususiyatlariga toʻxtaladigan boʻlsak,** Oʻzbekiston Respublikasida bir necha korrupsion harakatlar, Oʻzbekiston Respublikasi Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga kiritilganligi ajablanarlidir[24]. Xususan, 61<sup>1</sup>-modda (Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga ogʻdirib olish), 193<sup>1</sup>-modda (Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar oʻzini oʻzi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga ogʻdirib olish), 193<sup>2</sup>-modda (Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor boʻlishi) kabi harakatlar uchun maʼmuriy javobgarlik xalqaro standartlarga zid boʻlib, tegishli kompozitsiyalar maʼmuriy javobgarlik kodeksidan olib tashlanishi va Jinoyat kodeksiga qamrab olinishi kerak.

Xalqaro standartlarga koʻra, korrupsiya jinoyatlari uchun sanksiyalar samarali, mutanosib boʻlishi va toʻxtatuvchi taʼsirga ega boʻlishi kerak. Bundan kelib chiqib yondoshadigan boʻlsak, Respublikamiz qonunchiligida koʻzda tutilgan sanksiyalar ham bir qancha kamchiliklardan xoli emasligiga guvoh boʻlishimiz mumkin. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 192<sup>10</sup>-213-214-moddalarida korrupsion jinoyatlarga belgilangan sanksiyalarda xalqaro meʼyorlarni toʻliq hisobga

olinmagan, chunki ularda ozodlikdan mahrum qilish shaklida jazo berish nazarda tutilmagan. Shuningdek, bunda jinoiy javobgarlik uchun asos sifatida qaraladigan “ma’muriy preyuditsiya” kabi salbiy holatni mavjudligi ham, xalqaro huquqiy yordamni amalga oshirish uchun to‘siq bo‘ladi.

Ahamiyatlisi shundaki, korrupsiyaga qarshi kurashda Istanbul harakatlar rejasi doirasidagi monitoring ekspertlari BMTning korrupsiyaga qarshi Konvensiyasini O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 12-moddasi, 3-qismida qayd etilgani kabi xalqaro shartnoma deb hisoblash mumkinmi, degan savolga javob olishmagan.

**Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarda foydalanilgan ashyolarni musodara qilish borasida ham bir qancha kamchiliklar mavjud.** Jumladan, BMT Konvensiyasining 31-moddasida korrupsion jinoyatlardan olingan daromad yoki jinoyat quroli deb topilgan ashyolar musodara qilinishi ko‘zda tutilgan. Biroq, O‘zbekiston Respublikasi

Jinoyat-protsessual kodeksi (JPK)ning 211-moddasi 1 va 5-qismlari "musodara va musodara qilinishi mumkin bo‘lgan ashyolar" tushunchasini belgilamasdan, uni qo‘llash tartibini tartibga soladi. O‘zbekiston Respublikasining 16.10.2017 yilgi Qonun bilan JPKning 211-moddasi 1-bandiga o‘zgartirish kiritgan bo‘lsada, bu o‘zgarish musodara va musodara qiluvchi narsalar masalasini hal qilmasdan, jinoyat sodir etish uchun ishlatilgan mulkni huquqiy egalarining kafolatlarini amalga oshirishga qaratilgan. O‘z navbatida, O‘zbekiston JPKning 211-moddasi 5-bandi va 289-moddasi qoidalari o‘zgarishsiz qoldi.

**O‘zbekiston JPKda “musodara” tushunchasining alohida ta’rifi yo‘qligicha qolmoqda.** O‘zbekiston jinoyat qonunchiligida hali ham musodara qilish ta’rifi, shuningdek, xalqaro standartlarda talab qilinadigan barcha elementlar mavjud emas.

O‘zbekiston qonunchiligida javobgarlikning amal qilish muddati sud hukmi qonuniy kuchga kirgunga qadar xisoblab chiqilishi muammoligicha qolmoqda. O‘zbekiston qonunchiligida aksariyat korrupsion jinoyatlarda javobgarlikni amal qilish muddati sifatida 2 yil muddat keltirib o‘tilgan. Istanbul harakatlar rejasi monitoringi 4-bosqichi yakuniy xisobotida javobgarlikning amal qilish muddati sifatida 2 yil muddat kam ekanligi, korrupsion jinoyatlarni tergov qilish va jinoiy javobgarlikka tortish uchun yetarli vaqtni ta’minlash maqsadida javobgarlikni amal qilish muddati kamida 5 yil bo‘lishi ta’kidlangan.

**Javobgarlikdan ozod bo‘lish.** JKning bir necha moddalarida (192-9, 211, 212, 213) poraxo‘rlik bilan bog‘liq qilmishni sodir etgan shaxs jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin bu haqda o‘ttiz sutka ichida o‘z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo‘lsa, u

javobgarlikdan ozod etiladi. Bu muddat xalqaro standartlar bo'yicha muammoli holatdir. 30 sutkalik davr juda uzoq va amalda uni qaysi nuqtadan hisoblash kerakligini aniqlash qiyin bo'lishi mumkin. Shuningdek, «Chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, jinoyatni ochishda faol yordam berish» elementlari Jinoyat kodeksida ham, Oliy sud Plenumi qarorida ham aniq bayon etilmagan va shu sababli amaliyotda ixtiyoriy qo'llanilishi mumkin. Eng achinarlisi aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod bo'lishini (JK 66-moddasi) korrupsion jinoyatlarga qo'llanilayotganligi xalqaro standartlarga javob bermaydi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib aytganda, bugungi kundan korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali natijaga erishish uchun quyidagilar hal etilishi lozim bo'lgan masalalar sirasiga kiradi:

1. O'zbekistonda davlat xizmati sohasida hali ham qonuniy kuchda bo'lgan yagona qonun mavjud emas;

2. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish to'g'risidagi qoidalar qonun hujjatlariga kiritilgan bo'lsada, ularni to'g'ri qo'llash yanada tartibga solishni talab qiladi, shu jumladan, intizomiy jazo choralari bilan cheklanmasligi kerak bo'lgan javobgarlik choralari kengaytirish zarur;

3. Boshqa korrupsiyaga qarshi vositalarni takomillashtirish kerak. Misol uchun, xulq-atvor qoidalarini samarali qo'llash ustidan nazoratni ta'minlash tavsiya etiladi;

4. O'zbekiston Respublikasi tomonidan BMT Bosh Assambleyasining 106-yalpi majlisida 34/169-Rezolyutsiyasi bilan 1979 yil 17 dekabrda qabul qilingan "Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksi" va BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi rezolyutsiyasi bilan 1989 yil 24 mayda qabul qilingan "Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor Kodeksini samarali amalga oshirilishi uchun rahbariy prinsiplar"ini ratifikatsiya qilish tavsiya etiladi.

Bunda barcha huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini tanlab, hukumatlar, shuningdek, mintaqaviy va mintaqalararo darajalarda samarali tajriba almashish orqali ta'lim va o'qitishga katta ahamiyat berilsa, ular uchun yetarli ish haqi va tegishli ish sharoitlari ta'minlansa, ichki intizomni va tashqi nazoratni ta'minlashning samarali mexanizmlari yaratilsa, jamiyat a'zolarining ularga qarshi shikoyatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish uchun yuqorida ko'rsatilgan mexanizmlar asosida aniq qoidalar ishlab chiqilsa hamda bunday qoidalar mavjudligi jamoatchilikka ma'lum qilinsa ma'lum darajada korrupsiyaga chek qo'yiladi;

5. Davlat xizmatchilarining aktivlari va mulkiy manfaatlarini deklaratsiya qilish to'g'risidagi normalar to'liq emas;

6. Sud tizimida iyerarxiya saqlanib qolmoqda, sudlar raislariga, sudyalarga siyosiy organlar va prokuratura ortiqcha ta'sir ko'rsatadi, sudyalarning haqiqiy mustaqilligi haligacha ta'minlanganicha yo'q;

7. O'zbekistonda ma'muriy yustitsiyani rivojlantirish, aholiga huquqiy yordam ko'rsatish tizimini yaratish, Ombudsman institutini kuchaytirish bilan prokurorlarning nazorat vakolatlarini qisqartirish yoki maksimal darajada qisqartirish kerak. Bundan tashqari, prokuratura vakolatidan o'ziga xos bo'lmagan funksiyalarni chiqarib tashlash, tegishli vakolatlarni ijro etuvchi organlarga topshirish kerak;

8. Davlat xaridlari sohasi korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan soha bo'lib qolmoqda. Shu sababli, davlat xaridlarini tashkil etish va tartibga solishning yangicha tizimini qaytadan ko'rib chiqish lozim;

9. Elektron vositalarini joriy etish va yanada kengaytirish, aholiga xizmat ko'rsatish va axborot berishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan sa'y-harakatlar korrupsiyaga qarshi ijobiy ta'sirga ega;

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish xalqaro standartlarini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga implementatsiya qilish lozim.

Shular bilan bir qatorda, mamlakatimizda bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy munosabatlarni tartibga solish, ushbu sohadagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, ushbu illatni ildizi bilan yo'q qilish, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni qaror toptirishda idoralararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, davlat boshqaruvi organlarining korrupsiyaga qarshi faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan, videokuzatuv tizimlari, elektron hisob-kitob va almashinuv, idoralararo ma'lumotlar bazalarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

## **REFERENCES**

1. Friedrich Carl J. The Pathology of Politics: Violence, Betrayal Corruption, Secrecy and Propaganda. New York: Harper&Row, 1972.
2. Волженкин Б.В. Коррупция: серия —Современные стандарты в уголовном праве и уголовном процессе. — СПб., 1998.
3. Мишин Г.К. О теоретической разработке проблемы коррупции / Под ред. В.В. Лунеева // Коррупция: политические, экономические, организационные и правовые проблемы.— М.: Юрист, 2001.

4. TheOxfordEnglishDictionary, SecondEdition, 1986. Vol. 3.
5. Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов, Т.Мирзаев, Н.Тўхлиев, Э.Умаров, Д.Худойберганава, А.Хожиев Ўзбек тилининг изоҳли луғати – Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, Тошкент 2006-2008.409бет
6. Bryce J. Modern Democracies. – New York: The Macmillan Company, 1921.
7. Дюверже М. Политические партии. – М.: Академический Проект, 2000.
8. <https://xs.uz/uzkr/post/korrupsiya-va-millij-taraqqiyyot-muammo-va-echim>
9. Роуз-Аккерман С. Коррупция и государство. Причины, следствия, реформы / пер. с англ. О.А. Алякринского. – М.: Логос, 2003.
10. Борзенков Г.Н. Уголовно,правовые меры борьбы с коррупцией. // Вестник Московского университета. Серия 11. Право. 1993. № 1.
11. Кушниренко С.П. Понятие и основы профилактики коррупции // Противодействие коррупции на муниципальном уровне: сборник – М.: Волтерс Клувер, 2008. – С. 3–30.
12. Лопатин В.Н. О системном подходе в антикоррупционной политике // Государство и право. – 2001. – № 7.
13. Нурмухаммедова Г.Б. Коррупция билан боғлиқ жиноятлар профилактикаси механизмларини такомиллаштириш: усуллари ва йўналишлари // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2021), Б. 189-201.
14. <https://lex.uz/docs/3107036>
15. <https://lex.uz/docs/3107036#3109393>
16. Коррупцияга қарши кураш тармоғи Истамбул Ҳаракатлар Режаси (ИХР) доирасида Шарқий Европа ва Марказий Осиё давлатларининг 2016-2019 йилларда коррупцияга қарши кураш соҳасидаги ислохотлари Мониторинги. [www.oecd.org/corruption/acn](http://www.oecd.org/corruption/acn)
17. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг VI боб, 17-модда;
18. Рустамбоевнинг «Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига Шарҳлар» (Махсус қисм) 553-бет;
19. <https://lex.uz/docs/1449106>;
20. Ўзбекистон Республикаси маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс VII-XVI-боблар



## **O‘ZBEKISTONDA TRANSPORT-LOGISTIKA KLASTERLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Qodirov Tuyg‘un Uzoqovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, t.f.n., dotsent.

**Yusufxonov Zokirxon Yusufxon o‘g‘li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, assistent.

E-mail: [zokirxon\\_y@tstu.uz](mailto:zokirxon_y@tstu.uz)

**Sharapova Shaxzoda Ravshan qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, talaba.

E-mail: [sharapovashahzoda@mail.ru](mailto:sharapovashahzoda@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada mualliflar tomonidan O‘zbekistonda transport-logistika klasteri bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va ularni holatini o‘rgangan holda, Jahon amaliyotida transport-logistika klasterlari faoliyatini tashkil etish amaliyoti atroflicha yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda transport logistika klasterlar bo‘yicha tajribalar tahlil qilingan. Shulardan kelib chiqqan holda maqolada xorij tajribalarini organish va mamlakatimizda samarali qollash masalalari o‘z aksini topgan.*

***Kalit so‘zlar:** Klaster, transport, logistika, strategiya, transport infratuzilmalari, innovasion klasterlar, transport xizmatlari.*

## **IMPROVING THE ACTIVITY OF TRANSPORT AND LOGISTICS CLUSTERS IN UZBEKISTAN**

**Kadyrov Tuygun Uzokovich**

Associate Professor of Tashkent State Transport University, Department of “Transport logistics”,

**Yusufkhonov Zokirkhan Yusufkhan ugli**

Assistant of Tashkent State Transport University, Department of “Transport logistics”, E-mail: [zokirxon\\_y@tstu.uz](mailto:zokirxon_y@tstu.uz)

**Sharapova Shahzoda Ravshan qizi**

Student of Tashkent State Transport University, Department of “Transport logistics”, E-mail: [sharapovashahzoda@mail.ru](mailto:sharapovashahzoda@mail.ru)

### **ABSTRACT**

*This article describes in detail the work carried out by the authors on the transport and logistics cluster in Uzbekistan and the practice of organizing the*

*activities of transport and logistics clusters in the world, studying their status. The experiences of transport logistics clusters in developed countries were also analyzed. Based on this, the article addresses the issues of organizing and effective application of foreign experience in our country.*

**Keywords:** Cluster, transport, logistics, strategy, transport infrastructure, innovation clusters, transport services.

## **KIRISH**

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar Strategiyasida "Tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizasiya va difersifikasiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish, yerkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini tashkil yetish, amaldagi zonalarining samaradorligini oshirish, klasterlar faoliyatini tashkil yetish, xizmatlar ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlar roli va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning tuzilmasini yeng avvalo xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish,logistika va yo‘l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga raqamlashtirish usullarini joriy yetish,qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni saqlash, transportirovka qilish va sotish, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlarni ko‘rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish" kabi vazifalar keltirilgan [1]. Shulardan kelib chiqqan holda, bugun mamlakatimizni modernizasiya qilish va yangilash, yangi O‘zbekistonni yaratish, iqtisodiyotimizning sifat jihatdan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo‘yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yo‘l-transport va kommunikasiya infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur‘atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog‘liqdir.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

**“Klaster”** atamasi bir nechta o‘zaro aloqador mustaqil elementlardan tashkil topgan va o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan to‘plamni (tizim) anglatadi.

**Transport-logistika klasteri (TLK)** deganda - yuk va yo‘lovchilarni saqlash, tashish va kuzatib borishga ixtisoslashgan, shuningdek infratuzilma ob‘ektlariga xizmat ko‘rsatuvchi geografik jihatdan o‘zaro bog‘langan hamda bir-birining kuchli tomonlarini to‘ldiruvchi va mustahkamlovchi kompaniyalar guruhi tushuniladi.

Jahon amaliyotida transport-logistika klasterlari faoliyatini tashkil etishga **2 xil yondashuv mavjud:**

1. TLK ma'lum bir sanoat ishlab chiqarish (sanoat hududi, korporasya, kartel, blok) klasterining infratuzilmaviy elementi sifatida tashkil etiladi, ya'ni TLK shartli ravishda **sanoat klasterining** bir elementi sifatida shakllantiriladi.

2. TLK klasterlar alohida **mustaqil tizim** sifatida shakllantirilib, uning maqsadi xomashyo yetkazib beruvchilar, ishlab chiqarish tuzilmalari va tayyor mahsulot iste'molchilari o'rtasida yetkazib berish zanjirlarini samarali boshqarishdir. Ushbu holatda TLK transport-logistika elementlarini (yuk terminallari, terminal-ombor va transport-ekspeditorlik majmualari) shakllantirish va rivojlantirish, logistika kompaniyalarini umumiy logistika tizimi tarkibiga jalb etishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda TLKlarini shakllantirish va ularning barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati quyidagi yo'nalishlarga amalga oshirilishi mumkin:


1) Yuqori sifatli va raqobatdosh transport-logistika xizmatlarini ko'rsatish. Transport-logistika xizmatlarining sifat ko'rsatkichlari parametrlari va standartlari ishlab chiqiladi, me'yoriy-huquqiy baza, davlatning sohani tartibga solish usullari aniqlanadi.

2) Yuqori unumdorlik va xavfsizlikka ega transport-logistika infratuzilmasini yaratish. Transport infratuzilmasining barcha elementlarini bir-biriga mutanosib holda rivojlantirish, aniq statistik va prognoz ko'rsatkichlariga asosan yuk va yo'lovchilar tashishga bo'lgan talabni aniqlash, transport-iqtisodiy balansni shakllantirish, transport tizimini rivojlantirish modellarini tahlil qilish hamda uning asosida logistik infratuzilmani rivojlantirishning eng maqbul variantlarini ishlab chiqish.

3) Raqobat muhitini yaratish. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida me'yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish (xavfsizlik, ekologik tozalik, transport-logistika xizmatlari sifati, davlatni tartibga solish usullarini takomillashtirish), raqobatdosh transport-logistika xizmatlari ko'rsatish uchun yuqori samarali transport-logistik infratuzilmani rivojlantirish, tashish va saqlashda ilg'or texnika va texnologiyalarni qo'llash [2].

4) Me'yoriy-huquqiy bazani rivojlantirish. TLK sohsiga oid qonunchilikni takomillashtirish, ularni boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar bilan uyg'unligini ta'minlash hamda jahon standartlariga moslashtirish.

**1-Rasm. Transport-logistika klasterlarining umumiy modeli**



Respublikamizda transport-logistika klasterlari faoliyatini samarali tashkil etishdagi mavjud muammolarni hal qilish uchun **quyidagi vazifalari birinchi navbatda** hal etilishi lozim:

1. Mavjud transport infratuzilmasini kengaytirish va yangilash, yagona transport tizimini yaratish;
2. Respublikaning tranzit salohiyatidan foydalanish orqali transport tizimining raqobatdoshligini oshirish [3];
3. Transport-logistika klasterining xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash;
4. Transport-logistika klasteriga jalb etiladigan investisiyalarni rag'batlantirish;
5. Barcha iste'molchilar uchun transport-logistika klasterlari xizmatidan maksimal foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash;
6. Transport-logistika klasterlari uchun ekologik standartlarni aniqlash;
7. Transport-logistika klasterlari va uning elementlari o'rtasida teng huquqlik va sog'lom raqobat muhitini shakllantirish;
8. Soha uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malkasini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatni talab darajasida rivojlantirish [4].

Transport-logistika klasterini yaratish barcha klaster a'zolari faoliyatining sinergetik samarasini keltirib chiqaradi:

1. Davlat organlari TLKdagi muammoli nuqtalarni aniqlaydi va ularni kuchaytirish choralarini belgilaydi;
2. Taqdim etilayotgan transport-logistika xizmatlarning sifati oshadi, natijada iste'molchilar o'z tanlovlarini optimallashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar;
3. Xalqaro transport koridorlariga transport va ekspeditorlik kompaniyalari, logistika markazlari, omborxonalar va terminal komplekslari kiritilishi global transport tizimida mamlakat transport tizimining rolini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakat hududlarida TLKlarni rivojlantirishning **asosiy yo'nalishlari**:

- TLKni shakllantirish solohiyatini aniqlash;
  - TLKni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
  - TLKni rivojlantirish uchun institusional muhit yaratish;
  - TLK ishtirokchilarining logistik integratsiyasini rivojlantirishga ko'maklashish;
  - TLK loyihalarini qo'llab-quvvatlash va ularning monitoringini olib borish.
- TLK** quyidagi asosiy **tamoyillar** asosida yaratiladi:
- yagona transport-logistika makonini shakllantirish;

- yangi texnologiyalar va innovatsiyalar asosida transport-logistika jarayonlarini takomillashtirish;
- klasterning asosiy qismini tashkil etuvchi klaster a'zolarining manfaatlarini muvofiqlashtirish uchun biznes sheriklik usullari va vositalarini optimallashtirish;
- mintaqaviy, milliy va xalqaro miqyosda TLKni rivojlantirishning umumiy strategiyasini shakllantirish;
- qo'shimcha yuk va yo'lovchi tashishga erishish maqsadida turli universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro aloqalar;
- xususiy sarmoyalarni jalb qilish.

## 2-Rasm. Transport-logistika klasterlari faoliyatini tashkil etish



Klaster siyosatining tashabbuskori sifatida davlat manfaatlariga ustuvor ahamiyat beriladi, shu bilan transport-logistika klasterini yaratish maqsadga muvofiqligining asosiy sharti:

-birinchi navbatda, respublikani rivojlantirish strategiyasiga, shu jumladan raqobat muhitini shakllantirish va investisiya jozibadorligiga muvofiqligi;

-ikkinchidan, modernizatsiya qilish, infratuzilma kompleksini yaratish, transport sohasining raqobatbardoshligini oshirish siyosatini olib borish, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlatning ustuvor vazifalarini hal qilish[5].

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Transport-logistika klasterini yaratish resurslarni, kapitalni mahalliyashtirish va konsentratsiyalashga va boshqa ishtirokchilarni jalb qilishga qaratilgan katta mablag'larni talab qiladi. Uning shakllanishi turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlariga ta'sir qiladi. Odatda, na biznes va na davlat o'z-o'zidan klaster yaratish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishga qodir yemas. Zamonaviy transport-logistika klasterini faqat davlat va ishbilarmon doiralar o'rtasidagi konstruktiv, o'zaro manfaatli va uzoq muddatli sheriklik doirasida yaratish mumkin.

Transport-logistika klasteridagi tashkiliy munosabatlar xo'jalik yurituvchi subektlar va davlat idoralari manfaatlarini uyg'unligini ta'minlaydigan tarzda qurilishi kerak [6].

O'zbekistonda transport sanoatini rivojlantirish bo'yicha klaster siyosati bir qator milliy strategiyalarda, Markaziy Osiyoning mintaqaviy darajadagi strategiyalarida, rivojlanish dasturlarida, xususan, 2040 yilgacha bo'lgan davr uchun uzoq muddatli rivojlanish konsepsiyasida, 2035 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonning transport strategiyasida aks yettirilishi kerak. Tranzit siyosati, O'zbekiston Respublikasining klaster siyosatini (tranzit va transport-logistika salohiyatini rivojlantirish nuqtai nazaridan) amalga oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Klasterlar turlarini samarali rivojlantirish zamon talabidir.

## **REFERENCES**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»ги ПФ-4947-сон, 7.02.2017 йил. <https://lex.uz/docs/3107036>
2. Zokirkhan Yusufkhonov, Malik Ravshanov, Akmal Kamolov, and Elmira Kamalova. Improving the position of the logistics performance index of Uzbekistan. E3S Web of Conferences **264**, 05028 (2021), *CONMEChYDRO – 2021*. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126405028>

3. F. Mirzayev, M. Ravshanov, Z. Yusufxonov. Актуальніе вопросы повiшення качества автомобильних перевозок в Республике Узбекистан. Транспорт шелкового пути в Центральной Азии, №1, 2021 йил
4. Azizov X.A., Shermukhamedov A.A., Azizov A.A., Ergashev N.T., Shermukhamedov Yusufbek Abdulaziz ogli. Substantiation of The Parameters of The Wheel Propeller Tread Lugs. AIP publishing. 2021/5/29.
5. Abdullaev B.I., Akhmedov D.T., Yuldashev D.F. Planning the number of buses on routes. "Logistics and economy" scientific-electronic journal. 2020/3.
6. Карриева Й.К., Ибрагимов Ф.А. ва Карриева Б.К. Transport-логистика кластери буйича хориж тажрибалари ва уни Ўзбекистонда қўллаш амалиёти. Логистика ва иқтисодиёт. №5 сон, 2020 й.



## **BUG'DOY VA TRITIKALE O'SIMLIGIDA UNIB CHIQISH DINAMIKASI KO'RSATKICHLARI**

**Zebo Bekmamatovna Alloberganova**

*Biologiya kafedrasi dotsenti. (Urganch. O'zbekiston).*

**Zaxro Baxrom qizi Isayeva**

*Biologiya kafedrasi iqtidorli talabasi.*

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada boshqoli don ekinlari guruhiga mansub - bug'doy va tritikale ekinlarini istiqbolli navlarining muhim xo'jalik belgilarini o'rganish maqsadida bu ekinlarning unib chiqish dinamikasi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** organogenez, fenologik davr, boshqoqlash, tritikale, generativ organ.*

### **ABSTRACT**

*This article provides valuable information on the germination dynamics of promising varieties of wheat and triticale, which belong to the group of cereals.*

*Keywords: organogenesis, phenological period, germination, triticale, generative organ.*

### **KIRISH**

Respublikamiz aholisining don va non mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining o'sib borishi don yetishtirishni ko'paytirish hamda uning sifatini oshirishni taqozo etadi

Dunyo aholisining aksariyat qismi hozirgi vaqtda kam ovqatlanishdan azob chekmoqda. Bolalarda oqsil etishmovchiligi etishmasligi rivojlanayotgan mamlakatlarning eng muhim muammolaridan biridir. Bu muammoni hal etish uchun yuqori oqsilli donalarning etishtirishga, ozuqaviy sifatni yaxshilashga alohida e'tibor qaratish lozim, chunki bu ekinlar arzon va oqsil moddasi sifatida mavjuddir. Tritikale bu ehtiyojni qondirish uchun qobiliyatga ega yangi don ekinlari hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda bugungi kunda aholining chorva mollariga bo'lgan talabi xar doim o'sib bormoqda.

Yuqori va sifatli don hosilining shakllanishi juda ko'p omillarga, jumladan, ekilayotgan navning genetik xususiyatlari, tuproq-iqlim sharoiti, o'tmishdosh ekinlar, oziqlantirish va sug'orish rejimlariga bog'liq bo'ladi. Yildan yilga aholi sonining ortib borishi sababli un va undan tayyorlanadigan mahsulotlarga bo'lgan talab nihoyatda oshib bormoqda.

Sifatli un ishlab chiqarish uchun hosildor bug'doy navlari o'ta zarurdir. Viloyatimiz sharoitida kuzgi bug'doy navlarining xususiyatlarini o'rganish, muayyan

hududga moslashtirish ayniqsa bu navlarning hosildorligiga suv berish tartibining ta'sirini aniqlash va natijada navlarning maksimal hosildorligiga erishish va undan xalq xo'jaligida foydalanish o'ta muhimdir. Bu jarayonlarni amalga oshirish esa albatta o'simliklarda kechadigan fiziologik jarayonlarni bilishni taqazo etadi. O'sish va rivojlanish kabi xususiyatlar shular jumlasidandir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ma'lumki, o'simlik o'sishi deganda, uning qaysi organi hisobidan qat'iy nazar o'simlik massasining ortishi, rivojlanish deganda esa, o'simlik organogenezi davrlarining navbatlashib o'tishini tushunmoq kerak.

G'alla ekinlarida o'sish va rivojlanish quyidagi nisbatlarda bo'lishi mumkin:

1. Tez o'sish, sekin rivojlanish-bunda barglari va ildiz massalarining o'sishi ro'y berib generativ organlarning hosil bo'lishi biroz kechikadi va hosil massasi kam donli bo'ladi.
2. Sekin o'sish va tez rivojlanish-bunda o'simlik o'sishdan qoladi, yetarli ildiz, barg massalari, organik moddalar kam bo'lsa-da, ammo organogenez bosqichlarini tez o'taydi, natijada massasi kam bo'lgan boshloqlar paydo bo'ladi va hosil kamayadi.
3. Tez o'sish, tez rivojlanish-bunda barg plastinkasi yuzasi va o'simlik massasi hamda organogenez bosqichlari o'rtasida normal nisbatda hosil bo'ladi. Xuddi shunday nisbatda o'simliklar doni va poyasi o'rtasida teng nisbatlar massasi vujudga keladi.
4. Sekin o'sish va sekin rivojlanish - bunda o'simlikning ko'p bo'lmagan massasi hosil bo'lib, ular kech pishib yetiladi.

G'alla ekinlarining o'sish va rivojlanishini kuzata borib barcha texnologik vositalardan oqilona foydalanish natijasida o'simliklar uchun qulay sharoit yaratish lozim.

Don ekinlari o'suv davrida bir nechta fenologik davrlarni o'tishi aniqlangan. Har bir davr tuzilishi, ko'rinishi va sifat jihatdan bir-biridan farq qiladi. Don ekinlarida quyidagi fenologik davrlar aniqlangan: maysalanish, tuplanish, nay o'rash, boshloqlanish (ro'vaklash), gullash va pishish. Har bir yangi davrga 10% o'simlik o'tganligi aniqlansa, demak bu davrga o'simlik to'la o'tgan deb hisoblanadi.

Rivojlanish davrlarining almashinuvi o'simliklarda yangi organlarning paydo bo'lishi bilan ifodalanadi.

O'simlikning o'suv davri ayrim rivojlanish fazalari davrini o'z ichiga oladi, ya'ni ekish-unib chiqish, unib chiqish-boshloqlash, boshloqlash-pishish davrlarini o'z

ichiga oladi. O'zbekiston iqlim sharoiti uchun o'suv davri davomiyligi qisqa yoki o'rtacha bo'lishi yaxshi natija beradi.

O'suv davri davomiyligi bo'yicha bahorgi va kuzgi bug'doy navlari orasidagi farq katta bo'ladi. Bahorgi bug'doy navlari o'sish davrining davomiyligi 70-80 kun, ayrim navlarda 120-130 kunni tashkil etadi.

Kuzgi bug'doy navlarida qishki tinim davrini hisobga olgan holda 180-220 kunni va undan yuqori ham bo'lishi mumkin. Bu ko'rsatkich navning biologik xususiyati va tashqi muhit omillari ta'siriga ham bog'liq bo'ladi.

Kuzgi bug'doyni qishki tinim davri hisobga olinmaganda kuzgi bug'doy navlari o'suv davri davomiyligi 145-190 kunni tashkil etadi. Kuzgi bug'doy qish faslida o'sishdan to'la to'xtab qolmaydi. Havo harorati ko'tarilganda o'sish davom etadi, havo harorati pasayganda o'sishdan to'xtaydi. Shu hisobda kuzgi bug'doyni bir rivojlanish fazasi bilan ikkinchi fazasi orasidagi muddat uzayadi. Xususan fazalar orasidagi davrni uzayishi bug'doy unib chiqishidan naychalash fazasida ko'proq kuzatiladi. Unib chiqishdan naychalashgacha bo'lgan davr bahorgi bug'doy navlarida normal agrotexnika sharoitida 35-40 kunni, kuzgi bug'doyda esa 90-120 kunni tashkil etadi.

Ilmiy manbalardan bizga ma'lumki, har qanday ekin turidan qat'iy nazar, urug'larni vaqtida, tekis unib chiqishi uchun tuproqda namlik, harorat, yorug'lik va boshqa tashqi faktorlar ta'siri yetarli miqdorda bo'lishi shuningdek, urug'likning sifati ham yuqori bo'lishi kerak.

Masalan, kuzgi bug'doyning doni unib chiqishi uchun o'z vazniga nisbatan 45-47% suvni shima olishi kerak. Bu jarayon ayniqsa, kuzda ekilgan bug'doylar uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki, kuzda ob - havoning tez o'zgarib turishi natijasida tuproqdagi namlik ham o'zgarishi, natijada unib chiqayotgan urug'ga ta'sir etishi mumkin.

Ma'lumotlarda keltirilishicha, bug'doy urug'lari muz eriy oladigan darajadagi haroratda tuproqdagi namlikni o'zlashtirib olish qobiliyatiga ega. Masalan, ushbu haroratda, tuproq namligi 90% bo'lganda 15 soat mobaynida urug' o'z massasiga nisbatan 11% miqdorda namni tortib oladi. Yuqorida va boshqa shunga o'xshash adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, tajribada bug'doy unib chiqish dinamikasi o'rganildi.

Kuzgi bug'doyning mahalliy navlari o'tmishdosh ekinlardan bo'shagan maydonlarda kuzgi shudgorlash, chizellash, mola bosish va boronalash agrotexnik chora - tadbirlari sifatli o'tkazilgandan keyin bir gektar maydonga 5 mln. dona me'yorda ekildi. Ilmiy tadqiqot ishimizda kuzgi bug'doy navlari kichik maydonlarda

ekilganligi sababli, 1 metr kvadrat maydonga 500 donadan saralangan urug' namunalari 4 takrorlanishda qo'l mehnati yordamida ekilib, to'liq ko'chat olish maqsadida sug'orish ishi amalga oshirildi. Kerakli namlikni shimib olgan kuzgi bug'doy va tritikale urug'lari kerakli issiqlikni qabul qilgach navlar bo'yicha ketma-ket qiyg'os unib chiqa boshlaganligi kuzatildi.

Boshqoli don ekinlari guruhiga mansub - bug'doy va tritikale ekinlari istiqbolli navlarining muhim xo'jalik belgilarini o'rganish maqsadida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishimizda, bu ekinlarning unib chiqish dinamikasini aniqlash maqsadida kuzatuv natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval ma'lumotlari tahlil qilinganda bug'doy va tritikaleni unib chiqish darajasi ko'rsatkichlarida dastlabki kunlarda bir - biriga yaqin ma'lumotlar olinganligi kuzatildi.

Dala sharoitida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishimizda bug'doyning "Kuma" va tritikalening "To'yimli" navlari nazorat nav sifatida tanlab olinib, ularga taqqoslab bug'doyning va tritikalening 2 ta navlari olindi.

Nazorat "Kuma" navida 1-variantda unib chiqqan maysalar soni 18 oktyabr kuniga kelib 20 %, 20 oktyabr kuni 38 %, 22 oktyabr kuni 56 %, 24 oktyabr kuniga 75 %, 26 oktyabr kuni 84 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2-variantda "Tanya" navida 18 oktyabr kuniga kelib 23 %, 20 oktyabr kuni 45 %, 22 oktyabr kuni 60 %, 24 oktyabr kuniga 77 %, 26 oktyabr kuni 89 % ni tashkil etdi.

**Bug'doy va tritikale navlari unib chiqish dinamikasi. %**

Navlar nomi	Kelib chiqishi Mamlakat va shaharlar nomi	Unib chiqish davomiyligi				
		18.X	20.X	22.X	24.X	26.X
<b>Bug'doy navlari</b>						
<b>Kuma</b>	<b>O'zbekiston</b>	20	38	56	75	84
<b>Tanya</b>	<b>Rossiya</b>	23	45	60	77	89
<b>Moskvich</b>	<b>Rossiya</b>	29	47	62	78	92
<b>Tritikale navlari</b>						
<b>To'yimli</b>	<b>O'zbekiston</b>	30	51	63	75	88
<b>Sardor</b>	<b>O'zbekiston</b>	28	48	61	72	85
<b>Guldu</b>	<b>O'zbekiston</b>	34	53	65	77	91

Yana shuningdek "Moskvich" navida 1-variantda unib chiqqan maysalar soni 18 oktyabr kuniga kelib 29 %, 20 oktyabr kuni 47 %, 22 oktyabr kuni 62 %, 24 oktyabr kuniga 78 %, 26 oktyabr kuni 92 % ni tashkil etganligi qayd etildi.

## **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bu ko'rsatkichlar Tritikalening nazorat "To'yimli" navida 1-variantda unib chiqqan maysalar soni 18 oktyabr kuniga kelib 30 %, 20 oktyabr kuni 51 %, 22 oktyabr kuni 36 %, 24 oktyabr kuniga 75 %, 26 oktyabr kuni 88 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2-variantda "Sardor" navida 18 oktyabr kuniga kelib 28 %, 20 oktyabr kuni 485 %, 22 oktyabr kuni 61 %, 24 oktyabr kuniga 72 %, 26 oktyabr kuni 85 % ni tashkil etdi.

Yana shuningdek "Guldu" navida 1-variantda unib chiqqan maysalar soni 18 oktyabr kuniga kelib 34 %, 20 oktyabr kuni 53 %, 22 oktyabr kuni 65 %, 24 oktyabr kuniga 77 %, 26 oktyabr kuni 91 % ni tashkil etganligi qayd etildi.

## **REFERENCES**

1. Аманов. А. Селекция и семеноводство пшеницы в Узбекистане. 1-ая Централно - Азияцкая конференция по пшенице Материалы. Алматы 2003 с. 3 б.
2. Кравченко, Ю.С. Питательная ценность тритикале / Ю.С. Кравченко // Животноводство. 1986. - № 2. -С. 41-42.
3. Павлюк Н.Т. Селекционно-генетические основы повышения урожайности и качества зерна озимой пшеницы и тритикале в ЦЧЗ /Павлюк Н.Т., Шевченко В.Э.// - Воронеж: ВГУ, 1988, -189с.
4. Шулындин А.Ф.Генетические основы синтеза различных тритикале и их селекцион-ное улучшение. - Тритикале: изучение и селекция. -Л., 1975. -С.53-56.

## **МУҲАНДИСЛИК ФАОЛИЯТИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИНИ ТАҲЛИЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ**

**Кузиев Отабек Чулиевич**

Карши муҳандислик иқтисодиёт институти

### **АННОТАЦИЯ**

*Моделлаштириш назарияси ва амалиёти соҳасидаги тадқиқотларнинг таҳлили моделлаштириш фаолиятини тизимли ташқил этувчи сифатида кўриб чиқишга имкон беради. Бу орқали эса таълим, ишлаб чиқариш ва ижтимоий соҳадаги ўзгаришлар учун моделлаштиришдан органик равишда самарали фойдаланиш таъминланади.*

**Таянч сўзлар:** моделлаштириш, фаолият, тизим, ташқил этувчи, касбий, мутахассис, компетенция.

### **АННОТАЦИЯ**

*Анализ исследований в области теории и практики моделирования позволяет рассматривать модельную деятельность как системный организатор. Это обеспечит органически эффективное использование моделирования для изменений в образовании, промышленности и социальной сфере.*

**Ключевые слова:** моделирование, деятельность, система, организатор, профессионал, специалист, компетенция.

### **ABSTRACT**

*Analysis of research in the field of modeling theory and practice allows us to consider modeling activities as a systemic organizer. This will ensure the organically effective use of modeling for change in education, industry and the social sphere.***Keywords:** modeling, activity, system, organizer, professional, specialist, competence.

**КИРИШ**Мамлакатимизнинг жаҳон ҳамжамияти билан интеграцияси, ахборотлашган жамиятга ўтиш ва инновацион иқтисодиётни барпо этиш шароитида олий касбий таълим тизимининг олдида маҳорат ва малакага эга бўлган замонавий меҳнат бозори талабларига жавоб берадиган, сифатли мутахассисларни тайёрлаш вазифаси турибди.

Замонавий олий таълим битирувчисидан касбий моделлаштириш кўникмаларини шакллантириш - касбий аҳамиятга эга бўлган компетенцияларни шакллантиришни ўз ичига олади. Ушбу моделда дастлаб касбий-ижтимоий муаммоларни ҳал қилиш учун зарур бўлган анъанавий интеллектуал, хулқ-атвор стандартларининг даражаси ва мутахассиснинг шахсий қадриятлари ҳамда унинг профессионал дунёқараши аниқланади.

Замонавий олий таълим муассасасини битирувчиси нафақат маълум билим, кўникма ва малакалар тўпламига эга бўлиши, балки бутун ҳаёти давомида ўз-ўзини тарбиялаб, ривожлантириб ва такомиллаштириб бориш қобилиятига эга бўлиши керак, шундай ҳолдагина, у иш берувчи талабига жавоб бера олади [1].

### **МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР**

Бўлажак мутахассиснинг индивидуал таълим траекторияси шахсий ва касбий ривожланиш стратегиясига мувофиқ қурилиши керак, бу мутахассисга интеллектуал тизимлар билан ишлаш, лойиҳалаштира олиш фазилатлари ва шахс қобилиятларини шакллантириш имкониятини берадиган асосий тайёргарликни ўз ичига олади. Маълум бир соҳадаги мутахассис - жамият, ишлаб чиқариш, ижтимоий ва маданий фаолият соҳаси каби объектларни моделлаштира олиши, дастурлаш учун ахборот технологияларини ўзлаштириши, касбий компетентлигини белгилайдиган махсус технологияларни ўзлаштириши керак.

Замонавий олий таълим муассасаси, ўз ғояларини амалга ошириш учун, агар керак бўлса, янги технологияларни қидиришни амалга оширадиган, ахборот жамиятидаги инновацион ўзгаришлар шароитларига мослаша оладиган мутахассисни тайёрлаши керак.

Мазкур муаммо бўйича илмий адабиётларни таҳлил қилиш: юқори малакали мутахассисни тайёрлаш вазифаси ўқув жараёнининг барча босқичларида даражани сифат жиҳатидан ўзгаришини таъминлайдиган янги педагогик технологиялар ва усулларни қўллаш орқали ҳал қилиниши керак.

Бўлажак мутахассисларнинг касбий аҳамиятли фазилатлари ва хусусиятларини шакллантиришнинг турли методлари, хусусан, моделлаштириш методи каби олий ўқув юртлари амалиётига инновацион технологияни жорий этиш кўрсатилган бўлиб, бу эса талабаларга профессионал даражадаги юқори компетенцияларни шакллантиришни таъминлашга имкон беради. Шунга мувофиқ тарзда таҳсил, педагогик ва муҳандислик фаолияти соҳасида пайдо бўладиган “моделлаштириш методи”, “таълимни моделлаштириш” каби тушунчаларнинг мазмуни ва кўринишларини очиб берамиз.

Бугунги кунда умуман моделлаштириш ва хусусан моделлаштириш методини ўрганиш турли позициялардан олиб борилмоқда. Моделлаштириш - мутахассис фаолиятининг таркибий қисми сифатида кўриб чиқилган.

Шуни таъкидлаш керакки, педагогик, методик ва техник адабиётларни таҳлил қилиш, моделлаштириш муаммоларини ўрганиш фақат умумий педагогика нуқтаи назаридан (бугунги кунда техник моделлаштиришнинг бой

имкониятларини ҳисобга олмасдан) амалга оширилади, деган хулосага келишимиз мумкин.

Таъкидлаш жоизки, таълимни моделлаштириш ўз хос хусусиятларга эга. Бу бошқа ижтимоий амалиёт турлари билан етарлича яқин ўзаро боғланишлар асосида амалга оширилаётган таълим ташаббуслар оқибатлари учун жавобгарликни ўз зиммасига олишни назарда тутди.

Замонавий олий таълим амалиётида муаммоларини ҳал қилиш зарурати моделлаштириш методини аниқлаштиришни талаб қилади. Ижтимоий-педагогик моделлаштирилиш таълим тизимининг исталган даражасида амалга оширилиши мумкин.

Ислоҳотлар даврида мутахассиснинг ижтимоий амалиётнинг турли шакллари моделлаштириш олиш қобилияти биринчи ўринга чиқади. Айнан шу қобилият инсонни ижтимоий амалиёт ва фаолият субъекти сифатида тавсифлайди. Бундан ташқари, моделлаштириш олиш фаолияти инсонга ижтимоий воқеликга таъсир ўтказишга имкон беради ва профессионал амалиётни ташкил қилиш жараёнида мутахассиснинг ўз-ўзини шакллантириш омилига айланади.

Замонавий тадқиқотчилар таълим тизимини ўзгартириш, таълим олувчиларнинг шахсий фазилатларини ривожлантириш ва таълим натижалари сифатида компетенцияларни шакллантириш учун моделлаштиришнинг потенциалини тушунадилар ва ундан унумли фойдаланишга ҳаракат қилишади. Моделлаштириш фаолияти таълим тизимини ривожлантириш учун шароит яратади.

Ижтимоий-иқтисодий инновациялар шароитида моделлаштириш маълум бир фаолият тизимининг сифатини оширишга мўлжалланган янги маҳсулотларни яратиш жараёни, инновация ҳаётининг маданий шакли сифатида қаралади.

Бўлжак муҳандислар учун моделлаштириш методини ўзлаштириш муҳимлигини алоҳида таъкидлашимиз лозим.

Замонавий жамиятда муҳандислик-конструкторлик фаолиятининг роли тобора ўсиб бормоқда, бу эса сўнгги илмий ютуқлардан амалиётда фойдаланишга имкон беради ва уларни илмий-амалий тадқиқотларда тадбиқ этиш самарадорлигини оширади.

Бугунги кунда техника олий ўқув юртлири ишлаб чиқаришнинг турли соҳалари учун турли хил ихтисосликлар бўйича муҳандисларни тайёлаб чиқармоқда. Замонавий муҳандисларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш - муҳандислик фаолиятини, унинг тенденциялари, мақсад ва



вазифаларини тушуниш нуқтаи назаридан уларнинг моҳияти, имкониятлари ва чегараларини кенгайтиришни ўз ичига олади.

Иқтисодиёт ривожланиб бораётган жаҳон ҳамжамиятида, ижтимоий-иқтисодий омилларни ҳисобга олувчи, маркетингни яхши тушунадиган, маҳсулотларни сотувга йўналтира оладиган ҳамда истеъмолчилар психологиясини яхши биладиган муҳандисга бўлган талаб юқоридир [2].

Шу сабабли, ҳозирги замонда муҳандислик фаолиятига тайёрлик, табиий-техник муаммоларни ечимини - гуманитар, ижтимоий, табиий ва техника фанлари мажмуасидан фойдаланган ҳолда ҳал қилишга тизимли ёндошиш нуқтаи назаридан кўриб чиқилмоқда.

Муҳандислик ихтисослигининг лойиҳа фаолиятини ўрганиш учун унинг олий таълим муассасаларида ўқитиш хусусиятлари, профессионал давлат таълим стандартларига мувофиқ унинг компетенцияларини шакллантириш технологиясини кўриб чиқиш муҳимдир.

Касбий стандарт таълим олувчиларда умуммаданий ва профессионал компетенцияларни шакллантирувчи талабларни белгилайди.

Хусусан, бўлажак муҳандис кенг интеллектуал-ривожланиш нуқтаи назаридан ўзининг эгаллайдиган мутахассислиги бўйича фаолиятни моделлаштириш асослари ва технологияларини, уни ахборот муҳитида ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятларини ўзлаштириши, умуммаданий компетенцияларни ривожлантиришда:

- ахборотлашган жамиятни ривожланишида ахборотнинг моҳияти ва унинг аҳамияти тўғрисидаги тушунчаларни, маълумот олиш, сақлаш, қайта ишлаш ва узатишни ўзлаштириши, фаолиятни моделлаштиришнинг асосий метод, усул ва воситаларидан фойдаланишни ўзлаштириши;

- замонавий таълим ва ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда янги билимларни ўзлаштириш;

- фикрлаш маданияти, маълумотни умумлаштириш, таҳлил қилиш, ностандарт вазиятларда ташкилий ва бошқарув ечимларини топиш қобилиятига эга бўлиш;

касбий компетенцияларни ривожлантириш соҳасида:

ишлаб чиқариш ва технологик фаолиятда - ишлаб чиқариш хавфсизлигини таъминлаш бўйича талабларни ишлаб чиқиш, уларни технологик жараёнларга тадбиқ этишда моделлаштириш ва техник ҳужжатларни ишлатишга тайёрлик;

- ҳисоб-китоб ва фаолиятни моделлаштиришда - режа, дастур, лойиҳалар тузиш учун дастлабки маълумотларни тайёрлаш, замонавий ахборот технологияларидан ишлаб чиқариш мажмуасида бошқарув жараёнларини

оптималлаштириш воситаси сифатида фойдаланиш, замонавий логистика тизимлари ва технологияларини жорий этишни моделлаштириш; интермодал ва мультимодал тизимларни лойиҳалаш ва шу кабилар;

- экспериментал тадқиқот фаолиятида – фаолиятни моделлаштириш, ахборот хизматлари, ишлаб чиқаришни ташкил этиш, меҳнат ва ишлаб чиқаришни бошқариш бўйича илмий-техник фаолият соҳасидаги ишларни бажариш, ахборот, техник маълумотлар, транспорт тизимлари кўрсаткичлари ва натижаларини ўрганиш ва таҳлил қилиш; касбий фаолиятда замонавий ахборот ва компьютер технологиялари имкониятларидан фойдаланиш ва шу кабилар [2].

Моделлаштириладиган соҳани танлаш – уни амалга ошириш йўллари ва методини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш - ҳар доим туб ўзгартириш ҳамда жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётидаги ўзгаришлар билан боғлиқдир, унинг яратилиш тарихи шундай хулоса қилишимизга имкон беради [5].

Моделлаштириш ва лойиҳалаштириш методлари узоқ тарихга эга. Хусусан, мазкур методлар ўн тўққизинчи асрнинг иккинчи ярмида Америка Қўшма Штатларда пайдо бўлган ва унга америкалик идеалист файласуф Жон Дьюи асос солган. Жон Дьюи билимларни ўзлаштиришда табиий ёндашувни ҳисобга олган ҳолда, ишлаб чиқиб, тақдим этган ғоясига кўра, у болалар билимларни ўзлаштиришлари учун уларнинг табиатига мос келадиган билимларни тақдим этиш усуллари излади. Бу атроф-муҳит ва уни ўзгартиришга қаратилган билимларни инсоннинг адаптив тажрибаси сифатида қабул қилишдан бошланди. Жон Дьюининг ғоясига кўра, фаолиятни моделлаштириш ёки лойиҳалаштириш методи таълимни ўзгартириш воситаси бўлиб хизмат қилади ва у саноат ва тижоратда содир бўлаётган воқеаларга ўхшаб ўзгарган ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг маҳсулидир [3].

Дьюининг ғояларини америкалик педагог У.Х. Килпатрик ривожлантирди [4]. Унинг баъзи ғоялари бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотган эмас, хусусан, илгаридан мустақил равишда режалаштирилган, қизиқтирувчи фаолият орқали таълим самарадорлигини ошириш ғояси.

Моделлаштириш методига мурожаат қилиш унинг ижтимоий-иқтисодий ўзгаришларга таъсир кўрсатиш қобилияти билан изоҳланади, бу давлатнинг ижтимоий ва ишлаб чиқариш ҳаётида таълим тизимининг иштироки орқали амалга оширилади [6].

Фаолиятни моделлаштириш методини тадбиқ этишнинг асосий натижалари қуйидагилардан: талабаларни мунтазам тарзда ишлашга одатлантириш; режалаштиришда барча шароитларни ҳисобга олиш, барча қийинчиликларни енгиб ўтиш; иш жараёнида ўзини синаб кўриш ва фаолият ва

натижаларни коррекциялаб боришдан иборат. Моделлаштириш методининг етакчи тамойили “иш фаолияти орқали таълим олиш, ўрганиш” дир.

Замонавий таълимдаги ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар ишлаб чиқариш амалиётида ўз аксини топади. Ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар экспериментал, нодавлат таълим муассасаларини очилишига, таълимнинг янги шакллари моделилаштиришга ёрдам берилади. Моделлаштириш нафақат дидактик воситалар сифатида қаралади, балки уни педагогик фаолиятнинг алоҳида йўналиши сифатида ажратиб кўрсатиш имконини ҳам беради, бу эса педагогик янгилик тушунчасида шаклланди.

Ижтимоий-иқтисодий трансформациялар даврида моделилаштиришдан инновацион фаолият сифатида фойдаланиш таълимнинг турли шакллари ташкил этиш зарурати билан боғлиқ.

### **ХУЛОСА**

Шундай қилиб, моделилаштириш методи ва унга бўлган қизиқиш фаолият сифатида пайдо бўлиши, қоида тариқасида, ҳар доим жамият ва таълимдаги ўзгаришлар билан боғлиқ. Шу билан бирга, моделилаштириш таълим сифатидаги ўзгаришларнинг шартлари, механизмларидан бири сифатида тушунилади ва инновацион таълим сифатида қаралади.

### **REFERENCES**

1. Анисимов О.С. Индивид, субъект, личность в контексте целостности психики человека // Мир психологии. 2007. № 1. С. 24-28.
2. Горюха В.И. Проектирование и реализация учебной информации в образовательном пространстве современного вуза / В.И. Горюха, О.Г. Зайцева, С.И. Тарасова. М., 2003. 135 с.
3. Дж. ван Гиг “Прикладная общая теория систем”: Пер. с англ. М.: Мир, 1981. 733 с.
4. Караваева Е.А. Из опыта ведения курса “Информационная культура Личности” // Школьная библиотека. 2005. № 8. С. 40–46.
5. Негодаев И.А. Информатизация культуры. М.: Академия, 2002. 212 с
6. Слостенин В.А. Введение в педагогическую аксиологию / В.А. Слостенин, Г.И. Чижакова. М.: Академия, 2003. 192 с.

## **ВИЗУАЛЬНАЯ АНТРОПОЛОГИЯ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ В ИСТОРИИ**

**Нодирабегим Назаркулова Бахтиёр кизи**

Докторант в ТГУВ

[osiyouzturk@bk.ru](mailto:osiyouzturk@bk.ru)

### **АННОТАЦИЯ**

*Как и во всех сферах, антропология тоже обогащается новыми методами с развитием технологий и увеличением количества источников, отражающих историю. С этим процессом связано зарождение визуальной антропологии. С появлением наглядных материалов появились новые способы освещения исторических событий. Однако при этом значение методов, основанных на традиционных материалах, не уменьшилось, а сохранило свое значение в качестве дополнительного материала в визуальной антропологии. В этой статье кратко рассматриваются становление визуальной антропологии как отдельной науки и ее специфика как отрасли, а также ее преимущества перед письменными источниками.*

**Базовые слова и выражения:** антропогенные образы, антропология искусства, видеография, история “других”, фотография.

## **VISUAL ANTHROPOLOGY AND ITS SIGNIFICANCE IN THE SCIENCE OF HISTORY**

**Nodirabegim Nazarkulova Bakhtiyor kizi**

Doctoral student at TSUOS

[osiyouzturk@bk.ru](mailto:osiyouzturk@bk.ru)

### **ABSTRACT**

*As in all fields, anthropology is also enriched with new methods with the development of technology and an increase in the number of sources reflecting history. The emergence of visual anthropology is associated with this process. With the advent of visual materials, new ways of covering historical events have emerged. However, the importance of methods based on traditional materials did not diminish but retained their importance as additional material in visual anthropology. This article briefly examines the emergence of visual anthropology as a separate science and its specificity as a branch and, its advantages over written sources.*

**Keywords:** anthropogenic images, anthropology of art, videography, history of “others”, photography.

## **ВВЕДЕНИЕ**

Историческая наука в зависимости от характера изучаемого объекта подразделяется на различные направления и подотрасли. Каждая из них служит для обеспечения прозрачности исторического знания, а также для создания самостоятельной исторической базы данных как отдельной области. В частности, направление визуальной антропологии в самой антропологии, являющейся крупнейшей областью исторической науки, является относительно новой, но масштабной подсистемой. В отличие от других направлений истории, визуальная антропология проводит исследования с использованием изобразительных, преимущественно технологических образов. Исходя из вида и формы техногенных изображений, отличных от письменных или иных видов материальных источников, они помогают исследователю сделать относительно объективные и более точные выводы об историческом событии.

Визуальная антропология включает в себя два основных направления. Первое связано с проведением этнографических исследований на основе изучения рисунков, видеоматериалов и фильмов, с расширением антропологических знаний на основе данных, отраженных в этих материалах, и попыткой сформировать более конкретные представления.

## **МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ**

В этой статье используется историко-сравнительный подход, анализ информационных источников, а также исследование аналитических материалов, и цель этой статьи - охватить материалы, которые помогут в дальнейшем исследовать важность области визуальной антропологии.

## **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

Другая – антропология искусства, которая фокусируется на изучении самих визуальных материалов. То есть:

- с какого времени человечество начало реагировать на увиденное и какое место отводило образам в своей жизни;

- какое значение в жизни конкретного общества или цивилизации имело выражение им своей точки зрения через визуальные объекты;

- и, наконец, он фокусируется на поиске ответов на такие вопросы, как, как формируется визуальный образ конкретного события-явления, человека или понятия (символы, вызванные тем, что эти образцы приобретают определенный глубокий смысл позже, являются отдельным вопросом) [Кант, 2015].

Основным предметом изучения визуальной антропологии являются различные фотографии, видеоматериалы, фотоматериалы и т. д. На основе

обработки и анализа отраженных в них данных исследуются историко-культурные процессы. В конце каждого исследования небольшие фотоматериалы, собранные и систематизированные, становятся материалом, отражающим типичные явления культуры. Отличие визуальных источников от других источников состоит в том, что они точно отражают информацию, снижая вероятность того, что исследователь попадет под влияние субъективных взглядов авторов визуального объекта и попадет в заблуждение.

### **История визуальной антропологии**

Возникновение визуальной антропологии связано с появлением камер в 1860-х годах. Фактически, говоря современным языком, визуальная антропология начиналась с любой системы визуальных предметов, которые изображали движение человека, пока фотография не стала доминирующим методом. Он включал в себя наскальные рисунки, изображения, выполненные на дереве, литографии, рисунки, выполненные краской, и, в целом, иллюстративные источники, созданные ранними африканскими, арабскими, китайскими, европейскими, индийскими, японскими, монгольскими и другими народами. Тем не менее, эти перечисленные источники являются объектом изучения в основном археологов и историков искусства, и их подход к этим типам визуальных источников отличается от подхода антропологов.

1. O'zingizni xavfsizlik kamaringizni va har doim bolangizni xavfsizlik kamarlaridan taqing! Shu jumladan, birovning mashinasida va qisqa masofani bosib o'tishda. Agar ushbu qoida avtomatik ravishda kattalar tomonidan bajarilsa, u holda bu osonlikcha bolada doimiy odat bo'lib qoladi.

2. Iloji bo'lsa, bolalar avtouloddagi eng xavfsiz o'rindiqlarda, orqa o'rindiqlarning o'rtasi yoki o'ng tomonida o'tirishlari kerak, chunki ular piyodalar yo'lagidan xavfsiz chiqib ketishlari mumkin.

3. Haydovchi yoki yo'lovchi sifatida siz ham doimiy namuna bo'lasiz. Boshqa yo'l foydalanuvchilariga nisbatan tajovuzkor bo'lmang, ularni tanbeh qilmang. Buning o'rniga bolangizga boshqa yo'l foydalanuvchilarining xatosi nima ekanligini tushuntiring. Xatolaringizni ham tinchgina tan oling.

4. Uzoq safarlarda tez-tez to'xtab turing. Bolalar harakat qilishlari kerak.

Zotan xalqimiz aytganidek “Qush inida ko’rganini qiladi ” deganidek bola ham uyida ko’rganini qiladi . Biz tarbiyalanuvchilar uchun har doim o’rnak ekanimizni unitmasligimiz kerak

## **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2014.
2. Saidov, S. (2021). IBN AL-MUQAFFANING ISLOM TARJIMA SAN’ATIGA QO ‘SHGAN HISSASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1).
3. «Maktabgachata’lim» jurnali: [www.jlmt.uz](http://www.jlmt.uz).
4. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”. T.: 2018
5. Jurayev, S. S. O. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA BAXT-SAODAT MASALASI. *Academic research in educational sciences*, 2(Special Issue 1).

## **ED-118 RUSUMIDAGI TORTUV ELEKTRDVIKATELLARINI EKSPLUATATSIYA JARAYONIDA HOLATINI TAHLIL QILISH**

**Djanikulov Axad Turdibekovich.**

Toshkent davlat transport universiteti

[Djanikulov7575@mail.ru](mailto:Djanikulov7575@mail.ru)

**Safarov O'tkir Istamovich.**

Toshkent davlat transport universiteti

[utkirsafarov1981@mail.ru](mailto:utkirsafarov1981@mail.ru)

**Elmuratova Shoxista Ikrom qizi**

Toshkent davlat transport universiteti

[shohista.elmuratova@bk.ru](mailto:shohista.elmuratova@bk.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Lokomotiv tortuv elektr dvigatellarini ekspluatatsiya jaryonida holatini aniqlash va ta'mirlash hamda foydalanish muddatini uzaytirish asosiy vazifa bo'lib kelmoqda. Bu esa qo'shimcha xarajatini keltirib chiqaradi. Lokomotiv depolarda extiyot qismlarning kamligi va yangi TED va uning qismlarini MDH davlatlaridan sotib olinishi teplovozlarning ta'mirlash va foydalanish jarayonidagi sarf xarajatlarning ortishiga sabab bo'ladi. SHuning uchun lokomotiv tortuv elektr dvigatellaridan unumli hamda samarali foydalanish va FIK orttirish bo'yicha tadqiqot olib borish O'zbekistonda dolzarb xisoblanadi.*

**Kalit suzlar:** lokomotiv, TED, yakor, podshipnik, 2TE10M, tadqiqot, natija, samaradorlik, teplovoz, ED-118, ekspluatatsiya

### **ABSTRACT**

*The main task is to determine the condition and repair of locomotive traction motors during operation and to extend their service life. This incurs additional costs. Lack of spare parts in locomotive depots and the purchase of new TED and its parts from CIS countries will increase the cost of repair and operation of locomotives. Therefore, it is important to conduct research on the efficient and effective use of electric locomotive engines and increase the efficiency of locomotives in Uzbekistan.*

**Keywords;** locomotive, TED, anchor, bearing, 2TE10M, research, result, efficiency, locomotive, ED-118, operation.

### **KIRISH**

20-asr oxirlari va 21-asr boshlarida O'zbekiston Respublikasida teplovozlarning ekspluatatsiya qilish jarayonida bir qancha kamchiliklari ko'zga tashlana boshlandi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, dolzarb mavzular paydo bo‘la boshladi. Bu muammolarni echishda fanning ochilmagan qirralari o‘rganish davr talabi bo‘lib kelmoqda. TE10M rusumidagi teplovozlardan samarali foydanish va mavjud bo‘lgan kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf qilish temir yul sohasi lokomotiv xo‘jaligidagi olimlarning izlanishlarini belgilab berdi. SHunday tadqiqotlardan biri tortuv elektr dvigatellarini ekspluatatsiya jarayonidagi nuqsonlarni tahlil qilish va o‘rganish zarur bo‘lib qoldi.

### **METODLAR**

O‘zbekiston temir yo‘llarida ekspluatatsiya qilinadigan TE10M teplovozida o‘rnatilgan ED-118 rusumidagi TED agi talablarni bilan tanishib chiqamiz.[1]

TED g‘ildirak-motor blokini asosiy qismi hisoblanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, podshipnik qismi ham asosiy element bulib, yakor , buksa va o‘q podshipniklariga bulinadi. Bu podshipniklar ustida xam tadqiqot ishlari olib borilmoqda. SHu bilan bir qatorda lokomotivlarda o‘rnatilgan G‘MB harakatini va turg‘un holatdagi ishonchligini oshirish ham olimlar etiborida bo‘lib kelmoqda. TED elektr jixozlarini ishdan chiqishi va bunday nosozliklarni bartaraf etish zamon talabi bo‘lib kelmoqda. Demak yuqoridagi keltirilgan ob’ektlarning muammolari ustida tadqiqotlar ishlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Texnik adabiyotlarda keltirilgan bir qancha tajriba va ilmiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, formula hamda grafiklar ishning asl mohiyatini ochib beradi. Elektr uzatmali teplovozlarda generatorni dizel dvigateli va g‘ildirak juftligini tortuv elektr dvigatellari (TED) aylantirishi tuliq fizika qonunlariga buysunadai.

YUqoridagilarni hisobga olgan holda Tortuv elektr mashinalarini (asosan generator va TED) boshqarish tizimini o‘rganish talab etildi.

TED podshipniklari uzoq muddatli, ishonchli ishlashi uchun albatta formulalar yordamida tekshirishimiz mumkin. Bunda dinamik va statik yuklanish lar berish yordamida TEDni parametrlarini kurib chiqishimiz mumkin.

Agar TED o‘rnatilishida ko‘ra quyidagi ta‘sir qiluvchi tashqi kuchlarning ta‘siri doirasida bo‘lsa, unda tezlikni yanada oshirib, maksimal qiymatga etib boradigan dinamik yuk kamayadi

G‘mB aylanishida kuchlarning o‘zgarishi deyarli dinamik yuk qiymatiga, shuningdek g‘ildiraklar va birlashtirilgan massalar orasidagi bog‘lanishning qattiqqligining o‘zgarishiga ta‘sir qilmaydi. Ishda shuni aniqladiki, tishlarning qattiqqligi, tishli g‘ildiraklar massasining kamayishi, asosiy balandlikning umumiy xatosi va

tishlarning deformatsiyasi dinamik yukga 0,5 darajaga ta'sir qiladi. Ro'yxatdagi omillardan dinamik yuk kattaligining amplituda qiymati quyidagi bog'liqlikka ega

$$U = AV\sqrt{mc(\Delta_0 - S_0)} \quad (1)$$

gde A –proporsionallik koeffitsienti

V – aylana buylab tezlik;

m–keltirilagn shesterenya massasi;

s – tishlar qattiqligi koeffitsienti

$\Delta_0$ –asosiy qadam xatolik yig'indisi;

$S_0$  – tishning boshidagi deformatsiya

- to'g'ridan-to'g'ri uzib-ulanishlar zonasida teplovoz FIKi

Ma'lumki, teplovoz FIKi

$$h_t = h_e \cdot h_g \cdot h_{tp} \cdot (1 - \beta), \quad (2)$$

bunda:  $h_e$ - dizelning samarali FIK;

$h_g$ - tortuv generatorining FIK;

$h_{tp}$ - TED va tishli uzatma FIK;


$\beta$  – dizelning samarali quvvatiga nisbatan yordamchiagregatlar quvvatining ulushi.

Quyida TEDning susaytirilgan maydonga ishga tushish –o'chirilish zonasidagi dizel generator qurilmasining (DGQ) qator qisman ishlash rejimlari uchun teplovoz FIKi tahlili keltirildi.

Ana shu tahlil maqsadida quyidagi omillarni hisobga olgan holda dizel, generator, TED va yordamchi mashinalar FIK va quvvatidagi yo'qotishlar i alohida holda ko'rib chiqiladi:

- susaytirilgan maydondaishga tushish–o'chirilish zonasidagi mashinist kontrollerning har bir ko'rib chiqilayotgan pozitsiyasida tashqi tavsifning giperbolik emasligi sababli DGU quvvatining pasayishi ro'y beradi; YUqoridagilardan tashqari teplovozning quvvatini grafik asosida ham keltirib o'tiladi





1-rasm. 10D100 dizeli FIKining quvvatga bog‘liqligi

- tortuv generatori FIKi, ma’lumki, magnit, elektr va mexanik yo‘qotishlarga bog‘liq. Magnit zanjiri to‘yinganligi sababli kuchlanish cheklanganida magnit yo‘qotishlari doimiy deb qabul qilinishi mumkin.

Kontrollerning har bir pozitsiyasidagi mexanikyo‘qotishlar ham doimiydir. Elektr yo‘qotishlar o‘zgarib turadi, biroq, hisob-kitoblar ko‘rsatishicha, umumiy yo‘qotishlar, amalda doimiy bo‘lib qolib, generator FIKi esamashinaning foydali quvvati kamayishi tufayli pasayib boradi.

-TED FIKi tortuv generatori bilan bir xil yo‘qotishlarga bog‘liq. Faqat tishli uzatmadagi yo‘qotishlar qo‘shiladi. Elektr va magnit yo‘qotishlar tortuv generatori yo‘qotishlariga mos ravishda o‘zgarib boradilar. Mexanik yo‘qotishlar ham tezlik kattalashishi bilan kattalashib boradi. Umuman FIK tortuv generatori tashqi tavsifining nogiperbolikqismida ishlaganida sezilmas darajada pasayadi.

-Koeffitsient  $\beta$  qiymati yordamchi mashinalar quvvatiga va dizelning samarali quvvatiga bog‘liq bo‘lib, dizel vali aylanishlari soni mashinist kontrollerining qayd etilgan pozitsiyasida o‘zgarmasligicha qolib,  $N_{vsp} = \text{const}$  kabi  $\beta = \frac{N_{vsp}}{N_e}$  ham kattalashadi va bu hol teplovoz FIKi pasayishini keltirib chiqaradi.


To‘g‘ridan-to‘g‘ri uzib-ulanishlar kontrollerning 15-pozitsiyasida reostatli sinovlarida quyidagi toklarda sozlanadi:

TM → SM1 - 3100 A;

SM1 → SM2 - 2900 A.

SHuning uchun SM1 → SM2 uzib-ulanish chiziqlari kontrollerning 9÷10 dan past joylashgan pozitsiyalarida kuchlanish bo‘yicha cheklanishlar zonasiga tushadilar. Kuchlanish ortmaydi, quvvat tushib ketadi, poezd tezlasha olmaydi, SM1 → SM2 relening ishga tushishi kuzatilmaydi.

Avtomat boshqarish tizimida avtotebranishlari yuzaga kelishi ehtimoli tufayli relarlarni kichik toklarga sozlash amalga oshirilmaydi (“qo‘ng‘iroqli ish”).



2-Rasm . GP-311B generatori mashinist kontrollerining (MK) turli pozitsiyalaridagi tajriba-hisobiy tashqi tavsiflari;  $I_g$ ,  $U_g$  –mos ravishda generator toki va kuchlanishi kuchi; A va B – o‘tishlar relasining mos ravishda yoqilish va o‘chirilish tavsiflari [3]

### XULOSA

TE10 rusumidagi magistral teplovozlarda TED ishini o‘rganish natijasida FIK orttirish maqsadida nazariy va amaliy tadqiqotlarni olib borish va TED uyg‘otishini susaytirishga o‘tkazish ish samaradorligini oshirish.

### REFERENCES

1. Djanikulov A.T. Modelirovanie dinamicheskix yavleniy v mexanizmax zapuska dizeley magistralnyx teplovozov: avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy

stepeni k.t.n.: spetsialnost 05.22.07 / DjanikulovAxatTurdibekovich; Gos. aksioner. j.-d. kompaniya "UzbekistontemirYullari", Tashkent. in-t injenerov j.-d. transporta. - Tashkent: 2006. - 19 s.: il.; 21.

2. Djanikulov A.T. Safarov O'. I.Lokomotivlarni elektr jihozlari" fanidan (5310600 - transport vositalari muxandisligi ) ta'lim yo'nalishlari 3-bosqich bakalavriat talabalari uchun laboratoriya ishlarini bajarishga doir uslubiy ko'rsatmalar Toshkent ,2021.

3 Rudaya K.I., Loginova E.YU. Elektricheskie oborudovanie i shemy. M.: Transport. 1991. 302.

4. A. D. Stepanov i dr. Peredachi moshnosti teplovozov. Mashinostroenie, M., 1967

## **INNOVATSION YONDOSHUV ASOSIDA TRANSPORT - LOGISTIKA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

**Baxtiyor Azizkulov**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
dotsenti, PhD [baxtiyor100774@mail.ru](mailto:baxtiyor100774@mail.ru)

**Sharaf Urokboyevich Tashmatov**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
[sh.tashmatov@gmail.com](mailto:sh.tashmatov@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada innovasion yondoshuv asosida transport - logistika xizmatlari samaradorligini oshirish orqali ichki va tashqi bozorlarning konyukturasiga mos keladigan yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlarni eksport va import qilish orqali mintaqaning ijtimoiy – iqtisodiy o‘shishining barqarorligini ta’minlaydigan asosiy yo‘llari aks ettirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** innovasion yondoshuv, logistika, mahsulot, xizmat ko‘rsatish, bozor konyukturasi, qo‘shimcha qiymat, eksport, import, iqtisodiy o‘shish.*

### **ABSTRACT**

*The article outlines the main ways to ensure the sustainability of socio-economic growth in the region through the export and import of high value-added products that meet the conditions of domestic and foreign markets by increasing the efficiency of transport and logistics services based on an innovative approach.*

***Keywords:** innovative approach, logistics, products, services, market conditions, value added, exports, imports, economic growth.*

### **KIRISH**

Ma’lumki, har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida uning qon tomiri bo‘lgan transport-logistika tizimi juda muhim ahamiyatga ega.

Jahonda, ayniqsa globallashuv sharoitida milliy, mintaq va xalqaro darajalarda transport-logistika xizmatlarini sifatli ko‘rsatish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonda avtotransport xizmatlari bozori muhim segment sifatida o‘rin tutib, “dunyoda yalpi ichki mahsulotdagi uning ulushi 6,8 foizini tashkil etdi” [3]. Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarida transport infratuzilmasining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Mazkur soha faoliyatini takomillashtirish vazifalari Jahon transport va logistika tizimi (The global transport and logistic system) tomonidan amalga oshiriladi. Jahon

banki guruhi ma'lumotlariga ko'ra, jahon transport xizmatlarining YaIM tarkibidagi miqdori 4,2 trln. AQSh dollari (6,8%) hajmida baholanib, yiliga 110 mlrd. tonna yuk va 1 trln. dan ortiq yo'lovchilar tashilgan, transport infratuzilmasida band bo'lgan xodimlar soni 100 mln. kishini tashkil etadi [9]. Shular bilan bir qatorda transport, jumladan, avtotransport sohasi energiya va tabiiy resurslarning katta qismini iste'mol qilinishi barobarida boshqa tarmoqlarning jadal rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlilning natijalariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda mahsulot va xizmatlar tannarxida transport sohasining ulushi 8-9 foizni tashkil qilib, mazkur ko'rsatkich dengiz yo'llariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakatlarda 1,5 barobargacha yuqori bo'lmoqda. Bular o'z navbatida transport-logistika korxonalarining raqobat salohiyatidan samarali foydalanish zaruratini yanada dolzarblashtirmoqda. Samarador transport-logistika tizimi ichki bozorda tayyor mahsulot va xom-ashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda yetkazib berilishini ta'minlaydi, bozordagi raqobatni rag'batlantiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida yurtimizda transport-logistika tizimini takomillashtirish dolzarb masala ekanligi, dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklangani uchun mahsulotni eksport qilishda qiyinchiliklarning mavjudligi, tovarlari-mizni eksport qilish bo'yicha zamonaviy logistika yo'nalishlarini yaratishlari zarurligi, Vazirlar Mahkamasi esa eksport yuklarini qo'shni davlatlardan imti-yozli narxlarda o'tkazish bo'yicha muzokaralar olib borishi kerakligi, shu bilan birga, Jahon bankining «Logistika samaradorligi indeksi»dagi o'rnimizni kamida 20 pozisiya yuqoriga ko'tarish choralari ko'rish masalalari ko'tarilgan edi. Bu belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda parlament nazorati mexanizmlaridan samarali foydalanish doirasida mamlakatimizdagi transport logistika kompaniyalar mazkur sohada olib borilayotgan ishlar bilan birga bugungi kunning dolzarb masalalaridan ekanligini ta'kidlash mumkin.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Hozirgi globallashtirish sharoitida dunyoda tezkor o'sish, yuksalishga yo'naltirilgan ko'plab yondashuvlar jamoaviy uyg'unlashuvni talab etmoqda. Ma'lumki, butun dunyoda erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar, klasterlar, korporatsiyalar kabi zamonaviy yondashuvlar bilan tashkil etilayotgan logistika

infratuzilmalarining soha va ixtisosliklar yuksalishidagi roli beqiyos. Har bir sohada innovatsion muhitning shakllanishi, rivoji bilan bog‘liq qonuniyatlarni muntazam tahlil qilish hamda samarali foydalanish bugungi kun talabidir. Chunki, innovatsiya bilimlar tugal konsentratsiyalashgan integratsiyalashuv tufayli paydo bo‘lgan g‘oyadan boshlanuvchi ilmiy-tadqiqot, fan, ta‘lim va ishlab chiqarishning faol hamkorligi mahsuli, yangilanishlarga asoslangan to‘kin va farovon hayot, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishni ta‘minlovchi omildir. Shu nuqtai nazardan logistika masalalari bo‘yicha ham xorijlik tadqiqotchilar ushbu ilmiy yo‘nalishlarni alohida va tizimli tavsiflarda tasvirlaydi. Mukammal logistikaning nazariy jihatlarini D. Bauersoks, M. Linders, Mirotin L.B., D. Uoters, K. Laynos, M. Djillingem, Dj.R. Stok, D.M. Lambert, A.M. Gadjinskogo, A.G. Kalchenko, T.V. Kosarev, M.A. Oklander, V.I. A.N. Rodnikov, Sergeev, A.D. Chudakov, N.I. va boshqalar ishlarida yoritilgan.

Xususan, D. Bauersoksning fikricha, logistika infratuzilmasi ob‘ektlari, axborot vositalari, transport kompaniyalari va ularning imkoniyatlari, ombor-xonalar, yuklarni tashish, qadoqlash, inventarizatsiyani boshqarish, yuklarni yuklash va tushirish terminallari va chakana do‘konlarga tegishlidir. Muallifning fikricha, logistika infratuzilmasini tashkil etishda ma‘lum geografik joyla-shuvi bo‘lgan ob‘ektlar (ombor komplekslari) sonini aniqlash va har bir joyda saqlanuvchi mahsulot zaxiralarini hisoblash kerak. Shu bilan birga muallif, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalarini o‘z ichiga olgan transport logistika infratuzilmasini alohida qayd etadi [2].

A.D. Chudakov logistika infratuzilmasi deganda moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchilarning ta‘minot zanjiri ishtirokchilari, tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar va mahsulot iste‘molchilarini tushunadi. Shu nuqtai-nazar-dan, logistika infratuzilmasida muallif logistikaning barcha sohalarini (quyi tizimlarini) o‘z ichiga olishini ta‘kidlaydi. Bular: moddiy-texnik ta‘minot, transport va saqlash, inventarizatsiyani boshqarish, marketing faoliyatidir [7].

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, bizningcha logistika aniq hisob-kitob qilish san‘ati, oqilona boshqarish tizimi infratuzilmasiga, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiruvchi, logistika faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan bino-inshoot, transport tizimlari, ishlab chiqarish ob‘ektlari, yuk tashuvlari, omborxonalar majmuasi deb ta‘rif berish mumkin.

Mamlakatimizda logistika tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayondagi muammolarni hal etish maqsadida rivojlangan mamlakatlarning logistika ko‘rsatkichlari indeksi, logistika markazlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tajribasini

tahlil qildik, qiyoslash, analiz, sintez usullari orqali ular faoliyatini rivojlantirish yoʻnalishlarini keltirdik.

## **NATIJALAR**

Jahon transport tarmoqlarining umumiy uzunligi dengiz yoʻllarini hisobga olmaganda 38 mln. kilometrda oshiqni tashkil etadi: avtomagistrallar - 26 mln. km; temiryoʻllar - 1,24 mln. km; quvurlar - 1,8 mln. km; havo yoʻllari - 9,6 mln. km; daryo yoʻllari - 0,57 mln.km. rivojlangan mamlakatlar transport tarmoqlarining uzunligi jahon transport tarmoqlari umumiy uzunligining 79 %ini tashkil etadi [4]. Barcha turdagi xizmatlarning jahon eksport va importida transport xizmatlari ulushi taxminan 25 % (5,5 trln. AQSh doll.)ni tashkil etadi. Jahon bozorida qiymat koʻrsatkichi boʻyicha transport-ekspedi-torlik xizmatlarini koʻrsatuvchilar faqatgina eng yirik tovar eksportchilaridan keyingi oʻrinda turadilar [5].

Logistik xizmatlar koʻrsatuvchilarning eng yirigi AQSh hisoblanadi. Ular 80-90 mlrd. AQSh dollarlik transport-ekspeditorlik xizmatlarini eksport qiladilar. Ammo 90-100 mlr. AQSh dollari miqdoridagi transportekspeditorlik xizmatlarini import ham qiladilar. Mazkur xizmatning eng yirik eksportchi-lariga Germaniya (25-26 mlrd. AQSh doll.), Yaponiya (40-45 mlrd. AQSh doll.) hamda Buyuk Britaniya, Gollandiya, Gongkong (22-28 mlrd. AQSh doll.), Koreya v.b (4). Logistik xizmatlarni import qilishda AQShdan keyingi oʻrinlarda Germaniya – 52 mlrd. AQSh doll. (7,56 %); Yaponiya – 42,3 mlrd. AQSh doll. (6,24 %i); Buyuk Britaniya – 35,8 mlrd. AQSh doll. (3,47 %i); Koreya Respublikasi – 29,9 mlrd. AQSh doll. (3,41%); Italiya – 22,6 mlrd. AQSh doll. (3,3%), Gollandiya – 16,6 mlrd. AQSh doll. (2,41 %) v.b [6].

Ushbu mamlakatlarning jahon bozorida transport xizmatlarini sotish va sotib olishdagi yetakchiligini ularning jahon tovar aylanmasi hamda xalqaro mehnat taqsimotidagi faol ishtiroki bilan izohlash mumkin. Maʼlumki, Oʻzbekistonda intermodal logistika xabida xizmat koʻrsatish jarayoni yil sayin takomillashib borayapti [9]. U Osiyoni Yevropa bilan bogʻlovchi asosiy avtomobil hamda temir yoʻl tarmoqlari chorrahasida, geografik jihatdan nihoyatda qulay nuqtada joylashganligi tufayli qisqa muddatda Markaziy Osiyodagi eng yirik yuk tranziti qoʻnalgʻasiga aylandi. Milan, Rim, Vena, Bryussel, Frankfurt, Incheon, Dubay, Xanoy, Tyanszin, Dehli, Mumbay kabi shaharlarning logistika markaz-lari bilan yaqindan hamkorlik oʻrnatilgani, 2020 yilda jami yuk tashuvlarining hajmi 1,3 mlrd. tonna (oʻtgan yilga nisbatan 104,6 foiz), yuk aylanmasi 40,1 mlrd. tonnani (101,8 foiz) tashkil etdi. Barcha transportda yoʻlovchi tashish hajmi 5,26 mlrd. yoʻlovchi (87,2 foiz), yoʻlovchi aylanmasi 116,96 mlrd. yoʻlovchi/km.ni (83,5 foiz) tashkil etdi.

Jami xalqaro yuk tashuvlari hajmi (eksport, import va tranzit) 46,9 mln. tonnani yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 108,5 foizni tashkil etdi. Eksport yuklari 13,2 mln. tonna (2019 yilga nisbatan 117,1 foiz), import 24,5 mln. tonna (102,4 foiz) va tranzit 9,07 mln. tonnani (114,7 foiz) tashkil etdi. Xalqaro tashuvlarda temir yoʻllari 39,5 mln. tonna (112,7 foiz), avtomobil 7,3 mln. tonna (90,3 foiz), aviatashuvlar 60,6 ming tonnani (138,9 foiz) tashkil etishi va uning yildan –yilga ortgani ana shundan dalolat beradi. Biroq, Iqtisodiy tadqiqotlar markazi mutaxassislarining tadqiqot-lariga koʻra, jumladan, mamlakatimiz avtomobil transporti operatorlari tomonidan koʻrsatilayotgan yuk tashish xizmatlari tannarxi tarkibi rivojlangan mamlakat-larning oʻxshash koʻrsatkichlaridan juda katta farq qilar ekan. Ayniqsa, tannarx tarkibida yonilgʻi, amortizatsiya xarajatlari, soliq va yigʻimlar ulushi bir necha marotaba yuqori boʻlib, ragʻbatlantirishning eng samarali vositasi hisoblanuvchi haydovchilar ish haqi ulushi 3 barobardan ham kamroq ekan [8].

**Yevropa Ittifoqi davlatlari va Oʻzbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuk tashish tannarxining tarkibiy tuzilishi[8-9-10]**

	<b>Xarajatlar nomi,</b>	<b>Oʻzbekiston, % da</b>	<b>Evropa Ittifoqi, % da</b>	<b>Evropa Ittifoqi davlat- larini Oʻzbekistonga nis-batan farqi, +;-</b>
	Tashish tannarxidagi ulushi	37 – 40	16 - 20	-19-20
	Yoqilgʻi moylash mate-riallari	2,0-2,5	2,0-3,0	-0,5
	Haydovchining ish haqi	15-16	52-55	+37+39
	Shina xarajatlari	2,0-2,5	1,0-1,1	-1,0-1,4
	Amortizatsiya ajratmalari	10-12	5-6	-5,0-6,0
	Soliq va yigʻimlar	6-7	1,0-2,0	-4,0-5,0
	Boshqa xarajatlar	20-21	16-17	-4,0

Quyidagi keltirilgan jadval maʼlumotlariga koʻra, tashish xarajatlarining asosiy moddalari transport vositalariga texnik xizmat koʻrsatish va yoqilgʻi moylash materiallari hisobiga toʻgʻri keladi. Respublika hududiy avtomobil transporti birlashmalarida ishlatilayotgan transport vositalarining eskirish darajasi ularning avtomobil transporti xizmati koʻrsatish bozoridagi raqo-batga bardosh bera olmasligining asosiy sabablaridan biri boʻlib qolmoqda.



Mamlakatimiz dengiz va okean portlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega emas. Shu munosabat bilan 1996 yil aprelda «TRASEKA» dasturiga muvofiq idoralararo ishchi guruhi tuzilib, bu guruh transport koridorlarini tashkil qilish va ularni umumlashtirish masalalarini hal qildi. Ulardan quyidagi transport koridorlari qurilishi amalga oshiriladi [9]:

- Tashkent – Ashgabad – Turkmanboshi porti – Baku porti.
- Almata - Toshkent - Istanbul avtomagistrali.
- Markaziy Osiyo mamlakatlari - Sharqiy Xitoyning portlaridan birigacha.
- Markaziy Osiyo mamlakatlari-Tedjen-Seraxs-Mashhad-Bandar Abbas porti.
- Markaziy Osiyo mamlakatlari - Eron Islom Respublikasi - Turkiya Istanbul porti.

Bugungi kunda xalqaro yuk tashuvlari bilan shugʻullanayotgan tashqi iqtiso-diy faoliyat qatnashchilari quyidagi transport koridorlaridan foydalanib kelmoqdalar:

1-yoʻlak – Boltiqboʻyi davlatlari portlari yoʻnalishida (tranzit bilan Qozogʻiston va Rossiya orqali) – Klaypeda (Litva), Riga, Liepaya, Ventspils (Latviya), Tallin (Estoniya);

2-yoʻlak – Belarus va Ukraina orqali (tranzit bilan Qozogʻiston va Rossiya orqali) - Chop (Ukraina) va Brest (Belarus) chegara oʻtishlari, keyinchalik Yevropaga;

3-yoʻlak – Ukrainaning Ilichevsk portiga (tranzit bilan Qozogʻiston va Rossiya orqali), Qora dengizga chiqish bilan;

4-yoʻlak – Gruziyaning Poti va Batumi portlariga (tranzit bilan Turkmaniston va Ozarbayjon orqali), Qora dengizga chiqish bilan, TRASEKA yoʻlagi deb nom olgan;

5-yoʻlak – Eronning Bandar-Abbos portiga (tranzit bilan Turkmaniston orqali) Fors koʻrfaziga chiqish bilan;

6 - yoʻlak – Sharqiy yoʻnalishda Xitoy orqali (tranzit bilan Qozogʻiston orqali) Sariq dengizga;

7- yoʻlak – sharqiy yoʻnalishda Uzoq Sharqning Naxodka va Vladivostok portlari orqali (tranzit bilan Qozogʻiston va Rossiya orqali) Sariq dengizga.

8-yoʻlak – Turkiya va Yevropaga (“Baku-Axalkalaki-Kars” yangi temir yoʻlida tranzit bilan Turkmaniston va Ozarbayjon orqali);

Hozirgi kunda yana quyidagi yoʻnalishlar rivojlantirilmoqda:

– Yevropa va Janubii-sharqiy Osiyo yoʻnalishida (Turkiyaning Mersin porti orqali tranzit bilan Turkmaniston va Eron orqali);

– Xitoy portlariga (tranzit bilan Qirgʻiziston orqali) Sariq, Sharqiy Xitoy va Janubiy-Xitoy dengizlariga chiqish bilan;

– Afgʻon muammosini tartibga solinishi munosabati bilan tranzit bilan Afgʻoniston orqali Eronning Bandar-Abbos va Chaxbahor portlariga chiqadigan janubiy muqobil transport yoʻlaklarini ishlab chiqish boʻyicha yangi istiqbollar ochilmoqda.

### **MUHOKAMA**

Ekspertlarning tahliliga koʻra, iqtisodiyotning oʻsish surʻatlari transport xizmatlari taraqqiyoti bilan uygʻun ravishda kechadi. Jumladan, yalpi ichki mahsulotning yiliga oʻrtacha 8 foizdan barqaror yuksalishi uchun yuk tashish hajmining oʻsishi 10 foizdan kam boʻlmasligi, transport tarmogʻiga yoʻnaltirila-digan investisiyalar miqdori esa oʻtgan yildagiga nisbatan 15 foizdan ziyodroqni tashkil qilishi lozim. Maʼlumki, mamlakatimizda mazkur sohaga har yili juda katta mablagʻ sarflanmoqda. Prezidentimizning “2015-2019 yillarda muhandis-lik-kommunikatsiya va yoʻl-transport infratuzilmasini rivojlantirish va moder-nizatsiya qilish dasturi toʻgʻrisida”gi qaroriga koʻra esa, umumiy qiymati 10 milliard dollarlik 150 dan ortiq loyiha amalga oshiriladi. Albatta, bunday ishlarning bajarilishi esa zamonaviy logistika tizimini hayotga yanada kengroq tatbiq etish, mavjudlarini tubdan takomillashtirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **XULOSA**

Transport-logistika xizmat koʻrsatish tizimi salohiyatidan samarali foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq qilinib, ularning raqobat salohiyatini oshirishning metodologik tamoyillari aniqlandi, ularda raqobat salohiyatining shakllanishi va jamlanma iqtisodiy salohiyatga taʼsiri mexanizmi ochib berildi. Shu bilan birga mamlakat transport-logistika tizimida avtomobil transportining oʻrni, transport xizmatlari koʻrsatish salohiyatining zamonaviy rivojlanish holati oʻrganildi, unga iqtisodiy baho berildi. Xususan, transport-logistika salohiyatini asosi sifatida resurslardan foydalanish darajasi tahlil etilib, qoʻshimcha oʻsish surʻatiga asosan ekstensiv oʻsish omili kuchliroq taʼsir etganligi qayd etildi. Bundan transport-logistika salohiyatini oshirish uchun intensiv omillarning mavjud zaxiralaridan toʻliq foydalanilmayotganligi aniqlandi.

Xulosani shakllantirish orqali transport - logistika xizmatlari samara-dorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirishni lozim deb hisobladik:

- transport-logistika tizimiga xorijiy va mahalliy investisiyalarni keng jalb qilish orqali mamlakatimizning barcha hududlarida zamonaviy logistika markazlarini barpo etish va ulardan samarali foydalanish borasidagi ishlarni jadal surʻatlarda davom ettirish koʻzlangan natijaga erishishni taʼminlaydi;

- mahalliy, eksport-import va tranzit tovar aylanmasini rivojlantirishga ko'maklashuvchi logistika markazlari tashkil etishni o'z ichiga oluvchi transport infratuzilmasi va xizmatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

- xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirish, logistika tizimini takomillashtirish, mamlakatning transport salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik sub'ektlarining logistika xizmatlari xarajatlarini kamaytirish chora-tadbirlarni amalga oshirish.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi - [http:// strategy. regulation. gov.uz/uz/document/2](http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2)

2. Бауэрсокс Д. Логистика. Интегрированная цепь поставок. — М.: -Бизнес, 2001.

3. Владимиров С.А. Мировая транспортная система и логистика: основные направления развития //Региональная экономика и управление: электронный научный журнал // Номер журнала: №2 (46), 2016

4. Желябин И.В. Доставка от двери до двери/ Бюллетень транспортной информации. 2011. № 5. с. 21. – URL: [http://www.dap.ane.ru/\\_PRIVATE/Fapo/htm](http://www.dap.ane.ru/_PRIVATE/Fapo/htm).

5. Зарькова А.Г. Как выбрать экспедитора//Международный бизнес в России 2010 г. №3. С.42

6. Зеленец М.В. Экспедирование грузов в транспортных компаниях/ Международный бизнес России. 2012 г. №3. С.39

7. Чудаков А.Д. Логистика. — М.: Рдл, 2001

8. Оптимизация транспортных расходов – важный фактор устойчивого развития экономики: проблемы и решения. Аналитический доклад Центра экономических исследований. –Т., No 09/2013, 49 с.

9. Urokboyevich, T. S. (2021). TURIZMNING MAMLAKAT IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 1128-1132. 10. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитасининг йиллик ҳисоботлари. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

### **REFERENCES**

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi - [http:// strategy. regulation. gov.uz/uz/document/2](http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2)

2. Bauersoks D. Logistika. Integrirovannaya sep postavok. — M.: -Biznes, 2001.
3. Vladimirov S.A. Mirovaya transportnaya sistema i logistika: osnovnie napravleniya razvitiya //Regionalnaya ekonomika i upravleniye: elektronniy nauchniy jurnal // Nomer jurnala: №2 (46), 2016
4. Jelyabin I.V. Dostavka ot dveri do dveri/ Byulleten transportnoy informatsii. 2011. № 5. s. 21. – URL: [http://www.dap.ane.ru/\\_PRIVATE/Fapo/htm](http://www.dap.ane.ru/_PRIVATE/Fapo/htm).
5. Zarkova A.G. Kak vibrat ekspeditora//Mejdunarodniy biznes v Rossii 2010 g. №3. S.42
6. Zelenes M.V. Ekspedirovaniye gruzov v transportnix kompaniyax/ Mejdunarodniy biznes Rossii. 2012 g. №3. S.39
7. Chudakov A.D. Logistika. — M.: Rdl, 2001
8. Optimizatsiya transportnix rasxodov – vajniy faktor ustoychivogo razvitiya ekonomiki: problemi i resheniya. Analiticheskiy doklad Sentra ekonomicheskix issledovaniy. –T., No 09/2013, 49 s.
9. Urokboyevich, T. S. (2021). TURIZMNING MAMLAKAT IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 1128-1132.
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining yillik hisobotlari. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

## **ПРИНЦИПЫ ПОСТРОЕНИЯ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ ОБМЕНА ИНФОРМАЦИЕЙ**

**Джаббаров Одил Джураевич**

Старший преподаватель Алмалыкского филиала ТГТУ

[odilxon455@gmail.com](mailto:odilxon455@gmail.com)

### **АННОТАЦИЯ**

*Статья посвящена основным направлениям развития структур УВС, зависимость методов организации обмена от характеристик потоков и объема вычислительных работ: исследуем ряд технических возможностей систем обмена информацией как в существующих и находящихся в эксплуатации, так и в разрабатываемых управляющих комплексах.*

***Ключевые слова:** система обмена информацией, хранение информации, регистры, центральный процессор, потеря информации.*

### **ABSTRACT**

*The article is devoted to the main directions of the development of HCS structures, the dependence of exchange organization methods on the characteristics of flows and the amount of computational work: we investigate a number of technical capabilities of information exchange systems both in existing and in operation, and in control systems being developed.*

***Key words:** information exchange system, information storage, registers, central processor, loss of information.*

### **ВВЕДЕНИЕ**

Развитие управляющих (УВС), шло по пути создания как узкоспециализированных цифровых структур, приспособленных для выполнения определенного круга частных задач, так и универсальных ВС. Специализированные УВС отличаются сравнительной простотой структуры и организации связи с внешними абонентами. Функции по первичной обработке информации и организации обмена с абонентами в них возлагаются на ВС. Опрос источников и выдача на приемники информации осуществляются обычно циклически в соответствии с частными характеристиками (рассчитывается на максимальную частоту работы абонента) датчиков управляемого оборудования и временными требованиями программы.

Представителями данного типа машин являются управляющие ВС, устанавливаемые на искусственных спутниках. Земли серии, цифровой

вычислительный комплекс и система. Типичная схема связи такой ВС с источниками информации показана.

Параллельные коды ПрК через коммутатор цифровой информации поступают на универсальный регистр Рг и в всю последовательные коды (ПсК), имеющие большие скорости поступления в процессор, накапливаются предварительно в счётчиках, служащих также для промежуточного хранения информации, а затем через цифровой коммутатор поступают на регистр ввода в ВС. Медленные ПсК могут поступать на регистр, минуя накапливающие счётчики. Следовательно, ВС из букв и слогов формирует сообщение об исследуемом (управляемом) процессе.

Аналоговые данные проходят через аналоговый коммутатор и преобразователь «аналог - цифра», а затем цифровой коммутатор на универсальный регистр.

## **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

Подобным образом осуществляется связь с выходными информационными каналами – приемниками. Цифровой коммутатор может быть как общим, так и отдельным. В последнем случае может быть два регистра связи: выходной.

Программа первичной обработки информации и обмена с источниками и приемниками хранится в долговременном запоминающем устройстве (ДЗУ) команд. Процессорный узел производит необходимые преобразования числовой информации (в том числе и первичную обработку) и осуществляет модификацию команд. Генерация же команд осуществляется обычно специальным счётчиком. Для обеспечения совмещенного режима работы арифметика – логических и запоминающих узлов между ними устанавливаются буферные накопители (регистры).

Многоцелевое использование подобных ВС на объектах с отличающимися друг от друга характеристиками требует изменение состава аппаратуры и следовательно, частичной, а иногда и полной, перестановки всего комплекса. Это можно объяснить тем, что большинство ВС данного класса не имеет технических средств, обеспечивающих эффективность обмена информацией. Вспомогательные аппаратные средства обмена здесь фактически решают лишь вопросы информационной (и технической) совместности элементов системы, то есть обеспечивают возможность обмена и являются устройствами сопряжения. К ним относятся различные преобразователи, коммутаторы, делители частоты, счётчики (формирователи  $\Delta h$  - приращений), регистры и т.д.

В первых вычислительных системах для обмена информацией применялось небольшое количество специальных команд, возможности которых по определению готовности абонентов к операциям обмена и проведению самого обмена данными были ограничены. Эти простые команды позволили составить лишь грубую программу фактически невозможно было составить. При обмена много времени тратилось на цикл ожидания, в течение которого многократно проводился опрос готовности канала связи к следующей передаче данных. Для составление эффективной программы обмена и вычислений необходимо было детально знать временные соотношения операций обмена и вычислений. Независимые программы обмена информацией с абонентами были не эффективны и приводили к большим потерям машинного времени.

Перечисленные трудности стали возрастать еще быстрее по мере увеличения сложности функций технологического оборудования, технических управляемых систем также военных и гражданских самолетов и космических кораблей , или контейнерных терминалов морских парашафтов и т.д. Это привело к увеличению количества самых разнообразных управляемых и контролируемых систем и, следовательно, к многообразию функций ВС по исполнению всё более сложных программ требующих высокой точности, быстрой реакции и обработки большого количества информации, поступающей от датчиков как бортового оборудования, расположенного на контейнероносах, погрузочно-разгрузочных средствах, так и наземных комплексов.

Для решения указанной проблемы в первую очередь стали освобождать центральный процессор от ряда функций по первичной обработке информации, возложив их на распределительно-преобразующие устройства , представителями которых являются селекторные и мультиплексные преобразователи. Они в большинстве случаев имеют собственные ЗУ для буферного хранения принятой информации. Это позволяет сглаживать неравномерности поступления информации и совместить операции обмена с вычислением. Для обмена большими массивами информации и для связи с высокоскоростными абонентами применяются селекторные каналы. Мультиплексные преобразователи используются для одновременного обслуживания в режиме разделения времени нескольких асинхронно работающих абонентов. В мультиплексном канале каждому абоненту может отводиться некоторая зона памяти. Запись и накопление информации производится до тех пор, пока не будет сформировано сообщение или

исчерпано емкость буферного ЗУ. Основными функциями этих преобразователей являются следующие:

1. Преобразование кодов принимаемой от источников информации в код центрального вычислительного устройства, процессора.
2. Прием информации по каналам связи от источников и передача по каналам связи приемникам.
3. Обеспечение определенной очередности обслуживания источников и приемников информации.
4. Устранение искажений принятых букв, формирование из них слов, сообщений и обратное разложение сообщений, поступающих из ВС и направляемых на приемники.
5. Хранение информации принятой от источников и процессора.

В общем случае передача информации из буферной в основную память и наоборот может осуществляться как по командам центрального процессора, так и по инициативе мультиплексного преобразователя. В первом случае информация переписывается из буферного накопителя (БН) в основную память машины программным путем без потери счёта при получении сигнала прерывания, оформленного системой прерывания и гарантирующего отсутствие переполнения накопителя. Это значит, что программа обмена рассчитывается на максимальную скорость поступления информации от источников, а поэтому ВС должна иметь достаточный запас по быстродействию. Такой принцип обмена данными с абонентами заложен в управляющей ВС. Второй способ позволяет производить перепись информации оптимальным образом в соответствии с реальными характеристиками потоков и с учётом создавшейся ситуации на управляемом объекте. В этом случае для предотвращения возможной потери накопленной информации из-за переполнения БН мультиплексный преобразователь может вырабатывать сигнал прерывания текущей программы ВС при заполнении зоны БН, отведенной для какого либо источника.

Наряду с простотой программы обмена информацией и возможным сокращением времени ожидания ВС на величину разности времён передачи информации из БН в основную память и передачи от абонентов в БН, описанные способы сопряжения тем не менее имеют ряд недостатков. Наиболее важными из них являются:

- а) возможная потеря информации в случае несвоевременной передачи из БН в ОЗУ;



б) увеличение числа прерываний основной программы ВС при малой ёмкости БН, а значит, и времени обмена, особенно при большом числе абонентов или высокой частоте поступления информации. Иначе можно сказать, что такой метод критичен к ёмкости зон памяти, отводимых отдельным абонентам;

в) загрузка программы ВС функциями управления обменом информацией.

В современных управляющих вычислительных системах применяют систему прерывания программы, являющуюся основой эффективного использования оборудования ВС. Система прерывания позволяет запускать программу обмена лишь тогда, когда абоненты и средства обмена действительно готовы к приёму или передаче информации. Отпала также необходимость в сложном распределении времени на вычисления и на операции обмена. Эти программы стали составляться оптимальным образом, независимо друг от друга. В блоке прерывания предусматривается приоритет обслуживания абонентов по их требованиям.

Так как общее время решения задачи  $T_p$  зависит от времени первичной обработки информации, поступающей от источников  $T_1$  и направляемой в приемники  $T_3$ , и времени реализации основного алгоритма  $T_2$ , то ее величине при условии, что функции по первичной обработке информации возлагается на ВС, будет равна сумме соответствующих времен:  $T_p = T_1 + T_2 + T_3$ ; причём в составляющие  $T_1$  и  $T_3$  входят затраты времени на ввод и вывод информации.

С ростом быстродействия ВС даже кратковременное прерывание их работы для обмена информацией стало неэкономичным. В связи с этим в более мощных бортовых и стационарных вычислительных комплексах стали применяться специализированные устройства обмена (ЦВМ обмена), выполняющие для центральных вычислительных устройств первичную обработку а также операции ввода и вывода данных и ряд других функций.

Существенное отличие данного метода обмена состоит в том, что здесь осуществляется гибкое программное управление сбором и выдачей информации, а реализация самой программы возлагается на специализированный процессор обмена.

Инициатором обмена информацией между СОИ и ВС может выступать как центральный, так и вспомогательный процессор, из вещающий о наличии готовых сообщений (сигнал поступает в блок приоритетов сигнал поступает в блок приоритетов  $P_2$ ). В последнем случае машина прерывает, если это необходимо, выполнение основной программы, выдаёт в систему опроса СОИ

(блок приоритетов  $P_2$ ) сигнал готовности и выходит на подпрограмму обмена информацией. Устройством обмена этот сигнал рассматривается как источник информации, имеющий свой приоритет. По окончании обмена микропрограмма, работающая с массивом данных, автоматически корректирует таблицу (регистр) состояния очередей, после чего ВС возвращается к команде, на которой она была прервана, и хранящейся в индексном регистре, а СОИ продолжает заниматься анализом поступившей информации и ее первичной обработкой. Информация между СОИ и ВС передается через буферный накопитель обмена (БО).

Описанный способ обмена информацией в управляющем комплексе позволяет освободить ВС от функций обмена данными с абонентами, возлагая их на автономные СОИ, и обеспечить возможность совмещения операций обмена информацией и первичной обработки с вычислениями в центральном процессоре. В этом случае время решения задачи будет находиться в следующем интервале:

$$\max(T_1 + T_3, T_2) \leq T_p \leq T_1 + T_2 + T_3.$$

Однако и данный метод сопряжения не лишен недостатка - это затраты времени на передачу информации между памятью ВС и памятью СОИ, которая выполняет либо функции буфера, либо является частью основной памяти ЭВМ, к которой процессор и СОИ имеют непосредственный доступ.

Центральному процессору приходится ожидать окончания обмена между буфером и ОЗУ, буфером (памятью) и абонентами, а также окончания перераспределения памяти при многомодульной структуре и автономном управлении. Избежать первой задержки можно введением дублирующего буфера, в котором накапливается информация от абонентов, когда первый буфер предоставлен для обмена с ЭВМ. Это ведет к значительному увеличению оборудования и усложнению алгоритма управления.

Высокая степень автоматизации процессов управления техническими системами, большой объем работ и обслуживание высокоскоростных абонентов требуют создания мощных вычислительных комплексов. Отсутствие возможности ремонта и замена вышедших из строя узлов ЭВМ в условиях агрессивных сред или космического полета представляют повышенные требования к надежности и программной устойчивости управляющих машин. Чтобы удовлетворить указанным требованиям к управляющим ВС, создаются многомашинные вычислительные комплексы и системы, применяются различные методы функционального контроля, резервирование, а также

организуется совместная работа нескольких машин. В многомашинных комплексах каждая ЭВМ может быть связана с другими общими информационными каналом, либо через общее оперативное запоминающее устройство (ОЗУ), что позволит в случае отказа одной из ЭВМ взять часть или все ее функции на себя другими машинами.

Здесь проблема обмена между ЭВМ и абонентами выражается в проблеме обмена между уровнями обработки информации. При такой организации вычислительной системы операционные узлы имеют непосредственный доступ к модулям памяти. Простой могут возникнуть лишь в случае обращения за информацией, обработанной на предыдущем этапе или при передаче ее на следующий уровень. Учитывая тот факт, что обмен информацией между уровнями обработки имеет всегда только одно направление, то эти простои можно свести к минимуму при выборе дисциплины обслуживания заявок некоторым уровнем, поступающих от других уровней обработки информации. Здесь также значительно сокращаются аппаратные затраты по сравнению с обменом, предусматривающим для каждого абонента отдельный буферный накопитель. Это достигается перераспределением памяти в процессе первичной обработки информации, размер зоны для абонента выбирается в соответствии с текущей интенсивностью потока требований. Кроме того, функциональная специализация предусматривает упрощение алгоритма сбора, первичной обработки информации и передачи данных.

Проведенный сравнительный анализа структур известных ВС и технических возможностей организаций обмена информацией в различных управляющих вычислительных комплексах позволил выделить основные принципы построения СОИ из некоторых частных, обусловленных спецификой определенных классов бортовых машин, и классифицировать управляющие ВС с позиции организации обмена информацией. В предполагаемой классификации управляющие комплексы объединяются в группы с явно выраженными характерными особенностями, определяемыми как иерархией связи между внешними и внутренними процессами, так и способом распределения заявок между процессорами.

## **ВЫВОДЫ**

Анализ организации обмена информацией в существующих и разрабатываемых отечественных и зарубежных УВС позволил выделить основные принципы оптимизации организации обмена информацией а именно:

- функциональная ориентация отдельных узлов вычислительной системы на выполнение операций определённых этапов обработки информации;
- рациональная организация связи между внешними абонентами и устройствами обработки поступающей информации;
- создание простых алгоритмов сбора и обработки данных, а также оптимальных стратегий распределения работ между ресурсами ВС, обеспечивающих построение иерархических процессов.

## **REFERENCES**

1. Мусаев М.У. , Иркабоев Ж. У. Джаббаров О.Дж., «Методы синтеза функциональных модулей управляющих вычислительных систем». г. Москва, Научный журнал «Universum» , № 4639, 25.09.2019.
2. Мусаев, М. У., Иркабаев, Д. У., & Джаббаров, О. Д. (2019). Методы оптимизации набора функциональных модулей вычислительных систем. *Universum: технические науки*, (10-1 (67)).
3. Djurayevich, D. O., & Doniyorovich, I. S. (2021). TEYLOR FORMULASI VA UNING TURLI MATEMATIK MASALALARGA QO'LLANILISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 774-779.
4. Djurayevich, D. O., & O'G'Li, A. A. A. (2021). O'RTA ARIFMETIK VA O'RTA GEOMETRIK TUSHUNCHAGA BOG'LIQ KETMA-KETLIKLAR LIMITI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1).

## **РЕАЛИЗАЦИЯ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ПЛОСКОСТИ И ПРОСТРАНСТВА**

**Умаралиева Д.У.**

Магистрант

Ташкентский государственный педагогический университет

Им. Низами

Ташкент, Узбекистан

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada "Tekislik va fazodagi almashtirishlar" mavzusini o'qitish o'quv jarayonini izchillik tamoyili asosida amalga oshirish ko'rib chiqilgan. Maktab darsliklarini geometriya fani bo'yicha tahlil qilishga va " tekislik va fazodagi almashtirishlar " mavzusini o'rganishingiz kerak bo'lgan asosiy yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratiladi. Izchillik tamoyilidan foydalanishning afzalliklari va bir qator jihatlari ham ochib berilgan. Yechimlari tekislik va fazodagi almashtirishlar o'rganish jarayonida izchillikni talab qiladigan muammolar keltirilgan.*

**Tayanch so'zlar:** vorislik, tekisliki va fazodagi almashtirishlar, akslantirish

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается процесс обучения в контексте принципа преемственности и его реализация в разделе преобразования плоскости и пространства. Особое внимание уделяется анализу школьных учебных пособий по предмету геометрия и основные направления, по которым нужно изучать тему «Геометрические преобразования плоскости и пространства». Также раскрываются преимущества и ряд аспектов использования принципа преемственности. Приводятся задачи, решение которых требует преемственность в процессе изучения преобразований плоскости и пространства.*

**Ключевые слова:** преемственность, преобразования плоскости и пространства, отображение

### **ABSTRACT**

*In this paper, we consider the school learning process in the context of the principle of continuity and its implementation in the section transformations of plane and space. Special attention is paid to the analysis of school textbooks on the subject of geometry and the main directions in which to study the topic "Geometric transformations of the plane and space". The advantages and a number of aspects of*

*using the continuity principle are also revealed. The problems that require continuity in the process of studying transformations of the plane and space are presented.*

**Keywords:** *continuity, transformations of the plane and space, display*

## **ВВЕДЕНИЕ**

В современной педагогической науке преемственность рассматривается как правильное соотношение и установление необходимой связи между частями изучаемой дисциплины на разных ступенях, которая осуществляется наряду с содержанием и логикой соответствующей науки и закономерностей процесса усвоения знаний. Она должна охватывать не только отдельные разделы предмета, но и отношения между ними. Это своеобразная опора на пройденное, в которой использование и дальнейшее развитие знаний, умений и навыков образуются разнообразные связи, раскрываются основные идеи предмета, взаимодействуют старые и новые знания, в результате чего у них образуется система прочных и глубоких знаний учащихся [1].

Преемственность обозначает также расширение и углубление знаний, осмысливание пройденного на новом более высоком уровне.

Уже в 8 классе учащиеся знакомятся с одним из видов преобразований плоскости – симметрией. Здесь дано общее определение симметрии, определения отдельных ее видов, таких как осевая симметрия и центральная симметрия, также их свойства на интуитивно наглядной основе. В формировании наглядных представлений об осевой и центральной симметрии, существенное значение имеет построение фигур, на которые отображаются данные фигуры.

В дальнейшем в курсе геометрии 9 класса выделяется два основных вида преобразования плоскости — это перемещения и преобразования подобия. При этом рассматриваются как некоторые общие свойства преобразований плоскости, так и свойства конкретных их видов.

В 10-11 классах учащиеся знакомятся с понятием отображения фигур и обратимым отображением плоскости на себя, т. е. преобразованием плоскости, а также с преобразованиями пространства, с некоторыми их общими свойствами. Все виды преобразований плоскости определяются на основе понятия отображения плоскости на себя. При этом происходит развитие и углубление изучения некоторых видов преобразований (центральная симметрия, осевая симметрия, вектор, гомотетия), а также появляются новые виды преобразований: симметрия относительно плоскости, вращение вокруг основания.

В школьном курсе математики, и геометрии 11 класса в частности, существует тема которая недостаточно проработана в методическом плане. На изучение этой темы массовая школа выделяет не более 3 часов в старших классах, и поэтому ни о каком подробном изучении преобразований пространства в массовой школе речи не идет.

Этот короткий обзор вопросов, связанных с изучением преобразований плоскости и пространства, показывает серьезные взаимосвязи, которые здесь имеются. При этом приходится решать как серьезные математические задачи (доказательство общих свойств преобразований, согласование определений отдельных видов преобразований и т. д.), так и важные методические задачи, связанные с изложением теоретического материала, о решении задач.

### **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

Особую трудность для учителей и учащихся представляет решение геометрических задач с использованием преобразований плоскости и пространства. При этом особое значение представляет преемственность в решении задач методом преобразования плоскости и пространства.

Преемственность в изучении преобразований плоскости и пространства требует решения следующих задач:

Согласование обеих определений преобразований на плоскости и в пространстве.

Установление общих свойств преобразований на плоскости и в пространстве.

Установление дополнительных свойств преобразований в пространстве.

Согласование определений отдельных видов преобразований.

Установление одинаковых свойств одноименных преобразований плоскости и пространства.

Установление отличительных свойств одноименных преобразований плоскости и пространства.

Установление аналогии в свойствах конкретных видов преобразований плоскости и пространства.

Практика построения учебников геометрии средней школы показала, что при изложении материала по геометрическим преобразованиям не содержится общего определения преобразований плоскости и пространства.

Анализ учебных пособий по геометрии под редакцией А.Н.Колмогорова и З.А.Скопеца, а также учебника по геометрии А.З.Погорелова показывает, что авторы придерживаются принципа преемственности в формулировках

определений осевой симметрии, параллельного переноса, гомотетии и вектора на плоскости и в пространстве. Авторы учебных пособия под редакцией А.И.Колмогорова и З.А.Скопеца не придерживаются принципа преемственности в формулировке определения центральной симметрии плоскости и пространства. [2],[3].

Определение симметрии относительно плоскости, данное в учебном пособии под редакцией З.А.Скопеца, аналогично определению осевой симметрии, данному в учебном пособии под редакцией А.Н.Колмогорова. В учебнике А.В.Погорелова такие определение симметрии относительно плоскости и осевой симметрии плоскости аналогичны. [3],[4].

## **ВЫВОДЫ**

Для поворота на плоскости нет одноименного преобразования в пространстве. Вместе с тем очень интересно рассмотреть взаимосвязи поворота на плоскости и вращения вокруг оси в пространстве. Изучение преобразования вращения вокруг оси не входит в обязательную программу для средней школы и потому для его рассмотрения в работе использовались различные источники.

Использование преемственности при изучении преобразований в курсе стереометрии будет способствовать лучшему усвоению курса геометрии. Кроме того, использование преемственности обеспечивает перенос знаний из одной области в другую и помогает найти способ решения стереометрических задач. Решение новых задач опирается на решение ранее решенных и методы решения новых задач находятся при помощи методов решения старых задач.

## **REFERENCES**

1. Скопец З.А., Хабиб Р.А. Преподавание геометрии в 9-10 классах. Сборник статей (1980)
2. Саранцев Г.И. Сборник задач на геометрические преобразования. Подобие плоскости в задачах. — М.: Просвещение, 1981. — 112 с.
3. Погорелов А.В. Геометрия: учеб. для 7-11кл. общеобразовательных учреждений / А.В. Погорелов. — М.: Просвещение, 2000. 383 с.
4. Колмогоров А.Н. Геометрические преобразования в школьном курсе геометрии // Математика в школе. — 1965. — №2. — С. 25-29.



## **XAVFSIZLIK MASALALARI, MUAMMOLARI VA ULARNING KELIB CHIQUISHI**

**Soliyev Orifjon**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Xalqaro huquq fakulteti  
magistranti,

e-mail: OrifjonSoliyev1007@gmail.com

### **ANNOTATSIYA**

*Maqola xavfsizlik tushunchalari, mohiyati, xalqaro xavfsizlik, xavfsizlik kategoriyalari, xavfsizlik subyektlari va obyekt, ularning hayotiy muhim manfaatlarini tahlil qiladi. Shuningdek, xavfsizlik subyektlarining manfaatlarini ta'minlash muammolari va ularning kelib chiqishi o'rganiladi.*

**Kalit so'zlar:** *xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik, milliy xavfsizlik, davlat xavfsizligi, tahdidlar, regionalizm, geopolitika, terrorizm, strategiya, globallashtirish.*

### **ABSTRACT**

*The article analyzes the concepts, essence of security, international security, security categories, security subjects and objects, including their vital interests. Also, the problems of ensuring the interests of security entities and their origins are studied in this article.*

**Key words:** *international security, regional security, national security, state security, threats, regionalism, geopolitics, terrorism, strategy, globalization.*

### **KIRISH**

Xavfsizlik kishilik jamiyati mavjudligining muhim sharti hisoblanadi. Normativ yoki moddiy nuqtai-nazardan u davlatlarning yuzaga kelishi, siyosiy partiyalar, xalqaro tashkilotlar va NNT (nodavlat notijorat tashkilot)lar tashkil topishida, shartnomalarning imzolanishi, qonunlar va konsepsiyalar qabul qilinishida, tahdidlarga qarshi kurashishning samarali uslub va vositalarini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Uni ishtirokchilar tomonidan ustuvor yo'nalish sifatida tan olingan va yo'naltiruvchi ijtimoiy munosabatlarning asosi, dastlabki sharti sifatida baholash mumkin. "Biz avvalo tub negizida "O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak" degan g'oya mujassam bo'lgan O'zbekistonning tinchlik va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy yo'lini izchil davom ettiramiz. Hozirgi o'ta notinch va murakkab zamonda bebaho boyligimiz bo'lgan tinch va osoyishta hayotni ko'z qorachig'idek saqlash, jamiyatimizda millatlar dinlararo hamjihatlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bizning eng muhim va ustuvor vazifamiz bo'lib

qoladi”<sup>74</sup> — deya ta’kidlaydi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev.

O’z navbatida, uning amaliy tomoni mazkur holatning nazariy jihatlarini belgilab beradi. Xavfsizlik nazariyasida tadqiq etilayotgan kategoriya asosiy tushuncha sifatida xizmat qiladi. U tadqiqot predmeti – ijtimoiy munosabatlar va huquqiy ta’sirning obyekt – xavfsizlik sohasini mohiyatini tushunish va talqin etishda boshlang’ich nuqta hisoblanadi. Xavfsizlik tushunchasining falsafiy-ijtimoiy va siyosiy-huquqiy mazmunini har tomonlama, chuqur tahlil etish xavf va tahdid, obyekt va subyekt, xavfsizlik sohasi va tizimi kabi tushunchalar tabiatini anglashda asos bo’lib xizmat qiladi.

### **MUHOKAMA NATIJALAR**

“Xavfsizlik” atamasi so’zning o’z o’zidan anglashilganda “biror bir xavfning mavjud emasligi”, “xavfdan himoyalanganlik” yoki “tinch holat” ma’nosi aks etadi.

“Xavfsizlik – muhim qadriyatlarning tahdidlardan himoyalanganlik holatidir”<sup>75</sup> – deb, ta’rif beradi V. N. Panin. Haqiqatdan ham, har qanday subyekt yoki obyekt doimiy mavjud bo’lishi uchun birlamchi muhim qadriyat bu – xavfsizlik va tinchlikdir.

Xavfsizlik tushunchasini yanada kengroq taxlil etadigan bo’lsak, uning mazmunini va mohiyatini shakllantiradigan so’zlarni ko’rib chiqish lozim. Xavfsizlik so’zining umumiy ma’nosida xavf, tahdid tushunchalari birinchi o’ringa chiqadi. “Xavf — inson, ijtimoiy guruh, jamiyat, davlat va jahon hamjamiyatiga ziyon yetkazishi, moddiy va ma’naviy qadriyatlarning buzilishi yoki inqirozining yuzaga kelishiga, taraqqiyot yo’lining berkilishiga olib kelishi mumkin bo’lgan ehtimoliy (yoki real) voqea, hodisa yoki jarayon. Xavf – bu biror-bir zarar yetkazish, ya’ni xavfsizlik obyektining strukturasi yoki boshqa xususiyatlarini o’zgartirish orqali uning bardoshlilik va raqobatbardoshlilik salohiyatini tushirish ehtimolidir”<sup>76</sup>.

Yuqoridagi tushunchada xavf ma’lum bir subyektlar va tuzilmalarning moddiy va ma’naviy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazadi, bu subyekt va tuzilmalar xavfsizlikning subyektiv kategoriyalarini tashkil etadi. Xavfsizlik asosida bu subyektlarning hayotiy muhim manfaatlarini yotadi.

<sup>74</sup> Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. “O’zbekiston”. NMIU, -2017. –B.19.

<sup>75</sup>Панин В. Н. Международная и региональная безопасность: некоторые теоретико-методологические аспекты исследования. –В.1.

<sup>76</sup>Bobokulov I. I. Xavfsizlik. Lug’at. - T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2011. – B.53 .

Tahdid – aniq reallikka aylanib borayotgan, lekin to'liq shakllanib ulgurmagan xavfsizlik obyektlari va subyektlariga moddiy va ma'naviy ko'rinishda zarar yetkazishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlardir.

“Tahdid deganda, inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashni chigallashtiruvchi hamda tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo'naltirilgan ijtimoiy strukturani, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, yemirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish mumkin”<sup>77</sup>. Bu fikrda tahdid muammoli bir vaziyat ya'ni aniq hozirda muqarrar mavjud bo'lgan holat sifatida tavsiflannoqda.

“Tahdid – xavfning aniq va bevosita shakli. Tahdid – xavfning eng oliy darajasi bo'lib, unda nafaqat yaqqol niyat, balki xavfsizlik obyektiga bevosita ziyon yetkazish qobiliyati va tayyorlik namoyon bo'ladi. Tahdid doimo aniq xarakter va mazmunga ega”<sup>78</sup>. Bundan ko'rinadiki, tahdid ma'lum bir xususiyatga ega va aniq ko'rinib turgan xavfning majmuyidir, u xavfsizlik obyektiga bevosita muomalaga kirishish orqali uning mavjud bo'lishiga zarar yetkazadi. Shuning uchun ham aksariyat holatlarda uning mazmuni aniq huquqiy tavsifga ega bo'lib, tegishli normativ-huquqiy aktlarda qayd etiladi, misol uchun, Jinoyat kodeksi moddalarida (agressiya, terrorizm, kontrabanda va sh.k.).

Xavf yoki tahdid - subyektning mavjudligi va faoliyati uchun yuzaga kelgan shart-sharoitlarni anglab yetishi bilan bog'liq hisdir. Hissiyotlar har doim ham xavfsizlik subyektini tomonidan obyektiv ya'ni, ishonchli va to'g'ri natijali anglab yetilmasligi mumkin. Shu sababli agar xavf va tahdidga jamiyatda mavjud bo'lgan ziddiyatlarning mahsuli sifatida qaralsa, xavfsizlikka rahna soluvchi tahdidlar bilan kurashda ularni keltirib chiqaruvchi sabablarning aniqlanishi muhimligi oldingi o'ringa chiqadi. Ularni aniqlab olmasdan va bartaraf etmasdan turib, xavfsizlikni samarali ta'minlash mumkin emas. Ziddiyatlar muqim holatda emas, balki ular turli ichki va tashqi omillar ta'sirida o'z mohiyati va yo'nalishlarini o'zgartirib turadi. Bunga misol esa AQSH va SSSR o'rtasidagi o'tgan asrdagi “Sovuq urush” yoki “Qurollanish poygasi”dir. Chunki, Sobiq Sovet davlati parchalangandan keyin siyosiy-harbiy sohada bo'shlig' yuzaga keldi.

Xavfsizlik atamasi dastavval harbiy fenomen sifatida yuzaga kelgan. “Xavfsizlikning an'anaviy konsepsiyasiga nisbatan tadqiqotchilar orasida «strategik tadqiqotlar» («strategic studies») yoki «xavfsizlikning an'anaviy tadqiqotlari»

<sup>77</sup>Toshbekova M. X. “Problem of Solving Ideological Threats in the Context Globalization” 5 th International emi entrepreneurship social sciences congress june 29-30. 2020/ Gostivar-N-Macedonia. 2020 www.emissc.org 226-234-бетлар 6 (8), 2020, e-ISSN 2658-5561

<sup>78</sup>Bobokulov I. I., Umarov X. P. Xavfsizlik asoslari. O'quv qo'llanmasi. – T.: JIDU, 2010. – B.32.

atamasi keng tarqaladi. Ekspertlar hamjamiyatida mazkur tushuncha haqida XX asrning 50-yillarida ilk bor xavfsizlikning *harbiy aspektlarini mujassam etgan tor kategoriya* sifatida gapirila boshlandi<sup>79</sup>. Ikkinchi jahon urushi va “Sovuq urush” ga qadar davlatlarning siyosiy-iqtisodiy ustunligi ularning harbiy qudrati va qo’l ostidagi hudud jihatdan bo’ysundirgan birliklar va koloniyalar bilan belgilanar edi. Davlatlar o’z hududlarini kengaytirish va ta’sir doirasiga kiradigan hududlarni ushlab turishda bevosita harbiy kuchga tayanar edi. Shunday qilib, mintaqaviy xavfsizlik gegemon davlatlarning o’z xoxish irodasiga ko’ra dunyoni geografik jihatdan bo’lib olgan hududlarida harbiy-chegaraviy kuchlar yordamida bevosita ta’minlanar edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin dunyoda asosan ikki kuch hukmronligi boshlandi. Bu kuchlar o’zining kapitalistik va sotsialistik g’oyalari asosida dunyoni ikki qutb sifatida shakllantirdi. Mazkur davr tadqiqotchilar tomonidan xavfsizlik sohasida “strategik tadqiqotlar”ning “oltin davri” sifatida baholanadi. Uning doirasida harbiy soha xavfsizlik muammolarini tadqiq etishning ustuvor yo’nalish, maxsus va umumiy harbiy kuch esa – milliy xavfsizlikni ta’minlashning yagona samarali vositasi (quroli) sifatida qaralgan. Shu bois, o’z g’oyalariga nisbatan “dushman timsoli” va harbiy tahdidning mavjudligi xavfsizlikning boshlang’ich elementi bo’lib xizmat qilgan. Nazariy va amaliy ma’noda xavfsizlik tahdidlarni boshqarish bilan uyg’un holda ko’rilgan. Bu davrda endilikda xavfsizlik subyektlari tizimida suveren davlat markaziy o’rin egallay boshladi. Bu o’rinda milliy xavfsizlik va davlat xavfsiligi markaziy o’ringa chiqadi.

Davlatning yoki mamlakatning xavfsizligi to’g’risida so’z yuritilganda olimlar fikrlari o’rtasida ko’plab qarama-qarshiliklar mavjud. Bunga sabab, davlat xavfsizligiga nisbatan qaysi atamani ko’proq mos kelishi va shunga mos uning faoliyati asosiy prinsiplarini belgilab olishdan iborat. Masalan, “milliy xavfsizlik” atamasi SSSR mafkurasi faoliyati uchun qarama-qarshi tushuncha edi. Chunki, “milliy xavfsizlik” – bu alohida olingan bir millatning xavfsizligini anglatib mohiyatan bir millatning manfaati ustunligi bilan xarakterlanadi. Bu esa o’z tarkibiga kirgan “xalqlarning tengligi” g’oyasini ilgari surgan Sobiq Sovet davlati uchun o’zining mafkuraviy prinsiplari buzilishiga olib kelardi. V. E. Chekanov SSSRdagi “milliy xavfsizlik” tushunchasi keng tarqalmaganligini ta’kidlaydi, chunki “bu tarixiy bosqichda “milliy” tushunchasi mutlaqo boshqacha mazmunga ega bo’lib, unga ko’ra, birinchi navbatda, har bir millatning o’ziga xos xususiyatlari va o’z hududida

<sup>79</sup> Bobokulov I. I., Umarov X. P. Xavfsizlik asoslari. O’quv qo’llanmasi. – T.: JIDU, 2010. – B.7.

yashovchi etnoslarning individual o'ziga xosligi anglatgan bo'lar edi"<sup>80</sup>. Ba'zi bir olimlar esa agar davlat tarkibida turli millatlar va elatlar birga umumiy rivojlanish g'oyalari ostida birlashib farovon hayot kechirishi natijasida yagona xalq darajasiga erishsa, bu holda "milliy xavfsizlik" tushunchasi o'zining mantiqiy tarkibiga "davlat" kontekstini qabul qilib yaxlit ma'noga ega bo'ladi degan fikrlarni ilgari suradilar. Bizning fikrimizcha, bu soha uchun "davlat xavfsizligi" atamasi mos va umumiydir. Bunga sabab — davlat yoki har qanday mamlakat manfaatlar mushtarakligi asosida turli xil millat va elatlardan tashkil topgan aholisi ya'ni – fuqarolardan iboratdir. Bu fikrlarni asoslar ekan P. G. Belov shunday mazmundagi argumentni ilgari suradi: "mavjud (milliy) xavfsizlik subyektlari tizimi – shaxs, jamiyat va davlat – "mavhum va mujmal, manfaatlar esa keskin ravishda individuallashtirilgan, o'ta subyektiv, ajratish murakkab, odatda, bir-biriga qarama-qarshi. Va, aksincha, o'z ichiga xalqlar, mamlakatlar, ularning hududlari va turmush tarzini qamrab olgan etnotizim aniq va o'ziga xosdir". Shuning uchun, xavfsizlikning asosiy obyekti normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan "shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari" emas, balki turmush tarzi va hududiga ega fuqarolar bo'lishi kerak"<sup>81</sup>.

Xavfsizlik va uni keltirib chiqaruvchi tushunchalarni ko'rib o'tdik. Endi xavfsizlikning turlari va darajalarini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, xavfsizlik turlari sifatida u qaysi subyektlar va birliklarning manfaatlarini himoya qilishi va ifoda etishiga qarab bo'lishimiz mumkin. Bundan kelib chiqadiki, xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qiladi. Demak, o'z o'zidan ko'rinib turibdiki, xavfsizlik turlariga shaxs xavfsizligi, jamiyat xavfsizligi va davlat xavfsizligi ko'rsatishimiz mumkin.

Shaxs xavfsizligi – shaxsning huquq va erkinliklarini amalga oshirilishini ta'minlovchi shart-sharoitlar majmui yoki shaxsning hayotiy muhim manfaatlarining himoyalanganlik holati sifatida ta'riflanadi. Shuningdek, doimiy barqaror tinchlik sharoitlarida o'z qonuniy huquq va erkinliklarini to'siqlarsiz yuzaga chiqarish faoliyatidir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va xavfsizlikka oid qonunchiligiga muvofiq, shaxsning huquq va erkinliklari uning hayotiy muhim manfaatlarini tashkil etadi.

<sup>80</sup> Чеканов В.Е. Некоторые проблемы законодательного обеспечения национальной безопасности Российской Федерации в современных условиях // ФСБ России. Правовое регулирование деятельности Федеральной службы безопасности по обеспечению национальной безопасности Российской Федерации : науч.-практ. комментарий / под ред. В.Н. Ушакова, И.Л. Трунова. – М., 2006, с. 212.

<sup>81</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/normativnoe-obespechenie-natsionalnoy-bezopasnosti-rossii-otsenka-sostoyaniya-i-priority-modernizatsii-chast-2>

Jamiyat xavfsizligi – jamiyatning ma’naviy va moddiy qadriyatlarini saqlanishini hamda muhofaza etilishini ta’minlovchi shart-sharoitlar majmuidir. Jamiyat xavfsizligi jamoat tashkilotlari, huquqiy normalar hamda tegishli shart-sharoitlarni shakllanishini kafolatlovchi taraqqiy topgan ijtimoiy ongini va ijtimoiy sherikchilikni taqazo etadi. Xavfsizlik subyektlari uchligida – shaxs, jamiyat va davlat – hamda ularning manfaatlari tizimida jamiyat xavfsizligi milliy xavfsizlikning nisbatan subyektiv-individual va asosan kollektiv elementi sifatida namoyon bo’ladi.

Davlat xavfsizligi to’g’risida gap ketganda esa, eng avvalo, O’zbekiston Respublikasi nuqtayi nazardan yondashadigan bo’lsak: “Davlat xavfsizligi — O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining, suverenitetining, hududiy yaxlitligining va boshqa davlat manfaatlarining tashqi hamda ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati bo’lib, u O’zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishini hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklari ro’yobga chiqarilishini ta’minlaydi”<sup>82</sup>.

Davlat xavfsizligi – ushbu atama ikki xil ma’no kasb etadi. Hozirgi zamon xavfsizlik tadqiqotlarida davlat xavfsizligi tor ma’noda, ya’ni milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida tushuniladi. Ushbu mazmunda davlat va uning xavfsizligi, shaxs va jamiyat xavfsizligi bilan bir qatorda, milliy xavfsizlikning asosiy uch elementidan biri sifatida belgilanadi hamda u suverenitet, hududiy yaxlitlik va konstitutsiyaviy tuzum (davlatning hayotiy muhim manfaatlarini)ning tashqi va ichki xavflardan himoyalanganlik holati sifatida ta’riflanadi. Keng ma’noda davlat xavfsizligi atamasi davlatning umumiy xavfsizligini anglatadi.

Xavfsizlik obyekti sifatida esa shu yuqorida sanab o’tilgan subyektlarning manfaatlar yig’indisi tushiniladi. Shaxs xavfsizligining obyekti uning asosiy manfaatlarini yuzaga chiqaruvchi huquq erkinliklaridir. Jamiyat xavfsizligi uchun obyekt sifatida jamiyatning birligi, barqarorligi va asosiy tan olingan moddiy-ma’naviy qadriyatlarini yig’indisi bo’lib xizmat qiladi. Davlat xavfsizligining obyekti sifatida uning konstitutsion tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va strategik ilgari surilgan manfaatlarini hisoblanadi. “Bu obyektlar konstitutsion normalarni yoki konkret mexanizmlashgan va realizatsiya qilingan normalarning uch subyektning qaysi manfaatlarini chegaralanishi kesimida sun’iy ravishda ajratib olinishi mumkin”<sup>83</sup> —

<sup>82</sup>“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI TO‘G‘RISIDA”GI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI/4-modda/ <https://www.lex.uz/docs/-3610935>

<sup>83</sup> РОГОВ АЛЕКСАНДР СЕРГЕЕВИЧ, ФЕДОТОВА ЮЛИЯ ГРИГОРЬЕВНА “ГОСУДАРСТВЕННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ: ЭЛЕМЕНТ ИЛИ СОДЕРЖАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ”. Учредители: Редакция журнала "Власть" (Москва). ISSN: 2071-5358eISSN: 2071-5366<https://elibrary.ru/item.asp?id=21026027>

deya, Aleksandr Rogov va Yuliya Fedotova “Davlat xavfsizligi: Rossiya Federatsiyasining milliy xavfsizligining elementlari va tarkibi” nomli maqolalarida ta’kidlab o’tadilar.

Xavfsizlik darajasi – xavfsizlikning mustaqil iyerarxik drajalanishi bo’lib, u ko’proq xavfsizlikning alohida ta’sir doirasini va ma’lum bir ketma-ketligini tashkil etadi. Bundan kelib chiqib, o’ziga xos guruhni tashkil etuvchi milliy (mahalliy), mintaqaviy (submintaqaviy), xalqaro va global xavfsizlik darajalariga bo’linadi. Xavfsizlikning har bir darajasi barqaror, ahamiyatli hamda mohiyatan mustaqil bo’lgan xavfsizlik muammolariga ega. Xavfsizlik dinamikasi, ya’ni muayyan xavfsizlik darajasi doirasidagi rivojlanish va o’zgarish, ular uchun xususiyatli bo’lgan omillar ta’sir ostida yuz beradi. Biroq, nisbatan alohidalik boshqa xavfsizlik darajalaridan mutlaq mustaqil yoki ajratilganlikni anglatmaydi. Xavfsizlik – bir-biriga bog’liq zanjirlashgan hodisadir, ya’ni muayyan bir davlatning xavfsizligi mintaqaviy yoki xalqaro xavfsizlikdan ayri holda tushunilishi va samarali ta’min etilishi mumkin emas. Bu esa, ularning har biri manfaatlariga oid bo’lgan umumiy tuzilmalar asosida uyg’unlashishiga olib keladi. Bunga misol tariqasida yuridik fanlar doktori, professor I. I. Bobokulov shunday asoslaydi: “Xavfsizlik darajalari markazida universal tashkilot – BMT bo’lgan xavfsizlikning umumiy tizimini shakllantiradi”<sup>84</sup>. Xuddi shunday fikrni olim V. P. Panin ham keltirib o’tadi: “hozirgi zamon sharoitida umumiy xalqaro xavfsizlikni ta’minlovchi institutlarni aytib o’tganda eng avvalo – BMT oldingi o’rinda eslab o’tiladi”<sup>85</sup>. Haqiqatda ham milliy va davlat xavfsizligi uning ichki xavfsizlik shuningdek, muhofaza qiluvchi organlarining hamkorligi, strategik, ilmiy, taktik amaliyoti asosida xavfsizlik ta’minlansa, mintaqaviy darajada esa, avvalo hududiy-chegaraviy qo’shni davlatlar va mintaqaviy tashkilotlar amaliyoti muhim hisoblanadi. Xalqaro xavfsizlikda esa, davlatlar va asosan xalqaro tashkilotlar faoliyati oldingi o’ringa chiqadi.

Bu esa, mintaqaviy xavfsizlikka tahdid va tahdidlarni aniqlash va ularni yo’q qilish konseptual poydevorini asoslashga bag’ishlangan faoliyatni talab etadi. Shu bilan birga, tahlilning ko’p o’lchovli xususiyatini ta’kidlash muhim, chunki mintaqaviy xavfsizlikning tendensiyalari va tahdidlarining harbiy, geosiyosiy va boshqa xususiyatlari hisobga olinadi. Bu yo’nalishda xavfsizlikni ta’minlashda asosiy kategoriyalar tahlil etilganda, mintaq, mintaqaviylashuv, regionalizm, mintaqaviy

<sup>84</sup>Bobokulov I. I., Umarov X. P. Xavfsizlik asoslari. O’quv qo’llanmasi. – T.: JIDU, 2010. – B.29.

<sup>85</sup>Панин В. Н. Международная и региональная безопасность: некоторые теоретико-методологические аспекты исследования. -С.4.

xavfsizlik, xavfsizlikning mintaqaviylashuvi kabi masalalar va ularning xususiyatlari ko'rib chiqilishi muhimdir.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, xavfsizlik – xavfsizlik subyekti manfaatlarining bevosita hech qanday to'siqlar va tahdidlarsiz ta'minlanish jarayonidir. Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizlik tizimi juda murakkab hodisa bo'lib unda uch toifa faktorlar muhim rol o'ynaydi. Dastlab, asosiy kuchni o'zida jamlovchi hali to'liq anglab yetilmagan ichki faktor muhim o'rin tutadi, chunki mintaqada davlatlari xavfsizligi qo'shni davlatlar xavfsizligi demakdir. Zanjir nazariyasi mohiyatidan kelib chiqilsa, mintaqada davlatlari hududlarida yechilishi mumkin bo'lgan ichki faktorlar yig'ilib chegaralaridan tashqariga chiqishi natijasida ikkinchi toifa ya'ni mintaqaviy faktorni ya'ni o'zaro ishonchni mustahkamlash orqali va chegara masalalarini hal etilishi orqali ta'minlanishini taqozo etadi.

### **REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh. M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. “O'zbekiston”. NMIU, -2017. –B.490.
2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XAVFSIZLIK XIZMATI TO‘G‘RISIDA”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. <https://www.lex.uz/docs/-3610935>
3. Bobokulov I. I., Umarov X. P. Xavfsizlik asoslari. O'quv qo'llanmasi. – T.: JIDU, 2010. – B.179.
4. Bobokulov I. I. Xavfsizlik. Lug'at. - T.: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, 2011. – B.147.
5. Toshbekova M. X. “Problem of Solving Ideological Threats in the Context Globalization” 5 th International emi entrepreneurship social sciences congress june 29-30. 2020/ Gostivar-N-Macedonia. 2020 [www.emissc.org](http://www.emissc.org)
6. Панин В. Н. Международная и региональная безопасность: некоторые теоретико-методологические аспекты исследования. –В.6.
7. Чеканов В.Е. Некоторые проблемы законодательного обеспечения национальной безопасности Российской Федерации в современных условиях // ФСБ России. Правовое регулирование деятельности Федеральной службы безопасности по обеспечению национальной безопасности Российской Федерации : науч.-практ. комментарий / под ред. В.Н. Ушакова, И.Л. Трунова. – М., 2006, с. 591.
8. <https://cyberleninka.ru>
9. <https://elibrary.ru>



## **ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY PSIXOLOGIZM TUSHUNCHASI VA MASALANING TARIXI**

**Abdullaeva Dilafruz Suratillaevna**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, tayanch doktorant

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada bugungi adabiyotshunoslikda dolzarb bo'lgan masalalardan biri – badiiy psixologizm tushunchasi hamda ushbu masalaning tarixi borasida fikr yuritilgan. Badiiy psixologizmning adabiyotshunoslik ilmiga kirib kelishi, bu sohada amalga oshirilgan ilk tadqiqotlar, rus va o'zbek adabiyotshunos olimlarining nazariy qarashlariga alohida to'xtab o'tilgan hamda badiiy psixologizm va psixologik tahlil terminlariga munosabat bildirilgan. Shuningdek, badiiy psixologizmning analitik, dinamik va tipologik prinsiplari va ularning adabiy turlar hamda janrlar kesimidagi o'rni tahlil etilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *badiiy psixologizm, badiiy obraz, ruhiyat, psixologik tahlil, psixoanaliz, analitik prinsip, dinamik prinsip, tipologik prinsip, epos, lirika, drama.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается один из актуальных вопросов современной литературы - концепция художественной психологии и история вопроса, введение художественной психологии в изучение литературы, первые исследования в этой области, теоретические взгляды русских и узбекских литературоведов, трактовка терминов «художественная психология» и «психологический анализ». Также анализируются аналитические, динамические и типологические принципы художественной психологии и их место в литературных типах и жанрах.*

**Ключевые слова:** *художественный психологизм, художественный образ, психологический анализ, психоанализ, аналитический принцип, динамический принцип, типологический принцип, эпос, лирика, драма.*

### **ABSTRACT**

*The article examines one of the most pressing issues of modern literature - the concept of artistic psychology and the history of the issue. The introduction of artistic psychology into the study of literature, the first studies in this area, the theoretical views of Russian and Uzbek literary scholars, the interpretation of the terms “artistic psychology” and “psychological analysis”. He also analyzes the analytical, dynamic and typological principles of art psychology and their place in literary types and genres.*

*Key words: artistic psychologism, artistic image, psychological analysis, psychoanalysis, analytical principle, dynamic principle, typological principle, epic, lyrics, drama.*

## **KIRISH**

Badiiy asar – ijodkor tafakkuri mahsuli bo‘lib, unda inson va jamiyat hayoti, uning taqdir yo‘li va qismati o‘z tasvirini topadi. Har bir badiiy asarda hayotimizda sodir bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqea-xodisalar muallif tomonidan o‘quvchi-kitobxoniga badiiylik qonuniyatlariga asoslanib yetkazilar ekan, mazkur badiiylik qonuniyatlari turli davrlarda sayqallanib, an'anaviylik va novatorlik orasida muntazam shakllanishda davom etadi. Badiiy asarlarda ko‘tarilayotgan muammolar, o‘quvchi e‘tiboriga va xukmiga havola qilinayotgan masalalar – badiiy asar mavzusi va mazmuni bevosita asar yaratilgan davr ijtimoiy muhiti bilan chambarchas bog‘liqdir. Ma‘lum bir davr va uning vakillari haqida qiziqarli va muhim voqealarni to‘xtovsiz so‘zlash mumkin, ammo voqealarning shunchaki bayoni badiiy asar darajasiga ko‘tarilishi uchun ijodkor turli badiiy tasvir vositalaridan foydalangan xolda voqealar bayonini san‘at asari darajasiga olib chiqadi. Asardagi badiiy obraz xarakterini chuqur va to‘liq ochib berishda muallif badiiy tasvir vositalari bilan qatorda psixologik tasvir vositalaridan ham foydalandi. Asarda muallif tomonidan qahramon ichki dunyosiga chuqur kirib borish, obraz ruhiy olamining batafsil tavsifi, qalb kechinmalarining tasviri – “badiiy psixologizm” deb yuritiladi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Psixologizm atamasi psixologik tahlil, psixologik tasvir, psixologik obraz, psixologik roman, psixologik hikoya va psixologiya kabi atamalar bilan bog‘liq. A. B. Yesin ta‘biri bilan aytganda, badiiy psixologizm – bu asar personajining hayot olami, fikrlari, mulohazalarining o‘ziga xos badiiy vositalardan foydalangan xolda juda to‘liq, batafsil va chuqur ifodalab berish [7].

Rus adabiyotshunoslik ilmida ruhiyat mavzusida birinchilardan bo‘lib tadqiqot olib borgan N.G. Chernishevskiy psixologik tahlil xilma-xil bo‘lishi mumkin deydi va bir muallif xarakter qirralarini ochib berishga urinsa, boshqasi – xarakter shakllanishiga jamiyat va turmush ta‘sirini ko‘rsatib beradi; uchinchi – xatti-harakatlarning his-tuyg‘ular bilan aloqadorligini; to‘rtinchi – ehtiroslar tahlili tasvirlaydi [5].

Rus adabiyotshunosligiga psixologizm tushunchasi qariyb ikki yuz yil avval kirib ketgan bo‘lsa, bu muammoni ilm dunyosiga olimlar A.A. Potebney, D.N. Ovsyaniko-Kulikovskiy olib kirgan, adabiyotshunoslikda M.M. Baxtin, JI.Ya.

Ginzburg, A.B. Yesin, D.S. Lixachev, psixologiya fanida esa L.S. Vigotskiy, I.V. Straxoviy, G.G. Granik, O.V. Soboleva tomonidan chuqur tadqiq qilingan.

Adabiyotda psixologizmning rivojlanish tarixini tavsiflab, adabiyotshunos olim L.Ya.Ginzburg “mavjud adabiy janrlarda psixologik yangiliklar endigina nish urayotgan bir vaqtda, badiiy adabiyotning yondosh janrlari bo‘lmish – rasoil, kundaliklar, memuarlar va avtobiografik janrlarda psixologizm allakachon o‘rnashib bo‘lgan edi” deb yozadi[1, 29].

O‘z o‘rnida psixologizm atamasi turlicha ta’riflarga ega. Rus adabiyotshunolik terminlari qomusida “Psixologizm (adabiyotda) – qahramonlar ichki olami: ularning o‘y-xayollari, orzu-umidlari, iztiroblarining chuqur va batafsil tasviri”[2] . L.Ya.Ginzburg esa “... ko‘ngil olami ziddiyatlarining chuqur tadqiqi” deya ta’riflansa, A.B. Yesin psixologizmni keng va tor ma’nolari mavjud ekanligiga to‘xtalib o‘tadi – keng ma’noda inson hayotini tarannum etuvchi va xarakterini tasvirlab beruvchi barcha san’at turlarining xususiyati tushunilsa, tor ma’noda esa inson ichki olamidagi hayot va jarayonlarning tasviri deyiladi [3, 10].

O‘zbek adabiyotshunos olimlari tomonidan tuzilgan adabiyotshunoslik terminlari lug‘atida badiiy psixologizm atamasiga “badiiy asarda to‘laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so‘zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jamlanmasi” [4, 48] deya ta’rif berilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida badiiy psixologizm masalasi ilmiy maydonga o‘tgan asrning o‘rtalarida kirib kelib, Milliy adabiyotshunosligimizda bu atama sintez bo‘lgan holda o‘zining ruhiyat (psixologizm), ruhiyat tasviri (psixologik tasvir), ruhiyat talqini (psixologik talqin), ruhiyat tahlili (psixologik tahlili)- kabi nomlariga ega bo‘ldi. “Ruhiyat” atamasining “psixologizm” (yun. psyche – qalb; logos – o‘rganmoq) termini bilan sinonim sifatida qo‘llanilishini joiz deyish mumkin, sababi 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” [6]da ruhga – “jon”, ruhiyatga esa – “jonning holati”, deya izoh berilgan. Bu izoh albatta adabiy termin uchun nomukammal bo‘lsada, ammo ma’no jihatdan ikkila termin ham bir mazmuni beradi.

O‘zbek adabiyotshunos olimlari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab badiiy psixologizm va psixologik tahlil masalasiga bag‘ishlangan izlanishlar olib bordilar. Jumladan, A.Rasulovning “Xarakter molodeji v sovremennix uzbekskix sovetkix povestyax” , N.Shodievning “Abdulla Qahhorning asarlarida psixologik tahlil mahorati” , N.Yuldashevning “Problemi psixologicheskogo analiza v uzbekskoy proze (Vnutrenniy monolog v romanax A.Kadiri, Aybeka, A.Kaxxara, A.Yakubova) nomzodli dissertatsiyalari, X.Umurovning “O‘zbek romanlarida ruhiy tahlil

muammosi” doktorlik dissertasiyasi , A.Xolmurodovning “Odil Yoqubov romanlarida psixologizm” , P.Kenjaevaning “Hozirgi o‘zbek hikoyalarida qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari” nomzodlik dissertasiyasi hamda monografiyasida , M.Boboxonovning “Hozirgi o‘zbek qissachiligida badiiy psixologizm” nomzodlik dissertasiyasida, M.Sheralievning “Hozirgi o‘zbek nasrida kinoya (ijtimoiy-psixologik omillari, poetik tizimdagi o‘rni)” , Yu.Eshmatovning “Istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini , Sh.Botirovaning “Hozirgi o‘zbek romanlarida badiiy psixologizm (Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar” romanlari misolida) filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissersiyalarida badiiy psixologizm va psixologik tahlil masalalarini turli aspektlarini tadqiq etgan bo‘lsalar, M.Kilichevaning “Ingliz va o‘zbek adabiyotida psixologik holatlar talqinida adabiy ta'sir muammosi (yolg‘izlik motivi misolida)” , N.Qobilovning “Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissersiyalarida badiiy psixologizm va ruhiyat mavzularida qiyosiy tadqiqot olib borganlar.

Garchi, o‘zbek adabiyotshunosligi ilmiy davralarida psixologizm hamda ruhiyat bilan bog‘liq tushunchalar XX asrning o‘rtalarida e’tirof etila boshlagan bo‘lsada, shaxs ruhiyati talqini va tahlili Sharq mumtoz adabiyoti vakillari ijodida ham yetakchi o‘rinni egallagan. Birgina o‘zbek adabiyotining o‘zida Alisher Navoiy tomonidan epik dostonlarda, lirik asarlarda inson ruhiyatining qavat-qavat sirlari ochilgani, Sharqning buyuk shoiri tomonidan badiiy psixologizmning xilma-xil usul va vositalari qo‘llangani ham haqiqat [8, 63-81; 9, 128-130]

Ammo, ayrim adabiyotshunos olimlarning fikriga ko‘ra, adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm masalasi xali-xanuz to‘liq nazariy asoslab berilmagan va “adabiyotshunoslik ilmida semantik jihatdan yetarli darajada aniq emas” [10, 6].

Adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalarda badiiy psixologizmning uchta asosiy prinsiplari – dinamik prinsip, analitik prinsip va tipologik prinsip ajratib ko‘rsatiladi. Dinamik prinsipda qahramon ruhiyati uning xatti-harakatlari, mimika va qiliklari, turli hayotiy vaziyatlarda o‘zini tutishi va gap-so‘zlari orqali ifodalab beriladi, “mohiyatan bu dramatik asar personajlari ruhiyatini ochish usuliga o‘xshash, shu boisdan dinamik prinsip ba’zan psixologik tahlilning dramaturgik uchuli deb ta’riflanadi [4, 49]. Tipologik prinsipda obraz ruhiyati uni shakllantirgan va qurshab turgan muhit shart-sharoitlari bilan bog‘lab tasvirlab beriladi. Analitik prinsipda qahramon ichki kechinmalari, qalbidagi his-tuyg‘ulari, tafakkur va mulohazasi, o‘y-fikrlari dinamikasi tasvirlanadi. “Bunda bir hisdan boshqa his, bir o‘ydan boshqa fikr

o'sib chiqadi, ular bir-birini to'ldiradi, sifat jihatidan o'zgartiradi" [4, 49]. Bu shakl personajlar taqdiri va tafakkurida keskin burilishlarni ko'rsatib berishga imkon beradi, shu sababli ham ayrim tadqiqotchilar "qalb dialektikasi" shakli deb ham ataydilar.

Ta'kidlab o'tish joizki, muallif badiiy obraz xarakteri va uning ruhiyatini ochib berishda yuqorida zikr etilgan uchchala shakldan birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda foydalanishi mumkin. Bunda prinsiplardan biri yetakchi bo'lsa, qolgan ikkitasi uni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Umumman olganda, badiiy psixologizmga oid tadqiqotlarda "xarakter" tushunchasi yetakchi o'rinni egallaydi. Sababi, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar adabiyotshunoslik ilmiga oid bo'lsada, bir tomondan ruhiyatshunoslik ilmi bilan bevosita bog'liq bo'lib, mazkur ikki soha kesishmasiga asoslanadi. Bu esa o'z navbatida "xarakter" tushunchasini ham adabiyotshunoslik, ham ruhiyatshunoslik nuqtai nazaridan aniqlashtirib olishni taqazo etadi.

Adabiyotshunoslik terminlar lug'atida "xarakter" (yun. character – belgi, farqlovchi xususiyat) tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan – "muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un mujassam etgan inson obrazi" [4, 352]. Rus olimlari taqdim etgan adabiyotshunoslik terminlari ensiklopediyasida esa xarakter atamasiga ta'rif berib, uni quyidagicha toifalarga ajratib kursatadi – "xarakter bu adabiyotda va san'atda obrazning aniqligidir: ijtimoiy, milliy, maishiy, psixologik. Agar tip bu – umumiylikni individuallikda ko'rsatib berish bo'lsa, xarakter – eng avvalo individuallikni namoyon qiladi" [2].

Yuqoridagi ta'riflarning ikkisi ham xarakterning ruhiyatshunoslik nuqtai nazarini ta'kidlamogda; ruhiyatshunoslik lug'atlarida xarakter – "shaxsning xatti-harakati va atrof muhitga munosabatida namoyon bo'ladigan individual xususiyati [11]" deya ta'riflanadi. Rus ruhiyatshunoslik ilmi darg'asi S. JI. Rubinshteyn "Xarakter haqida gapirganda, u odatda shaxsning barcha ko'rinishlarida ma'lum bir iz qoldiradigan va unga dunyoga, avvalambor, boshqa odamlarga nisbatan o'ziga xos munosabatini bildiradigan xususiyatlar jamlanmasini anglatadi [12]" deb ta'rif beradi va "shaxsning ichki xususiyatlari" deya terminga yanada aniqlik kiritadi. Shunday qilib, ruhiyatshunoslik fani shaxs axloqiy asosining xarakter shakllanishidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Badiiy adabiyotda asarning g'oyaviy-estetik ahamiyatini personajlar xarakteri ochib bersa, personaj xarakterining yozuvchi tomonidan ochib berilishi psixologik tahlil vositasi hisoblanadi. Badiiy asarda asosiy urg'u qahramon ichki olami, botiniy hayoti, o'y-kechinmalariga qaratilmagan bo'lsa, u xolda har qanday obraz xarakteri xam badiiy psixologizm namunasi bo'la olmaydi. Chunki, "psixologizm – adabiy asar badiiyatining asosiy, ammo yagona bo'lmagan mezon

[13]” hisoblanib, “psixologizm – agar badiiy asar uchun botinan zarur bo‘lsagina, u asarning yutug‘i bo‘la oladi [3]”.

Yozuvchi personaj xarakterini yaratish ekan, uni ruhiyatini bevosita yoki bilvosita ochib berishi mumkin. Personaj uy-kechinmalari, his-tuygularining "ichki monolog", "ong oqimi" tarzida yoki muallif tilidan (o‘ziniki bulmagan avtor gapi) bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli xisoblanadi. Asarda personaj ruhiyatining uning xatti-xarakatlari, gap-so‘zlari, yuz-ko‘z ifodalari (mimikasi), undagi fiziologik o‘zgarishlarni ko‘rsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir. Ruxiy tasvirning bu ikki ko‘rinishi bir-birini to‘ldiradi, shu bois ham muayyan personaj ruhiyatini tasvirlashda yozuvchi bularning har ikkisidan ham o‘rni bilan unumli foydalanadi [14, 67].

Badiiy psixologizm tushunchasi bilan psixologik tahlil yoki psixologik tasvir kabi tushunchalarning o‘zaro aloqasi bor-ki, olimlar va tadqiqotchilar o‘rtasida baxsli xolatlarni yuzaga keltiradi. Ammo bu savollar nazariy jihatdan bugunga qadar ochiq qolmoqda – ayrim tadqiqotchilar bu terminlarga aniqlik kiritsalar, boshqa guruh olimlar bu nazariyani chetlab o‘tishga harakat qiladi.

Psixologizm – Abdulla Qahhor tili bilan aytganda “Yozuvchi mahoratining muhim jihatidir”. Bunda yozuvchi qahramon ichki dunyosini, psixologiyasini o‘z uslubi orqali ochib beradi. Unda yozuvchi ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, gallyusinasiya, tush kabi psixologik tasvir vositalaridan foydalanib, qahramon ichki olamini ochib beradi. Bunda yozuvchi qahramon tashqi dunyoga faqatgina ichki dunyosini yoritib berish uchungina murojaat qiladi. O‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidida “psixologizm” va “psixologik tahlil” terminlari farqlanmay ishlatiladi. Ammo bu ikki termini bir ma’noda qo‘llash noo‘rindir, deya e’tirof etadi professor H.Umurov, – Psixologizm “psixologik tahlil” tushunchasiga nisbatan keng bo‘lib, u o‘zida bevosita avtorning psixologiyasini qamrab oladi. U adabiyotning o‘ziga xos qonuniy hodisasi bo‘lib, yozuvchining xohishiga bog‘liq bo‘lmagan holda namoyon bo‘ladi. “Psixologik tahlil” esa, inson psixikasi jarayonlarini, uning fikr va hissiyotidagi turlituman “ohang”lar rivojini aks ettiruvchi, qahramon ruhiy dunyosini analitik prinsipda ochuvchi estetik kategoriyadir. Shuningdek, psixologizmga nisbatan psixologik tahlil o‘zining ichki monolog, o‘ziniki bo‘lmagan nutq, psixologik portret, ikki syujetli diolog kabi aniq belgilariga ega. Shunday qilib, psixologizm adabiyotning qonuniy badiiy hodisasi, psixologik tahlil esa ana shu qonuniy badiiy hodisaning murakkab ko‘rinishi (kategoriyasi)dir. Bundan tashqari, yuqoridagi terminlarning o‘zbekcha variantlari ham ko‘p bo‘lib, ularning hammasi ham bir xil ma’noda qo‘llanadi. Masalan,

“Adabiyot nazariyasi”da “psixologizm”, “ichki dunyo tasviri”, “psixologik analiz”; M.Abdurahmonovanning broshyurasida – “ruhiy dunyo tasviri”, “ruhiy tahlil”, “psixologik tasvir”; N.Shodievning “Ruhiyat rassomi” risolasida – “psixologik tahlil”, “ichki hayot tasviri” kabi” [15, 17]. Bizningcha, psixologik tahlil obraz ruhiyatini, ichki olamini ochib berish yo‘li bo‘lsa, psixologizm uning yanada takomillashgan, chuqur hamda mukammalrok ishlangan ko‘rinishidir.

“Psixologik analiz”, “psixologik tahlil”, “ruhiy tahlil” atamalari ham o‘zaro ma‘nodosh. Ammo “psixoanaliz” terminini “psixologik analiz”ning qisqartmasi tarzida bu qatorga qo‘shib bo‘lmaydi. Chunki bu so‘z XIX asr oxiri – XX asr boshlarida avstriyalik vrach-psixoterapevt Zigmund Freyd asos solgan nazariy qarashlar tizimini anglatadi. Psixoanaliz – termindir [16, 20].

*В этой статье обсуждаются научные представления о химических солях. Их извлечение, разложение, химические свойства научно изучены. Есть научное обоснование гидролиза солей.*

**Ключевые слова:** соль, металл, кислота, остаток, вещество, катион, диссоциация, ион, оксид, анион, реакция.

### **ABSTRACT**

*This article discusses scientific ideas about chemical salts. Their extraction, decomposition, chemical properties are scientifically studied. There is a scientific basis for the hydrolysis of salts.*

**Keywords** - Salt, metal, acid, residue, substance, cation, dissociation, ion, oxide, anion, reaction.

### **KIRISH**

Barchamizga ma'lumki, tuzlar – metall atomlari va kislota qoldiqlaridan tashkil topgan murakkab moddalar. Ular quyidagilarga bo'linadi:

O'rta

Asosli

Aralash

Nordon (kislotali)

Qo'sh

Kompleks

O'rta tuzlar. Dissotsialanganda kation sifatida faqat metall (yoki  $\text{NH}_4^+$ ) ionlarini hoisl qiladi:  $\text{Na}_2\text{SO}_4 = 2\text{Na}^+ + \text{SO}_4^{2-}$   $\text{CaCl}_2 = \text{Ca}^{2+} + 2\text{Cl}^-$

Olinishi 1) Metallar va metallmaslar ta'sirlashuvi:  $2\text{Na} + \text{Cl}_2 = 2\text{NaCl}$  2) Metallning kislota bilan ta'sirlashuvi:  $\text{Zn} + 2\text{HCl} = \text{ZnCl}_2 + \text{H}_2$  3) Metallning boshqa

kuchsiz metall tuzi bilan ta'sirlashuvi:  $Fe + CuSO_4 = FeSO_4 + Cu$  4) Asosli va kislotali oksidlar ta'sirlashuvi:  $MgO + CO_2 = MgCO_3$  5) Asosli oksidning kislota bilan ta'sirlashuvi:  $CuO + H_2SO_4 = CuSO_4 + H_2O$  6) Asos bilan kislotali oksid ta'sirlashuvi:  $Ba(OH)_2 + CO_2 = BaCO_3 + H_2O$  7) Asos bilan kislota ta'sirlashuvi:  $Ca(OH)_2 + 2HCl = CaCl_2 + 2H_2O$  8) Tuzning kislota bilan ta'sirlashuvi:  $MgCO_3 + 2HCl = MgCl_2 + H_2O + CO_2$ ;  $BaCl_2 + H_2SO_4 = BaSO_4 + 2HCl$  9) Asos va tuz eritmaları ta'sirlashuvi:  $Ba(OH)_2 + Na_2SO_4 = 2NaOH + BaSO_4$  10) Ikki xil tuz eritmalar ta'sirlashuvi:  $3CaCl_2 + 2Na_3PO_4 = Ca_3(PO_4)_2 + 6NaCl$  Kimyoviy xossalari 1. Termik parchalanish.  $CaCO_3 = CaO + CO_2$ ;  $2Cu(NO_3)_2 = 2CuO + 4NO_2 + O_2$ ;  $NH_4Cl = NH_3 + HCl$  2. Hidroliz.  $Al_2S_3 + 6H_2O = 2Al(OH)_3 + 3H_2S$ ;  $FeCl_3 + H_2O = Fe(OH)Cl_2 + HCl$  5  $Na_2S + H_2O = NaHS + NaOH$  3. Kislotalar, asoslar va boshqa tuzlar bilan almashinish reaksiyalari  $AgNO_3 + HCl = AgCl + HNO_3$ ;  $Fe(NO_3)_3 + 3NaOH = Fe(OH)_3 + 3NaNO_3$   $CaCl_2 + Na_2SiO_3 = CaSiO_3 + 2NaCl$  2. Kation yoki anion xossasi bo'yicha oksidlanish – qaytarilish reaksiyalari.  $2KMnO_4 + 16HCl = 2MnCl_2 + 2KCl + 5Cl_2 + 8H_2O$

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Asosli tuzlar. Dissotsilanganda metall kationi, gidroksil anioni va kislota qoldig'ini hosil qiladi.  $Zn(OH)Cl = [Zn(OH)]^+ + Cl^- = Zn^{2+} + OH^- + Cl^-$  Tegishli asosdagi kislota qoldig'iga to'liq almashinmasligidan olinadigan mahsulot.

Olinishi 1. Kuchsiz asos va kuchli kislota asosida olingan tuzlar gidrolizi  $ZnCl_2 + H_2O = [Zn(OH)]Cl + HCl$  2. Metallar o'rta tuzlari eritmalariga ko'p bo'lmagan miqdordagi ishqor (tomchilab) qo'shish  $AlCl_3 + 2NaOH = [Al(OH)_2]Cl + 2NaCl$  6 3. Kuchsiz kislotalarning o'rta tuzlar bilan ta'sirlashuvi  $2MgCl_2 + 2Na_2CO_3 + H_2O = [Mg(OH)]_2CO_3 + CO_2 + 4NaCl$  Kimyoviy xossalari 1. Termik parchalanish  $[Cu(OH)]_2CO_3$  (малахит) =  $2CuO + CO_2 + H_2O$  2. Kislota bilan ta'sirlashuv: o'rta tuz hosil bo'lishi.  $Sn(OH)Cl + HCl = SnCl_2 + H_2O$

Aralash tuzlar. Bir kation va ikki xil aniondan tashkil topgan tuzlar:  $CaOCl_2 = Ca^{2+} + Cl^- + OCl^-$

Nordon(kislotali) tuzlar. Dissotsilanganda kation sifatida faqat metall (yoki  $NH_4^+$ ), vodorod ionlarini va kislota qoldig'i anionlarini hosil qiladi.  $NaHCO_3 = Na^+ + HCO_3^- = Na^+ + H^+ + CO_3^{2-}$  Bular ko'p asosli kislotalarda vodorod atomlarining barchasi metalga almashinmasligidan olinadigan mahsulotdir. Nordon(kislotali) tuzlar Olinishi 1. Asoslarning mo'l kislota bilan ta'sirlashuvi.  $KOH + H_2SO_4 = KHSO_4 + H_2O$  2. Asos bilan ortiqcha kislotali oksid bilan ta'sirlashuvi  $Ca(OH)_2 + 2CO_2 = Ca(HCO_3)_2$  3. O'rt tuzning kislota bilan ta'sirlashuvi  $Ca_3(PO_4)_2 + 4H_3PO_4 = 3Ca(H_2PO_4)_2$  Kimyoviy xossalari. 1. Termik parchalanganda o'rta tuz hosil qiladi

$\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2 = \text{CaCO}_3 + \text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O}$  2. Ishqor bilan ta'sirlashuv. O'rta tuz olinishi.

$\text{Ba}(\text{HCO}_3)_2 + \text{Ba}(\text{OH})_2 = 2\text{BaCO}_3 + 2\text{H}_2\text{O}$

Qo'sh tuzlar. Dissotsilanganda ikki xil metall kationi va bir anion hosil qiladi.

$\text{KAl}(\text{SO}_4)_2 = \text{K}^+ + \text{Al}^{3+} + 2\text{SO}_4^{2-}$

Kompleks tuzlar – murakkab kationlar yoki anionlar saqlaydi.  $[\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]\text{Br} = [\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]^+ + \text{Br}^-$ ;  $\text{Na}[\text{Ag}(\text{CN})_2] = \text{Na}^+ + [\text{Ag}(\text{CN})_2]^-$

Tuzilishi  $\text{K}_4[\text{Fe}(\text{CN})_6]$  Fe – Kompleks hosil qiluvchi (markaziy atom)  $\text{K}_4$  – Tashqi sfera – Koordinatsion son  $\text{Fe}(\text{CN})_6$  – Ichki sfera CN – Ligand Odatda katta davrlar metallari (Co, Ni, Pt, Hg, Ag, Cu) markaziy atom sifatida xizmat qiladi; Tipiki ligandalar  $\text{OH}^-$ ,  $\text{CN}^-$ ,  $\text{NH}_3$ , CO,  $\text{H}_2\text{O}$ ; ular markaziy atom bilan donorakseptor bog'lanish orqali bog'langan. Bunga kimyoviy bog'lansih va moddalar tuzilishi bobida kengroq to'xtalamiz. Olinishi 1. Tuzlarning ligandalar bilan ta'sirlashuvi:  $\text{AgCl} + 2\text{NH}_3 = [\text{Ag}(\text{NH}_3)_2]\text{Cl}$ ;  $\text{FeCl}_3 + 6\text{KCN} = \text{K}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6] + 3\text{KCl}$  Kimyoviy xossalari 1. Oz eriydigan birikmalar hosil bo'lishi bilan komplekslarning buzilishi:  $2[\text{Cu}(\text{NH}_3)_2]\text{Cl} + \text{K}_2\text{S} = \text{CuS} + 2\text{KCl} + 4\text{NH}_3$  2. Tashqi va ichki sferadagi ligandalarning o'zaro almashinuvi. 7  $\text{K}_2[\text{CoCl}_4] + 6\text{H}_2\text{O} = [\text{Co}(\text{H}_2\text{O})_6]\text{Cl}_2 + 2\text{KCl}$

Toza suvda vodorod va gidroksid ionlarining konsentratsiyalari teng bo'lib,  $\text{pH} = 7$  ga teng. Agar suvda tuz eritilsa, suvning dissotsilanish muvozanati vodorod va gidroksid ionlarining konsentratsiyalari o'zgarishi hisobiga buzilishi mumkin va  $\text{pH} = 7$  dan o'zgaradi.  $\text{pH}$  ning o'zgarishi tuz molekulalarining gidrolizga uchrashini bildiradi. Tuz ionlari bilan suv o'rtasida boradigan va ko'pincha muhitning o'zgarishi bilan boruvchi o'zaro ta'sir reaksiyalari tuzlarning gidrolizi deb ataladi. Gidroliz natijasida tuz ionlari suv ionlari bilan yomon dissotsilanuvchi komplekslar yoki (ion molekulalar) ni hosil qiladi. Agar gidroliz mahsulotlari eruvchan bo'lsa, jarayon qaytar bo'ladi. Gidroliz natijasida ba'zan oson uchuvchan va yomon eruvchi moddalar hosil bo'lishi mumkin. Bu hollarda reaksiya qaytmaz bo'lib, oxirigacha boradi. Kuchsiz kislota va kuchsiz asosdan hosil bo'lgan tuzlar, kuchsiz kislota va kuchli asosdan hamda kuchli kislota va kuchsiz asosdan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizga uchraydi. Kuchli kislota va kuchli asosdan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizga uchramaydi; bu holda neytrallanish reaksiyasi (gidrolizga teskari bo'lgan jarayon) borib, suv hosil bo'ladi:  $\text{OH}^- + \text{H}^+ = \text{H}_2\text{O}$  Bunda suvning ionlarga dissotsilanishi sezilmas darajada bo'ladi.

Tuzlar gidrolizining muhim hollarini ko'rib chiqamiz: 1) Kuchsiz kislota va kuchli asosdan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizi. Misol sifatida natriy karbonat  $\text{NaCO}_3$  (kuchli asos  $\text{NaOH}$  va kuchsiz kislota  $\text{H}_2\text{CO}_3$  dan hosil bo'lgan) gidrolizini ko'ramiz:

8  $\text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{H}_2\text{O} = \text{NaHCO}_3 + \text{NaOH}$  Bu tenglama ion molekulyar shaklda quyidagicha yoziladi:  $2\text{Na}^+ + \text{CO}_3^{2-} + \text{H}_2\text{O} = \text{Na}^+ + \text{HCO}_3^- + \text{Na}^+ + \text{OH}^-$  uning qisqartirilgan shakli:  $\text{CO}_3^{2-} + \text{H}_2\text{O} = \text{HCO}_3^- + \text{OH}^-$  Demak, tuzning anioni gidrolizga uchraydi va reaksiya natijasida gidroksil OH ionlar hosil bo'ladi. Binobarin, kuchsiz kislota va kuchli asosdan hosil bo'lgan tuzlarning suvdagi eritmalari ishqoriy muhitga ega bo'ladi. 2) Kuchli kislota va kuchsiz asosdan hosil bo'lgan tuzlarning gidrolizida asosan tuz kationi reaksiyaga kirishadi. Masalan, ammoniy xlorid  $\text{NH}_4\text{Cl}$  ni gidrolizini olaylik:  $\text{NH}_4^+ + \text{H}_2\text{O} = \text{NH}_3 + \text{H}_3\text{O}^+$  , Tenglama qisqartirilgan shaklda quyidagicha bo'ladi:  $\text{NH}_4^+ + \text{H}_2\text{O} = \text{NH}_3 + \text{H}^+$  Kuchli kislota va kuchsiz asosdan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizlanganda eritmada vodorod ionlari to'planadi va shu sababli eritma kislotali muhitga ega bo'ladi. 3) Kuchsiz kislota va kuchsiz asosdan hosil bo'lgan tuzlarning gidrolizida tuzning ham kationi, ham anionlari suv bilan ta'sirlashadi, masalan:  $\text{CH}_3\text{COONH}_4 + \text{H}_2\text{O} = \text{CH}_3\text{COOH} + \text{NH}_4\text{OH}$  tenglama ion-molekulyar holda quyidagicha yoziladi:  $\text{CH}_3\text{COO}^- + \text{NH}_4^+ + \text{H}_2\text{O} = \text{CH}_3\text{COOH} + \text{NH}_4\text{OH}$  Moddalarning suv ta'sirida parchalanishiga gidroliz deyiladi. "Gidro" – suv, "lizi" – parchalash degan ma'noni anglatadi. Quyidagi sinf moddalar gidrolizga uchraydi: Tuzlar, yog'lar va moylar, murakkab efirlar, di- va polisaxaridlar, nuklein kislotalar, tolalar va YUMB. Tuz molekularining suv ta'sirida boshqa moddalarga aylanish jarayoni tuzlar gidrolizi deyiladi. Tuzlar tarkibiga qarab to'rt xil bo'ladi: 1) Kuchli asos ( $\text{NaOH}$ ,  $\text{KOH}$ ,  $\text{RbOH}$ ,  $\text{CsOH}$ ,  $\text{FrOH}$ ,  $\text{Ca}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Sr}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Ba}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Ra}(\text{OH})_2$   $\text{LiOH}$ ) va kuchli kislota ( $\text{HClO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{S}_2\text{O}_7$ ,  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{HI}$ ,  $\text{HBr}$ ,  $\text{HCl}$ ,  $\text{HMnO}_4$ ,  $\text{HIO}_4$  ( $\text{H}_5\text{IO}_6$ ),  $\text{H}_2\text{CrO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ ,  $\text{HClO}_3$ ,  $\text{HBrO}_3$ ,  $\text{HIO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{MnO}_4$ ) dan hosil bo'lgan tuzlar. Masalan:  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$ ,  $\text{KBr}$ ,  $\text{NaCl}$ ,  $\text{Cs}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{KMnO}_4$ ,  $\text{BaI}_2$  va h.k. Bunday tuzlar gidrolizga uchramaydi. Eritma muxiti neytral bo'ladi, lakmusni rangini o'zgartirmasdi. Bunday tuzlar suvda eriydi, lekin suv ta'sirida parchalanmaydi. 2) Kuchli asos ( $\text{NaOH}$ ,  $\text{KOH}$ ,  $\text{RbOH}$ ,  $\text{OH}$ ,  $\text{FrOH}$ ,  $\text{Ca}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Sr}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Ba}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Ra}(\text{OH})_2$   $\text{LiOH}$ ) va kuchsiz kislota ( $\text{HF}$ ,  $\text{H}_2\text{SiO}_3$ ,  $\text{H}_3\text{PO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{HCN}$ ,  $\text{CH}_3\text{COOH}$ ,  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$  va h.k.)dan hosil bo'lgan tuzlar. Masalan:  $\text{NaF}$ ,  $\text{SrCO}_3$ ,  $\text{Cs}_2\text{SO}_3$ ,  $\text{BaS}$ ,  $\text{CH}_3\text{COOK}$  va h.k. Bunday tuzlar gidrolizga uchraydi. Gidroliz anion (kislota qoldig'i) hisobidan boradi. Bunday tuzlarning gidroliz reaksiyasi qaytar jarayon bo'lib, oxirigacha bormaydi. Muxit ishqoriy bo'ladi, lakmusni rangini ko'k rangga bo'yaydi.  $\text{BaS} + 2\text{H}_2\text{O} = \text{Ba}(\text{OH})_2 + \text{H}_2\text{S}\uparrow$   $\text{Ba}^{+2} + \text{S}^{-2} + 2\text{H}_2\text{O} = \text{Ba}^{+2} + 2\text{OH}^- + \text{H}_2\text{S}\uparrow$   $\text{S}^{-2} + 2\text{H}_2\text{O} = 2\text{OH}^- + \text{H}_2\text{S}\uparrow$  3) Kuchsiz asos ( $\text{Fe}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Be}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Co}(\text{OH})_2$ ,  $\text{CuOH}$ ,  $\text{Cd}(\text{OH})_3$ ,  $\text{HgOH}$ ) va kuchli

kislota ( $\text{HClO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{S}_2\text{O}_7$ ,  $\text{HNO}_3$ ,  $\text{HI}$ ,  $\text{HBr}$ ,  $\text{HCl}$ ,  $\text{HMnO}_4$ ,  $\text{HIO}_4$  ( $\text{H}_5\text{IO}_6$ ),  $\text{H}_2\text{CrO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$ ,  $\text{HClO}_3$ ,  $\text{HBrO}_3$ ,  $\text{HIO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{MnO}_4$ ) dan hosil bo'lgan tuzlar. Masalan:  $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$ ,  $\text{ZnBr}_2$ ,  $\text{BeCl}_2$ ,  $\text{FeSO}_4$ ,  $\text{CrI}_2$  va h.k. Bunday tuzlar gidrolizga uchraydi. Gidroliz kation (metall ion) hisobidan boradi. Bunday tuzlarning gidroliz reaksiyasi 10 qaytar jarayon bo'lib, oxirigacha bormaydi. Muxit kislotali bo'ladi, lakmusni rangini qizil rangga bo'yaydi.  $\text{FeSO}_4 + 2\text{H}_2\text{O} = \text{Fe}(\text{OH})_2 + \text{H}_2\text{SO}_4$   $\text{Fe}^{+2} + \text{SO}_4^{2-} + 2\text{H}_2\text{O} = \text{Fe}(\text{OH})_2\downarrow + 2\text{H}^+ + \text{SO}_4^{2-}$   $\text{Fe}^{+2} + 2\text{H}_2\text{O} = \text{Fe}(\text{OH})_2\downarrow + 2\text{H}^+$  4) Kuchsiz asos ( $\text{Fe}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Be}(\text{OH})_2$ ,  $\text{Co}(\text{OH})_2$ ,  $\text{CuOH}$ ,  $\text{Cd}(\text{OH})_3$ ,  $\text{HgOH}$ ) va kuchsiz kislota ( $\text{HF}$ ,  $\text{H}_2\text{SiO}_3$ ,  $\text{H}_3\text{PO}_4$ ,  $\text{H}_2\text{CO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_3$ ,  $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{HCN}$ ,  $\text{CH}_3\text{COOH}$ ,  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$  va h.k.) dan hosil bo'lgan tuzlar. Masalan:  $\text{FeCO}_3$ ,  $\text{CuSiO}_3$ ,  $\text{CdS}$ ,  $\text{Be}(\text{CN})_2$  va h.k. Bunday tuzlar gidrolizga uchraydi.

Gidroliz ham kation (metall ion) hisobidan, ham anion (kislota qoldig'i) hisobidan boradi. Bunday tuzlarning gidroliz reaksiyasi qaytmas jarayon bo'lib, oxirigacha boradi. Muxit deyarli neytral bo'ladi, lakmusni rangini o'zgartirmaydi.  $\text{CuSiO}_3 + 2\text{H}_2\text{O} = \text{Cu}(\text{OH})_2\downarrow + \text{H}_2\text{SiO}_3\downarrow$   $\text{Cu}^{+2} + \text{SiO}_3^{2-} + 2\text{H}_2\text{O} = \text{Cu}(\text{OH})_2\downarrow + \text{H}_2\text{SiO}_3\downarrow$  5) Birgalikda gidroliz – ikkinchi va uchinchi tuzlar aralashmasining birgalikdagi gidrolizi. Bunday holatda gidroliz oxirigacha boradi. Muxit neytral bo'ladi, lakmusni rangini o'zgartirmaydi.  $\text{BaS} + \text{FeCl}_2 + 2\text{H}_2\text{O} = \text{BaCl}_2 + \text{Fe}(\text{OH})_2\downarrow + \text{H}_2\text{S}\uparrow$   $\text{Ba}^{+2} + \text{S}^{-2} + \text{Fe}^{+2} + 2\text{Cl}^- + 2\text{H}_2\text{O} = \text{Ba}^{+2} + 2\text{Cl}^- + \text{Fe}(\text{OH})_2\downarrow + \text{H}_2\text{S}\uparrow$   $\text{S}^{-2} + \text{Fe}^{+2} + 2\text{H}_2\text{O} = \text{Fe}(\text{OH})_2\downarrow + \text{H}_2\text{S}\uparrow$  Tuz eritmasining muhiti yo kislotali (agar gidroliz natijasida hosil bo'lgan asos kislotaga nisbatan kuchsiz bo'lsa), yoki ishqoriy (agar asos kislotaga nisbatan kuchliroq bo'lsa), yoxud neytral (agar hosil bo'lgan asos va kislota bir xil kuchda bo'lsa, ya'ni ularning ionlanish konstantasi amalda bir-biriga teng bo'lsa) bo'ladi. Yuqorida kurib chiqilgan hollarda eritmadagi tuzlarning hammasi gidrolizga uchramaydi, faqat bir qismi gidrolizlanadi. Eritmada tuz bilan gidroliz mahsulotlari o'rtasida muvozanat vujudga keladi. Moddaning gidrolizga uchragan qismi gidroliz darajasi deb ataladi. Gidrolizni xarakterlovchi miqdorlardan biri gidroliz konstantasidir.  $\text{KCN} + \text{H}_2\text{O} = \text{HCN} + \text{KOH}$  Bu reaksiyaning gidroliz konstantasi quyidagicha yoziladi [ ] [ ] [ ] gidr  $\frac{[\text{KCN}][\text{H}_2\text{O}]}{[\text{HCN}][\text{KOH}]} = K_{\text{gidr}}$  = Gidroliz konstantasi ayni tuzning gidrolizlanish qobiliyatini xarakterlaydi;  $K_{\text{gidr}}$  ning qiymati qancha katta bo'lsa, gidroliz shuncha yaxshi boradi. Gidroliz darajasi (h harfi bilan belgilanadi) bir qancha faktorlarga bog'liq. Chunonchi eritma suyultirilganda ayni tuzning gidrolizlanishi kuchayadi va gidroliz darajasi oshadi. Masalan,  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  ning 1 n li eritmasida hgidr 4,5% ga teng, uning 0,001 n li eritmasida esa hgidr = 34% ga teng.

Eritma temperaturasi oshirilganda gidroliz darajasi ham oshadi. Chunki isitilgan suvning dissotsiatsiya darajasi oshadi, shu sababli  $H^+$  va  $OH^-$  ionlari bilan o'zaro ta'sirini kuchaytiradi, binobarin tuz gidrolizi kuchayadi, bu esa gidroliz darajasining oshishiga olib keladi. Yog'ochni qayta ishlash sanoati hamda qishloq xo'jaligi chiqindilarini gidrolizlab, etil spirt, glyukoza va boshqa moddalar olinadi. Yog'larning gidrolizi, sovun pishirish va glitserin olishning asosini tashkil etadi. Gidroliz asosida ichimlik va sanoat suvlari tozalanadi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Tuzlarning suv bilan ta'siri natijasida kislota (nordon tuz) yoki asos (asosli tuz) hosil bo'lishi bilan boradigan reaksiyalarga tuzlar gidrolizi deyiladi. Gidroliz turlari.

1. Tuz kuchli asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan bo'lsa, u suvli eritmada  $CH_3COONa = CH_3COO^- + Na^+$  tenglama bo'yicha dissotsilanadi va kuchsiz kislota qoldig'i suvdan protonni biriktirib olishga intiladi, natijada eritma ishqoriy muhitga (Bu anion bo'yicha gidroliz deyiladi) ega bo'ladi:  $CH_3COO^- + H_2O = CH_3COOH + OH^-$   $CH_3COONa + H_2O = CH_3COOH + NaOH$  Ko'p asosli kislota qoldikli tuzlar suvda eriganda gidroliz bosqichli boradi. Masalan  $K_2CO_3$  gidrolizi quyidagicha boradi: 1 bosqich:  $K_2CO_3 + H_2O = KHCO_3 + KOH$   $CO_3^{2-} + H_2O = HCO_3^- + OH^-$  2 bosqich:  $KHCO_3 + H_2O = H_2CO_3 + KOH$   $HCO_3^- + H_2O = H_2CO_3 + OH^-$ . Kuchsiz asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlar suvda eriganda eritma kislotali muhitga (Bu kation bo'yicha gidroliz deyiladi) ega bo'ladi.  $NH_4Cl$  gidrolizi:  $NH_4Cl + H_2O = NH_4OH + HCl$  Ion ko'rinishida:  $NH_4^+ + H_2O = NH_4OH + H^+$  Ko'p negizli asoslardan hosil bo'lgan tuzlar suvda eriganda gidroliz bosqichli boradi. Masalan  $Al(NO_3)_3$  gidrolizi quyidagicha boradi: 1 bosqich:  $Al(NO_3)_3 + H_2O = Al(OH)(NO_3)_2 + HNO_3$   $Al^{3+} + H_2O = [Al(OH)]^{2+} + H^+$  2 bosqich:  $Al(OH)(NO_3)_2 + H_2O = Al(OH)_2(NO_3) + HNO_3$   $[Al(OH)]^{2+} + H_2O = [Al(OH)_2]^+ + H^+$  3 bosqich:  $Al(OH)_2(NO_3) + H_2O = Al(OH)_3 + HNO_3$   $[Al(OH)_2]^+ + H_2O = Al(OH)_3 + H^+$  3. Kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgan tuzlar suvda eritilganda ularning ko'pchiligi to'liq gidrolizga (Bu ham anion, ham kation bo'yicha gidroliz deyiladi) uchraydi.  $CH_3COONH_4 + H_2O = CH_3COOH + NH_4OH$   $CH_3COO^- + NH_4^+ + H_2O = CH_3COOH + NH_4OH$  Bunday tuzlar eritmalar muhiti kislota yoki asosning qaysi kuchli ekanligiga bog'liq bo'ladi. Masalan,  $CH_3COONH_4$  tuzi eritmasining muhiti kuchsiz ishqoriy bo'ladi. Chunki ammoniy gidroksidning dissotsiatsiya doimiyligi  $K_b = 6,3 \cdot 10^{-5}$  bo'lib, sirka kislotaniki esa  $K_a = 1,75 \cdot 10^{-5}$  ga tengdir. 4. Kuchli asos va kuchli kislotadan hosil bo'lgan tuzlar gidrolizga uchramaydi va ular eritmalarining muhiti neytral bo'ladi. Gidroliz jarayoni qaytar



---

jarayon hisoblanadi. Gidroliz jarayoni qaytar jarayon hisoblanadi. Gidroliz jarayoni qaytar jarayon hisoblanadi.

### **REFERENCES**

1. Аналитическая химия. проблемы и подходы. том 1. Р. Келнера, Ж.-М. Мерме, М. Отто, Г.М. Видмер. - М. Мир, Издательство АСТ, 2004
2. Аналитическая химия. проблемы и подходы. том 2. Р. Келнера, Ж.-М. Мерме, М. Отто, Г.М. Видмер. - М. Мир, Издательство АСТ, 2004
3. Xaritonov Yu.Ya., Yunusxodjaev A.N., Shabilalov A.A., Nasirdinov S.D. «Analitik kimyo. Analitika». Fan. T. 2008. 1 - jild (lotinda)
4. Xaritonov Yu.Ya., Yunusxodjaev A.N., Shabilalov A.A., Nasirdinov S.D. «Analitik kimyo. Analitika». Fan. T. 2013. 2 - jild (lotinda)

## **TEMIR YO'L TRANSPORTIDA BITTALIK STRELKANI BOSHQARUVCHI TERISH GURUHI MIKROPROTSESSORLI BLOKINI YARATISH**

**Jo'rayev Javoxirjon Farxodjon o'g'li -**

Toshkent Davlat Transport Universiteti magistranti,

**Ametova E.K.**

Toshkent Davlat Transport Universiteti, Texnika fanlari bo'yicha PhD.

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada energiya va resurs tejamkor texnologiyalardan faol foydalangan holda temir yo'l avtomatikasi va telemexanikasi apparaturasiga qo'yilgan texnik talablar asosida strelkalarni boshqarishda mikroprosessorli bloklarning elektr zanjirlari sxemalarini ishlab chiqish usullari asoslangan. Mikrokontrollerlar optorele va holl dachiklarini qo'llash asosida elektr magnit relelarning qo'zg'atish cho'lg'amlari va kontaktlarini istisno etish uchun strelkalarni boshqarish mikroprosessorli bloklarining elektr zanjirlari elementlarining sxematik yechimlari va ularni amalga oshirish va almashtirish usullari aniqlangan.*

**Kalit so'zlar:** *Holl datchigi, optorele, elektr markazlashtirish, terish guruhi bloki, elektromexanik rele.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В основе представленной статьи лежит методика построения принципиальных схем микропроцессорных блоков управления стрелками, основанная на технических требованиях к оборудованию железнодорожной автоматики и телемеханики с активным применением энергоресурсосберегающих технологий. На основе использования микроконтроллеров оптореле и датчики Холла определены схематические решения элементов электрических схем микропроцессорных блоков стрелочного управления и способы их выполнения и замены для исключения катушек возбуждения и контактов электромагнитных реле.*

**Ключевые слова:** *Датчик Холла, оптореле, электрическая централизация, блок наборная группа, электромеханическое реле.*

### **ABSTRACT**

*The presented article is based on the methodology for constructing schematic diagrams of microprocessor control units for switches, based on the technical requirements for equipment of railway automation and telemechanics with the active use of energy-saving technologies. On the basis of the use of microcontrollers, opto-*

*relays and Hall sensors, schematic solutions of the elements of electrical circuits of microprocessor-based switch control units and methods of their implementation and replacement to exclude the excitation coils and contacts of electromagnetic relays have been determined.*

**Keywords:** *Hall sensor, optocoupler, electrical centralization, block dial group, electromechanical relay.*

## **KIRISH**

Hozirgi kunda temir yo'l transporti aksariyat dunyo mamlakatlarida yuqori hajmdagi tashishlarni amalga oshiruvchi asosiy transport turi hisoblanib va o'z navbatida bu tashish jarayoni ma'suliyat alab qilinadigan texnologik jarayonlardan biridir. Ayni vaqtda xizmatlar bozorida yo'lovchilarni va yuklarni tashishni qisqa muddatlarda amalga oshirish masalasining dolzarbligi ortib bormoqda. Chunki tashish jarayoni muddatlarini qisqarishi bir tarafdin zamon talabi bo'lsa ikkinchi tarafdin bu xizmatdan foydalanuvchilarning sonini ortishiga sabab bo'luvchi asosiy omil hisoblanadi. Ushbu masalaning yechimi stansiyalarda barcha texnologik operatsiyalarni bajarish jarayonidagi harakat tarkibini to'xtab turishi vaqtini kamaytirishni, poyezdlar tezligi va intensivligini oshirishni va albatta yuqori tezlikda harakatlanuvchi poezdlarda harakat xavfsizligini taminlovchi zamonaviy signallashtirish, markazlashtirish va blokirovka qurilmalarini joriy etishni talab qiladi.

Temir yo'l tarmog'ida elementar marshrutlar uchun sxemalarni qurish va ularni stansiya rejasiga binoan o'zaro ulash tamoyillari blokli tizimlarni qurish imkonini yaratgan bo'lsa, ularning takomillashuvi natijasida boshqarishning marshrutli ko'rinishini nazarda tutgan blokli marshrutli markazlashtirish ishlab chiqildi.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**


Bu tizimlarni ishlab chiqishda sxema uzellarining bloklarga kompanovkalashning ikki tamoyilni qo'llash imkoniyati yaratildi. Birinchi tamoyilning mohiyati shundan iboratki bir elementar marshrut uchun zarur bo'lgan barcha releler bir blokka kompanovkalanadi. Bu geografik tamoyil deb ataladi. Ikkinchi tamoyilda esa bir blokka cheklangan funksiyalarni bajaradigan releler kompanovkalanib (ya'ni bir blokda elementar marshrutni ajratish va tutashtirish funksional bloki, yana birida strelkani boshqarish va nazorat uzeli boshqasida esa svetaforlarni boshqarish bloki bo'ladi) bu bloklarning hajmi va og'irligini sezilarli darajada kamaytiradi. Lekin bu tamoyil ham EM uchun yetarli yechim bera olmadi. Shuning uchun blokli EM larni takomillashtirish jihatlaridan bir panelli tipidagi EM

lar yaratildi. EM paneli o'ziga xos funksional blok bo'lib uning asosida ko'p sonli apparaturalar joylashtirilib, buning hisobiga panellararo ulanmalar soni kamayadi va uning montaj kamerasiga shtepselli ajratkichlar yordamida ulangan releler o'rnatilgan. Blokli marshrutli releli markazlashtirish tizimida shu turdagi panellarga o'rnatilgan bajaruvchi va teruvchi bloklar bilan yaqindan tanish mumkun.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ temir yo'llarining aksariyat qismida deyarli elektromagnit va elektromexanik relelardan foydalanilgan. Tabiiyki bu turdagi relelar o'zlarining ishlash davomiyligi uzoqligi va mukammal sxematik yechimga egaligi bilan alohida ajralib turadi va shuning uchun ham ularning qimmat tannarxi va mamlakimizga faqat import hisobida olib kelinishiga qaramasdan bu turdagi elektromagnit relelardan hali hanuzgacha faol foydalanib kelinmoqda. Berilgan maqolada blokli marshrutli releli markazlashtirish tizimi qurilmalaridan biri bo'lgan bittalik strelkani boshqaruvchi terish guruhi bloki NSO ning mikroprotessorli variantini yaratish ko'rib chiqiladi. Bunda albatta yangi blok orqali elektr markazlashtirilgan stansiya qurilmalarining ish qobiliyatini oshirish va mikroprotessorli blokni yaratish jarayonida energiya va resurs tejankor texnologiyalarni faol tadbiiq etishga alohida e'tibor qaratilgan. NSO bloki bu aynan bittalik strelkani boshqarish bloki hisoblanib u kichik qarshilikka ega bo'lgan KDR turidagi elektromagnit relelardan tashkil topgan. Bugungi kunda ushbu relelardan foydalanishni bekor qilish va ularni mikroelektron qurilmalarga almashtirish orqali marshrutli releli markazlashtirish bloklarida elektromexanik qurilmalar o'rniga mikroelektron qurilmalarni qo'llash imkoniyatini ko'rib chiqish masalasi dolzarb bo'lmoqda.

Ushbu maqolada NSO blokidagi mavjud KDR-1M kodli relelarni qisman tok datchiklaridan foydalangan holda ushbu blokni mikroelektron qurilmalar asosida yaratish ko'rib chiqiladi. Bu ishni amalga oshirish uchun birinchi navbatda KDR-1M relesining xususiyatlariga to'xtalsak u kichik 3.8 om qarshilikka ega doimiy tokda ishlaydigan kodli rele hisoblanadi. Bu relening asosiy vazifasi ta'minot bo'lishi bilan ishga tushib o'z kontaktlari orqali elektr zanjirlarni ulash va ta'minot yo'qolganda esa qisqa muddatli vaqtni ushlab turish so'ngra elektr zanjirlarni uzishdan iborat. Demak bu relening ishini bajarish uchun qo'llamoqchi bo'lgan mikroelektron qurulma kichik qarshilikka ega bo'lishi bilan bir qatorda elektr zanjirda ta'minot paydo bo'lganida uni aniqlash va bu haqidagi ma'lumotlarni markaziy mikrokontrollerga yuborish, ta'minot uzilganida esa u markaziy mikrokontrollerga signal uzatishni to'xtatish kabi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim. Bundan tashqari tanlanadigan mikroelektron qurulma yuqori ishonchilikka, kichik o'lchamga ega bo'lishi va albatta mahalliy


sharoitga mos bo'lishi lozim. Albatta bu vazifalarni bajarishda tok datchiklarining imkoniyatlarini ham hisobga olish lozim. Ulardan biri hisoblangan ACS 712 turidagi tok datchigi yuqorida keltirib o'tilgan vazifalarni bajarish uchun mos bo'lgan mikroelektron qurulma hisoblanadi. ACS 712 tok datchigi elektr zanjirga va mikrokontrollerga qanday ulanishi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Mikroprotessorli NSO terish blokida ACS 712 tok datchigining elektr zanjirga va mikrokontrollerga ulash sxemasi.

Yuqoridagi 1-rasmda mikroprotessorli blokning bir qismi ya'ni faqat PB –plus holatga boshqaruvchi rele o'rnida ACS 712 tok datchigi ko'rsatilgan. MB-minus holatga boshqarish zanjiri ham ayni shu tartibda amalga oshiriladi.

Shuni takidlash joizki elektromagnit relelar o'rnida foydalanish uchun taklif qilinayotgan yuqorida keltirilgan ACS 712 tok datchigining temperatura xususiyatlari mahalliy iqlim sharoitlariga to'laqonli mos keladi ya'ni -40C dan +85C gacha bo'lgan temperature oralig'ida u o'zining texnik xususiyatlarini yo'qotmagan holda doimiy ishlaydi va tok kuchini aniqlash diapozoni -5A da +5A gachani tashkil etadi. ACS712 oqim sensori Hall sensori va mis o'tkazgichdan iborat. Mis o'tkazgichdan o'tadigan oqim Hall elementi tomonidan seziladigan magnit maydon hosil qiladi. Magnit maydon tok kuchiga chiziqli bog'liq. ACS712 datchigi Hall effekti asosida qurilgan va o'lchangan oqim va chiqish signali kuchlanishi o'rtasidagi chiziqli bog'liqlikka ega. Quyidagi 2-rasmda tok kuchining kuchlanishga bog'liqlik grafigi keltirilgan.




**2-rasm. Tok kuchining kuchlanishga bog'liqlik grafigi.**

Endi quyidagi 3-rasmda keltirilgan yartilayotgan mikroprotsesorli NSO blokini ishlash algoritmini tahlil qiladigan bo'lsak, algoritman ko'rinib turibdiki blokning mikrokontrolleri strelkali o'tkazgichning plyus va minus holatga boshqaruvchi relelarni inversiyasini normal holatda 1 ga rostlaydi. Mikrokontroller strelkani plyus holatga boshqaruvchi PU relening elektr zanjirida kuchlanish qiymatini tahlil qiladi, agar kuchlanish mavjud bo'lsa MU ning elektr zanjiridagi tok kuchi 0 ga tengligini tekshirib, PU ning inversiyasi va MU o'zgaruvchilar yig'indisi 0 ga tengligidan PU relesining tokli holati qayd etiladi. Shundan so'ng barcha zanjirlardagi PU rele kontaktlari tokli holatga keltiriladi. Agarda PU relening elektr zanjirida kuchlanish mavjud bo'lmasa, keying qadamda u MU relesining zanjiri tekshirilada, bu zanjirda kuchlanish mavjud bo'lsa MU ning inversiyasi hamda PU o'zgaruvchilarning yig'indisi 0 ga tengligidan barcha zanjirlardagi MU rele kontaktlari tokli holatga keltiriladi. Yuqoridagi ikki elektr zanjirda ham tok kuchi aniqlanmasa jarayon tugallanadi va analiz jarayoni uzluksiz davom etadi.

Bundan tashqari aynan keltirilgan blokda foydalanilgan elektromagnit releni tok datchigi bilan almashtirish orqali masalani to'liqligicha hal etib bo'lmaydi. Keyingi navbatda blok ichida joylashgan elektromagnit relelarning elektromexanik kontaktlari o'rniga optojuftliklardan foydalanish nazarda tutiladi. Buning uchun blok ichida joylashgan har bir kontakt qaysi elektromagnit relega tegishliligiga ko'ra ajratilib markaziy kontrollerga ulanadi. Mikrokontroller berilgan dastur bo'yicha bu optojuftliklarni boshqaradi. Budan tashqari bu optojuftliklarni tanlashda ularning

ishchi zanjirlaridagi o'tkaza oladigan maksimal kuchlanish va tok kuchi qiymatlari aynan elektromagnit relening kontaktlari ulangan zanjirlarda paydo bo'ladigan maksimal kuchlanish va tok kuchi qiymatlariga mosligi alohida inobatga olinadi.



**3-rasm. Mikroprotessorli NSO blokining ishlash algoritmi.**

Bundan tashqari aynan keltirilgan blokda foydalanilgan elektromagnit releni tok datchigi bilan almashtirish orqali masalani to'liqligicha hal etib bo'lmaydi. Keyingi navbatda blok ichida joylashgan elektromagnit relalarning elektromexanik kontaktlari o'rniga optojuftliklardan foydalanish nazarda tutiladi. Buning uchun blok ichida joylashgan har bir kontakt qaysi elektromagnit relega tegishliligiga ko'ra ajratilib markaziy kontrollerga ulanadi. Mikrokontroller berilgan dastur bo'yicha bu optojuftliklarni boshqaradi. Budan tashqari bu optojuftliklarni tanlashda ularning ishchi zanjirlaridagi o'tkaza oladigan maksimal kuchlanish va tok kuchi qiymatlari

aynan elektromagnit relening kontaktlari ulangan zanjirlarda paydo bo'ladigan maksimal kuchlanish va tok kuchi qiymatlariga mosligi alohida inobatga olinadi.

### **XULOSA**

Xulosa shundan iboratki NSO blokidagi mexanik kontaktli va kata hajmdagi elektromexanik relarlardan foydalanishni bekor qilinishi va ularning o'rnida yuqorida keltirilgan zamonaviy va tezkor ish xarakteriga ega bo'lgan mikroelementlar asosida terish guruhining bittalik strelkani boshqaruvchi blokini yaratish taklif qilinadi.

### **REFERENCES**

1. Azizov A.R., Ametova E.K. Developing of microelectronic block HCC. //International Journal of AdvancedResearch in Science, Engineering and Technology. Vol. 6, Issue 3, March 2019.
2. Никитин, А. Б. Основы проектирования электрической централизации промежуточных станций: учеб.пособие для специалистов / В. А. Кононов, А. А. Лыков, А. Б. Никитин; под ред. А. Б. Никитина. – 2-е изд., доп. и перераб. М.: ФГБОУ «Учебно-методический центр по образованию на железнодорожном транспорте», 2013. – 348 с.
3. Бестемьянов П.Ф. Контроль правильности функционирования микропроцессорных устройств системы автоматического регулирования скорости поезда метрополитена.//Межвузовский сборник научных трудов.- М.:МИИТ, Выпуск 862,1992 г.
- 4.Справочник. «Надежность ЭРИ». – М.: МО РФ, 2006.
- 5.ГОСТ 27.301-95. Надежность в технике. Расчет надежности. Основные положения.



## **ПОЗИТИВНАЯ (ПРОЕКТИРУЮЩАЯ) ПСИХОЛОГИЯ В ШКОЛЕ**

**Азаматова Мафтуна Амридин кизи**

Ташкентский область Уртачирчикский район средняя школа-38

Педагог психолог

### **АННОТАЦИЯ**

*Основные принципы позитивной (проектирующей) психологии предполагают конструирование и реализацию новой реальности, где возможно максимальное раскрытие индивидуальности личности. Для конструирования необходимы умения работы с образами и со словом, определение приоритетов, а для реализации необходима дисциплина ума, управление вниманием, эмоциями и уверенное поведение. Курс практико-ориентированный, поэтому формой работы выбран психологический практикум с элементами лекции, беседы, психологических упражнений.*

***Ключевые слова:** Психология в школе, философия, закон энергии, методика преподавания.*

### **ABSTRACT**

*The basic principles of positive (projecting) psychology presuppose the construction and implementation of a new reality, where the maximum disclosure of the individual's individuality is possible. Design requires the ability to work with images and words, prioritization, and implementation requires discipline of the mind, control of attention, emotions and confident behavior.*

*The course is practice-oriented, therefore, a psychological workshop with elements of lectures, conversations, psychological exercises was chosen as the form of work.*

***Key words:** Psychology at school, philosophy, the law of energy, teaching methods.*

### **ВЕДЕНИЕ**

Школьная программа, по которой мы все с вами учились, предусматривает изучение основ физики, химии, гуманитарных дисциплин, а это значит, что мы знакомы с основными законами этих наук и нам даже в голову не приходит их оспаривать, так как они объективные. Обобщающей наукой является философия — наука о наиболее общих законах мироздания. А так как психология, как и все науки, вышла из недр философии, в ней тоже есть свои объективные законы. В общей психологии изучают закономерности развития

внимания, памяти, мышления, в возрастной — закономерности психического развития человека и т. д. Наиболее общей будет являться позитивная психология, где взаимодействие и взаимовлияние субъектов изучается и объясняется на уровне энергий. Здесь много общего с физикой, так как сознание материализовано в теле, а тело живет по законам физическим, которые, в свою очередь, суть проявления законов энергетических

## **ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**

### **ПРАКТИКУМ 1: ПСИХОФИЗИОЛОГИЯ**

Сядьте поудобнее. Вспомните очень приятную, спокойную ситуацию. Подумайте о ней в течение 1 минуты. Измерьте свой пульс.

Вспомните очень неприятную ситуацию, закончившуюся вашим аффективным выплеском. Подумайте об этом 30 секунд. Измерьте свой пульс. Он изменился (участился). Это появился объективный закон реагирования психики на угрозу. Причем угрозу мнимую. Ведь в настоящий момент ее не было. А изменение частоты пульса было.

Что же произошло? Вы изменили свое физическое состояние с помощью мысли. Так может только человек. Отсюда **закон энергия следует за мыслью**. Поясним.

Современная физика (цитирую) «рассматривает Вселенную как безграничную неделимую сеть динамической активности. Она не только живет и постоянно изменяется — все ее составляющие *вливают* друг на друга. На первичном уровне Вселенная представляется цельной, неделимой, эта ким бездонным морем энергии, пронизывающей каждый предмет и каждое действие, — она вся едина». Одним словом, сегодня ученые подтверждают то, о чем уже тысячелетия говорят мистики, ясновидцы и оккультисты (но когда говорят «свои», то есть наука, можно и поверить!): мы не отдельные элементы, а часть одного гигантского целого. Реальность течет, ничто не постоянно, все является частью модели, находящейся в непрерывном движении. Меняются и наши знания о мире, поэтому меняется ряд законоположений. Меняется даже язык. Меняется и методика преподавания, правда медленнее, меняется и сама педагогика, так как меняются знания об ее объекте — ученике, расширяются и углубляются представления о человеке, о личности. Мы на границе новой науки, новой психологии, новой педагогики. Эйнштейн сказал: «Открытие новой теории подобно восхождению на гору, когда взору открывается новая и более широкая панорама». И сегодняшнее занятие — расширение панорамы педагогического влияния!

Итак, мир — это энергия, она всюду. Человек — ее материализация. Между миром и человеком постоянное взаимодействие, обмен энергиями. Непреложное свойство энергии — движение.

Осознав сущность энергетических потоков, вы придете к пониманию сущности мозга и увидите, что вдохновение, молитва и интуиция не являются чем то сверхъестественным, а подчиняются законам, которые могут быть применены по воле человека. Как и все известное во Вселенной, силы мозга управляются законами, которые, если освободить от научной терминологии и представить в доступном виде, понять может каждый.

### **ПРАКТИКУМ 2: КРИТИЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД НА ДИСЦИПЛИНУ**

Проблема дисциплины в массовой школе при большом наполнении классов есть всегда. Следуя изложенной логике, проанализируйте ваши желания и привычный образ мыслей. (Можете дополнить своими примерами.)  
Время выполнения 3 минуты. По завершении сопоставить с ниже приведенными привычными мыслями, не способствующими дисциплине

*Только желаниями делу не поможешь.* Надеяться на то, что что то изменится, не имеет смысла. Недостаточно про сто напряженно работать, даже по 12–15 часов в сутки. Для того, чтобы сдвинуться с места, необходимо — и это довольно серьезное условие — *изменить свой образ мыслей.*

Вы хотите изменить обстоятельства? Для этого развивай те в себе необходимый тип сознания. Преуспевающий чело век всегда обладает сознанием, настроенным на успех. Обеспеченный человек вырабатывает у себя сознание, настроенное на богатство. Получающий гранты сознает, что он этого достоин. Это их образ *мыслей.*

Предвижу возражения: «Преуспевающему легко думать об успехе; богатому — о богатстве, но у меня то нет ни успеха, ни достатка

Жизненные обстоятельства тянут вниз». (Вот ОН — истинный образ мыслей!)

**НЕВЕРНО!** В корне неверно! Вам мешают не жизненные обстоятельства и не сложившаяся ситуация. Единственное, что вам мешает и не дает добиться успеха, — ваши мысли. Немного усилий и практики — и вы научитесь управлять своими мыслями и вырабатывать желаемый тип сознания. Окружающая действительность может измениться только *после* того, как вы выработаете новый тип сознания, но никак не раньше. *Новое сознание должно идти впереди.*

Вы уже решили, чего хотите от жизни? Здоровья? Успеха? Богатства? Счастья? Духовности? — Работайте над соответствующим сознанием. Все существует в виде потенциальной возможности. От вас требуется лишь обеспечить заряд необходимой энергии, и тогда ваша цель станет реальностью. Отрадно узнать, что независимо от жизненных обстоятельств в прошлом и настоящем, независимо от предыдущих неудач ваша жизнь изменится, если вы будете подпитывать энергией свое сознание! Эта удивительная возможность дана каждому, и каждый из нас вправе либо воспользоваться ею, либо ее упустить. Для этого не нужно иметь много денег или обладать какими то особенными таланта ми. От вас потребуется лишь решимость затратить некоторое время и приложить необходимые усилия, чтобы развить соответствующий тип сознания. И все! Остальное произойдет автоматически. Но знайте: вам придется пожинать плоды либо своего мысленного труда, либо своего собственного бездействия!

Именно мозг создает окружающую вас действительность... В личной жизни — это ваше личное дело, а тут у нас действительность общая — образовательное пространство. Вот сейчас и определите, каким вы его хотите видеть, что вы можете привнести в это образовательное пространство, каким вы себя представляете в этом образовательном пространстве. Престиж, слава, успех? Они ваши как результаты действия! Тень, придирки, выговоры? Тоже ваши — как результаты бездействия! Вы можете соглашаться или не соглашаться с этим, но действительность, в которой вы живете, всегда будет создаваться вашим мозгом.

**Практикум 3: *Действительность образовательного пространства вокруг меня.***

Определитесь и запишите хотя бы три профессиональных желания, то, что вы хотите иметь: грант, уважение коллег, лучшие показатели ЕГЭ, поощрение за классное руководство и др., то есть то, чего вы считаете себя достойным. После того как закончите, подумайте и в соседней графе попробуйте сформулировать характеристики нового сознания. Время работы 5 минут.

(Если не успели с характеристиками нового сознания, то это будет домашнее задание).

## **ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Перед вами ваши профессиональные цели, планы, обозначенные задачи. И что теперь с ними делать? Менять ожидания! Как? Чтобы изменить ожидания, нужно вспомнить о принципе всеобщей взаимосвязи.

## **REFERENCES**

1. Айзенк Г., Вильсон Г. «Как измерить личность»
2. Абдульханова-Славская К. А. «Деятельность и психология личности. М., 1998.
3. Аугустинавичюте А. О «Соционика ментология и психология личности. 1996.

---

**“Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”**. Ilmiy jurnal. Uzbekistan: www.oriens.uz. 2021. - 430 b.

**ISSN 2181-1784**

Mazkur to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6108-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida “Oriental Renaissance” MChJ tomonidan ta'asis etilgan **“ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES (oriens.uz)”** ilmiy jurnalining 6-soni o'rin egallagan.

**Mas'ul muharrir:**  
**falsafa fanlari nomzodi, dotsent M. Qodirov**

**Ilmiy kotib:**  
J.B. Sulaymonov  
SH.N. Pulatov  
I.R. Ikramova

**Texnik muharrir:**  
Sh.S.Jurayev

